

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

B. Bazarbayev, K. Xidirova,
G. Tashmuxamedova, N. Marizayeva.

RAQAMLI

FOTOGRAFIYA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.

Toshkent – 2017

UO‘K 77:004.932(075.8)

KBK 37.94ya73

R 32

B. Bazarbayev, K. Xidirova, G. Tashmuxeamedova,

N. Marizayeva. Raqamli fotografiya. T.: «Aloqachi», 2017, 346 bet.

ISBN 978–9943–5144–4–7

“Raqamli fotografiya” fanida yaratilgan ushbu darslik kinoteleoperatorlik va television texnologiyalari ta’lim yo’nalishlari uchun mo’ljallangan. Darslikda fotografiya san’atining rivojlanish bosqichlari hamda raqamli fotografiyaning asosiy elementlari, kompozitsiya va turli janrlarda tasvirga olishning turli hil usullari haqida keng yoritilgan.

Ushbu darslik talabalar badiiy fotografiya asarlarini yaratishda bilm va ko’nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

* * *

Данный учебник по предмету «Цифровая фотография» разработан для направлений кинотелеоператорство и телевизионные технологии. В этом учебнике изложено развитие искусства фотографии, основные элементы цифровой фотографии, композиция и расширен метод съёмки в различных жанрах.

Настоящий учебник предназначен для художественной фотографии и даёт студентам прочные знания и навыки при создании качественных изображений.

* * *

This textbook on the subject of "Digital photography" is designed for areas cameraman and television technology. This book outlines the development of the art of photography, the basic elements of digital photography, composition and extended method of shooting in a variety of genres.

This tutorial is designed for art photography and provides students with solid knowledge and skills in the creation of high-quality images.

Taqrizchilar:

A.I.Ismoilov – O‘zDSMI, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, professor;

M.M.Soliyev – TATU, “Telestudiya tizimlari va ilovalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi;

A.A.Ganiyev – Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “O‘zbekfilm” kinostudiyasi oliy toifali kinooperator-kinorejissor.

UO‘K 77:004.932(075.8)

KBK 37.94ya73

R 32

ISBN 978–9943–5144–4–7

© «Aloqachi» nashriyoti, 2017.

Kirish

Kinoteleoperatorlik va television texnologiyalari bo'limida o'qitiladigan fanlar ichida "Raqamli fotografiya" fani alohida ahamiyatga ega fanlar sarasiga kiradi. Mazkur fan foto va kino san'atining fundamental fani hisoblanadi. Unda fotografiya asoslari, yoritish san'ati, raqamli fotografiyaning asosiy elementlari, bir so'z bilan aytganda, raqamli foto san'atining alifbosi o'rganiladi. Sanab o'tilgan jihatlarni amaliy nuqtai nazardan o'rganmay turib, kinoteleoperatorlik mahoratiga ega bo'lish mumkin emas.

Fan doirasida dastlab asosiy tushunchalar, ularning mohiyati o'rganilsa, keyinchalik talaba fotografik mahoratning nisbatan murakkab bo'lgan tomonlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Shu bilan birga kadrning koloristik yechimi, reportaj tasvirga olish, fotomontaj kabi tushunchalar bilan yaqindan tanishadilar.

Fanning o'ziga xos xususiyatlari talabalarga predmetni mustahkam o'zlashtirish bilan bir qatorda, o'z ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish, sharoitini yaratadi, foto san'at sohasida o'z madaniyatini yanada rivojlantirish, ko'ra olish qobiliyatini yanada takomillashtirish, hayotni fotografiyada aks ettira olish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunga kelib raqamli fotografiya va uning tarkibiy qismlari foto san'atning ilg'or turlaridan biri hisoblanadi. Raqamli foto tasvirga olishlar esa ijodiy hamda ishlab chiqarish sohaslarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shu bois bo'lajak kinematograflarda g'oyaviy-badiiy madaniyat, yuqori darajadagi professional malaka hamda ko'nikma bilan bir qatorda, kinematografiyaning o'ziga xos texnologiyasi va imkoniyatlarini o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur darslikni yaratishda AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya kino oliygohlarida o'qitiladigan mutaxassislik fanlaridan yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni chuqur o'rgangan holda yaratildi.

Talabalarni, ya'ni sohaning bo'lajak mutaxassislarining kelajakda kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari mazkur fanning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, fan kinematografiya sohasidagi bo'lajak mutaxassisning film yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi. U talabaga kinofilmning badiiy va texnik jihatdan sifatli bo'lishini ta'minlovchi jihatlarni o'rgatadi. Shuningdek, bu fanning o'ziga xos xususiyati shuki, u talabalarga predmetni mustahkam o'zlashtirish

bilan bir qatorda, o'z ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish sharoitini yaratadi.

Talabning mustaqil ishlashi va kelgusida o'z professional bilimlarini yanada rivojlantirishi uchun asos vazifasini o'taydi. Nazariy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish malakasini shakllantirish bo'lajak mutaxassislarning professional axborotlarni o'zlashtirishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. o'z nazariy xulosalarining ishonchliligini isbotlay olish, badiiy muammoni tahlil qilishda individual yondashuvlar, ma'lumotlar mantiqiy uzviyligi kabi jihatlar professional tayyorgarlikning mukammalligini ta'minlaydi.

Fotografiya dunyoning ehtirossiz ko'zgusi emas, rassom fotosan'atda aks ettirayotgan borliqni tasvirning rakursi, yorug'lik, nur va soyaning taqsimlanishi, tabiatning o'ziga xosligini berilishi, tasvir vaqtining to'g'ri tanlay bilish orqali, o'zining shaxsiy qarashlarini bildirish qobiliyatlariga egadir. Fotorassom estetik jihatdan o'zlashtirilayotgan obyektga nisbatan, boshqa bir san'at turidagi rassomdan faollik darajasi kam emas. Suratga tushurishning texnikasi borliqni tasvirlashni yengillashtiradi va soddalashtiradi. Shu asnoda o'rta haqqoniy tasvirni minimal vaqtni sarflagan holda olish mumkin. Rangtasvir san'ati borasida esa bunday deyish qiyin.

Fotografiyaning texnik vositalari haqqoniy tasvir olishda inson urinishlarini kam sarflaydi.

Fotografiyani badiiy tomondan ko'rar ekanmiz, uning hujjatli tabiati borasida to'xtash lozim. Fotografiya, ham zamondoshning badiiy portreti, ham bierzumda press-foto (hujjat), ham fotoreportaj bo'lishi mumkin. Albatta, har bir axborot vositasidagi suratdan yuqori san'atni talab qilish mumkin emas, shu bilan birga, har bir yuqori badiiy asarda faqatgina videoaxborot va ftohujjatni ham ko'rish mumkin emas. Hujjatlilik, asllik, haqqoniylik – fotografiyaning asosiy xususiyatlaridan. Ushbu xususiyat negizida fotografiyaning zamonaviy madaniyatga global ta'siri namoyon bo'ladi. Fotografiyaning boshqa xususiyatlari, o'ziga xosligi, madaniyatga bo'lgan ahamiyati esa, fotosan'atning boshqa san'at turlari bilan taqqoslaganda oydinlashadi. San'atning barcha turlarida qo'llangan ushbu xususiyat, har safar o'zining spesifikasidan chiqqan holda, yangicha ko'rinishni ifoda etgan. San'at sifatidagi fotografiyaning estetik amaliyot imkoniyatlarini kengaytirgan va boyitgan.

Badiiy stil – fotografiya nazariyasi va amaliyotidagi asosiy muammolardan bo'lib, janr masalalarida hal etilmaydi. "Empiricheskij" aspektda stil – bu ham pastel, akvarel kadrlar, ham grafik jiddiy


fotoasarlari, ham rangtasvirga hos bo'lgan mato ustidagi moybo'yoq texnikasiga o'xshash asarlari. Stilning nazariy muammosi estetikada yetarli darajada ishlab chiqilgan, shunday bo'lsada fotografiyaga nisbatan belgilash mumkin. Fotografiyada badiiy stilning mavjudligi va mavjud emasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Naturalistik va hujjatli olgan kadr, obyektga kirgan barcha mayda detallarni aks ettiradi. Bordiyu shu kabi suratni muallif tomondan o'zgacha yondashib, badiiy stilistik jihatdan ishlov berilsa, mutlaq boshqa asar vujudga keladi. Yo'nalish, xarakter va "ko'zgu" sifatli borliqni naturalistik ifodasidan voz kechuvchi, muallifning kuchi, fotoasardagi stilni belgilaydi. Stil individual yoki ma'lum bir maktab, an'ana, badiiy dasturga xos bo'lishi mumkin. Fotosanatning xarakteristikasi assotsiativ-badiiy bo'lishi ham mumkin.

Fotoijodkor texnika va estetikadan bohabar bo'lib, aniqlikni xush ko'ruvchi, garmoniyani his etuvchi shaxs sifatlarini o'zida mujassamlashi kerak, chunki u, davrning asosiy kuychisi va uning zimmasiga alohida mas'uliyat yuklatiladi. Estetika rassomga omad keltiruvchi retseptni bermaydi, faqatgina uning izlanishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, natijada esa, muallifning iste'dodi va mehnatiga bog'liq. Ijod jarayonining yakuniy bosqichida estetika suratning badiiy bahosini tashkil qilishga yordam beradi.

I BOB. RAQAMLI FOTOGRAFIYANING ASOSIY ELEMENTLARI

1.1. An'anaviy fotografiyadan raqamli fotografiyaga o'tish

Fotografiya so'zi grekcha "Foto – nur", "grafiya – yozmoq", ya'ni nur bilan yozmoq began ma'noni bildiradi. Fotografiya san'at turi bo'lib, badiiy ijod turi: fotografiya asrlari (surat) vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san'at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat foto san'atida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol qilib, (fizika, kimyo, optika) va texnikaning ma'lum yutuqlari zahirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnikaviy san'at tarixida dastlabki bo'lgani bilan ajralib turadi. Dunyoda birinchi bo'lib, fotografiyaga qadam qo'yanlar va fotografiya ixtirochisiga aylanganlar.



Lui Jak Dagger u asli rassom bo'lib, 1787-1851-yillarda yashab o'tgan. Uning dastlabki suratlari rangtasvirning an'anaviy natyurmort, manzara va portret janrlarida yaratildi.

Birinchi bo'lib, surat olganlardan biri fransiyalik Jozef Nissifor Nepsdir. U 1765–1833-yillarda yashab o'tgan. Neps o'zining birinchi urinishida, ya'ni 1826, yilda birinchi suratini chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Shular qatorida angliyalik Vilyam Foks Genrix Talbot 1800–1877-yillarda yashab oʻtgan. U oʻzining birinchi suratini 1835-yilda olishga muvaffaq boʻlgan.



Natyurmort (1897).



Geliografik tasvir (1826).

Ilk davr fotografiyasi ochiqdan-ochiq rangtasvir sanʼatiga taqlid qildi. XIX asr tasviriy sanʼatidagi fotografiyada oʻzining ikkinchi nusxasiga ega boʻldi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yoʻnalish asoschilari foto sanʼatin yuksak tasviriy madaniyatga erishishi nafis sanʼatlar bilan uzviy bogʻlanishi uchun qariyb uch asr davomida taniqli ijodkorlarning mehnati singdi.

Foto sanʼatining tarixida AQSHlik E.Maybridj tomonidan turli koʻrish nuqtalari bir nechta kamerada suratga olgan, suratlari muhim voqea boʻldi. Bu yangilik tufayli XX asr birinchi choragida foto sanʼatida real borliqni yangicha talqin qilishga qiziqish ortdi. Ikkinchi jahon urushida fotoreportajlar foto sanʼatining yangi taraqqiyoti bosqichi boʻldi. Urush fotoyilnomalrani yaratishda, turli mamlakatlar repartyorlari oʻz hissalirini qoʻshdilar.

1950–80-yillar hujjatli foto sanʼat jahonning eng yirik agentliklari tomonidan joʻnatilgan repartyorlarning sayyohatda yaratgan janrli fotografiya rivoji bilan xarakterlanadi. Oʻzbekiston hududiga XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropadan kelgan koʻplab sayyoh va tijoratchilar hamda boshqa soha egalari yurtimizning bebaho madaniy merosi, ayniqsa, meʼmorchilik obidalari (erigatsiya) sanʼati nafis hunarmandchilik sanʼati va odamlarning yashash tarzi madaniyatini aks ettirgan va ularni tarqatganlar.



Dastlabki o‘zbek foto ustalaridan biri xivalik Xudoybergan Devonov bo‘lib, u nafaqat foto usta, qolaversa kinooperatorlik bo‘yicha ham o‘ziga xos mahorat egasi edi. X.Devonov 1878–1914-yillarda yashab o‘tgan. U 1907–1908-yillarda Moskva va Peterburgdan teleskop, gramafon, foto va kino apparaturalarni olib keldi.

Xiva va Urganch bozorlarida film namoyish qildi va o‘zi foto laboratoriya tashkil qildi. Demak, uning fotogrofluk va operatorlik faoliyati rus ijodkorlari bilan bir paytda boshlangan. U suratga olgan:

“O‘rta Osiyoning me‘moriy boyliklari”, 1913-yil.

“Turkiston ko‘rinishi”, 1916-yil.

“Xiva va xivaliklar”, 1916-yil.

Suratga olingan, demokratik va ma‘naviyatparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan.

Xudoybergan Devonov sobiq Xorazm Respublikasida maktablar, intirnatlar ochib, yoshlarga foto-kino haqida ta‘lim bergan va shu sohaga oid ishlarga boshchilik qilgan.



O‘zbekiston foto san‘atining asoschilaridan yana biri – M.Z.Pensondir. U XX asrning 1920-yillaridan 50-yillarigacha O‘zbekiston fotoyilnomalarini yaratishga katta hissa qo‘shgan. Uning “O‘zbek madonnasi”, “O‘g‘il savod chiqardi” va shu kabi boshqa suratlari mashhurdir. 1940 yillarda foto san‘atining usullari va janrlari rivoj topib kengaya boshladi.

Fotografiya turli sohalar bo‘yicha ixtisoslashib bordi. Masalan, Ye.Yuditskiy – me‘morchilik;

K.Romiyev – teatr;

A.Polixov – portret;

R.Alibekov – bolalar hayoti;

R.Shamsiddinov – mayishi;

S.Beznosov – ma‘ishiy;

S.Mahkamov – madaniyat bo‘yicha ixtisoslashdilar.



XIX asrning ikkinchi yarmida yer yuzining juda ko‘p joylarida jumladan, Amerika, Angliya, Belgiya, Italiya, Fransiya va Rossiyada rasmni harakatga keltirish uchun urinishlar avj oldi. Nihoyat 1895-yilda fransiyalik aka-uka Lui va Ogyust Lyumerlar bunga muvaffaq bo‘ldilar. Ular rasmni harakatda ko‘rsatuvchi apparat kashf etib, 1895-yilning 28 dekabrda Parijdagi Grant kafe binosining yerto‘la qismida o‘z kashfiyotlarini namoyish etdilar. Ana shu kashfiyot keyinchalik sinematograf yoki kinematografiya deb nomlandi. Aka-uka Lyumerlarning oq choyshabga nur taratish orqali namoyish qilgan lavhalari “ishchilarning Lyumer fabrikasidan chiqishi”, “Poyezdning La Siota stansiyasiga kelishi”, “G‘isht devorning qulashi”, “Shalloba bo‘lgan murob”,

“Bolaning ovqatlanishi” singari syujetlardan iborat edi. Bu syujetlar asosan Lyumerlar xonadonida ro‘y bergan voqealardan tashkil topgan edi.

Kashfiyot Lyumerlar uchun daromad manbai bo‘lib xizmat qildi. Avvaliga Grant kafe binosining o‘zida ertadan kechgacha harakatdagi rasmni ommaga namoyish qilib, kuniga 2000–2500 frankga qadar pul ishlagan bo‘lsalar, oradan ko‘p vaqt o‘tmay, kashfiyotlarini dunyoga taratish payisha tushdilar. Shunday qilib, sinematograf Amerika, Yevropa mamklakatlari jumladan, Rossiya hamda O‘rta Osiyo mintagalariga yoyildi. 1896-yilning 4-mayida sinematograf birinchi marta Peterburgdagi Akvarium bog‘ida “Alfred podshoh Parijda” degan operattannig ikkinchi va uchinchi pardalari orasidagi tanaffus vaqtida namoyish qilindi. Oradan ikki hafta o‘tgandan keyin Moskvadagi Irmitaj bog‘ida ham seans takrorlandi. Yana biroz vaqtdan keyin shu seans Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan butun Rossiya yarmarkasida ham namoyish qilindi.


Kinomatografiya Rossiyada juda tez tarqaldi. Shubhasiz haraktdagi rasm yer yuzining barcha joylaridagi kabi Rossiya xalqini o‘ziga rom qildi. 1907-yilga qadar Rossiyaga kino asosan Fransiyaning “Pote” va “Gomen” firmalaridan, shuningdek, Angliya, Italiya va Germaniyadan olib kelib turildi. Rossiyaning juda ko‘p shaharlarida doimo kinoteatrlar ochilib mahalliy prokat kontralari vujudga keldi.

Peterburglik fotograf A.Drankov 1907-yilda kinotel ochganligini e‘lon qildi. 1908-yilda esa u “Stipka Razin va knyaz qizi” nomli filmni ishlab chiqdi. 1908-yilda A.Xanjankov degan shaxs Rossiyada birinchi bo‘lib Moskvada chinakam kinofabrika ochdi. 1909-yilda “Savdogar Kalashnikov haqida qo‘shiq”, 1910-yilda “Gazlamachilar”, “Vadim” nomli filmlar yaratdi. Keyinchalik birin-ketin “Buyuk Pyoterning hayoti va o‘limi”, “Napoleon Rossiyada”, “Lomonosov” singari tarixiy filmlar yaratdi. 1912–1915-yillarda Rossiyada kinofilmlar ishlab chiqarish tez sur‘atda o‘tdi. 1912-yilda 101 ta, 1913-yilda 128 ta, 1914–1915-yillarda 300 dan ortiq filmlar ishlab chiqarildi. Lekin ularning ko‘plab burjuaziya bozori uchun ishlangan buzuqlik, oldi-qochdi, nomusga tajovuz, mushtlashish, otishma singari bema‘niliklardan iborat bo‘lgan filmlar edi. Bular orasida ba‘zan ilg‘or g‘oyalarni tarqatuvchi asarlar ham uchrab turardi. 1912-yilda ekranlarga chiqarilgan “Anfisa”, “Momaqaldiroq”, “Sepsiz qiz” singari filmlarni o‘z davri uchun badiiy jihatdan yetuk edi. 1915–1917-yillarda “Dvoryanlar uyasi”, “Natasha Rostova”, “Qor qiz” kabi g‘oyaviy jihatdan o‘tkir kinoasarlari ekranlashtirildi. Mazkur filmlar V.Gardin, Y.Pratazanov, V.Starevich singari ijodda realistik pozitsiyada turgan ilg‘or kino rejissyorlar yaratdilar.

Turkiston o'lkasiga harakatdagi rasm birinchi marta 1897-yilda kirib keldi. Parijda Lyumerlar kinofirmasi tashkil qilganiga atigi ikki yilcha bo'lgach, o'sha vaqtdagi xalq iborasi bilan aytganda, bu "Dajjol o'yinning" uzoq Turkistonga kirib kelishi ham ajablanarli, ham quvonarli edi. Xuddi shu yili chet ellik kinooperatorlar Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazmning osmono'par qadimiy obidalarni, xalq yaratgan talaygina ko'rkam koshonalarni lentalarga muhrlab qaytdilar. O'shangacha sayyohlarning xotiralaridagina ma'lum bo'lgan O'rta Osiyoning qadimgi obidalari endi jahon tomoshabinlariga ko'z-ko'z qilina boshlandi. Rus kinokarchalonlari asrimizning boshida Turkistonning deyarli barcha katta shaharlarida doimiy kinoteatrlar tashkil etishdi. Shunaqa kinoteatrlardan birinchisi Toshkentda 1908-yilda ochildi. O'rta Osiyoda dasilabki kinoidora 1909-yilda Maks degan bir shaxsning tashabbusi bilan tashkil etildi va uning daromad manbaiga aylanib qoldi. Bu idoraning xodimlari doimiy kinoteatrlarga kino tarqatish bilan cheklanmay uzoq qishloqlarga, yaylovlarga ham filmlar olib borib namoyish qila boshladilar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, xivalik Xudoybergan Devonov 1907–1908-yillarda Peterburg va Moskvadan kinofoto apparaturalar olib kelib, kinofoto ishlarini yo'lga qo'ydi. 1912-yilda o'zbek kinostudiyasi tashkil etilgandan keyin X.Devonov Toshkentga taklif etildi va unga Xorazm vohasida kino ishlarni olib borish topshirildi. Ko'p vaqt o'tmay Devonov butunittifoq fotokinomatografiya jamiyati (sov kino)ning muxbiri qilib tayinlandi. U Moskvaga Xorazm hayotidan olingan "Sho'rko'l", "Ishchi ayol", "1929- yil" kabi syujet va lavhalar yuborib turdi. U suratga olgan lentalarining ko'pi hanuz topilgani yo'q. X.Devonov yashab turgan uy 1970-yilda Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyining filialiga aylantirildi.


Hozirda, yurtimizda Xudoyberdi Devonovga o'xshagan fotoustalarning shogirdlari ijod qilib kelmoqda. Bunga misol qilib, 2002-yilda O'zbekiston badiiy akademiyasi tarkibida Toshkentfoto uyi tashkil etilganini aytishimiz mumkin. Bu yerda F.Qurbonboyev, R.Shagayev, N.Muhammadjonov, K.Minaychenko, M. va D.Penson, T.Zelma, V.Viatkin, Tursunali, Sh.Usmon, V.An, V.Sokolov, R.Yarulin kabi fotoustalar O'zbekiston foto san'atida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.



Fotoapparat. Fotokamera suratga olish apparati,

suratga olinadigan obyektlar optik tasvirini fotomateriallarning yorug‘lik sezgir qatlamiga tushuruvchi optik-mexanik qurilma. Fotosuratga olishda obyektning optik tasviri, optik tizimlar yordamida fotomateriallarning yorug‘lik sezgir qatlamiga ma‘lum vaqt oralig‘ida proyeksiyalanadi.

Millodan avvalgi 350 yillarda yunon olimi Aristotel kichik teshik (masalan, darcha)dan qorong‘u xonaga tushayotgan yorug‘lik nurlaridan xonaning qarama-qargshi devoridan tashqaridagi darcha oldidagi narsalarning yorug‘lik tasviri hosil bo‘lishi mumkin degan edi. XVIII asr o‘tgandan keiyn Leonardo da Vinchi bu hodisadan turli narsalarning tasvirini qog‘ozga chizishda foydalangan. 1611-yilda nemis astronomi I.Kepler ikki linzadan iborat teleskopik tizimni yasadi. 1840-yilda avstraliyalik olim I.Pisval bir necha linzadan iborat optik tizimni (obyektivni) hisoblab chiqdi va uni nemis optigi P.F.Foixtlendir yasadi. XIX asrning dastlabki yillarida Jiro kassetasi katta bo‘lgan yog‘och fotokamerani ko‘plab ishlab chiqardi. 1842-yilda Germaniyada metall korpusli fotokamera ishlab chiqarila boshladi. 1888-yilda amerikalik ixtirochi J.Istmen dunyoda birinchi marta rolikka o‘ralgan fotoplyonka o‘rnatilgan f.k. yaratdi. 1924-yilda Leys firmasi kichik formatli “Leyka” fotokamerasini, 1970-yillarda ekspozitsion parametrlri yarim avtomatik va avtomatik o‘rnatilgan obyektivni avtomatik fokuslanadigan, fotozatrovi elektron boshqariladigan, plyonkani tortish mexanizmi elctron yurutmali fotokameralar yaratildi.



Fotoapparat tuzilishi:

- 1) fotoplyonka;***
- 2) korpus;***
- 3) zatvor;***
- 4) obyektiv;***
- 5) diafragma.***

Hozir fototasvirni bir zumda chiqarib beradigan uyali telefon appariga singdirilgan fotokameralar mavjud. Chet elda fotokamera ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 50 dan ortiq konseren firma va zavodlar bor. “Istmen kodi “palaroid”, “Alfagivird”, “Nippon-kogaku”, “Kennen”, “Asaxi optikal”, “Konsirovki foto”, “Leyts”, “Rolli”, “Karl braun”,

“Minoks”, “Pentakon”, “Xasel blayd”, “Krasnagorsk ze-di”, “Loma” birlashmasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Raqamli fotografiya

Fotografiya san‘at turi bo‘lib, surat vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san‘at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat, foto san‘atida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol bo‘la oladi va texnikaning ma‘lum yutuqlari zaminida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnikaviy san‘at tarixida dastlabki bo‘lgani bilan ajralib turadi.


Ilk davr fotografiyasi ochiqdan-ochiq rangtasvir san‘atiga taqlid qila boshladi. XIX asr tasviriy san‘atidagi fotografiya o‘zining ikkinchi nusxasiga ega bo‘ldi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yo‘nalish asoschilari foto san‘atini yuksak tasviriy madaniyatga erishishi nafis san‘atlar bilan uzviy bog‘lanishi uchun qariyb uch asr davomida taniqli ijodkorlarning mehnati singdi.

Bugungi kunga kelib raqamli fotografiya alohida ahamiyat kasb etadi va foto san‘atining ilg‘or turlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli fotografiya shubxasis yaxshi kashfiyot bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yosh yetishib kelayotgan talabalarimizga uning qulayligi shundan iboratki, olingan tasvirni ko‘rish, o‘chirish va xattoki kompyuter orqali turli programmalar yordamida tasvirni tiniqligini yaxshilash va unga turli bezaklar berish imkonini beradi.

Raqamli fotografiyaning qulaylik tomonlari va uning imkoniyatlari hozirgi zamon talabiga mos keladigan zamonaviy texnologiyalarni foto va kino san‘atida qo‘llash imkoniyatini oshirish malkali mutaxassislar yaratish maqsadida o‘rganiladi.

Ko‘pchilik xavaskor ijodkorlar raqamli fotografiyani go‘yoki tugmani bosib osongina tasvir olish deb bilishadi. Ammo bu yangi zamon texnologiyasi an‘anaviy fotografiya singari professionallikni talab etadi.



Eng sara raqamli fotoapparatlar keng imkoniyatlarga, kasbiy plenkali fotoapparatdan ko‘ra mukammalroq bo‘lgan turli uskunalarga ega bo‘ladi. Saqlanish va fokus masofasini avtomatik moslashtiruvchi tizimlar fotosurat olish jarayenining natijalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq to‘liq avtomatlashtirilgan apparat fotosuratga olish jarayenini nazorat qilish yoki ayrim amallar yordamida berilgan avtomatik xususiyatlar orqali tasvirlarning optimal sifatini ta‘minlashga imkon beradi

An‘anaviy va raqamli fotografiyaning farqi shundaki, raqamli fotoapparatda plenklar o‘rniga yorug‘likka chidamli PZS-matritsa qo‘llaniladi. U yorug‘likni rangli nuqtalar – piksellarga aylantiradi. Ko‘pgina fotoapparatlar “megapikselli” chunki ular million (M) pikseldan ortiq fayllarni qabul qilish xususiyatiga ega.


Ilk raqamli fotoapparat 1991-yilda Sony kompaniyasi o‘zining PZS matritsali “Sony Mavica” apparatini dunyo bozoriga chiqardi.

Lekin bu apparat to‘liq raqamli deb bo‘lmaydi. Keyinchalik Kodak kompaniyasi o‘zining to‘liq raqamli funksiyani bajaradigan DCS 100 apparatini ishlab chiqardi.

Bugungi kun foto san‘atida zamon talabiga mos keladigan yangidan-yangi fotoapparatlar yaratilmoqda.



Ushbu zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishda kino va televideniya keng qo‘llanilishda yuqori darajadagi professional malaka hamda ko‘nikma bilan bir qatorda kinematografiyaning o‘ziga xos texnologiyasi va imkoniyatlarini o‘rganish zarurati tug‘ilmoqda. Qolaversa, kinematografiya sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning foto yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilimga va tajribaga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.



1. *Obyektiv (predmetdan qaytayotgan yorug'lik);*
2. *Diafragma;*
3. *Malumot yetkazuvchi ekran;*
4. *Prizma;*
5. *Videoqidiruv;*
6. *Oyna;*
7. *Zatvor;*
8. *Matritsa.*

(Plyonkali fotoapparat)

Plyonka

Bu kamerada tasvir obyektiv orqali foto tasmaga tushuriladi.



Obyektiv

Obyektivning funksiyasi – predmetlardan qaytayotgan yorug'likni plyonkaga uzatadi.

(Raqamli fotoapparat)

Raqamli fotoapparat yaratilgan rasvirni raqamlashtirib yozib oladi.

Obyektiv predmetlardan qaytayotgan yorug'likni yig'ib PZS matritsaga uzatadi.



Raqamli fotoapparatning ishlash tartibi plyonkalikdan unchalik farq qilmaydi. Ko'rinishidan har ikkala fotoapparat deyarli birxil. Ularning har ikkalasida obyektga qaratilgan obyektiv va foto tasvirga olish uchun zatvor tugmasi mavjud.

Ularning farqi ichki mexanizmidadir. Raqamli fotoapparatda plyonka o'rnatilgan joyda yoritish sensor to'ri bilan qoplangan kichikroq plastinka joylashgan. Sensorlar piksel (tasvir elementi so'z birikmasining

qisqartmasi) deb nomlanadi. Sensor kompyuterda ham mavjud bo‘lib, displeydagi eng mayda elementlardan iborat va ekrandagi tasvirning o‘lchov birligi hisoblanadi. Eng sodda raqamli fotoapparatda million atrofida piksel (megapiksel) bo‘ladi. Takomillashgan fotoapparatlarda bir necha millionlab piksel bo‘ladi. Piksellar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik ko‘p mayda detallar bo‘lishi va shunchalik kattaroq hajmda olish imkonini beradi.

Har bir sensorda filter bo‘ladi, u rangli plyonkada bo‘yoq moddasi sifatidagi qizil, yashil va ko‘k ranglarni o‘tkazadi. Har bir piksel tasvirning ma‘lum nuqtasida turli miqdordagi ranglarni to‘playdi.

Zatvor tugmasi bosilganda fotoapparat har uch rangdan keraklisini har bir piksel orqali aks ettiradi. Kopyuterdagi singari fotoapparatdagi mikro protsessor rang haqidagi axborotni raqamli faylga yig‘adi va faylni fotoapparatdagi xotira qurilmasiga saqlab qo‘yadi. So‘ngra yakuniy faylni kopyuterga o‘tkazish mumkin va grafik dastur yordamida qizil, ko‘k va yashil axborotlashtirilgan millionlab elementlarni nigohiy tasvirda qayta yaratish imkonini beradi.

Zatvorni ishga tushurish vaqti

Plyonkali fotoapparat zatvor knopkasi bosilishi bilan tasvirni muhurlab qo‘yadi. Raqamli fotoapparatga esa tasvirga ishlov berish va saqlab qo‘yish uchun bir necha sekund vaqt talab qilinadi. Shu sababli knopka bosilishi va fotoapparat tasvirni muhirlashi orasida bir yoki ikki sekund vaqt o‘tishi mumkin. Texnika terminologiyasida bu zatvorni ishga tushurish vaqti deyiladi. Masalan, sport voqealari yoki bolalar o‘yinini suratga olayotganda niyat qilingandan boshqa tasvirga ega bo‘lishi mumkin. Negaki voqealar tasvirining ketma-ketligini suratga olayotganda boshqa fotografiyaga ega bo‘lishi mumkin (ba‘zi raqamli fotoapparatlar bu cheklanishni yengib o‘tish xususiyatiga ega).

Hotira qurilmasi hajmi

Hotira qurilmasining hajmi yana bir xafli holat hisoblanadi. Raqamli fotoapparatlar fotografiyalarni xotira kartalarining bir necha turlarida saqlaydi. Bu kartalar cheklangan xotira qobilyatiga ega. Agar karta to‘lib qolgan bo‘lsa, suratlarni o‘chirish kerak, boshqa karta bo‘lsa uni qo‘yish zarur yoki tasvir kompyuterga o‘tkaziladi, shunda kartani tozalab olish mumkin. Plyonkali fotoapparatda boshqa plyonka qo‘yiladi. Suratga olish xtirasi narxi tushib boryapti, lekin har bir karta hozircha fotoplyonkaga qaraganda qimmatroq. Shuning uchun kompyuter yaqin bo‘lmagan paytda

fotoapparatdan foydalanish lozim bo'lganda vaqtinchalik saqlaydigan qo'shimcha karta olish zarur bo'ladi.

Batareyalar

Barcha zamonaviy plyonkali fotoapparatlarda avtomat ekspozitsiya va fokuslashni boshqarish hamda elektronikani harakatga keltirish uchun batareyadan foydalaniladi. Bu ishlar elektir quvvatini ko'p talab qilmagani uchun batareya bir yoki undan ko'proq ishlatilishi mumkin. Raqamli fotoapparatlar esa barcha vazifalarni bajarish batareya quvvatidan foydalanadi, shuning uchun batareyalar bir necha soatga yetadi xolos. Raqamli fotoapparatda plyonkalidan ko'ra ko'proq batareya zarur bo'ladi. Bunda suratga oluvchi elektr manbadan uzoqqa keta olmay bog'lanib qoladi. Shuning uchun yo ko'proq batareya olib yurishga to'g'ri keladi, yoki fotoapparatni tez-tez elektir tarmog'iga ulab turish kerak bo'ladi. Shu sababli Appalach so'qmog'i bo'ylab yuqoriga o'rash kerak bo'lsa, yaxshisi plyonkali fotoapparat olgan ma'qul.

Optik va raqamli kattaytirish

Fotoapparatning fokusli zumi suratga olish obyektiga yaqinlashmasdan uni suratga olish imkonini beradi. Bunda obyektivga ustama qo'yilsa (mutaxassis fotograflar buni fokus masofani o'zgartirish deb ataydi), bu optik zum deb yuritiladi. Bu fotoapparatning elektron chizmasi amalga oshirilsa raqamli zuma (kattaytirish) deb ataladi. Oddiygina qilib aytilsa, optik zuma – bu yaxshi, raqamlisi – yomon.

Optik kattaytirish yaxshiroq, negaki u tasvirni to'la kenglikda qamrab oladi, bunda kattaytirishning har qanday darajasida aniq tasvir olish mumkin bo'ladi. Raqamli zum o'z navbatida kenglikni o'zgarish xissini yaratadi, kompyuterda amalga oshirilganidek tasviriy qismini kengaytiradi. Ammo bu pirovardida past sifatli tasvir beradi.

Kattaytirish darajasi 2x yoki 3xda o'lchanadi. 2x kattaytirish obyektini ikki barobar yaqinlashtiradi. 3x kattaytirish obyektini uch marta yaqin qiladi.

Ba'zi fotoapparatlarda optik zum bo'lmaydi. Zarur bo'lsa, 2x yoki 3x optik kattaytirish modeli haqida o'ylab ko'rgan ma'qul.

Avtomat yoki qo'lda boshqarish

Barcha fotoapparatlarda tasvirlar avtomat tarzda tartiblanadi. Fotoapparat yoritilganlik darajasini aniqlaydi va tasvirni shunga ko'ra o'rnatadi. Ba'zi fotoapparatlar tasvir o'lchami kattaligini qo'lda o'rnatish

imkonini ham berdi. Agar shu hildagi boshqarish murakkab yoritish vaziyati, tunda suratga olish yoki maxsus yoritish kabelarda zarur bo'lsa bu xususiyatga zarurat seziladi. Ko'pgina fotoapparatlar tunda, quyosh nuri ostida va boshqa tez-tez uchrab turadigan vaziyatlarda avtomat tasvirga olishni ishga tushiradi.

Ko'pgina fotoapparatlarda avtomat fokuslash qurilmasi bor. Avtofokus fotoapparatda nimani fokuslash lozimligini ko'rsatib beradi (odatda zatvor knopkasi bosilgan paytda obyektga to'g'irlanadi). Bu usuldan ko'plab suratga olinganda foydalaniladi. Ba'zi fotoapparatlarda mahkamlangan fokus bo'ladi. Bu suratda olinayotgan paytda bir necha metirdan tortib cheksiz masofagacha fokusda bo'lishini aniqlatadi. Ammo ma'lum masofaga o'rnatilib fokus bilan suratga olinganda nazorat qilishning imkoni bo'lmaydi. Bu kattaroq hajmi suratga olish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Ba'zi fotoapparatlarda avtomat bilan birga qo'lda fokuslash imkoniyati ham bo'ladi. Qo'lda fokuslash suratga olish uchun zarur bo'lgan masofani ko'rsatish imkonini beradi. Tajribali fotograflar ko'proq qo'lda boshqarishni ma'qul ko'radi.

Diafragma va viderjka

Har bir olinayotgan surat turli miqdoridagi yorug'likni qabul qiladi. Shuning uchun har qanday fotoapparat tegishli miqdordagi yorug'likni olish uchun qo'lda yoki avtomat tartiblashga ehtiyoj sezadi, aks holda fotografiya qora yoki xira bo'lib qolishi mumkin. Fotoapparatlarda diafragma kombinatsiyasi, (yoki plyonkada) tasvir aks etishi uchun ma'lum vaqt diafragma ochiq bo'ladi. Ko'pincha tasvirni avtomat tushib qolishini fotoapparat elektronikasiga yuklatish mumkin va tasvirni hayotda tiniq chiqishi mumkin. Lekin ba'zan tasvirga tushirishni qo'lda nazorat qilishga to'g'ri keladi.

Zatvorning tezligidan muhirlangan toza yoki surkalib ketgan fotografiya olish uchun foydalaniladi. Zatvor qisqa davrga ochilgan yuqori darajasidagi viderjkada harakatdagi obyektning aniq tasvirini olishi mumkin.

Zatvor uzoq ochilgan sekin harakati paytida harakatdagi obyekt surkalib ketgan holda tasvirga tushadi. Diafragmani ochilishi kattaligi nafaqat obyektiv orqali ko'p yorug'lik o'tishiga, balki fokusga ham ta'sir qiladi. Kichik diafragma fokusda mavjud bo'lgan tasvirning kattagina qisimida tiniq bo'lishiga olib keladi, katta diafragma esa fokusda mavjud bo'lgan kenglikni cheklab qo'yadi.

Raqamli fotoapparatlarda diafragma kattaligini o'zgarishi fokusida mavjud bo'lgan kenglikni o'zgarishiga kamroq ta'sir qiladi, katta hajmdagi fotoapparatlarda buning aksi bo'ladi, raqamli fotoapparatlar qisqa fokusli obyektivga ega bo'ladi (plyonkali kameralarning almashtiriluvchi obyektivlaridan foydalaniladigan takomillashgan modellar bundan mustasno), shuning uchun ularning tiniqligi yuqori darajada bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Fotografiya nechanchi yilda paydo bo'lgan?
2. An'anaviy fotografiya raqamlidan nima bilan farq qiladi?
3. Raqamli fotografiya qachon paydo bo'lgan?

1.2. Asosiy tushunchalar bilan tanishish

Bugungi kunda fotografiya avvalgi yillarga qaraganda ancha keng imkoniyatlarga ega bo'lib, turli sohalarda qo'llanila boshladi. Foto anjomlarini ishlab chiqaruvchilar kun sayn takomillashib, fotosuratga olish jarayonini yengillashtiruvchi, fotografiyaning sifatini oshiruvchi tomonlariga ahamiyat berib, faoliyat doirasini yuksaltirmoqdalar. Har qadamda ishlab turuvchi fotolaboratoriyalar esa, bir soatdayoq erishilgan natijalarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Fotosuratchilar uchun aniq fokusdagi fotografiyaga erishish shu qadar muhimki, ular hatto tarjima qilinganda "fokusni ushlab" ma'nosini anglatuvchi "teck sharp" atamasini o'ylab topganlar. Ko'pchilik "fokusda" bo'lmagan fotografiyalar yaratishga majbur bo'lganlar. Bu kurs sizga bunday holatlarda yordam beradi deb umid qilamiz.

Ba'zan sifatli fotografiyalarga erishish uchun fotoapparatning sozlamasini yoki tasvir rejimini o'zgartirish kifoya emas. Ayrim hollarda professional fotosuratchilar foydalanadigan jihozlar xarid qilishning o'zi yetarli bo'ladi. Jihozlar va aksessuarlar raqamli fotografiyalar kabi muhim ahamiyat kasb etgan sohani topish juda mushkul.

Har bir fotosuratchi sifatli natijaga erishish uchun professional fotoijodkorlar foydalanadigan aksessuarlarni qo'llashi maqsadga muvofiqligini anglab yetishi darkor.

Ba'zi insonlar raqamli fotoapparatlarni xuddi avvalgiday plyonkali, faqatgina plyonkasi bepul deb hisoblaydilar. Raqamli fotoapparat faqatgina fotokameraning yangi turi hisoblanib qolmay, balki bizga avval boshqa fotokameralarda mutlaqo uchramagan yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Mazkur kurs professional fotosuratchilarning o'z sarf-xarajatlarini

qoplash uchun barcha raqamli texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanishlari haqida tasavvurga ega bo‘lishda yordam beradi¹.

Shtativ. Fokusni ushlab uchun bir qator shartlar mavjud. Bu eng oddiy narsadan, ya’ni shtativni ishlatishdan boshlanadi. Amaliyotda professional fotosuratchilar bilan havaskorlar orasida yagona farq mavjud. Professional fotosuratchilar doimo shtativda suratga oladilar. Bu xavaskor fotosuratchilar boy beradigan asosiy jarayon hisoblanadi. Shtativning asosiy funksiyasi fotoapparatni mustahkamlangan holatda ushlab turishdan iboratdir.

“Шаровая головка” – tasvirning ravshanligini yaxshilashga yordam bermasdan, tasvirning ruhiy holatini yaxshilaydi. “Sharovaya golovka” qo‘llanilganda oddiy harakat bilan fotoapparat holatini tez va oson istalgan burchakka qo‘ygan holda o‘zgartirish mumkin. Bu qurilmaning ijobiy tarafi shuki, uning yordamida fotoapparat maksimal, ishonchli mustahkamlanadi va sozlanib sur‘atga olish tayyor bo‘lganda u yoki bu tarafga siljib ketmaydi.

Tortilish relizi (Спусковой тросик) – bu maxsus sim bo‘lib uning uchida fotoapparatga ulanish uchun ulagich, boshqa bir uchida esa bir qancha tugmalar mavjud. Ushbu moslama yordamida bosish tugmasini ishlatmagan holda fotoapparat zatvorini pastga tushurish mumkin. Fotoapparat tugmasini bosgan holda fotosuratchi xiyol kamerani siljitadi. Siljitish darajasi tasvir mukammal tiniq bo‘lmaydigan darajada bo‘ladi. Bir qarashda e’tibor bermasa ham bo‘ladigan ushbu holat kelgusida fotografiya sifatiga ta’sir o‘tkazishi aniq.

“Ko‘zguning taxminiy balandligi” funksiyasi (Функция “Предварительный подъём зеркала”) – Nikon fotoapparatlarida bu tushuncha Exposure Delay Mode (eksponirovkani ushlab turish rejimi), Canon fotoapparatlarida esa – Mirror Lockup (ko‘zguning taxminiy balandligi) deb nomlanadi. Quyida keltirilgan funksiyaga ko‘ra fotoapparat ko‘zgusi suratga olinayotgan vaqtda tebranishdan saqlangan balandlikda mustahkamlanadi. Bu ekspozitsiyani aniqlash kabi tasvirning aniqligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Boshqa murakkab usullar bilan birgalikda bu funksiya ideal ravshanlikka erishish uchun yana bir muhim bosqich hisoblanadi.

Tebranishni kamaytirish funksiyasi (Функция подавления вибрации). Nikon firmasining ko‘pgina zamonaviy ob’ektivlarida tebranishni kamaytirishning yangi funksiyalari mavjud: Vibration Reduction (VR). Canon obyektivlarida shunga o‘xshash, tasvirni

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

barqarorlashtirish funksiyasi mavjud: Image Stabilization (IS). Ular shtativsiz ishlatilganda yoki yetarli yorug'lik bo'lmaganda tasvirning ravshanligini yaxshilash uchun mo'ljallangan. O'z mohiyatiga ko'ra bu funksiyalar agar "zaslonka" yetarlicha ko'p vaqt ochiq bo'lsa obyektiv harakatini stabillashtiradi. Fotosuratchida shtativ ishlatish imkoni bo'lmasa va yaxshi yoritilmagan xonada tasvirga olish lozim bo'lsa (shtativ o'rnatib bulmaydigan joylar, ya'ni to'y tantanalarini suratga olish, ba'zi sport musobaqalarida, shaharda yoki shunchaki hududlarida) bu funksiya mo'jiza yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tasvirning maksimal aniqligini ta'minlovchi optimal diafragma ko'rsatgichi (Оптимальное значение диафрагмы для максимальной чёткости снимка). Ko'pchilik obyektivlar uchun diafragmaning optimal ko'rsatgichi – bu maksimal ochiq diafragmaning ikkinchi ko'rsatgichiga yaqin (boshqacha qilib aytganda, diafragmaning optimal ko'rsatgichi uning maksimal ko'rsatgichidan ikki qadam narida turadi). Shunday qilib, agar diafragmaning minimal darajadagi ko'rsatgichi $f/2,8$ tashkil qilsa unda diafragmaning tasvir ravshanligi uchun optimal ko'rsatgichi $f/5,6$ yoki $f/8$, ya'ni bu ko'rsatgich $f/2,8$ dan ikki ko'rsatgich keyn turadi.

Asosiy tushunchalar bilan tanishish

Kun sayn raqamli fotografiya jadal rivojlanib, raqamli fotoqurilmalar yanada funkcionalligi oshib, ular narx-navosi jihatidan aholi ehtiyojini qondira oladi. Raqamli fotografiyaning paydo bo'lishi yangi shakldagi san'ning vujudga kelishi bilan kuzatiladi. San'at ushbu turi, ixlosmandlarni o'ziga jalb qilib bugungi kunda fotoijodkorlarning fotoasarlari dunyoning qator yirik muzeylarida tashkil etilayotgan ko'rgazmalar ekspozitsiyalaridan o'rin egallab kelmoqda. Fotoindustriyaning yangi erasi boshlandi, ya'ni raqamli fotokameralar bilan birga fotografiya to'g'risida ham yangi tushunchalar paydo bo'ldi.

Ilk raqamli fotoqurilmalar savdo shahobchalarida bir necha yil avval paydo bo'lgan. Biroq avvallari ularning narx-navosi juda baland bo'lib, ularni xarid qilish harkimga emas edi. Hozirda, sotuvda narhi 150 dollardan oshmaydigan boshlang'ich darajadagi fotoapparatlar mavjud bo'lib, bu raqamli fotokameralarni qimmatbaho qurilmalardan ommabop foydalaniladigan qurilmalar qatoriga qo'shadi.

Raqamli fotokameralar, tasvirlarni redaktorlash uchun kompyuter va dasturiy ta'minot yordamida istalgan ijodiy g'oya va qobiliyatlarni amalga oshirish mumkin.

Raqamli fotosuratlarini yaratish texnologiyasi insonlarga vizual axborotni geografik joylashuvdan qat'i nazar bir zumda almashinish imkonini beradi. Raqamli fotokameralar kompyuter texnologiyalarining xamda foto san'atining sintezi hisoblanib, ular bir vaqtning o'zida ham raqamli shedevarlar yaratish vositasi, ham jiddiy kommunikatsion jihoz xisoblanadi.

Har qanday boshqa texnik yangilik kabi raqamli fotoapparatlar bir qarashda foydalanishga murakkabdek tuyulishi mumkin. Raqamli kameralar sotiladigan do'konlarga tashrif buyurilganda ham, turli hil tushunarsiz so'zlar va belgilar, masalan, megapiksel, JPEG va hokazo. Ushbu texnik xarakteristikalar professionallar uchun qandaydir ma'no beradi. Biroq siz oddiy iste'molchi bo'lsangiz, sotuvchi tomonidan ta'rif berilgan: "ushbu model 2,3 megapikselli sensor bilan ta'minlangan, JPEG, TIFF, GIF, GRGB formatlariga ega. Obyektiv Vario-Sonnar F:2,0-2,5 f=7-21mm (33-100 mm 35 mm ekvivalentida) ISO 100, 200, 400, viderjka 8 – 1/1000 c, diafragma F:2 – F:8,9" kabi so'zlarning o'zi kifoya bo'lib, bunday murakkabliklarga qo'l urmay plyonkali fotoapparatlarni afzal deb bilasiz.


Raqamli fotokameralar kundan kunga mashhur bo'lib, ularning qo'llanilish doirasi kengayib bormoqda. Endilikda uyali telefon moslamasiga o'rnatilgan fotokamera ham hech kimni hayratda qoldirmaydi. Bu degani, raqamli fototasvirlar yaratish ommalashib bormoqda. Tabiyki, raqamli fotografiyani tatbiq etish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Zatvor tugmasini yoki kompozitsiyani tanlashdan avval, kamera qanday tasvirni olishi va qanday uni saqlashi kerakligini aniqlash lozim. Ko'pgina fotokameralarda tasvirning siqish (сжатие), yaratilayotgan faylni formatini aniqlash kabi imkoniyatlari ko'zda tutilgan.

“Oq rang balansi” (баланс белого) muammolarining oldini olish

“Oq rang balansi” (баланс белого) bilan muammolar ko'pincha sunniy yorug'lik sharoitida, ya'ni, volfram yoki fluoressent lampalar qo'llanilgan xonalarda paydo bo'ladi. Havaskor fotosuratchi tasvirga olingan fayllarni shaxsiy kompyuterida ko'rmaguncha bu kabi muammolarga duch kelishi mumkinligini xatto bilmaydi ham. Bunday holatlarni suratga olingan tasvirlardagi sariq, yashil yoki moviy ranglarning ko'payb ketishi ayon beradi. Fotoapparatda “настройка белого” sozlamasi avtomatik tarzda (Auto White Balance) o'rnatilgan¹.

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.




Ushbu sozlamalar bilan ochiq havoda tasvirga olishda yaxshi fotografiyalarga erishish mumkin, lekin xona ichida suratga olish uchun to'g'ri kelmaydi. Professionallar “баланс белого” sozlamasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni oldini olishning uch usulini qo'llaydilar:

1. Ular qaysi sharoitda fotosurat olishiga qarab, fotoapparat menyusidan “balans belogo” sozlamasini o'zgartiradilar. (Bu juda oson, menyu bo'limida “balans belogo” sozlamasini tanlab, unda maishiy yoritish uchun xos bo'lgan Incandescent (cho'g'lanma), yoki Fluorescent (fluorescent) – ofislar uchun yorug'likni tanlash kifoya. Agar “баланс белого” sozlamasining konkret ochiq havoda suratga olish belgisi tanlansa, avtomatik sozlamaga qaraganda natijadagi tasvirning yanada aniq va rang jihatidan (светопередача) haqqoniyligiga erishiladi.

2. Professionallar shuningdek, “баланс белого”ning individual sozlamalari bilan ham shug'ullanadilar. Agar neytral kul rangdagi test uchun mo'ljallangan kartochka xarid qilinsa, unda sozlamalarning ko'p qismini fotoapparat mustaqil ravishda bajaradi. Buning uchun kartochkani obyektivdan 20 – 25 sm masofada joylashtirib, kadrni to'laligicha qamrab oladigan darajada kattalashtirish (зуммировать) lozim. So'ng, menyu bo'limidagi “баланс белого” sozlamasidan his qilinayotgan rang ko'rsatgichi belgisi tanlanadi.

3. Professionallar RAW formatida suratga oladilar. Bu holatda “баланс белого” haqida qayg'urishni o'zi keragi yo'q. Buni doim RAW formatidan faylni oddiy formatga o'zgartirish jarayonida to'g'irlab ketish mumkin bo'ladi (Camera Raw yoki xuddi shu maqsadda qo'llaniladigan boshqa bir dastur yordamida). Bu esa, boshqa formatlarga qaraganda RAW formatining afzalliklaridan biri hisoblanadi.

Sovuq ob-havo sharoitida tasvirga olishda qo'llaniladigan qo'shimcha elektr ta'minoti



Akkumulator batareyalar sovuq havoda yanada tezroq o'z kuchini yo'qotadi. Shuning uchun, qor manzaralarini tasvirga olish rejalashtirilganda kamida bitta qo'shimcha elektr ta'minoti elementini olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda fotosessiya qisqa muddatli bo'lishi tayin.


Obyektivni yorug'likdan saqlovchi blendalar

Ko'pgina sifatli obyektivlar yorug'likdan saqlovchi blendalar bilan komplektda sotiladi. Blenda moslamasi ochiq havoda, quyoshli ob-havo sharoitida tasvirga olish jarayonida vujudga keladigan blikni bartaraf etish uchun qo'llaniladi. Lekin professional fotosuratichilar yorug'likdan saqlovchi blendani xatto yopiq xona sharoitida ham yechmaydilar. Buning sababi, blenda o'z navbatida obyektiv linzasini himoyalaydi.



Ma'lumki, linza obyektiv korpusining plastik chekkasida joylashgan va hiyol qattiq jism bilan tutashib ketgan holda qirilish, dars ketish, sinish holatlari kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari linzada qo'l barmoqlarining izi ham dog'lar qoldirishi mumkin. Blendani obyektivga o'rnatgan holda fotoijodkor linzani tashqi muhitdan himoyalaydi. Qisqasini aytganda, blenda, obyektiv linzasini fotoapparatning qattiq jismlar bilan to'qnashish, qo'ldan tushib ketish holatlardan saqlaydi.

Kam yoki ortiqcha ekspozitsiya



Ma'lum bir vaqtlar Internet forumlarida ekspozitsiyaning hiyol yetarli bo'lmagan (diafragmaning bir bo'limini olish) mavzuida muhokamalar avj olgan edi. Fotosuratchining maqsadi – optimal (to'g'ri) ekspozitsiyani tanlashdan iborat. Agar fotosuratchi oldida noiloh holat, ya'ni – ortiqcha ekspozitsiya (juda och rangli fotografiya) va kam, yetarli bo'lmagan ekspozitsiya (haddan ziyod to'q fotografiya) o'rtasidagi tanlovga duch kelinsa, har doim ko'p ekspozitsiyali tasvirni tanlash lozim. Sababi, bunday tasvirda raqamli shovqin (sifrovoy shum) nisbatan kamroq seziladi. Raqamli shovqinlarning ko'pgina qismi doim to'q tUSDagi fragmentlarda mujassamlashadi. Shuning uchun, to'q tUSDagi fragmentlarni Photoshop dasturida ochartirilganda raqamli shovqin kuchaytiriladi. Demak, hiyol och tUSDagi tasvir olinganda (ortiqcha ekspozitsiyali), uni to'q tusga keltirish jarayonida raqamli shovqin kuchaymide. Xullas, yuqorida keltirilgan misollarning hammasi noiloh holatlarga hosdir. Qolgan barcha holatlarda, optimal ko'rsatgichli ekspozitsiya tanlanishi kerak.

RAW formatida tasvirga olishning afzalliklari

RAW – yuqori sifatli tasvir fayllarining maxsus formatidir. Zamonaviy fotosuratчилarning aksariyati RAW formatining JPEG formatidan ikki afzal tomonini belgilaydilar:

1. Siqilgan (сжатие) tasvirlarning yuqori sifati (JPEG formatining fayllari siqilgan fayllar bo‘lib, ularning hajmini kichraytirish maqsadida ma‘lumotning bir qismi olib tashlanadi).



2. Yaratilgan tasvirlar fotoapparat sensorida qanday muhrlansa shundayligicha qoladi, ya‘ni fotoapparatning avtomatik ravishdagi qayta ishlash funksiyasi jarayonidan o‘tmaydilar. (JPEG formatidagi fayllar tasvirga olish jarayonidayoq tasvirlarni yanada sifatliroq bo‘lishi uchun biroz rang korreksiyasi, ravshanlikni yaxshilash (улучшение резкости), kabi jarayonlaridan o‘tadi¹.

RAW formatidagi tasvir jarayonida tasvirni avtomatik korreksiyasi funksiyasi o‘chirilgan. Hamma sozlamalarni (“баланс белого”, ekspozitsiya, soyalar va boshqa parametrlar) kelgusida mustaqil tarzda Adobe Photoshop yoki maxsus muharrirlar yordamida amalga oshiriladi. Professionallar ushbu holatdagi ijod erkinliklarini xush ko‘radilar. Bunda ular sozlamalarni mustaqil ravishda tanlab, eksperimentlar yaratadilar. Original tasvirga zarar yetkazilishi (RAW formatidagi fayl go‘yoki o‘ziga hos raqamli negativ) borasida qayg‘urishga ham o‘rin yo‘q.

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

Qancha megapiksel kerak?

“Megapiksel” tushunchasi doimo marketingda muhokama qilinib, shov-shuv bo‘lib kelgan. Oddiy foydalanuvchi nazarida megapiksel sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lib, qancha megapiksel yuqori bo‘lsa, shuncha tasvir sifatli bo‘ladi. Afsuski bunday emas. Ushbu fikrlarga qarab xarid qilinadigan bo‘lsa, doimo fotografik uskunalarni reklamaga qarab yangilab turishga to‘g‘ri keladi. Haqiqiy fotosuratchi uchun megapiksel soni nimani anglatishini mulohaza qilsak, bu – hajm jihatdan qay darajada katta tasvirni nashr eta olinishidir. Shuning o‘zi xolosdir. Agar foydalanuvchi fotografiyani 8 x 10 dyuymli (20 x 25 sm) hajmda nashr qilsa, 5-megapikselli fotoapparat yetarli bo‘ladi.



3 megapixel = 5x7"



4 megapixel = 8x10"



5 megapixel = 11x14"



6 megapixel = 13x19"



8 megapixel = 16x20"



10 – 12 megapixel = 24x36"

Aslida besh megapikselning o‘zi ham ko‘pdir, lekin bugungi kunda bu taklif qilinayotganlar ichida eng minimal ko‘rsatkichidir. Muntazam ravishda 13 x 19 dyuymli (33 x 48 sm) fotografiya namunalari nashr etilsa 6-megapikselli fotoapparat harid qilishga to‘g‘ri keladi. 10 – 12-megapikselli fotoapparatlar kimlar uchun hizmat qiladi? Bunday ko‘rsatkichli fotoapparatlardan asosan, 24 x 36 dyuymli (60 x 90 sm) hajmdagi fotosuratlarini nashr qiluvchi professional fotoijodkorlar foydalanadilar. Kelgusida bunday plakatlarni har kuni nashr qilmaydigan oddiy foydalanuvchilarga 6-megapikselli fotoapparatlar tavsiya qilinadi. “Kerakmas megapiksellarga” sarf qilinadigan sarf-xarajatlarga yaxshi obyektiv va ishonchli shtativ xarid qilish maslahat beriladi.

Rang balansi

Turli yorug‘lik manbalari turli rang temperaturasiga ega. Xuddi shunday qizil, yashil va ko‘k ranglarning turli qiymati.

Rang harorati Kelvin gradusida o‘lchanadi. Kunduzgi quyosh yorug‘ligi 5500 kelvin gradusini tashkil qiladi.

Yorug‘lik manbalarining rang harorati, plyonkali, raqamli kamera yoki videokamera tasvirga olayotgan obyektning qaysi rang va tusda qabul qilinishi va muhrlanishi bilan belgilanadi. Agar tasvir fluoressent lampalar bilan yoritilgan sharoitda amalga oshirilsa, tasvir natijalari biroz yashil tusda bo‘lishi, fluoressent yorug‘likning rang temperaturasining o‘ziga xosligidir.

Plyonkali kameralarda tasvirga tushirishda maxsus plyonka yoki svetofiltrlar qo‘llaniladi. Ular turli yorug‘lik manbalarning rang haroratini farqlash kompensatsiyasi uchun ishlab chiqilgan. Biroq raqamli fotokameralarda videokameralarda bo‘lgani kabi, bu muammo – “баланс белого”ni o‘lchash jarayoni yordamida hal qilinadi. Ushbu jarayonning mohiyati shundaki, foydalanuvchi, qizil, yashil va ko‘k ranglarning qay uyg‘unligida sof oq rang hosil bo‘lganini kameraga ma‘lum qilinishidir. Shu ma‘lumotlarga tayangan holda, olayotgan obyektlarning hamma ranglarini kamera o‘zi to‘g‘ri talqin qiladi va muhrlaydi.

Ko‘pchilik raqamli fotokameralarda oq balansni sozlash avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Biroq ko‘pchilik qimmatbaho modellarda bu parametрни qo‘lda sozlab boshqarish imkoniyati taqdim etilgan. Xo‘sh, bu imkoniyat bizga nima uchun kerak? Gap shundaki, avtomatik qurilma rang haroratidagi noqisliklarni to‘liq tuzata olmaydi. Agar siz yaratilgan tasvirda oq rang yetarli darajada emasligini yoki tasvir kerakli rangda emasligini payqasangiz, buni oq balans sozlamasidan sozlab bartaraf etishingiz mumkin.

Odatga ko‘ra quidagi opsiyalardan birini:

/Daylight (Kunduzgi yorug‘lik) Sunny (Quyosh) – yorug‘, quyoshli joyda tasvirga olish uchun;

/Cloudy (bulutli) – ko‘chada yoki bulutli havoda tasvirga olish uchun;

/Fluorescent (Fluoressent yorug‘lik) – lyuminessent lampalar bilan yoritilgan xonalarda tasvirga olish uchun;

/Tungsten (Volfram) – oddiy cho‘g‘lanma lampalar bilan yoritilgan turar joylarda suratga olish uchun;

/Flash (Vspishka) – yaxshi yoritilmagan xonada yoki qorongulikda tasvirga olish uchun tanlash mumkin.

Agar siz sur‘atga olish vaqtida oq balansni sozlashni yoddan chiqargan bo‘lsangiz yoki sizning kamerangizda bunday imkoniyat bo‘lmasa ranglarning noxush birlashmasini bartaraf etish, shu bilan birga, tasvirga nostandart tus berishni siz tasvirlarni tahrirlash vaqtida ham amalga oshirishingiz mumkin.

Sifatni pasaytirmay yaqinlashtirish

Ko‘pgina raqamli fotokameralar suratga olinayotgan obyektga yaqinlashmay va bunda tasvirning sifatini pasaytirmay suratga olishni ta‘minlab beruvchi “optik transfokator” bilan ta‘minlangan bo‘ladi.

“Optik transfokator” oddiy plyonkali fotokameralardagi tasvirni yaqinlashtirish mexanizmi prinsipi asosida ishlaydi. Boshqa kameralarda tasvirni yaqinlashtirish uchun hech qanday linzalarga aloqasi bo‘lmagan, faqatgina muayyan usul bilan mavjud piksellarga ishlov beruvchi raqamli transfokatorlardan foydalaniladi. Keyingi ikki kichik bo‘limlarda har ikki yaqinlashtirish mexanizmlarining asosiy jihatlari yoritilgan.

Optik transfokator (real yaqinlashtirish)

Agar sizning kamerangizda optik yaqinlashtirish imkoniyati mavjud bo‘lsa, undan foydalanishdan avval quidagi jarayonlarni eslab qoling:

Sur‘atga olinayotgan obyektga qanchalik yaqinlashsak, “parrolaks” xatosi yuz berishi mumkin, ya‘ni “Видоискатель” okulyaridan ko‘rilayotgan tasvir, obyektivda kuzatilayotgan tasvirdan biroz farq qiladi. Tasvirning chegaralari to‘g‘ri tenglashtirilganiga ishonch hosil qilish uchun kamerani “видоискатель” emas balki JK-monitor yordamida obyektga qarating yoki agar mavjud bo‘lsa, “видоискатель”ning qaratgich romkalari yordamidagi yo‘nalishda tasvirga oling.

Optik kattalashtirish tasvirga olinayotgan obyektga yaqinlashish barobarida yanada tarqoq fonni yaratish olib keladi. Bu masshtab o‘zgariganda kadrda ravshanlik chuqur o‘zgarishi, ya‘ni fokusdagi obyektlar yaxshi aniqlikda ko‘rinishi tufayli sodir bo‘ladi. Optik yaqinlashdan foydalangandagi kam ravshanlikdagi kadrlarda oldi plandagilar aniq ko‘rinsa, uzoqdagilar esa xira ko‘rinadi.

Shuni yodda tutingki, difragma o‘lchamini o‘zgarishi kadr ravshanligiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Raqamli transfokator

Ba‘zi kameralar tasvirni optik “transfokator”lar o‘rniga raqamli “transfokator”lar yordamida yaqinlashtirishi mumkin. Bunda kamera

tasvirning markaziy qismini kattalashtirib, obyekt tasvirini haqiqatan yaqindek taassurot uygʻotadi.

Huddi shu taassurotga suratni tahrirlaganda uning keraksiz chetlarini kesib ham ega boʻlish mumkin. Buning ustiga raqamli yaqinlashtirish kadrda tasvir ravshanligiga optik yaqinlashtirish kabi taʼsir etmaydi.

Agar raqamli “transfokator” tahrirlash dasturi yordamida erishib boʻlmaydigan hech narsaga erisha olmasa, unday holda undan foydalanishdan qanday naf? Gap shundaki, bu mexanizmni qoʻllab, kichikroq oʻlchamdagi fayllarni olish va bu bilan xotiradagi boʻsh joyni tejash mumkin. Raqamli kattalashtirishda tasvirning chekkalaridagi piksellar qirqilib, faqatgina markaziy qismdagi maʼlumot saqlanib qoladi, xolos. Agar siz tasvir chekkalaridagi piksellar sizga kerak emasligiga ishonchingiz komil boʻlsa, unda hech qoʻrqmay raqamli yaqinlashtirishdan foydalanishingiz mumkin. Aks holda, ushbu keraksiz qismni qoldirib, suratni tahrirlash jarayonida kesib tashlashingiz mumkin.

Breketing

Koʻpgina raqamli fotokameralar uchun yaxshi tasvir olish murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki raqamli kameralarda yaxshi fotosuratlarini tasvirga olish uchun katta miqdordagi yorugʻlik kerak buladi. Shuning uchun oʻrtacha yoki kam yorugʻlikda lahzani ushlab qolib boʻlmaydi.

Buning murakkab tomoni shundaki, kamera fokus va ekspozitsiyani avtomatik sozlash uchun bir necha, olingan tasvirga ishlov berib uni xotiraga saqlab qolish uchun yana bir necha soniyalar ketadi. Agar siz bu vaqtda “вспышка” dan foydalanayotgan boʻlsangiz, uning quvvatlanishiga ham bir necha soniya kerak boʻladi. Baʼzi kameralar “Спуск затвора” tugmasini bir marotaba bosish bilan qator tasvirlar yaratish imkonini beruvchi “breketing” imkoniyatini beradi. Bu imkoniyat kameraning tugmasini bosishdan boshlab keyingi kadrni olishgacha boʻlgan vaqtni tejashda qoʻl keladi.

“Breketing” rejimida koʻpchilik kameralar tasvirlarga ishlov berish va saqlash koʻp vaqt talab qilgani bois oʻrta yoki kichik oʻlchamdagi tasvirlarni yaratishi mumkinligini yodda tutish lozim. Bundan tashqari ushbu rejimda “фотовспышка” dan foydalanish imkoni mavjud emas. Eng muhimi shundaki, avtomatik tasvirlar ketma-ket tarzda olingach, kulminatsion lahzani topish juda mushkul.

Agar siz xarakatlanayotgan obyektlarni “breketing” rejimi emas balki, oddiy tarzda tasvirga olayotgan boʻlsangiz, unda quidagi maslahatlarga amal qiling:

Ekspozitsiya va fokusni oldindan aniqlab oling. Buning uchun tasvirga loish tugmasini yarmigacha bosib turing. Bu bilan siz fokus va ekspozitsiyani tanlashga ketadigan qimmatli vaqtingizni tasvirga olish kerak bo‘ladigan ayni kerakli va takrorlanmas lahzani tasvirga tushirish uchun sarflay olasiz.

Asosiy hodisa ro‘y beruvchi lahzani oldindan aniqlab olishga harakat qiling. Deyarli barcha kameralarda tasvirga olish tugmasini bosishdan to tasvirni yozib olishgacha biroz vaqt ushlanish sodir bo‘ladi. Shuning uchun hodisa ro‘y berishidan bir necha lahza oldin kameraning tasvirga olish tugmasini ushlab, kamerani tayyorlab olish lozim. Buning uchun avvaldan o‘z kamerangizni tasvirga olish tugmasini bosgandan so‘ng aniq qancha vaqtdan keyin tasvirga olishini tekshirib, sinab ko‘ring.

“Вспышка”ni yoqib oling. Hatto kunduzgi yorqin yorug‘likda tasvirga olayotgan bo‘lsangiz ham “вспышка”ni yoqish ba‘zida kameraning tasvirga olishini tezlashtirib, tasvirning ravshanligi yaxshi chiqishida yordam beradi. “Вспышка” foyda berishiga ishonch hosil qilish uchun avvaldan “вспышка”ni sinab ko‘rish rejimidan foydalaning. “Вспышка”ning quvvatlanishiga qanchadur vaqt ketishini yodda tuting. Shuning uchun agar siz bir qator tasvir yaratmoqchi bo‘lsangiz unda “вспышка”ni o‘chirib qo‘yganingiz ma’qul.

Agar sizning kamerangiz modelida bor bo‘lsa “приоритетный выдержка” rejimiga o‘tib, yeng kam ushlanib qolishni tanlab, sinov uchun tasvirga olib ko‘ring. Agar, tasvir juda to‘q bo‘lsa unda ushlanib qolish vaqtini ko‘paytirib, yana urinib ko‘ring.

Eng katta kattalikni tanlamang. Olinayotgan tasvir qanchalik kichik kattalikda bo‘lsa, fayl o‘lchami ham shunchalik kichik bo‘ladi va bu kamerada tasvirga ishlov berib, uni saqlashga ketadigan vaqtni shunchalik qisqartirishda yordam beradi.

Agar kamerada o‘sha ondayoq tasvirni ko‘rish rejimi yoqilgan bo‘lsa, bu rejimni o‘chirib qo‘ying. Bu rejim yoniq vaqtda kamera keyingi tasvirni olishga yo‘l quymasligi mumkin.

Imkon qadar kamera quvvati to‘la bo‘lishi lozim. Chunki agar kamera quvvati kam bo‘lsa, bu ham tasvirga olish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Shtativning asosiy vazifasi?
2. “Шаровая головка” tasvir tiniqligini qay tarzda oshiradi?
3. Tortilish relizi (спусковой тросик) nima uchun xizmat qiladi?

4. Ekspozitsiya nimani belgilaydi?
5. “Баланс белого” muammosi qanday bartaraf etiladi?
6. Мегапикселлар нима учун керак?

1.3. Materiallarning grafik imkoniyatlari va texnik vositalari mazmuni

Zamonaviy raqamli fotoapparatlarning barchasida (koʻzguli fotoapparatlarning hammasida) tasvirga olish fayllar formatining kamida uchasi: RAW, JPEG va TIFF mavjud. Ushbu formatlar quydagi holatlarda qoʻllaniladi¹:

- **JPEG.** Agar siz har bir fotografiya uchun ekspozitsiya qoʻyishni oʻrgangan boʻlsangiz, JPEG formati aynan siz uchun. Ekspozitsiya tanlangandan soʻng kelgusida olingan kadrlarni Photoshop dasturida tahrirlanmasligiga ishonchingiz komil boʻlsa, JPEG formatida bemalol tasvirga olishingiz mumkin. JPEG formati qoʻllanilganda fayllar hajmi sezilarli darajada qisqaradi va fotoapparatning xotira kartasida anchagina fotosuratlar sigʻdiriladi. Bu esa, keyinchalik ham kompyuterning qattiq diskida juda oz joy egallaydi.

- **RAW.** Agar siz ekspozitsiya va “баланс белого”ni sozlamasida koʻp hollarda adashsangiz, shuningdek, doimiy ravishda olingan tasvirlarni Photoshop yoki Photoshop Lightroom dasturlarida fotografiyalarni sifatini oshirsangiz, bu holda RAW formatida tasvirga olganiz maʼqul. RAW formatida olingan fayllarni toʻgʻirlab oʻzgartirish juda ham osondir – kadr ekspozitsiyasi, “баланс белого”ni sozlash yoki tasvirning rang korreksiyasini amalga oshirish mumkin. RAW formati yuqori sifatli tasvirlarni havola etib, korreksiyalashga maksimal moslashgan.

- **TIFF.** Bu format badavlat insonlarga moʻljallangan. 16 Gbayt hajmli xotira kartasiga ayamay tasvirga oluvchilar uchun moʻljallangan. Shuningdek, ushbu format kompyuter qattiq diskida joyi koʻp boʻlgan insonlar uchun, sababi, mazkur format fayllarining hajmi juda ham katta. Tasvir uchun TIFF formatining ishlatilish holatlari boʻyicha boshqa hech qanday tavsiyalar mavjud emas.

Tasvir uchun format tanlovi: RAW yoki JPEG?

Jamoat tadbirlarida koʻpgina fotosuratchilar seriyali tasvirlar rejimida tasvirga oladilar, tasvirlar miqdori bufer hotirasining hajmiga bogʻliq

¹ Майкл Фриман. Дао цифровой фотографии.

bo‘lib, uzluksiz tasvirga olish uchun mo‘ljallangan. Alohida tasvirning hajmi qanchali katta bo‘lsa, bufer shunchalik tez to‘lib qoladi.



Bufer xotirasi to‘lishi bilan oq, tasvirga olishni davom ettirish imkoni bo‘lmaydi (to, bufer xotirasi bo‘shatilib tasvir fayllari xotira kartasiga ko‘chirilgunga qadar). Shu sababli, ko‘pgina sportni tasvirga olish bo‘yicha professional fotosuratshilar RAW formatiga ko‘ra JPEG formatini xush ko‘radilar. JPEG formati fayllari ancha kam joy olib, bufer kartasini sekin to‘ldiradi (bu format fayllari hajm jihatidan kichkina bo‘lib xotira kartasini tezroq to‘ldiradi). Bu esa, o‘z navbatida fotosuratshiga yanayam uzun va uzluksiz tasvirlar seriyasini olish imkoniyatini beradi.


ISO parametrlarining ko‘rsatgichlari



Yorug'lik yetarli bo'lmagan sharoitda shtativda olingan suratlar uchun ISO parametrlarining ko'rsatgichlarini ko'paytirmagan ma'qul. Iloji boricha bu parametrlarning minimal ko'rsatgichini qo'llash lozim (ISO 200, 100, 50 – agar sizning fotoapparatningiz shunday past ko'rsatgichlar tanlash imkonini bersa). Bunda fotosuratlar maksimal aniq natijani beradi. ISO parametrlarini ko'paytirish, raqamli shovqinlar miqdorini oshiradi, bu esa maqsadga muvofiq emas. ISO ko'rsatgichlarini muhim paytlarda ko'paytirish ahamiyatga ega (masalan, yorug'lik yetarli bo'lmagan holatlarda shtativsiz tasvirga olinganda). Shtativ bilan sur'atga olinganda ISO ning yuqori ko'rsatgichlaridan ehtiyot bo'lish kerak.

ISO ko'rsatgichlarini tanlash

Tasvirga olish jarayonida ISO ko'rsatgichini minimal miqdorini qo'llash darkor (100 – eng afzali), sababi bu holda raqamli shovqinlar kam bo'lib, detallar maksimal tiniq aks ettiriladi. Ushbu parametrlarning yuqori ko'rsatgichlarini qo'llash, faqat sust yoritilgan, shtativsiz tasvirga olish holatlarida asoslangan¹.



Kunduzgi yoki yorqin sun'iy yorug'lik sharoitida tasvirga olishda ISO 100 ko'rsatgichi tanlanadi. ISO 200 ko'rsatgichi bilan yoritilgan pastroq sharoitda normal tiniqlikdagi fotosur'atlarga erishish mumkin. Biroq bunday ko'rsatgichda tasvirning raqamli shovqini ko'payadi. ISO 400 ko'rsatgichida yaxshi yoritilmagan, u qadar qulay bo'lmagan sharoitda shtativsiz ham suratga olish mumkin. Biroq tasvirdagi shovqin yanada kuchayib ketadi. ISO 800 ko'rsatgichida juda xira yorug'lik sharoitida qo'lda tasvirga olish mumkin. Ammo tasvirdagi raqamli shovqin yanada aniq ko'rinadi. Xulosa qilib aytganda, ISO ko'rsatgichi qanchalik yuqori

¹ David Busch's Mastering Digital SLR Photography.

bo'lsa, shunchalik kam yoritilgan sharoitda tasvirga olish mumkin. Lekin bunda tavsirning shovqini oshib boradi. Aynan shuning uchun professionallar shtativdan suratga oladilar. Shtativga fotoapparat maksimal darajada mahkamlanganligi bois, fotosuratchilar yaxshi yoritilmagan sharoitda ham ISO 100 ko'rsatgichida tasvir unchalik aniq chiqmasligidan xavotirlanmay suratga olishlari mumkin.

Plakatlarni chop etish imkoniyati

Endilikda o'z plakatingizni chop etish uchun katta formatli printerning keragi yo'q. Bugungi kunda sizga 24x36 dyuymdagi (60x90 sm) o'lchamdagi plakatlarni chop etib bera oladigan, kerakli jihoz va o'z obro'siga ega laboratoriyalar ishlamoqda. Bunda buyurtma narxi ham o'rtacha bo'ladi.

The screenshot shows the Shutterfly website's 'Large Format Prints' page. It features a main image of the Eiffel Tower and a list of product benefits. A 'Print Pricing' table is visible at the bottom right of the page content.


Size	Print prices
4x6	\$0.10
5x7	\$0.99
8x10	\$1.99
11x14	\$4.99
16x20	\$17.95
24x36	\$22.95

Bundan tashqari bunday laboratoriyalarda sizdan internet orqali buyurtma qabul qilib, buyurtmangiz tayyor bo'lganda uyingizgacha eltib berish xizmatlari ham mavjud. Bunday laboratoriyalar ishning asosiy qismini o'z zimmasiga olib, uncha qimmat bo'lmagan narxda katta formatdagi fotosuratlarini chop etib beradilar. Buyurtma berish uchun ro'yxatdan o'tish bir qarashda qiyindek tuyuladi. Ammo bir marotaba urinib ko'rsangiz bu sizga odatiy xolga aylanadi. Tayyor bo'lgan fotosuratlarining sifati sizni hamda mijozlaringizni quvontiradi.

Barcha bir hil sifatdagi kadrlar

Raqamli suratga olishning an'anaviy suratga olishdan ko'ra yana bir afzalligi – bu tasvirga ishlov berishda Photoshop dasturi yordamida anchagina vaqtni tejash mumkin. Gap “oq balans”ni to'g'rilash sozlamasi to'g'risida bormoqda.

Avvallari fotosuratchilar agar turli hil yorug'lik sharoitlarida (fluorescent chiroq yoki cho'g'lanma lampa yordamida) suratga olish kerak bo'lganda, maxsus yoritish sharoitiga mo'ljallangan fotoplyonkalardan yoki ranglarning keng tarqalishining oldini oluvchi filtrlardan foydalanganlar. Zamonaviy raqamli fotoaqurilmalarda “oq balans”ni sozlash mumkin bo'lsa ham, ko'pchilik havaskorlar “oq balans”ni avtomatik sozlangan rejimda suratga olishni ma'qul ko'rmoqdalar.



Bir vaqtning o'zida professional fotosuratchilar oxir-oqibat barcha suratlarni Photoshop dasturida tahrirlashga vaqt sarflamaslik uchun yagona sozlangan “oq balansni” avvaldan o'zgartirish lozimligini biladilar.

Fotoapparatning suyuq kristall ekrani va kompyuter monitori

Fotoapparatningizning xotira kartasi to'lishi bilan tasvir fayllarini kompyuterning qattiq diskiga nusxalang va tasvirni ko'rish hamda tizimlashtirishga mo'ljallangan dialog oynada oching. Siz Adobe Lightroom (bu Adobe kompaniyasi mutaxassislari tomondan professional fotosuratchilar uchun ishlangan dastur) dasturidan shu maqsadda foydalanishingiz mumkin. Tasvirni kompyuter ekranida ochib bo'lgach, huddi shu tasvirni fotoapparatningizning JK-(suyuq kristall) ekranida


oching va yonma-yon qo‘ying. Fotoapparatdagi tasvirni haqiqatan qanchalik uzoq ekanini bilish uchun ikkala tasvirni bir-biri bilan solishtiring.



Bu kelgusida sur‘atga olish jarayonining o‘zidayoq tasvirning sifatiga aniq baho berishga yordam beradi. Masalan, agar fotoapparat ekranidagi tasvir kompyuter ekranidagidan sovuqroq ko‘rinsa, fotosuratchi bunday hollarda tasvir tusini iliqlik ko‘rsatuvchi filtrdan foydalanish shart emasligini biladi. Fotosuratchi agar tasvir kompyuter ekranida yoki qog‘ozga chop etilganda, fotoapparat ekranidagidan to‘qroq rangda bo‘lsa, unda tasvirga yanada ochroq tusda olish lozimligini ham bilib oladi. Ushbu maslahatlardan foydalanib, suratga olish jarayonida fotoapparatning JK-ekranidagi tasvir qanchalik “haqiqat”ga yaqin ekanini bilish muhimligini anglab oling.

Lightroom dasturi yordamida tasvirni tizimlashtirish

Tasvirga jiddiy ishlov berish uchun Adobe Photoshop dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mingdan ortiq raqamli fotosuratlarini tizimlashtirish, RAW formatidagi fayllarga ishlov berish, slayd-shoular yaratish va tashrif qog‘ozlarni chop etish uchun esa Adobe firmasining dasturiy mahsuloti bo‘lgan Adobe Lightroom deb nomlangan dasturidan foydalangan ma‘qul. Bu dastur fotosur‘atchilar uchun maxsus yaratilgan bo‘lib, u ikki versiyada, ya’ni Windows va Macintosh uchun mo‘ljallangan va Adobe Photoshop dasturi bilan solishtirganda ancha arzon turadi.



Albatta, bu dasturda Photoshop dasturidagi kabi taʼsirli maxsus effektlar, qiyin maketlar va boshqa koʻplab ajoyib narsalar yaratishning imkoni yoʻq va dastur buning uchun moʻljallanmagan. Bu dastur raqamli fotosuratni tizimlashtirish va koʻrish uchun xizmat qiladi hamda oʻzining vazifasini aʼlo darajada uddalaydi. Shu bois raqamli fotosuratga olish bilan jiddiy shugʻullanuvchilarga bu dasturni qoʻlga kiritishni maslahat beramiz.

20x25 sm formatdagi fotosuratni sifatli chop etish


Ertami-kechmi siz oʻzingizning fotosuratlaringizni chop etishni istaysiz. Bugungi kunda koʻpchilik professional fotosuratchilar oʻz tasvirlarini mustaqil chop etishni maʼqul koʻradilar va bunda Epson printerlarini fotosuratlarni chop etish uchun moʻljallangan rangli va oq-qora printerlarning sifatlisi deb hisoblaydilar.

Epson kompaniyasining printerlaridan foydalanish uchun uch asosiy sabab mavjud:

1. Ular foydalanishda juda ishonchli. Agar ekspluatatsiya jarayonida qandaydir muammoga duch kelsangiz, u holda servis markaziga murojaat qilishingiz mumkin. U yerda sizga sifatli hamda malakali yordam berishadi.


2. Epson kompaniyasi printerdan tashqari fotoqogʻoz ham ishlab chiqaradi.

3. Natija doimo aʼlo sifatli. Ushbu printerlarda chop etilgan fotosuratlar doimo oʻz sifati bilan lol qoldiradi.



4x6 dyuym (10x15 sm), 5x7 dyuym (13x18 sm) va 8x10 dyuym (20x25 sm) formatdagi fotosuratlarni chop etish uchun sizga Epson Stylus Photo R1900 printerini tavsiya etamiz.


33x48 sm formatdagi fotosuratni sifatli chop etish



13x19 dyuym (33x48 sm) format professional fotosuratchilar orasida juda mashxur. Aynan shu o'lchamdagi fotosuratlarni chop etish uchun Epson Stylus Photo R 2880 printeri mos keladi. Ranglarning to'yinganligi va ularni uzatishning aniqligi sizni lol qoldiradi. Biroq eng yorqin taassurot oq-qora fotosuratni chop etganda paydo bo'ladi. Bundan tashqari R 2880 modelida UltraChrome K 3 chidamli siyohidan foydalaniladi. Albatta, ushbu printerda 13x19 dyuym (33x48 sm) formatdan tashqari kichikroq formatdagi fotosuratlarni chop etish mumkin.

43x55 sm formatdagi fotosuratni sifatli chop etish

Professional fotosuratchilar 17x22 dyuym (43x55 sm) formatni hamda ushbu o'lchamdagi fotosuratlarni chop etish uchun mo'ljallangan Epson Stylus Pro 3800 ni ma'qul ko'radilar. Ushbu modelni ideal deb hisoblash mumkin.



Monitorni kalibrlash

Rangni boshqarish, ya'ni qog'ozda chop etilgan tasvir ranglarini kompyuterda ko'ringani bilan bir xilligiga erishish mahorati avvalgi vaqtlardagiga qaraganda osonroq bo'lib qoldi. Barchasi monitorni to'g'ri kalibrlashga bog'liq. Avvallari bu uzoq davom etadigan, qimmat jarayon bo'lib, bu ishni bajarish uchun ko'pincha malakali mutaxassislar chaqirilgan.



Bugungi kunda monitor kolibrovkasi barcha foydalanuvchilar uchun mavjud va buning ikki sababi bor:

- 1). kalibrlash moslamasing narxi xamyonbop bulib qoldi;
- 2). kalibrlashning katta qismi avtomatik tarzda, ya'ni foydalanuvchining qatnashuvisiz amalga oshiriladi.

Bugungi kunda kalibrlash moslamalari ichida eng mashhuri X-Rite kompaniyasining "i1 Display"i hisoblanadi. Bu moslama ekranda chop etilayotgan fotosuratning rangini tezda to'g'rilash imkonini beradi. Faqatgina tanlangan qog'oz turiga qarab, bepul rangli profil yuklab olish kerak bo'ladi xolos¹.

Nazorat savollari

1. Kam yorug'lik sharoitida shtativda tasvirga olish uchun qanday ISO ko'rsatkichi tanlanadi?
2. RAW formati qaysi holatlarda qo'llaniladi?
3. TIFF formati qaysi holatlarda qo'llaniladi?
4. JPEG formati qaysi holatlarda qo'llaniladi?
5. Adobe Lightroom dasturini qaysi hollarda qo'llash afzal?
6. Monitor rangini boshqarish uchun qaysi moslamadan foydalanadi?

1.4. Raqamli fotografiyada qo'llaniladigan obyektivlar

Obyektivlarning yorug'lik o'tkazish qobiliyatini oshirish, ayniqsa, havo bilan chegaralangan obyektivlar linzalarining ustki qatlamida aks ettirish koeffitsiyentini kamaytirish uchun obyektivlar nurlantiriladi, ya'ni ushbu ustki qatlamlarda ingichka shaffof plenkalalar hosil qilinadi, ularning sinish ko'rsatkichi shishaning sinish ko'rsatkichidan kam bo'ladi. Ingichka plenkalarning nurlantirish ta'siri yorug'liq to'lqinlarining interferensiya hodisasiga asoslangan. Fizika kursidan ma'lumki, agar bir xil yo'nalishli va bir xil tebranish davriga ega bo'lgan (ya'ni bir xil chastotali) ikkita to'lqin bir-biriga tegsa, tebranishlarning o'zaro kuchayishi yoki susayishi yuz beradi va tebranishlarning to'liq to'xtashi amalga oshadi. Tebranishlarning kuchayishi yoki susayishi tegayotgan to'lqinlar fazasining ayirmasiga bog'liq bo'ladi. To'lqinlar hajmi bir-biriga to'g'ri kelsa, ya'ni fazalar ayirmasi to'lqin uzunligiga teng bo'lsa (yoki bir nechta butun to'lqinlar uzunligiga teng bo'lsa), kuchlanish yuqori nuqtasiga yetadi. Susayishning maksimal ko'rsatkichi bitta to'lqinning hajmi ikkinchi to'lqinning chuqurligiga to'g'ri kelsa, ya'ni fazalar ayirmasi to'lqin uzunligining yarmiga teng bo'lsa (yoki bir nechta to'liq to'lqinlar plyus to'lqinning yarim uzunligi) yuzaga keladi. Agar ushbu, so'nggi amplituda holatida, ya'ni ikkala tebranish energiyasi bir xil bo'lsa, to'liq

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

hodisa kuzatiladi; tebranishlarning o‘zaro to‘xtashi shishaga yurgizilgan ingichka shaffof plenkalarning interferensiyon ta‘sirini talqin etadi.

Obyektivlarga ta‘rif berilar ekan odatiy nutqda kam ishlatiladigan bir necha atamalar (termin)lardan foydalanishning o‘zi kifoya qiladi. Lekin bu atamalar bilan bog‘liq xodisalar ko‘pchiligimizga juda tanish.

Kim bolaligida quyosh va lupa yordamida gazeta qog‘ozini yoqib ko‘rgan? Buning uchun lupani (yig‘uvchi linzani) kattaroq diametrlisini tanlab olish va uni qog‘ozga nisbatan muayyan masofada quyosh nurlari yorqin nuqtaga aylanadigan holda tutib turish lozim edi. Aynan shu yorqin nuqta va lupaning orasidagi masofaga **linzaning fokus masofasi** deyiladi. Linzaning fokus masofasi qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik katta tasvir chiza oladi. Aytgancha, linzalarni markirovka qilishda fokus masofaga teskari bo‘lgan yana bir kattalik qo‘llaniladi. Bu kattalik **linzaning optik kuchi** deyiladi va “dioptriy”da o‘lchanadi. 20 sm fokus masofasiga ega bo‘lgan linzaning optik kuchini topish unchalik mushkul emas. 20 santimetr, (0.2 metr) fokus masofali obyektiv 5 dioptriy (+5) optik kuchga ega.



Obyektiv diametrining fokus masofaga nisbati obyektivning yorug‘lik kuchini belgilaydi. Linzaning yorug‘lik kuchi qanchalik kuchli bo‘lsa, u shuncha ko‘p yorug‘likni yig‘a oladi va olingan tasvir juda yorqin holda tasvirga olinadi.

Obyektivning yorug‘lik kuchi

Obyektivning yorug‘lik kuchi uning nisbiy orqa teshigi ko‘rsatkichi bilan xarakterlanadi. Obyektivning nisbiy orqa teshigi drob ko‘rinishida yoziladi va obyektivning ishchi teshigi diametrining uning fokus masofasiga nisbatini ko‘rsatadi. Masalan, 1:4 nisbiy orqa teshikka ega

bo‘lgan obyektiv (markirovkaning $f/4$ varianti uchraydi) nisbi ishchi teshik o‘lchami fokus masofasi ko‘rsatkichidan 4 karra kam. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, obyektivning “ishchi teshik” atamasi juda shartli. U na old linzaning diametriga va na diafragma o‘lchamlariga mos kelmaydi. Shu sababli obyektivning nisbiy ishchi teshigini o‘lchab bo‘lmaydi, uni faqat hisoblab topish mumkin.

Obyektiv nisbiy ishchi teshigi diametri qancha katta bo‘lsa, u shuncha ko‘p “yorug‘lik kuchi”ga ega bo‘ladi. Linzaning yorug‘lik kuchi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shuncha ko‘p yorug‘likni yig‘a oladi va plyonkada juda yorqin holdagi tasvirni chiza oladi.

Uzun fokus masofali obyektivlar



Uzun fokus masofali obyektivlar deb fokus masofalari standart obyektivlarga nisbatan sezilarli darajada katta bo‘lgan obyektivlarga aytiladi va kamida 70 – 80 mm va undan katta fokus masofaga ega bo‘ladi. Uzun fokus masofali obyektivlar obyektga yaqinlashib borishning imkoni bo‘lmagan hollarda, masalan, reportajlar suratga olishda, hayvonlarni, qushlarni suratga olishda keng qo‘llaniladi.

Bunday obyektivlar diqqatni tasvirga olish obyektining muhim detallariga qaratishda juda qulaydir.



Yirik planlarda “keraksiz” orqa planni tanib bo‘lmas darajada xiralashtirib tashlash bilan tomoshabin diqqatini faqat aktyorning ijrosiga, uning ichki kechinmalariga qaratishga imkon beradi. Uzun fokus masofali obyektivlar o‘zining tasvir dinamikasi bilan ham ekranda badiiy obraz yaratishda keng qo‘llaniladi. Bunday turdagi

obyektivlardan tezlik va shiddatlilik effektini yaratish maqsadida bir qator mashhur filmlarda foydalanilgan. Kadrdagi uzun fokus masofali

obyektivlardan foydalanilganda tasvirga olingan portretlar o'zining sirliligi bilan boshqa obyektivlarda tasvirga olingan kadrlardan ajralib turadi. Portretlar mayin, tiniq va maftunkorlik va o'ziga xos muhitni hosil qiladi. Umuman hozirgi zamon foto san'atini uzun fokus masofali obyektivlar, umuman, barcha turdagi obyektivlarsiz tasavvur etish qiyin. Har birining o'z o'rni va qo'llanilish sohasi borki, bularning barchasi yagona maqsad: ekranda tasviriy ifodaviy obraz yaratishga yo'naltiriladi

Keng burchakli obyektivlar (Широкоугольники)

Keng burchakli obyektivlar standart obyektivlarga nisbatan ancha qisqa fokus masofaga ega bo'ladi. Ko'rish burchagi esa tabiiyki standart va uzun fokusli obyektivlarga nisbatan ancha kengroq – 35 mm va undan kam bo'lgan obyektivlar keng burchakli hisoblanadi.



Bu tur obyektivlar har xil janrlardagi filmlarda keng makonni qamrab olish zarur bo'lgan holatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, masalan, peyzajlarni, arxitektura inshootlarini tasvirga olish uchun.



Shuningdek, bunday obyektivlar cheklangan sharoitlarda (masalan, tor shaxar ko‘chalarida, xonadonlarda) tasvirga olishda juda qulay.

Chunki uning fokus masofasi qisqaligi keng burchak ostida uchun katta masshtablarni qamrab olish xususiyatiga ega. Keng burchakli obyektivlar tasvir tiniqligining yuqori diapazoniga ega ekanligi bilan ham qulaydir. Xatto obyektivdagi masofa shkalasi halqasi yordamida mo‘ljal olib obyekt fokusini to‘g‘rilanganda ham “xato qilish juda qiyin”.

Juda keng burchakli obyektivlar

Fokus masofasi 20 mm dan 24 mm. gacha keng burchakli obyektivlarning bor imkoniyatlari va badiiy ifodaviy xususiyatlarini xis qilish imkonini beradi. Ko‘rish (makonni qamrab olish) burchagi bu obyektivlarda juda ham keng. Ular beradigan tasvirni ham boshqa obyektivlar beradigan tasvir bilan adashtirib yuborish juda qiyin. Perspektivaning o‘ziga xos, g‘ayritabiiy qurilishi, rakurslar yordamida hosil qilinadigan effektlar bularning barchasi keng burchakli obyektivlarning imkoniyatlaridir. Masalan, yuqoridan pastga qaratilgan keng burchakli obyektiv normal bo‘yli insonni 1 metr bo‘yli karlikka aylantirishi yoki kichkinagina bolakayni haqiqiy gigantga aylantirib qo‘yishi mumkin.

Ekstremal keng burchakli obyektivlar

20 mm fokus masofaga ega bo‘lib 90 gradusdan yuqori ko‘rish burchagiga ega bo‘ladi. Bunday obyektivlar olamga butunlay o‘zgacha nazar bilan qarashga imkon beradi. Tasvirga olinadigan kadr kompozitsiyasini faqatgina videoiskatel tirqishiga qarabgina tuzish mumkin. Bunday obyektivlar aksariyat intererlarda ishlashga mo‘ljallangan.





Fish Eye (baliq ko‘zi) obyektivlar. **Keng** burchakli obyektivlarning juda ham O‘zgacha va antiqa turi bo‘lib ularning ko‘rish burchagi (fokus masofasidan qat‘i nazar) 180 gradusni tashkil etadi. Bunday g‘ayrioddiy effekt obyektivlarga xos bo‘lgan Distorsiya deb nomlangan aberratsiyaning aksincha, atayin kuchaytirilishi evaziga hosil bo‘ladi.

Fotografiya yaratishda keng burchakli obyektivlardan nafaqat cheklangan sharoida ma‘lum bir obyektни kadrğa sig‘dirish, balki dramaturgiyadan kelib chiqqan holda maxsus tasviriy ifodaviy vosita sifatida ham keng qo‘llaniladi. Inson ruhiyatida kechayotgan g‘ayritabiiy xislar, tuyg‘ularni tomoshabinga yetkazib berishda keng burchakli, umuman, barcha turdagi obyektivlardan mahorat bilan foydalana olish har bir bo‘lg‘usi fotogrofning vazifasidir.

1.5. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash

Raqamli fotografiyaning ko‘p bosqichli usullardan biri – bu texnologiyalar jarayoni bilan ishlashdur. Foto olish jarayonida har bir fotograf o‘z oldiga maqsad qo‘yish kerak bo‘ladi. Raqamli fotoapparatda yechim tanlash yordamida fayl turi va fotografiya hajmi o‘zgaradi, u flesh-kartaga saqlanadi. Barcha fotoapparatlar JPEG formati TIFF va RAW siqilmaydigan formatni ham tavsiya etadilar. Ham bir formatni sozlash doirasida tasvir hosil qilinadigan yechim yoki piksellar soninini tanlash ham mumkin. Pikel qanchalik ko‘p bo‘lsa, yechim ham shunchalik katta bo‘ladi va katta tasvirni ham sifatini yo‘qotmay aks ettirish yoki bosib chiqarish mumkin bo‘ladi. Ushbu amaliy mashg‘ulot davomida raqamli fotografiya jarayoni foto tasvirga olish kompyuterga ko‘chirishning bir qancha bosqichlardan iborat.

1-bosqich. Fototasvirga olish.

Fototasvirga olishdan oldin fotokameraning obyektivini nazorat qilish, fotoapparat flesh kartasini xotirasini tekshirish va fotoapparat menyusini sozlashdan iborat.

2- bosqich. Fototasvirlarni saqlash.

Tasvirga olingandan so'ng fotosuratlarni doimiy saqlash uchun ularni kompyuterga ko'chirish kerak. Fototasvirlarni ko'chirish keyinchalik ularni tez va qulay yo'l bilan olish mumkin bundan tashqari ularni tahrir qilish imkonini beradi.

3-bosqich. Fototasvirlarni tahrir qilish.

Har bir raqamli fototasvirni fototahrir dasturi yordamida ularni tahrir qilish yoki monipulyatsiya qilish mumkin. Tasvirga olingan fotosuratlar sifat darajasida bo'lmasa ularni yorug'ligini ranglar va fotosuratni tiniqligini Adobe Lightroom va Aperture maxsus dastur yordamida to'g'irlash imkoniyati mavjud.¹

1.6. Raqamli ekspozitsion nazorat

Avtomat ekspozitsiya yaxshi surat yaratish uchun talab qilinadigan yorug'likning tegishli miqdorini o'lchaydi. Avtomatfokusdagi kabi avtomat ekspozitsiya ham ko'phollarda o'z ishini eplaydi, ammo u kerakli ekspozitsiyani to'g'ri o'lchay olmaydigan ba'zi holatlar ham mavjud. Avtomat ekspozitsiya avtofokus kabi suratga olish markazidan zaruriy yorug'lik miqdorini o'lchash uchun foydalanadi. Shuning uchun suratga olish markazi yonida ma'lum yorqin yoki xira joylari bo'lsa, u ekspozitsiyani xira qilib qo'yadi yoki qoraytirib yuboradi. Buning o'rnini to'latish uchun fotoapparat obyekt yorqinligi bo'yicha o'rtaga yo'naltiriladi va zatvor tknopkasi yarim bosiladi. So'ngra suratga olish xohishi bo'lgan kompozitsiya tomon fotoapparat yo'naltiriladi. Har qanday fotoapparat to'g'ri ekspozitsiyali fotografiya olish uchun zarur bo'lgan yorug'lik miqdori o'tadigan qilib sozlanishi lozim. Negaki raqamli fotoapparatlar nihoyatda aqlli va bu avtomatda amalga oshiriladi. Lekin shunday vaziyatlar ham bo'ladi, ularda fotoapparatga mo'ljaldagi fotografiyani olishga yordam berishi zarur bo'ladi. Ko'pgina fotoapparatlar viderjka (ekspozitsiya davomiyligi) va diafragmani (zatvor orqali o'tkazish imkoni berilgan yorug'lie miqdorini tartiblovchi mexanizm) sozlash imkonini beradi.

¹ "Digital photography". Dennis P.Curtin. 2007-yil USA-43 bet.

Suratga olish rejimi-viderjka afzalligi: Ba'zi fotoapparatlar zatvor tezligini qo'lda sozlash imkonini beradi, ayni paytda avtomat ekspozitsiyaga tegishli avtomat diafragmasini o'rnatishga yo'l ochadi. Optikadan ham foydalanish mumkin. Agar obyektning harakatda suratga olishga intilish bo'lsa yoki muqim harakatni (zatvorning yuqori tezligida) olish xohishi bo'lsa, yoxud suvalgan tasvir (zatvorning past tezlikdagi ishda) olish zarur bo'lganda zatvor viderjkasi afzalligidan foydalaniladi.

Suratga olish rejim-diafragma afzalligi: Diafragma afzalligi (Aperture Priority) zatvor tezligi afzalligi bilan bir xilda ishlaydi, diafragmaning talab darajasidagi tezligi o'rnatilganda fotoapparat tegishli tezlikni tanlash bundan mustasno. Bu cho'ziq maromda tasvir tiniqligini yaxshilash zarur bo'lganda foyda beradi. Negaki ko'pgina raqamli fotoapparatlarda diafragma plyonkali fotoapparatlardan farqli tiniqlikni yaxshilanishiga kuchli ta'sir qilmaydi, bu tez-tez foydalaniladigan xususiyat emas.

Qo'lda ekspozitsiyalash rejimidan foydalanish: Faol va tajribali fotograflar uchun ba'zi fotoapparatlar ekspozitsiyani qo'lda sozlash opsiyasini taklif qiladi. Ham viderjka, ham diafragmani mustaqil sozlash mumkin bo'ladi. Tegishli ekspozitsiyani mustaqil belgilashga to'g'ri keladi. Turli sozlash usullarida suratga olish va eng maqbul sozlash uchun fotoapparat displeyida har bir suratni ko'rish imkoni bo'ladi.

Ekspozitsiyani korreksiyalashni sozlash: Agar avtomat ekspozitsiyadan foydalanish, ammo bunda avtomad ustundan birmuncha nazorat o'rnatish xohishi bo'lsa, ba'zi fotoapparatlarda mavjud bo'lgan ekspokorreksiyadan foydalanish mumkin. Buning yordamida tiniqroq yoki qoraroq surat yaratish, o'ta yorug' quyosh nurini yumshatish yoki qoramtir qisimlarga yaxshiroq ishlab berishi uchun avtoekspozitsiyani sozlash mumkin.

Odatda, ekspozitsiya korreksiyasi musbat va manfiy o'nlik sonlar bilan o'lchanadi. Musbat raqam o'rnatib har tomoni yorqinroq qilish mumkin, manfiy son esa qoraroq qiladi.

Oq rang balansini sozlash: Agar xonadagi sun'iy yorug'lik singari yoritishning ma'lum turida tasvirlarda antiqa nigohiy effektga duch kelishi mumkin. Negaki sun'iy yoritish manbasidagi ranglar miqdori tabiiy yoritishdagidan farq qiladi, surat o'ta qizil yoki o'ta yashil rangda bo'lishi mumkin. Raqamli fotoapparatlar oq balans degan antiqa xususiyatga ega, u bunday mufimmolarni paydo bo'lmasidan tuzatib turadi. Fotoapparatni suratga olish paytida yoritishni turli xillariga avtomat ravishda

korreksiyalab yaxshi sifatli fotografiya olish mumkin va tasvirning muharrir-dasturini korreksiyalash zarur bo'ladi.

Quyidagi holatlarda oq rang balansini belgilash mumkin: qizdirish lampasi yorug'ligi; fluoressent yorug'lik; bulutli havoda tabiy yoritish, yorqin tabiy yoritish. Ko'pgina fotoapparlarda shuningdek, avtomat opsiyador, bu oq rang balansini yaxshilab sozlanganligini belgilaydi. Lekin oq rang balansi bo'yicha ma'lum qoida bor. Har bir fotoapparat bu nestroyka blan ishlaydi, shuning uchun biroz tajriba qilib kamerani qanday qilib yaxshi sozlashni tushunib olish mumkin.

Agar vspishkadan suratga olish paytida foydalanilsa rangni tartiblash to'g'risida o'ylashmasa ham bo'laveradi, vspishka to'g'ri tartiblangan yorug'likni ta'minlaydi. Ammo agar vspishkafaqat obyektни yoritisa, orqaplarda rang nomutanosibligi vujudga keladi. Bu holatda oq rang balansidan foydalanish lozim bo'ladi.

Kattaytirish: Kattaytirish imkoniyati fotoapparatning eng qulay xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Obyektga yaqin kelish yoki undan uzoqlashish o'rniga ob'ektgacha bo'lgan masofani o'zgartirish uchun masshtabni kattaytirish xususiyatidan foydalanish mumkin. Shu sababli fotoapparatda tasvir kattaligini katta qilib obyektни yaqinda joylashgan tasavvurini uyg'otish mumkin, yoki suratga olish paytida tasvir kattaligini kamaytirib landshaft qismidan uo'prog'ini qamrab olish mumkin.

Raqamli fotoapparatlar optik yoki raqamli kattaytirishdan foydalanadi. Optik kattaytirishdan obyektни kattaytirish uchun foydalandi va yaxshi fotografiya beradi. Raqamli kattaytirish obyektga yaqin olib kelishi mumkin, ammo u tasvirni fotoapparatning dasturiy vositalari yordamida kattaytiradi, bu tasvirlarni tahrir qilishini dasturiy ta'minotni yordamida uni kattaytirishga o'xshaydi. Raqamli kattaytirish natijada pastroq sifatli tasvir beradi.

Umuman olganda, optik kattaytirish yordamida anchayin yaqin tasvir olish uchun zarur bo'ladi.

Maxsus sozlash rejimi: Ko'pgina fotoapparatlar sozlashni o'zgartirishning ikki usulini tavsiya etadi. Fotoapparatdagi knopka yordamida ko'plab foydalaniladigan vspishka sozlashini ishga tushirishingiz mumkin. Ko'pchilik sozlash menyu orqali amlaga oshiriladi. Menyu fotoapparatning suyuq-kristall displeyida aks etadi. Fotoapparatni sozlashni uning hujjatidan bilib olish mumkin.

Avtomat fokuslashdan foydalanish

Ko'pgina tasvirlar uchun fotoapparatga obyektни ko'rsatib va zatvor knopkasini bosib avtofokuslashdan foydalanish mumkin. Fotoapparat obyektgacha bo'lgan masofani o'lchaydi va shunga fokuslashni sozlaydi. Bulardan qaysi biri osonroq, degan savol tug'uladi. Afsuski, bu doim ham foyda beravermaydi. Foydalanuvchi tomonidan biroz yordam bermasdan masofani avtomat ravishda to'g'ri belgilay olmaslikning bir necha sabablari bor. Agar obyekt ortiqcha yorqin bo'lsa (ayni shunda avtofokus tegishli fokusni belgilash uchun obyektни izlaydi), shunda avtofokus masofani noto'g'ri o'lchashi mumkin. Agar siz nimani fokuslamoqchi bo'layotganingizni avtofokus bilishiga ishonsangiz fotoapparatni vaqtinchalik markazda bo'lib qoladigan qilib siljiting, zatvor knopkasini yarim bosing, shunda fotoapparat fokuslanadi, so'ngra uni qo'yib yubormasdan o'zingizga kerakli tasvirni hosil qilishi uchun fotoapparatni jildining.

Fokusda obyekt aks etishi fotoapparat obyektни ungacha bo'lgan to'g'ri masofaga o'rnatilgan bo'lishi kerak. Avtomat fokus ko'p hollarda to'g'ri sozlash mumkin.

Nazorat savollari

1. Raqamli ekspozitsiya qanday amalga oshiriladi?
2. Ekspozitsiya nima?
3. Avtofokus nima?
4. Avtofokus qanday amalga oshiriladi
5. Avtofokus nima uchun kerak?

1.7. Turli vspishkalar yordamida suratga olish

Agar, to'y marosimini bino ichida "vspishka" bilan tasvirga odishga to'g'ri kelsa, unda fotosuratlarda yorug'lik va soyalar shiddat bilan bir biriga o'tib, notabiiy ko'rinishga olib kelishi mumkin. Bunday effektни yo'qotib, mayin yorug'likka erishish uchun, "rasseivatel" dan foydalanishga to'g'ri keladi. Agar vspishka fotoapparatga o'rnatilgan bo'lsa, unda Soft Screen Westcott micro Apollo softbox nomli firmaning 36 \$li rasseivatelidan foydalanishingiz mumkin.



Uning yordamida vspishka yorug‘ligi bir maromda yoyilib, mayinlashadi, kelin kuyov va barcha mehmonlarni yoritish sifati yaxshilanadi. Shu yo‘l bilan, unchalik ko‘p vositalardan foydalanmay turib yanada professional natijalarga erishish mumkin.

Vspishkaning mayin yoyilgan yorug‘ligi (2-qism)

Mayin yoyilgan yorug‘likni hosil qilish uchun yo‘nalgan yorug‘likdan foydalanish lozim. Aynan yo‘nalgan yorug‘lik obyektlar tasvirda tekisdek ko‘rinib qolishini oldini oladi. Bu holatda gap tashqi emas, balki o‘rnatilgan “vspishka” haqida bormoqda. Tashqi “vspishka”larning afzalligi shundaki, fotosur‘atchi ularning yo‘nalishi va egilish burchagini o‘zgartirishi mumkin.

Suratga olish obyektining to‘g‘ri yuziga yo‘naltirish o‘rniga, bir yoki bir necha yuzadan yorug‘likni aks ettirishga harakat qilib ko‘ring:

1. Shiftdan. Agar, suratga olish xonasi shifti oq rangda bo‘lsa va uning balandligi 3 metrdan oshmasa, “vspishka”ni 45° burchakda shiftga yo‘naltirish mumkin. Bu holatda shift yorug‘likning bir qismini yutadi va obyektida aks etgan yorug‘lik sezilarli darajada mayin bo‘lib, odamning orqasida yorqin soya qoldiradi. Qolgan soya polda, kadr ortida qoladi. “Vspishka”ni yana qanday yo‘nalishda burish mumkin?



2. Asistent yoki do'stingiz yorug'lik aks ettirgichni suratga olinayotgan odamning o'ng yoki chap tarafidan turib, yelkadan biroz balandda tutib turishi mumkin. Bu holatda "vspishka"ni u tomonga yo'naltirishingiz kerak bo'ladi. Yorug'lik yarmini aks ettirgich yutib, uning qolgan qismini sur'atga olinayotgan obyektga ma'lum burchak ostida yo'naltiradi. Bu holatda ham yorug'lik obyektga to'g'ridan-to'g'ri tushmaydi. Soya suratga olish obyektining bir tomonidan yo'qolib, tasvirga bir qanday shakl baxsh etadi.

"Vspishka"dan ochiq havoda yoki to'y marosimlarida foydalanish

Professional fotosuratchilarning eng eski usullaridan biri bu – "vspishka"dan kunduz kuni quyosh yorug'ligi tushayotgan vaqtda foydalanishlaridir. Bir qarashda bu g'alati tuyuladi.



Fotosuratchilar quyoshli kunda, kelin kuyovning yuzi yanada tabiiy ko‘rinishi uchun, suratga olinayotgan insonlarning yuzidagi kuchli soyani yumshatish uchun “vspishka”dan foydalanib suratga oladi. Bundan tashqari, shunday usulda tasvirga olganda kelin-kuyovning ko‘zida yoqimli nur paydo bo‘ladi. Tasvir omadli muvozanatlanganiga ishonch hosil qilish uchun, uni fotoapparatning JK (suyuq kristall ekrani) da tekshirib ko‘ring. “Vspishka” marosim qatnashchilarining yuziga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilmasligiga ahamiyat bering. Fotoapparatningiz 45° burchakda ko‘tarilgan bo‘lishi kerak. Bunda uning yorug‘ligi to‘g‘ri suratga olish obyektiga yo‘naltirilgandagi kabi soyani yanada kuchaytirmasdan, balki uni yanada mayinlashtiradi. “Vspishka” 2,5 – 3 m masofada xato suratga olinayotgan sahnadan qaratilgan bo‘lsa ham foyda beradi.

O‘rnatilgan “vspishka” go‘yoki taqiqling qurol

Fotoapparatning o‘rnatilgan “vspishka”si faqatgina bugungi kunda insonga ma‘lum bo‘lgan, eng kuchli, qo‘pol va yoqimsiz yoritishni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan. Agar, siz kimdandir ranjigan bo‘lsangiz, uni o‘rnatilgan “vspishka” bilan suratga oling. Shunda siz undan a‘lamingizni olasiz.



Oʻrnatilgan “vspishka” bilan suratga olishdan qochishning muhim bir necha sabablari mavjud:

1. Oʻrnatilgan “vspishka” ning yorituvchi yuzasi juda kichkina. Yoritish yuzasi qanchalik kichik boʻlsa, yoritish shunchalik qattiq boʻladi.

2. Oʻrnatilgan “vspishka” kamera obyektivining ustida joylashgani uchun, sizda shaxtyorning ximoya kaskasi beradigan yorugʻlikka oʻxshash natija paydo boʻladi.

3. Fotoapparatning oʻrnatilgan “vspishka”sidan foydalanish sizga suratga olingan kishilarning koʻzi qizil boʻlib qolishiga deyarli 100 % kafolat beradi. Chunki “vspishka” obyektivga juda yaqin joylashgan boʻladi.

4. “Vspishka” toʻgʻridan-toʻgʻri surʼatga olinayotgan obyektning yuziga qaratilgani bois, siz yetarli shaklga ega boʻlmagan tekis tasvirga erishasiz.

5. Siz yorugʻlikning miqdori va yoʻnalishini deyarli boshqara olmaysiz.

Oʻrnatilgan “vspishka”ning natijasi yougʻlik bombasi bilan teng. Aynan mana shuning uchun koʻpchilik insonlar undan foydalanib surʼatga olganda, natijadan qoniqmaydilar. Shuning uchun, undan butunlay ilojisiz holatdagina foydalanishingiz mumkin. Masalan, quyosh obyektning ortidan yoritayotganda, tasvirda faqatgina qora soya hosil boʻlmasligi uchun, uni biroz boʻlsa ham yoritishingiz kerak boʻlganda.

Tashqi “vspishka”ning afzalliklari



Professional fotosuratchilar erishadigan natijaga erishish uchun yuqoridagi rasmda ko‘rsatilgan yoki quyida keltirib o‘tilgan, ko‘plab afzalliklarga ega tashqi “vspishka”lardan foydalanish lozim.

A. Siz yorug‘lik yo‘nalishini o‘zgartirishingiz mumkin. O‘rnatilgan “vspishka” da yorug‘lik to‘g‘ridan-to‘g‘ri obyekt yuziga tushadi.

B. Tashqi “vspishka”ni yuqoriga qaratishingiz mumkin. Bu uning eng katta afzalliklaridan biridir.

C. Hatto fotoapparatga o‘rnatilganda ham, tashqi “vspishka” o‘rnatilgan “vspishka” dan balandroq bo‘lgani bois, “qizil ko‘z” effekti paydo bo‘lishi ehtimoli ancha kamayadi.

D. Bu ancha yuqori yoritishni ta‘minlovchi, ancha kuchli, nazorat qilish mumkin bo‘lgan “vspishka” hisoblanadi.

Zamonaviy “vspishka”lar deyarli barcha ishni sizning o‘rningizga bajaradi.

“Vspishka” dan tushayotgan yorug‘likni qanday qilib yumshatish mumkin?

Yuqorida keltirilgan maslahatlarga amal qilib, siz “vspishka” yordamida ancha sifatli tasvir yaratish sirlarini bilib olgan bo‘lishingiz kerak. Biroq “Yorug‘lik hali ham juda kuchli” degan muammo o‘z yechimini topmadi. Gap shundaki, “vspishka” ning o‘lchami juda kichkina. Yorug‘lik manbayi qanchalik kichik bo‘lsa, yorug‘lik shunchalik qattiq bo‘ladi. Buni siz bilib olgan bo‘lishingiz lozim. “Vspishka”dan

tushayotgan yorug‘likni mayinlashtirishning ko‘plab usullari mavjud va har bir fotosur‘atchi bu muammoni O‘zining usuli bilan bartaraf etadi.



Ularning barchasi “vspishka” yorug‘ligini mayinlashtirish uchun qandaydir usullarni qo‘llaydilar. Bu professional fotosuratchilarning uchinchi siri xisoblanadi. “Vspishka”dan kelayotgan yorug‘likni mayinlashtirishning oson va tez usulidan biri “rasseivatel”lardan foydalanishdir. Kichik o‘lcham va massada u ajoyib natija beradi. Siz faqat uni “vspishka”ga kiydirib, 45 burchak ostida yuqoriga qaratishingiz kerak bo‘ladi xolos. Nikon SB-800 “vspishka”sini xarid qilganingizda, to‘plamda SW-10 “rasseivatel”iga ega bo‘lasiz. Shuni aytish kerakki, u aks yorug‘likni ettirish mumkin bo‘lgan binoda yaxshi natija beradi. Ochiq havoda u deyarli oppoq bo‘lib chiqadi.

“Vspishka”ni ikkinchi parda bo‘yicha sinxronlash (nima uchun undan foydalanish kerak)

Fotoapparatlarda boshlang‘ich yoqilmagan funksiya mavjud. Buni o‘zingiz bajarishingiz lozim. Gap “Ikkinchi parda bo‘yicha sinxronlash” to‘g‘risida bormoqda. Bu funksiyani ishga tushirib, fotosur‘atlaringiz sifati sezilarli yaxshilanganini ko‘rib, bu funksiya nima uchun boshlang‘ich sozlanmaganiga hayron bo‘lasiz. Oddiy “vspishka” siz suratga olish tugmasini bosganingizda ishga tushadi va o‘sha soniyadagi harakatni yoritadi. Natijada, siz kadrda fon qop qora bo‘lgan tasvirga ega bo‘lasiz. Ikkinchi pardada sinxronlash funksiyasini sozlaganingizda, “vspishka” faoliyatini bir qancha soniyaga cho‘zib beradi.



Natijada, fotoapparatingiz sozlanib, orqa plandagi yorug‘likni baxolashga ulguradi va orqa planni oxirgi soniyada yoritib, ishga tushadi. Shundagina tasvir foni qora bo‘lib chiqmaydi. Orqa fon yaxshi yoritilishi natijasida siz uning rangi vadetallarini baholay olasiz. Qisqasi, fotosurat yanada professional ko‘rinadi. Yuqorida keltirilgan tasvirlarning chap tarafdagisi fotoapparatning standart sozlamalari yordamida sur‘atga olingan. Ahamiyat bergan bo‘lsangiz, orqadagi fon qoronhu va xira bo‘lib chiqqan. O‘ngdagi tasvirni suratga olish uchun fotosuratchi faqatgina bir sozlama – ikkinchi pardada sinxronlash funksiyasini ishga tushirgan. Siz ushbu rejimda bir nechta tasvir yaratishga harakat qiling va shunda farqni yaxshi sezasis.

“Vspishka” bilan ishlashning to‘rtinchi sharti




Eng qiziqarli (to'rtinchi shart) ni biz oxiriga qoldirdik. Ushbu uslub bilan siz obyektning maksimal darajada tabiiy yoritilishiga erishasiz. Agar barchasini to'g'ri bajarsangiz, huch kim siz "vspishka"dan foydalanganingizni aniqlay olmaydi. Hamma sizni har qaerda mayin va yoqimli yorug'lik topishingizga ishona boshlaydi sizning vazifangiz shundan iboratki, "vspishka"dan kelayotgan yorug'lik tabiiy yorug'lik bilan bilinmasdan aralashib ketishi va uni to'ldirishi lozim. Buning siri diafragma yoki "viderjka"ning ko'rsatkichini o'zgartirish emas. Shunchaki "vspishka"ning yorqinligini darajasini tabiiy yorug'likka mos ravishda sozlash kerak xolos. buning uchun "vspishka"ni yo'naltirilgan yoritish yaratish fotoapparatdan oling va yorug'likni kamaytiring. So'ngra suratga olib, tekshirib ko'ring. Xoynaxoy "vspishka" dan tushayotgan yorug'lik tabiiy yorug'likdan kuchliroq bo'ladi. Agar shunday bo'lsa, yorug'likni yana bir karra kamaytirib, yana suratga olib, tekshirib ko'ring. Kamerangizning JK (suyuq kristal ekraniga qarab, tasvirda "vspishka"ning yorug'ligi juda ko'payib ketmaganiga ishonch xosil qiling. "Vspishka" ning yorqinligini kamaytirishni toki unin yorug'ligi tabiiy yorug'likka tenglashib, uni faqatgina to'ldirmagunga qadar davom ettiring. Natijada, "vspishka"ning yorug'ligi huddi yuqorida keltirilgan tasvirdagi kabi deyarli sezilmay qoladi. Sizga kerakli yorug'likka erishish uchun, besh yoki oltita tekshiruv suratlariga olish kerak bo'ladi. Raqamli fotoning yaxshi tarafi shundaki siz bunday suratlarni olib, o'rganishingiz uchun hech qancha mablag' sarflamaysiz. Siz to'g'ri kerakli natijaga erishmaguningizcha bemalol tajriba qilishingiz mumkin.

Gel filtrlar va ulardan foydalanish doirasi



“Vspishka”dan chiqayotgan yorug‘lik doimo bir hil, ya’ni oq rangda bo‘ladi. Ajoyib oq rang har qanday vaziyatda qo‘l keladi. Biroq agar, xona yorug‘ligi “vspishka” yorug‘ligi rangiga to‘g‘ri kelmaydigan ofisda, yoki kiyinish xonasida, majlislar zalida portret olishga to‘g‘ri kelsachi? Bu ancha jiddiy muammo bo‘lib, shuning uchun ham ko‘pchilik gel filtrlar “vspishka”lar bilan bir to‘plamda sotiladi. Gel-filtrni “vspishka” ga o‘rnatish uzog‘i bilan 20 sekundni oladi. Bu filtrlar ularga ketgazgan vaqtingizga arziydi. Sariq gel filtr “vspishka”ning yorug‘ligini volfram lampalardan kelayotgan yorug‘likka moslashtirib bersa, yashili – fluorescent yoritishda yaxshi natijaga erishishni ta‘minlaydi.

“Vspishka” bilan qanday masofadan turib suratga olgan ma’qul



“Vspishka” bilan suratga olishda yaxshi natijaga erishish uchun, obyektдан qancha uzoqlashish zarur? Agar siz yorug‘likni mayinlashtiruvchi usullardan – “rasseivatel”dan, shiftga yorug‘likni yo‘naltirishdan va boshqa usulardan foydalanib, suratga olayotgan bo‘lsangiz, unda obyektдан 3 metrdan ortiq uzoqlashmaganingiz ma’qul. Agar bunday holatda siz obyektдан uzoqlashib ketsangiz sizning fotoapparatingiz “vspishka”sining kuchi uni yoritishga yetmaydi.

Quyosh yorug‘ligini bostirish

Bu uslub ko‘pincha to‘y marosimlarini ochiq havoda suratga oluvchi fotosuratçilar uchun kerak bo‘ladi. Bunday holatda “vspishka” quyosh nuri bilan yoritilgan obyektlarni yoritish uchun ishlatiladi. Bunday uslubni “Quyosh yorug‘ligini bostirish” deyiladi. Buning uchun quidagilarni: ekspozitsiyani oddiy quyoshli kunda suratga olinayotgandek sozlab,

odatdagidan qorong‘u tasvir hosil bo‘lishi uchun, ko‘rsatkichini bir necha bo‘lakka bo‘lib oling. Shundan so‘ng, “vspishka”ni yoqib, obyektni uning yordamida suratga oling. Natijada, juda qiziqarli tasvir hosil bo‘ladi.



Shu yo‘l bilan fotoapparatingizni P (programmali) rejimga sozlab, so‘ngra suratga olish tugmasini fotoapparat ushbu quyoshli sahna uchun tanlagan “viderjka” va difragma ko‘rsatkichi bilish uchun yarmigacha bosib turing. Bunday holatda “viderjka” ko‘rsatkichi 1/80 ni, diafragma ko‘rsatkichi esa f11 nitashkil etsin. Endi M (Qo‘lda boshqariladigan) rejimga sozlang va “viderjka” ning ko‘rsatkini 1/80, diafragmanikini esa f11 etib belgilang. Sahnani yetarli qorong‘ulashtirganingizga ishoch hosil qilish uchun tekshiruvchi suratga olib ko‘ring. Agar yetarlicha qorong‘ulashmagan bo‘lsa, unda diafragma ko‘rsatkichini f22 ga o‘zgartirib yana bir marotaba suratga olib ko‘ring. Ekspozitsiya yetarli emasligini sezishingiz bilan “vspishka”ni yoqib, obyektni tasvirga tushiring. Ko‘p fotosuratchilar avvaliga “vspishka”ni eng yorqin yorug‘ligida tasvirga olib, tekshirib ko‘radilar. Agar tasvir juda yorqin bo‘lib ketsa, “vspishka”ning yoritishini to tabiiy yorug‘likka mos kelmagunga qadar pasaytirib tasvirga olishda davom etadilar.

Halqali “vspishka” effektini qo‘llash ta’siri

Bu (chuqurliksiz, suratga olish obyekti aniq chekka va ifodali soyaga ega bo‘lgan) effektini yoki juda yoqtirish, yoki umumon yoqtirmaslik mumkin. Shu bois, agar, sizga halqali “vspishka” effekti ma’qul kelmasa, bunday ish bilan umuman shug‘ullanmaganingiz ma’qul.



Chunki, halqali “vspishka”larning narxi juda qimmat turadi va ular juda qo‘pol, og‘ir, ishlatishga noqulay hisoblanadi. Biroq hozirgi kunda fotoapparatlar uchun yengil, narxi ham arzon bo‘lgan, halqali “vspishka”larning ishini a’lo darajada uddalay oluvchi halqali qoplamlar ishlab chiqarilmoqda. Ularni hozirgi kunda moda dunyosida urf bo‘lgan effektlarni qo‘llash uchun foydalanish mumkin. Bunday qoplama Ray Flash deb nomlanadi va u to‘g‘ridan-to‘g‘ri fotoapparat “vspishka”siga kiydiriladi. Fotoapparat obyektivi esa ushbu qoplama teshigidlan harakat qiladi. Mohiyatiga ko‘ra, “vspishka”ning yorug‘ligi yengil va arzon, hech qanday quvvat tal’ab qilmaydigan aks ettirgich halqasiga yo‘naltiriladi.

Portretlarni yaxshilashning professional uslubi



Kichik tashqi “vspishka” yordamida portret yaratayotib, ko‘pchilik professionallar natijani yaxshilashning oddiy usulidan foydalanadilar. Ular sutkaning har qanday vaqtida ham “vspishka”ga olovrang gel filtrni o‘rnatib foydalanadilar. Bunday filtr 1/4 STO (Color Temperature Orange).

Odamlarni suratga olayotganda, teri rangini yaxshilash uchun bu filtrni “vspishka”dan umuman yechmagan ma’qul.


Tiniqlik kiritish nuqtasi ekspozitsiyaga qanday ta’sir ko‘rsatadi

Bugungi kunda fotoapparatlarning kichik tashqi “vspishka”lari o‘z ishini a’lo darajada uddalamoqda. Buning sababi, ular “vspishka” quvvatini suratga olinayotgan sahna ekspozitsiyasiga mos ravishda, avtomatik tarzda sozlashidir. Canon kompaniyasi bu texnologiyani TTL (through-the-lens metering), Nikon kompaniyasi esa o‘zining analogik texnologiyasini i-TTL (intelligent-through-the lens metering) deb nomlaydi. Bizga bu nima uchun kerak? Gap shundaki, “vspishka”ning quvvati siz suratning tiniqligi va ekspozitsiyasini sozlash uchun qanday nuqtani tanlashingizga bog‘liq. Agar siz tiniqlikni tasvir obyektiga yo‘naltirsangiz, bu ko‘rsatkich bilan birga “vspishka”ning quvvati ham o‘zgaradi, agar siz uni fonga yo‘naltirsangiz, unda “vspishka”ning quvvati tasvir obyektini emas, balki fonni yoritish uchun moslashadi.



Aynan shuning uchun tasvirga olish vaqtida “vspishka”ni yaxshi yoritish lozim bo‘lgan fragmentga yo‘naltirishingiz kerak. Shundagina suratga olish natijalari sezilarli darajada yaxshi bo‘ladi.

“Vspishka” joylashish balandligi



Siz o‘z simsiz “vspishka”ngizni sozlab, uni shtativga o‘rnatdingiz yoki do‘stingizga, asistentingizga berdingiz deylik. Shunda sizda: “Vspishka”ni qancha balandlikda o‘rnatib, qaerga yo‘naltirish kerak”, degan yagona savol tug‘iladi. Bu juda oddiy. “Vspishka”ni quyosh qaerda bo‘lishi kerak bo‘lsa, o‘sha yerga joylashtiring.

Quyosh odamlarga yuqoridan yorug‘lik bergani kabi, “vspishka”ni ham yuqoridan yorug‘lik berishi uchun, obyektдан ancha balandga o‘rnatib va uni obyektga yo‘naltiring. Agar siz binoda sur‘atga olayotgan bo‘lsangiz, binoning tomini yo‘qdek tasavvur qiling.

“Vspishka”ni obyektga qaysi tomondan yo‘naltirgan ma‘qul?



Mashhur fotosuratchi potretchilar ko‘pincha “vspishka”ni obyektning chap tarafiga o‘rnatadilar. Bir mashhur fotosuratchi hali yosh bo‘lishiga

qaramay, chap qo'lida "vspishka"ni ushlab, o'ng qo'lida kameraning suratga olish tugmasingi bosar edi. Bu unga yillar davomida odat bo'lib qolgan edi.

Aynan nima uchunligini tushuntira olmasak ham sizga "vspishka" ni ob'ektning chap tarafiga o'rnatishni tavsiya qilgan bo'lar edik.

Nazorat savollari

1. "Ikkinchi parda bo'yicha sinxronlash" rejimi qanday natija beradi?
2. Xona rangi "Vspishka"ning rangiga mos kelmasa...
3. Sozlangan "Vspishka" bilan suratga olayotganda, ob'ektdan necha metr dan ortiq uzoqlashmagan ma'qul?
4. Portret suratga olayotganda inson terisi rangini yaxshilash uchun "vspishka"ga qanday rangdagi filtr o'rnatgan ma'qul?
5. "Vspishka" ni obyektning qaysi tomoniga o'rnatgan ma'qul?
6. Halqali "vspishka"ning o'rniga nimadan foydalanish mumkin?

II BOB. RAQAMLI FOTOGRAFIYADA IJODIY YONDASHUV

2.1. Fotografiyada kompozitsiya

Fotografiyada kompozitsiya – bu tasvirga olish jarayonining tashkiliy va ketma-ket bosqichlari qoidalari bo‘lib, tasviriy g‘oyani amalga oshirishni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, kompozitsiya bu qismlarning mutanosibli va o‘zaro hamohang joylashuvidir.



Fotografiya singari kompozitsiya to‘g‘risida ko‘plab kitoblar va o‘quv qo‘llanmalar yozilgan. Tabiiyki, qoidalarga muvofiq hodisalarni odatiy holda usullarni qo‘llash mumkin bo‘lsada, ayrim hollarda g‘ayri odatiy, ya‘ni bahs va munozaralarga sabab bo‘ladigan qoidalari ham mavjud. Har qanday holatda ham hech ikkalanmasdan aytish mumkinki, asosiy kompozitsion qoidalarni bilmasdan turib, sifatli foto tasvirni yaratish mumkin emas. Kompozitsiyani xis etish ham musiqachining ohangni sezish singari tug‘ma mahorat talab etiladi. Kompozitsion mahoratni

ohangni sezish singari keyinchalik rivojlantirish mumkin. Shuning uchun ham kompozitsion mahorat bo'yicha bilimlarni shaxs tomonidan umumqoidalar asosida rivojlantirish va amaliy tajribalarini mustahkamlashi talab etiladi.

To'g'ri kompozitsiya

Deyvid Myunx, Muz Peterson, Stiven Jonson va Jon Shou kabi raqamli peyzaj fotografiyalarining mahoratli ustalarining ishlari kuzatilganda, ularda bepoyon kengliklarga ega manzarani uchratish mumkin.

Mazkur fototasvirlarda uchta asosiy elementga diqqatni qaratish mumkin. Birinchi element – bu tasvirdagi asosiy plan. Masalan, agar fotografiyada quyoshning botishi dengiz ortiga kuzatilayotgan bo'lsa, u holda tasvir suv yuzasidan aks ettirilmasdan, balki bu jarayonni to'liqroq va ma'noliroq aks ettirish uchun dengiz qirg'og'idagi elementlarni qo'shgan holda kuzatilishi ancha ma'no beradi. Bu holda dengiz qirg'og'i asosiy old planga aylanadi. Ikkinchi element – bu suratga olishning asosiy obyektini hisoblanadi. Mazkur fotografiyada asosiy obyekt sifatida ortiga quyosh botayotgan dengiz yoki botayotgan quyoshning o'zi hisoblanadi. So'nggi, uchinchi element – bu orqa plan hisoblanadi. Quyoshning botishi aks ettirilgan mazkur fotografiyada – bu osmon va bulutlar hisoblanadi. Kuzatuvchida mazkur peyzajli fotografiya haqida kuchli taasurot hosil qilish uchun yuqoridagi uchta elementning ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi surat olingan fotografiya haqida o'zingiz mulohaza qilib ko'ring: “Asosiy old plan sifatida qaysi tasvirni tanlab olish mumkin?”. Ushbu asosiy hodisa havaskor-fotograflarning tez-tez yodidan ko'tarilib turadi.

Suratga olishda peyzajni yuqorida ko'rsati bo'tilgan uchta elementni doimiy ravishda yodda tutish va qo'llash zarur, shunda tasvirning haqiqiy go'zalligi va keng qamrovliligini ajoyib tarzda uzatuvchiga etkazish mumkin. Kelasi tasvirga olish jarayonida o'zingizga “Oldi plan sifatida nimani tasvirlashim lozim?” degan savolni bering. Doim peyzajning uch elementini yodda tutsangiz uning go'zalligini etkazib bera olasiz.



Tasvirida joyini to'g'ri ko'rsatish uchun chiziqli va tusli perspektiva qonuniyatlarini bilish va qo'llash lozim:

Chiziqli perspektiva – bu parralel chiziqlarning bir nuqtada tutashishga intilishidir. Birhil o'lchamdagi predmet va obyektlar bizdan qancha uzoq bo'lsa, shunchalik kichik ko'rinadi.



Tasvirning chiziqli perspektiva sieng avvalo tasvirga olish nuqtasini tanla bolishga bog'liq. Bu – kamera o'rnatilgan balandlik, obyektgacha bo'lgan masofa va kameraning qaerga qaratilganligidir. Bulardan tashqari fokus masofasi perspektivani uzatishga ta'sir ko'rsatadi. Shuni yoddatutingki keng burchakli obyektiv perspektivani cho'zsa, uzoq fokusli obyektiv esa buning aksini qiladi.

Tusli perspektiva




Tusli perspektiva tushunchasiga (ko‘pinch “havoli” deb ham ataladi) birinchi bo‘lib Leonardo da Vinchi: “Masofadagi buyumlar senga ikkilamchi va shubhali ko‘rinadi; sen ularni tasvirda bir hil masofada turgandek ko‘rinib qolmasligi uchun senga qanday ko‘rinsa shunday tasvirla. Ko‘zdan uzoq buyumlarni chegaralama, aks holda nafaqat ushbu chegara, balki tana qismlari ham sezilmay qoladi” deb ta‘rif bergan. Leonardo yana predmetlar uzoqlashgan sarioch ko‘kintir tusga kirib, rangi ham ochlashib boraveradi deb yozib qoldirgan. Fotosuratlar ham huddi chizilgan rasmlar singari tekkislikka yaratiladi. Chuqurlik illyuziyasini ham tusli pespektiva orqali yetkazish mumkin. Tusli perspektiva orqali ifodalangan yanada ma‘noliroq tasvir butumanda ishlangan tasvirdir. Bunday holda old planga qoronguroq obyektzni qo‘yamiz. Keyingi planga biroz mayinroq tUSDagi obyektlar qo‘yilsa, orqa plandagi obyektlar esa, deyarli detallarga ega bo‘lmaydi. Aynan ob‘ektlar orasidagi bir-biriga o‘zaro yumshoq o‘tish, ya‘ni tusli gradient tasvirda chuqurlik joylashuvi illyuziyasini yaratadi.

Fotografiyada oltin kesma qoidasi

Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlaridan biri – “Oltin kesma” qoidasi bo‘lib, ushbu qoidaning kashf etilishi Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Suratni 9 ta TENG bo‘lakka bo‘ling va hosil bo‘lgan kesimlarning o‘zi “uchinchi qoida tugunlari” bo‘ladi.

Syomka obyektlarini chiziqlar kesishish nuqtalarida joylashtirib ko‘rishni maslahat beraman. “Oltin kesma qoidasi” – bunday termin fotografiya bilan qiziqadigan odamlar orasida ko‘p qo‘llaniladi. Birinchi yaqinligi bo‘yicha uni “uchinchi qoidasiga” qo‘llash mumkin.



Vaholanki, bu unchalik ham to‘g‘ri emas. Qiziquvchilar uchun: oltin qoida va uchinchi qoidasi orasidagi farq bu dars xotimasida yoritilgan. Tajribasi fatida sinab ko‘ring. Yalqovlik qilmang! Boring, qandaydiruy, sahnabop portret, idishlarni suratga oling. Urinib ko‘ring. Oltin kesma qoidasi sizning suratingizni tirik va qiziqarliqilishi mumkin! Yana bir maslahat. Syomka obyektini aynan “panjara tuguni”ga joylashtirishingiz shart emas. Agar obyekt chiziqda joylashsa surat qiziqarliroq ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin.

Peyzajni tasvirga olishning oltin qoidasi



Peyzajni tasvirga olishning oltin qoidasi mavjud bo‘lib, agar siz bu qoidani aniq amalga oshirmasangiz, sizning yaratgan tasviringiz professionallar yaratgan tasvirlardagi kabi natijaga bermaydi. Peyzajni tasvirga oluvchi fotograflar kuniga faqat ikki marotaba sur‘atga olishlari mumkin. Birinchisi bu – quyosh chiqishidan 15 – 30 daqiqa avval, tongda suratga olgan ma’qul. Ikkinchi vaqt bu – shom vaqti. Nima uchun kuniga faqat ikki marta? Bu qoidasi. Gap shundaki, tongda va shom vaqtida professional sifatli peyzaj tasvirini yaratuvchi yumshoq iliq rangni va yengil soyani uchratish mumkin.

Gorizont chizig‘i

“Gorizont chizig‘i qayerda bo‘lishi lozim?” degan savolga javob oddiy. Gorizont chizig‘ini aslo o‘rtaga joylashtira ko‘rmang, aks holda sizning peyzajlaringiz “polyaroid”li tasvirga o‘xshab qoladi. Avvalo, o‘zingiz uchun e’tiborni nimaga: osmon yoki yerga jalb qilmoqchi ekaningizni aniqlab oling. Agar osmon ajoyib ko‘rinishda bo‘lsa, shunday qilingki gorizont chizig‘i fotosuratning uch qismining eng pastida joylashsin. Agar yer yoki suv havzasi qiziqarliroq ko‘rinsa unda gorizont chizig‘i fotosurat uchligining yuqori qismida joylashgan bo‘lishi lozim. Eng asosiysi, bu metodlarning har biri fotosuratga yanada ko‘proq chuqurlik va kolorit beradi.



Agar peyzajni suratga olishda omonda hech qanday qiziq narsa uchratmasangiz, unda uchdan biri qoidasidan voz kechib, kadrda osmonning kerakli minimal qismini qoldirishingiz mumkin. Osmon va suvning 7/8 qismini, osmonning esa 1/8 qismini tasvirga oling. Natijada, tomoshabinlarni yanada qiziqarliroq oldi plan o'ziga jalb qiladi.

Xayrat uyg'otuvchi tog' tasvirlarini suratga olish

Biz oddiy hollarda qaramaydigan burchakdan suratga oling. Masalan, agar siz tog'ni tasvirga olayotgan bo'lsangiz, yo'lyuzida turmang. Bunday ko'rinishni deyarli xamma tomosha qilgan. Shuning uchun pastdan tepaga suratga olmang. Insonlarni qiziqtiruvchi va xayratlantiruvchi tog' tasvirlarini yaratish uchun, noodatiy pozitsiyada, ya'ni tepadan pastga qarab suratga oling. Agar xavfsiz bo'lsa iloji boricha yuqoriga chiqib, fotoqurilmani o'rnatib, tepadan pastga qarab yoki gorizont chizig'i bo'ylab tasvirga oling.



Yana shunga o'xshash qoida, ya'ni gullarni tepadan pastga qarab suratga olmaslik qoidasi mavjud. Biz gullarni doimo yuqordan tomosha qilamiz. Shunday ekan bizni yuqoridan olingan gullar tasviri hayratga solaolmaydi. Tog'larni esa biz aksincha, pastdan ko'ramiz. Bu qoidaga amal qilinmay yaratilgan tasvirlar insonlarda hech qanday taassurot uyg'ota olmaydi. Chunki ular bu manzarani ko'p marotaba ko'rganlar¹.

Qanday qilib o'lchamni yetkazish mumkin?

Agar sizga Kaliforniyadagi bahaybat "sekvoyam" yoki Yuta shtatida joylashgan haykallar vodiysidagi katta qoyaga o'xshash biron bir narsani tasvirga olish baxti nasib etgan bo'lsa, xoynaxoy siz hosil bo'lgan tasvirga qarab xafsalangiz pir bo'lgan. Fotosuratlarda o'lcham unchalik sezilmaydi. Aslida "sekvoy"lar diametr bo'yicha yuk mashinasidan qaliroq bo'lsada, tasvirda ular qo'shni bog'dagi qarag'aylarga o'xshab qoladi. Tutib turish (Viderjka): 1/2 soniya, Diafragma: F/22, ISO: 100, Ekvivalent fokus masofasi: 24 mm., Fotograf: Skott Kelbi.

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.



Shunday ekan, o‘lcham kattaligini yetkazish uchun tasvirda bir qancha “etalon” obyektlar bo‘lishi lozim. Misol uchun, ko‘pchilik fotosuratçilar tog‘ni tasvirga olishda kadrda insonlar bo‘lishini ma’qul ko‘radilar. Bu tomoshabinga tog‘larning qanchalik baxaybat ekanligini yetkazib beradi. Bu usul kichik buyumlarni tasvirga olishda ham qo‘l keladi. Shunchaki kichik predmetlarni insonning qo‘liga tutib qo‘ying va shunda tomoshabin buyum qanchalik kichik ekanini tushunib yetadi.

Nazorat savollari

1. Kompozitsiyaning asosiy uchta elementlari?
2. Perspektivaning berilishiga ta’sir etuvchi asosiy faktorlar?
3. “Oltin kesma” qoidasining asosiy xususiyatlari?
4. Gorizont chizig‘i qanday aniqlanadi?
5. Obyektning hajmi qanday tasvirlanadi?

2.2. Turli xil sharoitlarda yorug‘likni qo‘llash

Ma’lumki, istalgan olingan tasvirni bir necha elementlarga ajratish mumkin. Aynan kompozitsiya mavzuva yorug‘likka ajraladi. Yorug‘lik har bir fotosuratda muhim hisoblanadi. Tasvirning o‘zi bu – yorug‘lik.

Tabiiy chiroq va yorug‘lik fotosuratda eng murakkab va shu bilan birga eng ilhomlantiruvchi hisoblanadi. Siz doim quyoshni kuzatishingiz va u doim sizning diqqat-markazingizda bo‘lishi lozim. Harakat yo‘nalishi, yorug‘likning miqdori va sifati, tinimsiz o‘zgaruvchi burchak – bularning barchasini hisobga olish lozim.

Fotosuratda yoritish turlari

Har bir boshlang'ich fotosur'atchi uchun allaqachon mavjud bo'lgan suratga olish obyektini yoritishni klassifikatsiya qiluvchi quyidagi atamalarni yoddan bilishi lozim:

1. Chizuvchi yorug'lik.
2. To'ldiruvchi yorug'lik.
3. Kontr yorug'lik.

Ko'chada suratga olayotganda quyosh yorug'ligi chizuvchi yorug'lik rolini bajaradi. Bundan tashqari turli xil yuqori KPDli yuzalar (masalan, kumushrang oyna yoki yorug'lik qaytargich) manba bo'lishi mumkin. To'ldiruvchi yorug'likni bulutli osmon, yoki qo'shimchasiga obyekt atrofidagi yorug' yuzalar: oq yorug'lik qaytargich, yorqin devor, hattoki sohildagi qumlar ham yortishi mumkin. Kontr yorug'likka esa biz yoki shomda yoki tong vaqtida yani quyosh obyekt ortidaligida tasvirga olib erishishimiz mumkin.

Chizuvchi yorug'lik tasvirning umumiy kontrastidan, yorug'lik va soyaning bir-biriga qattiq o'tishi hamda yuqori detalizatsiya bilan xarakterlanadi.

To'ldiruvchi yorug'lik – bu chizuvchi yorug'likni to'ldiruvchi yorug'lik hisoblanadi. U chizuvchi yorug'lik singari yuqori kontrasga ham, fakturaga ham, Yuqori detalizatsiyaga ham ega emas. Ammo bunday chiroqning o'z afzalliklari mavjud. Bu yorug'lik yumshoq, plastik va tasvirning qorong'u qismida ham yorug' qismida ham detallarni saqlab qoladi.

Kontr yorug'lik hajm bilan yaxshi ishlaydi. U tasvirda chuqurlikni ko'rsatib, soyani aniq belgilab, predmetni orqa fondan ajratadi.

Tasvirga olishda tabiiy yoritish

Agar siz maktabda fizikani yaxshi o'zlashtirgan bo'lsangiz, unda siz chiroq bir chiziqda joylashishi bilsangiz kerak. Yorug'lik qanday katta kuchga egaligini bir tasavvur qilib ko'ring! Bu tus, shakl va soya ustidan cheksiz hukmronlikdir. Tabiiy yorug'likda tasvirga olayotganda har doim yorug'lik quyosh harakatiga proporsional ekanini yodda tutish lozim.

- Yoyilgan yorug'lik xarakterga ega emas. U “ingichka yorug'lik” deyiladi. Bu yorug'lik san'at asari yaratishda keraksiz bo'lib, u barcha ulanish nuqtalarini yo'q qilib, qo'pol soya yaratadi.

- Agar yorug'lik manbayi orqa tomondan tushayotgan bo'lsa, sizda keskin yoritilgan tasvirhosil bo'lishi mumkin. Yorug'lik manbasi mavjud burchak topishga urinib ko'ring.

- Agar tasvirga olish vaqtida tasvirga olish predmeti va yorug‘lik manbayi orasidagi yo‘nalish burchagini o‘zgartirish eksperiment qilinsa, yaxshi natijaga erishish mumkin.
- Har bir fotografning orzusi – bu ajoyib tasvir yaratishga imkon beruvchi, predmetning ortida ma‘lum burchakka tushayotgan yorug‘likdir. Bu orzuni amalga oshirish uchun yorug‘lik qaytargichlardan foydalanish lozim.
- Transilyuminatsiya – bu ham tasvirni yoritishning yaxshi usullaridan biri. Bu usulda yorug‘lik yarim shaffof jismlar (masalan, sochlar, ayniqsa, och rangdagi sochlar) orasidan o‘tkaziladi. Bunday usul tasvirga noodatiy ko‘rinish baxsh etadi.
- Derazadan tushayotgan mayin yorug‘likni ham unutmash lozim. Bunday yorug‘lik manbayi boshqarish juda oson bo‘lgan ta‘sirchan miqdordagi yorug‘likni o‘tkazishga qodir. Kerakli natijaga erishish uchun oyna o‘rnatib, unga parda tortishning o‘zi kifoya. bundan tashqari ushbu usulni qo‘llash tasvirning yorug‘ va qorong‘u qismlari orasidagi kerakli nisbatni saqlashga yordam beradi.
- Yorug‘lik bor yerda soya ham bo‘ladi. Agar siz soya yaratib, uni boshqara olsangiz, hamda undan fotosuratda o‘rinli foydalana olsangiz, siz san‘at asari yaratishingiz mumkin.

Tasvirga olishda sun‘iy yoritish

Agar *en plein air* (*tabiatda, ochiq havoda*) tasvirga olishda fotosuratchi obyekt yoritilganligiga bilinmas darajada ta‘sir ko‘rsata olsa, demak, fotostudiya kerakli yoritish xarakterini yaratish uchun barcha narsaga ega bo‘ladi. Studiyaning yorug‘lik manbalariga impuls yorug‘lik (fotovspishka) va doimiy yorug‘lik manbalari (maxsus cho‘g‘lanma lampalar va yoyilgan hamda yo‘nalgan yorug‘likning lyuminesent lampalari) kiradi.

Sust yoritilgan sharoitda tasvirga olish

Kelin-kuyov va yaqin qarindoshlarini tasvirga olish kabi rasmiy tasvirga olish vaqtida iloji boricha shtativdan foydalanish tavsiya etiladi. Ammo yaxshi yoritilmagan sharoitda ko‘p tasvirlarni shtativdan foydalanmasdan olishga to‘g‘ri keladi va bu ko‘pgina noqulayliklar tug‘diradi. Agar qo‘lingiz tasvirga olish jarayonida birozgina qimirlab ketsa ham fotosuratlar xira chiqadi.




Xo'sh, qanday qilib professional fotosuratchilar yaxshi yoritilmagan sharoitda tasvirni aniq olishga erishadilar? Bunday holatlarda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1. ISO ko'rsatkichini (yorug'lik sezuvchanligini) ko'tarish lozim. Nikon, Canon singari zamonaviy raqamli ko'zguli fotoapparatlar juda yuqori ISO ko'rsatkichi bilan, raqamli shovqin hosil qilmasdan tasvirga olish imkonini beradi. Xo'sh, bu ko'rsatkichni qay darajada oshirish mumkin? Eng kamida ISO 800 gacha oshirish mumkin. Ammo, ko'p hollarda bundan ancha yuqori, masalan, ISO 1600 va fotoapparat imkoniyatiga qarab undan ortiq darajadagi ko'rsatkichni qo'llash mumkin. Bunday ko'rsatkich bilan yaxshi yoritilmagan sharoitda ham shtativsiz qo'rqmasdan tasvirga olish mumkin.

2. Bundan tashqari obyektivga maksimal darajada yorug'lik tushirish uchun, diafragmaning minimal ko'rsatkichida (masalan, $f/1,4$, $f/3,5$), tasvirga olishga imkon beruvchi obyektivlardan foydalanish lozim.

Kelinni tasvirga olishda ideal yorug'lik

Agar qidirib ko'rilsa, deyarli barcha to'ylarda yertaklardagi kabi yoritilgan joyni topish mumkin. Ammo shunday joy topilgan taqdirda ham bu joyni nima qilish kerakligini bilib olish lozim. Albatta, gap derazadan tushuvchi tabiiy yorug'lik haqida bormoqda. Bunday yorug'lik sharoitida tasvir albatta, yaxshi chiqadi. Fotosuratchi quyosh nurlari to'g'ri yo'nalmagan, binoga mayin yoyilgan yorug'lik tushuvchi shimol tarafdagi derazani topishi lozim.



Bunday deraza topilgach, kelin-kuyovni uning oldidan 2 – 2,5 sm nariga turg‘izish lozim. Bunda yoyilgan yorug‘lik kelinning qomatiga maksimal darajada tushadi. Bunday joy marosim boshlangunga qadar kelinni uning ota-onasi bilan hamda o‘zini suratga olish uchun juda mos keladi.

Shomda nimani tasvirga olish mumkin?

Shom o‘zi tasvirga olish uchun qiziq vaqt bo‘lgani bilan kunning bu vaqtida noodatiy tasvirlar olishning yana bir ajoyib usuli bor. Bu usul soya hisoblanadi. Soyani tasvirga olishning asosiy ikki usuli mavjud. Birinchidan, tasvirdagi obyektни soyasiga qarab oson aniqlash mumkinligiga ishonch hosil qilish kerak.



Tomoshabinda tasvirdagi soyani ko‘rib, “bu nima?” degan savol uyg‘onmasligi lozim. Ikkinchidan, suratga olinayotgan obyektни botib borayotgan quyoshning oldiga qo‘yish lozim. Shunda quyosh obyekt ortida berkinib, soyaning konturlarini yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi va bu soyaning qora chiqishiga kafolat beradi.

Qanday qilib ko‘chada yaxshi yoritishga erishish mumkin?

Kunduz kuni yorug‘ vaqtda tasvirga olish uchun tabiiy yorug‘lik yetarli bo‘lgani bilan, bu yorug‘lik juda keskin tushib odamning yuzida kuchli soya hosil qiladi (bunda odam terlab, ko‘zi yumilib ketadi). Xo‘sh, unda qanday qilib kunduzgi soat ikkida yaxshi portretni yaratish mumkin? Bu juda oson. Shunchaki siz suratga olayotgan odamingizni yengil soya tushadigan joyga joylashtiring. Masalan, katta daraxtning yoki soyabon tagiga turg‘izishingiz mumkin. Shunchaki o‘zingiz quyoshning issig‘ida berkinadigan joyni tanlang. Yuqorida ko‘rsatilgan tasvirda ham bunga misol keltirilgan.



Chap tarafdagi tasvir tik tushgan quyosh yorug‘ligida olingan, o‘ng tarafdagi surat esa tasvirga olingan joydan 15 metr narida, soyada olingan. Ikkala suratda ham bir model bir xil rakursda tasvirga tushirilgan. Ikkinchi tasvir birinchisiga qaragan ancha sifatli chiqqaniga e‘tibor bering. Ikkinchi tasvirda birinchisiga qaraganda ranglar iliqroq chiqqan. Bundan tashqari, ikkinchi tasvir birinchisiga qaraganda ancha ranglarga boy bo‘lib chiqqan hamda model qiz ikkinchi tasvirda ancha yaxshi ko‘ringan. Soyada suratga olishning farqi katta bo‘lib, tasvir ancha yaxshi chiqadi.

Xonada sifatli yoritish

Professional fotosuratchilar binoga studiyalarda foydalaniladigan qimmatbaho jihozni oʻrnatmasdan tasvirga olish uchun qanday usullardan foydalanadilar? Eng yaxshi yorugʻlik – bu tabiiy yorugʻlik. Koʻpchilik professional fotograflar portret yaratishda iloji boricha tabiiy yorugʻlikdan foydalanadilar. Quyoshdan tushyotgan yorugʻlikdan foydalanish uchun, tasvirga olayotgan kishingizni quyosh nuri tik tushmagan deraza oldiga oʻtkazing. Shimolga qaragan yoki mayin, tik tushmagan yorugʻlik beruvchi istalgan deraza toʻgʻri kelaveradi. Kir boʻlgan deraza ham toʻgʻri kelishi mumkin.



Chunki u quyoshdan kelaetgan nurni parchalab, yanada mayin qiladi. Agar binoda yagona quyosh nuri tik tushuvchi deraza mavjud boʻlsa, unda ushbu derazaga parda yopishga urinib koʻring. Parda quyosh nurini yaxshi parchalaydi. Tasvirga olish obyektini derazaga koʻndalang turishi yoki yotirishi mumkin, ammo quyosh nurlari unga tik tushmasligi lozim. Yuzning yoritilmagan qismidagi mayin soya portret fotosuratni yaxshilab, unga joziba baxsh etadi.

Shom vaqtida portretni tasvirga olish

Barcha fotosuratchilar kunning osmon juda goʻzal boʻlgan vaqtida, yaʼni shomda tasvirga olishni xoxlaydilar. Birinchidan, shomda tasvirga olingan kishining tasviri koʻproq soyaga oʻxshab qoladi. Ikkinchidan, “vspishka”dan foydalanganda kishi yuzi juda och koʻrinadi. Xoʻsh, unda, botayotgan quyosh fonida kishining yuzi juda och rangda koʻrinmasligi uchun nima qilish kerak? Eng avvalo, “vspishka”ni oʻchirib, fokusni

osmonga qarating. Soʻngra ekspozitsiyaning kerakli koʻrsatkichiga erishish uchun suratga olish tugmasini yarmigacha (ekspozitsiya blokirovkasi tugmasi bilan birgalikda) bosib turgan holda fokusni tasvir obyektiga qarating.



Tasvirga olayotganda kishi yuzini yoritish uchun “vspishka”ni yoqing. Natijada, kishi yuzi kerakli darajada yoritilib, osmonning ham ajoyib koʻrinishiga erishiladi. Bu eski usul boʻlsada yaxshi natija beradi.

Koʻlni tasvirga olish

Fotosuratning xususiyati: harakatsiz suv yuzasi; suv tubi suvda aks yoʻqligi tufayli koʻrinmoqda; umumiy koʻkimtir tus; yorugʻlik va soya juda mayin; ajoyib panorama.



1. Bunday yorug‘likni, soat 5:30 da turib kuzatib bo‘lmaydi. Soat 5:30 dan avval uyg‘onib, quyosh chiqishidan avval tasvirga olishga tayyor bo‘lish kerak.

2. Haqiqatdan harakatsiz, tekis suv yuzasiga erishish uchun tongda sur‘atga olishga to‘g‘ri keladi. Chunki shom vaqtida shamol esib suvning bunday sokin ko‘rinishini buzadi.

3. Shtativni oyoqchalarini ochmasdan, toshlarga yaqinroq qilib o‘rnatilgan. Bu sur‘atga olishda qiziqarli rakurga ega bo‘lishga yordam beradi. Oddiy ko‘rinish burchagi zerikarli bo‘lgani bois, ko‘pchilik professional fotosuratchilar qo‘lda suratga olishlarini yodda saqlang.

4. Suvdagi osmonning aksi huddi mo‘jiza yuz bergandek yo‘q bo‘lib, suv tubidagi toshlar yaxshi ko‘rinishi uchun kameraga polyarizatsion filtr o‘rnatib, uni tasvir o‘zingizga kerakli ko‘rinishga kelguncha aylantiring. Polyarizatsion filtrlar faqat osmonni emas balki ko‘lni ham tasvirga tushirayotganda kerak bo‘ladi.

5. Tasvirga “panoramalilik” berish uchun keng burchakli obyektivdan foydalaning. Agar sizda zum 18 – 80 mm bo‘lsa, eng keng fokus masofadan, ya’ni 18mm dan foydalaning.

6. Diafragma prioriteti rejimida tasvirga oling. Bunda diafragmaning f/22 ko‘rsatkichidan foydalaning. Shunda tosh va tog‘larning barchasi aniq ko‘rinadi.

7. JPEG formatda suratga olayotganda tasvirdagi ko‘kimtir tusni kuchaytirish uchun oq balans rejimini fluoressent rejimga o‘zgartiring va suratga olib, JK (suyuq kristall) ekranda natijani tekshirib ko‘ring. Agar siz RAW formatida suratga olayotgan bo‘lsangiz, u holda, Photoshop dasturi bilan tahrirlash jarayonida ham oq balansni o‘zgartirish mumkin.

Ekspometrda qanday foydalanish lozim?

“Vspishka”ning yorinligi darajasini o‘lchashdan avval, quyidagi ikkita ishni bajarish lozim:

1. Ekspometrda fotoapparatdagi suratga olish uchun o‘rnatilgan ISO ko‘rsatkichini kiriting. Masalan, agar fotoapparatdagi ISO 200 ko‘rsatilgan bo‘lsa, ekspometrda ham ISO 200 ko‘rsatkichini kiriting.

2. Ekspometringizning dumaloq plastik qopqoqchasi ochiqlikiga ishonch hosil qiling.

Ana endi qurilma foydalanishga tayyor bo‘ldi. Ko‘pchilik kishilar ekspometrni “vspishka”ga qaratib o‘lchashga o‘rganganlar. Ammo zamonaviy ekspometrlarni ularning plastik qopqoqchalari bilan

birgalikda obyektivga qaratib o‘lchash lozim. Shuning uchun portret suratga olayotganda eksponometrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri model iyagi ostiga qo‘yib, fotopriyomnikning kirish darchasini qopqoqchasi bilan birgalikda fotoapparatga yo‘naltiring. Endi yon tarafdagi tugmani bosib, “vspishka” ishlashi uchun “zatvor”ni tushiring. “Vspishka” yonishi bilanoq qurilma sizga bunday yoritilgan sharoitda qanday “viderjka” va diafragma ko‘rsatkichida tasvirga olish kerakligini ko‘rsatib beradi. Shundan so‘ng siz qo‘lda sozlanuvchi rejimga o‘tib, eksponometrda ko‘rsatilgan difragma va “viderjka” ko‘rsatkichlarini kiritsangiz bas.



Tanlangan sozlamalardan studiyangizga yoritish moslamalarini olib kelguningizcha yoki “vspishka” kuchini o‘zgartirmaguningizcha foydalansangiz bo‘ladi. Agar yoritish sharoiti o‘zgarsa, eksponometdan qayta foydalanib, “viderjka” va diafragmaning yangi ko‘rsatkichini belgilashingiz mumkin.

Eksponometr nima uchun kerak?

Bir necha yoritish qurilmalaridan, softbokslardan va aks ettirgichlardan foydalaniladigan studiyalarda ekspozitsiyani to‘g‘ri sozlash uchun yorug‘lik miqdorini o‘lchash mushkul bo‘ladi (ayniqsa, chiroq “vspishka”si 1/250 s ga cho‘zilsa).



Ammo professional fotosuratchilarda eksponometr bo‘lgani bois, ularni bu muammo unchalik bezovta qilmaydi. Ular fotoapparatga o‘rnatilgan eksponometr studiya sharoitida bu muammoni yaxshi hal qila olmasligini bilganliklari bois ushbu qurilmadan foydalanadilar. Ha, albatta, kim ham ishlatishga qulay, unchalik katta bo‘lmagan hamda har doim ekspozitsiyani qanday to‘g‘ri sozlashni aniq ko‘rsatib turuvchi qurilmadan voz kechadi?

Bugungi kunda bu qurilmadan foydalanish shunchalik osonlashib kettiki, undan foydalanishni yosh bola ham o‘zlashtirishi mumkin. Shunday ekan, agar siz kun bo‘yi kompyuter qarshisida o‘tirib, Photoshop dasturida ekspozitsiya tanlashda yo‘l qo‘ygan hatolaringizni to‘g‘rilashga vaqtingizni ketkazishni istamasangiz va studiya yoritish sharoitida olingan tasviringiz yaxshi chiqishini hojlasangiz portativ eksponometr xarid qiling. Bu qurilma studiyada juda kerakli qurilma hisoblanadi.

“Quyosh orqadan” qoidasining noto‘g‘riligi



Ko'pchiligingiz tasvirga olishda quyosh orqadan tushishi kerak degan qoidani eshitgan bo'lsangiz kerak. Bu qoidaga ko'ra quyosh tasvirga olayotgan kishining orqasidan tushishi kerak. Bunday holatda go'yoki tasvirga olinayotgan kishilarning yuzi yaxshi yoritiladi. Aslida, bu qoida havaskor fotosuratchilar uchun to'g'ri. Professional uchun esa bunday yoritish noto'g'ri hisoblanib, bunday yoritishda yorug'lik tasvirga olinayotgan kishilarning to'g'ri yuziga tushadi.

Bunday qoida bo'yicha olingan tasvirda kishilar ko'zi yumilib, yuzini kamera ob'ektividan burishga urinadi. Bundan tashqari juda kuchli va yorqin yorug'lik kishi yuzida qo'pol soya yaratadi. Shunday tasvirga olish kerarri quyosh sizning emas, balki tasvirga tushayotgan kishilarning ortida bo'lishi lozim. Natijada, yorug'lik ularning soyasini ajoyib tarzda ajratib ko'rsatadi. Siz faqatgina "vspishka" yordamidan foydalanib, fotosuratdagi kishilar yuzini biroz ochartirsangiz bas. "Vspishka" yorug'ligi unchalik kuchli bo'lmaligi va tabiiy yorug'likni faqatgina to'ldirib turishi lozim.

Derazadan tushayotgan yorug'lik: kishilarni qayerga joylashtirish lozim?



Portret yaratish uchun eng qulay yorug'lik – bu derazadan tushayotgan (ayniqsa, shimoliy derazadan) yorug'lik hisoblanadi. Ko'pgina professional fotosuratchilar portret tasvirga olishda yoritishning faqatgina shu turini tan oladilar. Deraza yorug'likni parchalab, mayinlashtiradi. Bundan tashqari qancha ko'p oyna bo'lsa yorug'li shunchalik mayinlashib boradi.

Xo'sh, agar sizning studiyangiz derazasidan ajoyib yorug'lik tushayotgan bo'lsa, kishini qaerga joylashtirish kerak? Uni derazaga

yelkasi bilan o‘tkazish lozim. Shunda derazadan uzoqroq yuz qismiga yumshoq, yengil soya tushadi. Odamni derazadan taxminan 2 metr nariga o‘tkazish lozim. Agar odam derazaga juda yaqin o‘tirsangiz unga tushayotgan yorug‘lik o‘ta keskin bo‘ladi. Bundan tashqari, derazaga tushayotgan yorug‘lik oqimining burchakdagi qismi tushishi uchun odamni deraza qirrasiga qarama qarshi o‘tkazish lozim. Bu usulda yorug‘lik ancha mayinlik yaratadi va siz professionallar oladigan natijaga erishasiz.

Shom vaqtida tasvirga olish sirlari



Hamma gap shundaki, biz quyoshga qarama qarshi tasvirga tushirishimizga to‘g‘ri keladi. Natijada, fotoapparat eksponometri bizni dog‘da qoldirishi va siz kuzatgan ajoyib osmon manzarasi qog‘ozda oddiy ko‘rinib qolishi mumkin. Ammo buni katta kuch sarf qilmasdan bartaraf etish mumkin. Buning siri shundaki, siz fotoapparatning ekspozitsiya ko‘rsatkichini quyosh diskidan biroz yuqori holatda tasvirga olishingiz lozim. “Vidoiskatel”da sizga quyosh ko‘rinmayotganiga ishonch hosil qilib, tasvirga olish tugmasini yarimigacha bosib. Natijada, fotoapparat shomni tasvirga olish uchun ideal bo‘lgan “viderjka” va diafragmaning sozlamasini tanlab oladi.

Suratga olish tugmasini qo‘yib yubormay turib, sur‘atga olmoqchi bo‘lgan saxnaga fotoapparatni yo‘naltiring. Kompozitsiya sizni to‘liq qoniqtirgandan so‘ng tugmani oxirigacha bosib va tasvirga tushiring. Bunda suratga olingan saxna ideal darajada chiqadi.

Nazorat savollari

1. Sust yoritilgan sharoitda tasvirga olish.

2. Kun botishda tasvirga olish.
3. Ko'cha sharoitida sifatli yoritishni amalga oshirish.
4. Ekspozimetrdan qanday foydalaniladi?
5. Derazadan tushayotgan yorug'lik sharoitida modelni joylashtirish.
6. Tasvir obyektini yoritish turlari.

2.3. Suratdagi yorug'lik manbaining asosiy elementlari.

Asosiy yo'naltiruvchi yoritish (tasvirlovchi yoritish, hal etuvchi yoritish) kadrda obyektidagi syujetning muhim nuqtalari va ko'proq aktyorning qiyofasiga yo'naltiriladi. Odatda, yoritish yo'naltirilgan yorug'lik orqali amalga oshiriladi, (personaj) qahramonning barcha harakat fazalarini doimo qo'llab turadi. Ma'lum darajada yorug'likning samarasiga (effekt) erishilsa, yo'naltirilgan yorug'lik tasvirga olinayotgan obyektning kichik qismiga tushishi mumkin (yuzning bir qismiga). Yoritish miqdori bu holda odatda o'zgarmaydi.

Ko'pchilik hollarda asosiy yo'naltirilgan yorug'lik obyektga bir muncha yonidan va kinotasvir apparaturasining optik o'qiga nisbatan yuqoridan 30 – 60° burchakdan tushadi. Aynan shu burchaklardan yorug'qorong'ulik yoritilishi yo'naltirilgan yorug'lik tasvirga olinayotgan obyektning bo'laklariga beriladi. Odatda, asosiy yo'naltirilgan yorug'likni ta'minlash maqsadida bitta yoritish chirogi (pribor) ishlatiladi, soyalar chiziqlari parchalanmasligini to'liq ta'minlaydi.

Umumiy ko'rinish (plan) yoki aktyorlarning sezilarli joylarida o'zgarish bo'lsa, tasvirga olinishda bir necha yoritish chiroqlari qo'llaniladi. Asosan yo'naltirilgan yoritish bo'lib, parallel yo'naltirilgan yorug'lik yaqinligi, yoritish uchun Frenel linzalar mavjud kinoprojektorlar hamda yo'naltirilgan sochiq yorug'lik beruvchi yoritish uskunalaridan foydalaniladi. Yoritish miqdori asosiy yo'naltiruvchi yorug'likni bo'lib yoritishning ekspozitsion nazoratini baholash mezonidir, yoki ba'zida uni hal etuvchi nuqta kalit (klyuch) deb yuritiladi. Tashqarida (naturada) tasvirga olishda yo'naltiruvchi yoritish rolini odatda, quyosh nuridan foydalaniladi.

To'ldiruvchi yorug'lik

To'ldiruvchi yorug'lik (ekspozitsiya yorug'i) tasvirga olinuvchi obyekttni bir meyorda yoritadi.

Tasvirga olinayotgan makonning qaysidir darajada yoritilishi, detallarini ishlashda zaruriy va qoniqarli natijaga erishishda hamda ranglarning ko'rinishini va tasviriy obyektlarning detallarini ko'rish

imkonini beradi. Yoritish uskunolari bergan nurlarning asosiy yoʻnalishi bu toʻldiruvchi yorugʻlik boʻlib ular taxminan kinotasvir apparatining optik oʻqiga paralell joylashgan boʻladi. Shu bilan birga qayd etilgan yoʻnalishdan farq etishi mumkin, chunki toʻldiruvchi yorugʻlik koʻrinadigan soyani (qora) bermaydi. Yorugʻlik qorongʻi yoritish ishlaganda toʻldiruvchi yorugʻlik koʻp xolda boʻlmaydi. Toʻldiruvchi yorugʻlikni yaratish uchun tekislovchi yorugʻlikka qoʻllangan chiroq uskunolari ishlatiladi.

Toʻldiruvchi yorugʻlikning yana bir turi yuqorigi yorugʻlik boʻlib, odatda, katta dekoratsiyalarga, yaʼni tashqari (natura) manzaralarni taqlid etishda ishlatiladi. Uning vazifasi – tashqi manzaraga xos havo boʻshligʻining kengligi, umumiy koʻrinishdagi (plan) joylashgan predmetlarning yoritilishiga xizmat qiladi. Yuqori yoritishni taʼminlashda koʻp holda oynavand choʻgʻlanish lampalari va yoʻnaltirilgan siyrak uzun oʻlchovli choʻgʻlanish gallogen lampalari ishlatiladi.

Modellashtiruvchi yoritkich obyektning soya tushgan tomonlarini nisbiy yoritib, zarur ranglar va zichligini yartishda dogʻlar va jilvalar orqali yuzga keladi. Modellashtiruvchi yoritish uchun asosan Frenelning linzalik proyektori qoʻllanadi.

Chiziqli yoritish uchun (kontrovoy) tasvirga olinayotgan obyektning orqa tomondan yoritadi, odatda, yuqoridan obyektning boʻlaklarini chizgi chegaralarini pardoqlashga xizmat qilib, ular oʻz navbatida asosiy rangdan (fon) old tomonda joylashgan boʻlib rang va jilolar yaqinligini toʻldiradi.

Tasvirga olinayotgan obyektning orqa tomonidagi yorugʻlik asosiy yoʻnaltiruvchi yoritishning mikdoridan ikki yoki uch barobar ortiqcha boʻlishi mumkin. Chizgili yoritishi uchun koʻpchilik holda Frenelning linzalik kinoprojectori ishlatiladi, uzoq masofalarga maxsus «Kontrsvet» proyektorlari qoʻllanadi.

Asosiy rang, yoritilgan tekislikni, sahna orqa pardalarini va devorlarni, bunda yorugʻlikni teng tarqatishga xizmat qiladi. Asosiy rang yoritishni amalga oshirish uchun tarqoq yoritkich uskunalaridan, uzoq masofalarni yoritishga esa Frenelning linzalik Kinoprojectorlari yoki oynavand lampalik uskunalar ishlatiladi. Samara beruvchi yoritkich (effekt) dekoratsiyalar (yoki bezaklar) va tasvirga olinayotgan obyektlarda kerakli ravishdagi shakllar va jilolarni yuzaga keltiradi. Zichlik va rang odatda, kadrda tashqaridagi taxminiy harakatning samarasini oshirish uchun yoritish manbaalari sifatida xizmat qiladi.

Samara (effekt) beruvchi yorugʻlikka erishishda Frenelning linzalik kinoprojectori qoʻllanadi. Tasvirga olinishda qayd etilgan yoritish

uslublarining barchalari qo'llanishi shart emas. Ko'p hollarda ikki yoki uch xili yetarlidir. Jilolar yoritishini yaratish uchun bita to'ldiruvchi yoritish uskunasi o'zi kifoya. Ba'zida bitta yoritish uskuna yoki bir nechasi ikkita yoritish samarasini ta'minlash manbaasi sifatida xizmat qilishi misol uchun tekislovchi va to'ldiruvchi hamda asosiy yo'naltirgan nur nihoyatda samarali (effektli) yoritishlardir.

Tashqarida tasvirga olish va tabiiy interyerlarda odatda, sun'iy yoritishlar qo'llansa tekislovchi yoritish rolini o'ynaydi shu bilan birga obyekt soylari, yorug'likning kamligini ko'paytiradi xolos.

Tabiiy sharoitlarda tasvirga olish

Tabiatda tasvirga olishda kinoplyonka xoh rangli, xoh oq-qora bo'lsin kompozitsiyani tasviriy ifodasini ochishda yorug'likning roli juda katta. Rangli kinoplyonkaga tasvirga olish paytida tushayotgan yorug'likning rangi, soya va rang o'rtasidagi o'zgarish, tasvirning koloristik hal kilinishida asosiy vazifani bajaradi. Tabiatda tasvirga olishdan oldin, kinooperator tabiiy yorug'lik rangining o'zgarib turishini inobatga olishi va texnologik tomonlama buning yechimini topishi zarur.

Tasvirga olish texnologiyasini ko'rib chikishda operator fotografiyada ishlatilgan va ishlatilib kelinayotgan yoritish turlari nazariyasini (risuyushiy, fonovoy, modeliruyushiy, zapolnyayushiy, kontrovoy) yaxshilab bilib olishi zarur.

Tabiatda rangli kinoplyonkaga tasvirga olishda soya va koloristika prinsiplari tasvirga olish yunalishi o'zgarishidan qat'i nazar saqlanib qolishi zarur. Chunki kinoni tasvirga olayotgan paytimizda koloristik ketmaketlik planlarga moye kelmasa hatto, chiroyli manzaradan ham voz kechishimizga to'g'ri keladi.

Tabiiy yorug'likning xarakteri nafaqat uning rangida, uning to'g'riligida yoki uning yumshoqligida balki u bopsha xarakterga ham egadir.

Masalan:

1). Quyoshning yuqori holati bir obyektida olinayotgan planlarning turli xil masshtabligini oshirishimizga imkoniyat beradi.

2). Tabiiy yoritishda yorug'likning rangining haqqoniyligi va oddiyligi urtasidagi munosabatlar soya va yorug'lik urtasidagi o'tishda yaqqol ko'rinib turadi.

Bu ranglarning soya va yorug'o'rtasidagi xaqqoniyligi tasvirning tabiiyligini oshiradi. Tasviriy aksent berishimizga esa manashu ranglarning munosabatlarini oz-moz o'zgartirish bilan erishsak bo'ladi.

3). Yorug'lik va koloristik xal kilinishlarni o'zgartirish kuyidagicha, bunda aloxidagi kadrlarning tasvirga olish yo'nalishini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi.

4). Havodagi tutun va xavoning yengil bulutlar bilan qoplanganligi yorug'likning sochilishiga sabab bo'ladi va shu tufayli tasvirga olish yo'nalishini uzgartirishimizga imkoniyat beradi.

5). Osmondagi bulutlar nafaqat yorug'lik rangini o'zgartiradi balki fonning ifodasini oldingi plandagi obyektga moslashtirib beradi.

Yoritgichlarni belgilashda xoh u sun'iy bo'lsin, xoh tabiiy, ularni (рисующий, заполняющий, фоновой, моделирующий и контровой) turlarga ajratamiz.

Risuyushiy (asosiy) yorug'lik bu tasvirga olinayotgan obyektga asosiy yorug'lik sifatida yoritiladi. Bu yorug'lik bilan obyektning formasi kursatiladi va rangli aksent hosil kilinadi. Tasvirga olish liniyasiga munosib holda рисующий yorug'lik bir necha yunalishga joylashadi, ya'ni old yorug'lik (frontal yorug'lik), yon, old-yon, orqa-yon, va kontravoy. Yorug'lik joylashishining baland pastligiga qarab yuqori risuyushiy va pastgi рисующий ham deyiladi.




2.4. Portret kompozitsiyalari

Fotosuratchilarga portret fotosuratchiligida ko'p, masalan, qanday fokus masofadan foydalanish lozim degan qarorlar ular uchun chiqarilgani ma'qul keladi. Bu suratga olishning yanada qiyin aspektlariga: Yaxshi yoritishga, Insonning ichki olamini ko'rsatib berishga yordam beradi. Siz endilikda qanday obyektivlardan foydalanish lozimligini bilasiz va ishonasizmi, yo'qmi, portret suratga olish uchun maxsus diafragma

ko'rsatkichi mavjud. Agar so'z portret tasvirga olish xususida borsa, unda f 11 diafragma ko'rsatkichi eng yaxshi tanlov hisoblanadi va u yuzning chuqurligi va ravshvnligini oshirib beradi. Diafragmaning bunday ko'rsatkichi ko'plab portret fotosur'atchilari uchun ajoyib umumiy plan olishni ta'minlaydi. (Bu yerda "ko'pchilik" deyilishining sababi, diafragmaning boshqa ko'rsatkichidan foydalanish lozim bo'luvchi suratchilikning bir necha asosiy usullari mavjud. Biroq ko'p hollarda siz diafragmaning prioritet rejimini tanlab, f11 ko'rsatkichidan foydalanasiz va muhim ish hisoblangan – yoritishni o'rnatish, odamni kadrda tabiiy bo'lishga undash va h.k. lar bilan shug'ullanasiz).

Yakka tusli fon


Fotosuratchi portretchilarning muammosi maqsadga yorishishdagi yo'l – belgilangan vaqt davomida modelning xarakter va xususiyatini yetkazib berishni murakkablashtiruvchi fon hisoblanadi. Shuning uchun ko'pchilik fotosuratchilar topish mumkin bo'lgan eng oddiy fonda tasvirga oladilar. Yakka tusli fon studiyada uni hatto oddiy qog'ozdan tayyorlash mumkin bo'lgani uchun, studiyada barcha fotoqurilmalar ichida eng arzoni hisoblanadi. Yakka tusli qog'ozning katta o'rami sizga bor-yo'g'i 25 \$ ga tushadi. Uni yaqin joydagi fotomahsulotlar do'konidan topish mumkin va bunday fon hatto, professional fotostudiyalarga ham to'g'ri keladi.



Ba'zi fotosuratchilar qog'ozni devorga yopishtirib, boshqalari esa uni mix bilan qoqib qo'yadilar, biroq, unchalik qimmat bo'lmagan, standart qog'ozni qotirish uchun mo'ljallangan stend xarid qilgan yaxshiroq. Qanday rangdagi qog'ozdan foydalangan ma'qul? Boshlang'ich fotosuratchilar drammatik portretlar uchun qora, qolgan barcha ranglar

uchun oq qog'ozdan boshlaganlari maq'ul. Oq qog'oz uchun fotosuratda kulrang tusga ega bo'lishi xarakterli. Bir tUSDagi fonga haqqatdan oq rangli tus berish uchun fonni yorituvchi bir yoki bir nechta lampalarni o'rnatish kerak. Aks holda, fotoapparatning "vspishka"si oq tUSDagi qog'ozni kulrang fonga aylantiradi. Kulrang tus fon uchun unchalik yomon bo'lmasada, agar sizga haqiqiy oq rangdagi fon kerak bo'lsa, uni yorituvchi bir yoki bir nechta lampalarni modelning ortiga o'rnatish va yorug'likni fonga qarating. Agar qora tUSDagi fondan foydalanilsa, modelni orqa tomondan yoritish va uni qora fondan ajratish uchun qo'shimcha yoritishni ishlatish lozim bo'ladi.

Fokusni qayerga yo'naltirish lozim?



Ko'p yillar mobaynida portret suratga olishda fokusni qayerga yo'naltirish lozimligi bo'yicha ko'plab bahslar olib borilgan. Hozirgi vaqtda ko'pchilik fotosuratchilar fokusni inson ko'ziga qaratmoqdalar. F 11 ko'rsatkichida, fokusni inson ko'ziga yo'naltirib suratga oling. Bu butun yuz bo'yicha yaxshi ravshanlikka erishishga yordam beradi.

Kadrdagi chehra

Tabiat qo'ynida portretni, ayniqsa, supermodellarni portretlarini sur'atga olishda, qoidaga muvofiq, professional fotosuratchilar burchakdan 1/3 masofada model ko'zlarini kadr ichiga joylashtiradi. Bu fotosuratga qo'shimcha ifoda beruvchi qo'shimcha qoida sanaladi¹.

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.



Tabiiy yoritishda aks ettirishdan foydalanish



Model yuzi ajoyib tabiiy yorug‘lik bilan yoritilganda, portret fotosurat yaratishda o‘zingiz bilan yig‘iluvchi aks ettirgichni olishdan yaxshi yo‘l yo‘q. Fotosuratchilar yig‘iluvchi aks ettirgichlarni ular ko‘p joy egallamaganliklari uchun tanlaydilar. Ularni unchalik qimmat bo‘lmaganligi bois, professional qurilma deb aytib bo‘lmaydi. Biroq ular portretdagi soyani ajablanarli darajada chiroyli kamaytiradilar va ajoyib tabiiy yoritishga erishishga yordam beradilar. Ular derazadan tushayotgan tabiiy yorug‘likni model yuzida aks ettirish uchun foydalaniladi. Ko‘p fotosuratchilar 50 sm. li, bir tomoni yaltiroq, bir tomoni kumushrang qoplamaga ega Lastolite aks ettirgichlaridan foydalanadilar. Bunday aks ettirgichlarning bahosi 24 \$ ni tashkil etadi. Ular qimmat bo‘lmasa ham ajoyib natijaga erishishda yordam beradi.

Suratga olish obyektini to‘liq yoritmang

Bizning diqqatimizni fotosuratning eng yorqin va aniq fragmentlari jalb qiladi. Modelni fotoapparatning o‘rnatilgan “vspishka”si bilan suratga olishda bu narsani esdan chiqarmaslik kerak. Agar siz suratga olish obyektini to‘liq yoritmangiz, tomoshabin e‘tiborini fotosuratning eng kerakli elementiga – model yuziga jalb qila olmaysiz. Modelning yuzini yaxshilab yoritishga harakat qiling va model yuzidan yorug‘likni olib tashlaganda, u sekin-asta so‘nishini ta‘minlang.



So‘nish darajasi har hil bo‘ladi. Yorug‘lik tasvirning belgilangan fragmentlarida butunlay soyaga o‘tishi mumkin. Asosiysi shuki, tomoshabin tasvirga qarab, uning e‘tiborini nimaga qaratishni istashayotganini bilishi lozim. Yorug‘likni boshqarishda yoritish qurilmalarini shunday joylashtirish kerakki, undan tushayotgan yorug‘lik obyektini butunlay yoritmasligi lozim. Yorug‘likni modelning tanasini bir tekisda yoritmaslik uchun, uyali katakdan yoki boshqa qurilmadan foydalanib fokuslash mumkin. Ko‘p fotosuratchilar model tanasining pastki qismini yorug‘lik nuridan saqlash uchun qora aks ettirgichdan foydalanadilar.

Bunda, agar model tanasining pastki qismini butunlay soyada qolirishni istamasangiz, yorug‘likni butunlay berkitib qo‘ymay, faqatgina yuzni maksimal darajada ajratish uchun kompozitsiyaning bu qismiga tushuvchi yorug‘lik miqdorini kamaytiring. Mashhur fotosuratchilar ishlarini ko‘ring va siz bu texnika portret fotosuratlarida ko‘p holatlarda qo‘llanishiga guvoh bo‘lasiz. Uning yordamida fotosuratchi tomoshabin

e'tiborini kerakli fragmentlarga qaratadi va hatto tasvir kompozitsiyasiga dramatism qo'shadi.

Guruh fotosuratlarini ochiq havoda olgan ma'qul




Guruh portretini yaratishda kompozitsiyaning har bir qatnashuvchisini yoritish uchun yetarli darajadagi yoritish kerak bo'ladi. Bunday vazifa esa unchalik oson bajarilmaydi. Shuning uchun guruh bilan suratga olish uchun ko'chaga chiqqan ma'qul. Ayniqsa, bu siz suratga tushayotgan kishilarni soyaga o'tkazish uchun qaerda soyali daraxt borligini bilsangiz juda yaxshi natija beradi. Faqat suratga olinayotgan kishilarni kuchli soyadan uzoqroq qilib, to'g'ri quyosh nurlari yaproqlar orasidan kishilarga tushmaydigan joyga joylashtiring.

Ko'chada quyosh charaqlab turgan vaqtda guruhning omadli portretini suratga olishingiz mumkin. Bunday holatda yoritish haqida umuman bosh qotirmasangiz ham bo'laveradi. Bulutlar bilan berkitilgan quyosh yorug'ligi ajoyib, aniq fotosuratlar olishingiz uchun yaxshi mos keladi. Sizga faqat personajlar joylashuvini tuzish qoladi holos. Professional fotosuratchilar hech qachon guruhni suratga olishni: "Barcha bo'yi balandlar ikkinchi qatorga tursin" degan so'zdan boshlamaydilar.

Yorug'lik dog'lari tushishining oldini oling


Agar siz raqamli fotografiya kitobini o'qigan bo'lsangiz, u holda siz portretni soyada olgan maqulligini o'zlashtirgan bo'lishingiz lozim. Biroq shu yerda sizda bir muammo – yaproqlar orasidan o'tuvchi quyoshdan tushayotgan yorug'lik dog'lari paydo bo'ladi. Natijada, tasvirda kishi

yuzida suratni buzuvchi och va to'q dog'lar ko'rinib qoladi. Bu muammoning yechimi juda oson. Shunchaki suratga olinayotgan odamni yorug'lik yaproqlar orasidan o'tib, to'g'ri uning yuziga tushmaydigan joy topish lozim. O'ng tarafdagi tasvir qanchalik yaxshiroq ko'rinishda ekaniga e'tibor bering.



Peyzaj fotosuratlarida landshaftdagi dog'lar ular suratni jonlantirgani bois ma'qul ko'riladi. Ammo gap portret sur'atga olish haqida borganda bunday dog'lar to'g'ri kelmaydi. Ular mavjud bo'lsa, professional fotosurat yaralishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun quyosh nurlari yaproqlar orasidan kishi yuziga tushmasligiga e'tiborli bo'ling.

Yorug'lik derazadan tushganda aks ettirgichni qayerga joylashtirgan ma'qul?



Yodingizda bo‘lsa, aks ettirgichlar modelni soyada qolgan tomoniga aks etgan yorug‘likni yo‘naltirish uchun foydalaniladi. Shuning uchun, aks ettirgichni modelning yaxshi yoritilmagan tomoniga qo‘ygan ma’qul. Biroq sizga to‘y va portret fotosuratlarining katta mutaxassisi bo‘lgan Monte suger ko‘rsatgan usulni tavsiya etgan bo‘lar edik. Yorug‘likni fotoapparatning to‘g‘ridan to‘g‘ri fotoapparat qarshisida, o‘z boshingizdan biroz balandda tutib aks ettiring va uni ushbu nuqtadan turib, modelning soyada qolgan qismiga yo‘naltiring.


Qanday qilib ko‘z tagidagi soyani kamaytirish mumkin



Agar yorug‘lik studiya yoki ochiq havoda insonga tepadan tushayotgan bo‘lsa, u holda uning ko‘zlari ostida yoqimsiz soyalar paydo bo‘lishi mumkin. Ulardan aks ettirgichlar yordamida halos bo‘lish mumkin. Oq yoki kumushrang aks ettirgichni ko‘krak balndligida joylashtiring (yoki uni hatto iyakkacha ko‘tarishingiz mumkin) va uning aks ettiruvchi tarafini tepaga qarating. Aks ettirgichni kishi ko‘zini pasdan yoritib, keraksiz soyalarni bartaraf etishi uchun uni polga gorizontol holatda ushlang.

Tabiiy sharoitda risuyushiy yorug‘lik bilan tasvirga olishda quyosh nuri tugri yunaltirilgan holda yoki bulutlar orqali sochiq holda obyektga tushadi. “Рисующий” yorug‘lik tabiatda o‘zgarish xususiyatiga ega. Masalan, atmosferaning xolatiga, quyoshning gorizont ustidagi joylashishiga qarab va kuyosh atrofidagi nur sochish maydoniga qarab uning rangi o‘zgaradi. Havodagi tutun miqdori va uning zichligi ortishi bilan manashu nur sochish maydoni kengayadi, ya’ni bizga shu holatda ko‘rinadi va soya

konturi shu tushayotgan yorug‘lik rangi, to‘g‘riligiga qarab uning keskinligi ortadi yoki kamayadi.



“Заполняющий” (to‘ldiruvchi) yorug‘lik bu obyektning yorug‘lik kam bo‘lgan joyini yorituvchi yorug‘lik turi hisoblanadi va u keskin bulmagan soya qoldirishi zarur.



Tabiyatda tasvirga olish jarayonida to‘ldiruvchi yorug‘lik, asosan, moviy osmon yordamida va quyosh nurini qaytaruvchi bulutlar yordamida va shu bilan birga, to‘ldiruvchi yorug‘lik yerga tushayotgan yorug‘likning qaytarishi va yer ustidagi barcha obyektlardan qaytayotgan yorug‘lik tufayli ham hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham ba‘zi paytlarda tasvirga olayotganimizda yerdan va osmondan qaytayotgan yorug‘liklarning ranglari o‘rtasida oz-moz o‘zgarishlar sodir bo‘lib turadi.

“Моделирующий” yorug‘lik. Bu yorug‘lik yordamida obyektning formasi va obyektning rangi va ton perspektivasining o‘zgarishi ham to‘liq ko‘rsatib beriladi. Tabiiy sharoitda tasvirga olinayotgan paytda modeliruyushiy yorug‘lik qo‘shimcha yoritgichlar va yorug‘lik qaytaruvchi moslamalar bilan chiqarib beriladi. Моделирующий yorug‘lik sun‘iy yoritgichlar yordamida uzatilsa u holda yorug‘likning rangini qo‘shimcha svetofiltrlar yordamida hosil qilinadi, agar modeliruyushiy yorug‘likni tabiiy yorug‘likdan foydalanib yorug‘lik qaytargichlar bilan hosil qilinsa u xolda rangli qaytargichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



“Контровой” yorug‘likdan foydalanishdan maqsad bunda birinchi plandagi obyektни fondan ajratib berishdir hamda tasvirga olinayotgan sahnada tutun mavjud bo‘lsa yoki tabiatning o‘zi hosil qilgan tuman bo‘lsa, u holda kontrovoy yorug‘lik ma‘lum bir xarakter berish uchun va fon perspektivasini ochib berishda ishlatiladi.





Tabiiy sharoitda tasirga olayotgan paytda kontrovoy yorug‘lik maxsus sun‘iy yoritgichlar yordamida kamdan-kam hosil qilinadi asosan, kontrovoy yorug‘lik quyosh nurlaridan foydalanilgan holda hosil qilinadi.



Fon yorug‘ligidan kinooperatorlarimiz oldingi obyekt yorug‘ligining rangi va fon yorug‘ligining rangi bilan moslashtirgan holda foydalanishadi.

Tabiiy sharoitda fonta osmondan tushayotgan yorug‘lik yordamida va quyoshning to‘g‘ridan-to‘g‘ri soya hosil qilgan nuridan foydalanishadi. Tabiiy sharoitda tasvirga olayotganda bulutli osmon ba‘zi tasvirlarda birinchi planga qaraganda fonning yorug‘ligi rangli bo‘lib qoladi.

Tabiiy yorug‘lik xarakteristikasi. Tabiiy yorug‘lik uch xil turli rangdagi yorug‘lik nuri tufayli hosil bo‘ladi, ya‘ni: 1) quyoshdan tushayotgan to‘g‘ri nur, 2) bulutlar va havo tutnlari orqali o‘tayotgan tarqoq nur, 3) quyoshning, moviy osmon orqali qaytayotgan tarqoq nurlari. Shunday turdagi yorug‘lik

nurlarining yigʻindisi bizga turli xarakteristikadagi tabiiy yorugʻlikni beradi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, tabiiy yorugʻlik ikki rangdan tashkil topadi; toʻgʻri quyoshning oq nuri va quyosh nurining moviy osmondan qaytayotgan havorang sifat yorugʻligidir.

Ertalabki havoda tasvirga olish. Rangli tasvirga olishning eng yaxshi vaqti bu ertalabki havodir. Ertalabki vaqtda soyalar juda tiniq boʻladi va yerdan uncha balan boʻlmagan havodagi tugun perspektiva hosil qiladi. Gorizont toʻgʻri boʻlgan рисующий yorugʻlikning ortishi tufayli yerning ustki qismida rangli nurlarning ortishi kutiladi. Ertalabki havo tutunlari ranglarni uygʻunlashtirib havorang sifat yoki qizgʻishroq havorang kolorit hosil qiladi.



Gorizontdan 25–30 gradus burchak ostida tasvirga olingan kinoepizotlarga eʻtibor bersak ular yanada iliqroq tasvirga va tillorang-sargʻish koloritga ega boʻladi. Quyosh gorizontdan qanchalik koʻtarilsa, tasvir shuncha yorqinlashib boradi.

Kunning yarmida tasvirga olish. Quyosh gorizontnig eng yuqori nuqtasiga yetganda yerning harorati oshib yerdagi havo tutunlari asta-sekinlik bilan yoʻqoli boradi. Bunday paytda yumshoq boʻlgan yorugʻlik oʻmiga kunduzgi kontrastli yorugʻlik keladi.

Bunda soya va yorugʻlik oʻrtasidagi interval ortib obyektning yuqori qismi yoritilib pastki qismlari soyada qolib koʻrinmay ketadi. Shu bilan birga, yorugʻlik rangi ham keskin oʻzgaradi.

Kunduzgi tasvirga olish ishlarida kinooperator koʻpincha quyoshni kontrovoy yorugʻlik sifatida foydalanadi sababi aktyorning koʻzlariga xalaqit qilmaslik uchun. Uning formasi esa qaytarilgan yorugʻliklar yordamida yoritiladi.



Quyoshni old tomondan yoki yondan foydalanilganda kinooperator soyani susaytirish uchun u kerakli bo'lgan matolardan foydalanadi. Natija juda qoniqarli chiqadi. O'rmonzorda tasvirga olish. O'rmonda tasvirga olishda eng qulay payt bu kunning yarmidir.



Chunki kunning boshida va kunning oxirida o'rmonda yorug'lik juda kam bo'ladi. Rangli tasvirga olishda ba'zi paytlarda yozning ochiq havosida o'rmonda yorug'lik kamligi yaxshigina sezilib turadi. Shunday paytda kinooperator ekspozitsiyani kuchaytirishga majbur bo'ladi.

O'rmonda rangli tasvirga olishda urmonning so'qmoqlarida va osmon ko'rinib turadigan joylari kinooperatorga ancha yordam beradi. Yanada yaxshi natijalarga erishish uchun o'rmon chetlarini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki u yerda bemaol yorug'lik qaytargichlaridan foydalanish mumkin.



Bulutli havoda tasvirga olish. Bulutli havoda yorug'likning keskinligi kamayib mayinligi ortadi. Bulutning zichligi oshishi bilan yorug'lik turlarining ranglari bir xillashib boradi (рисующий, заполняющий v.h.k.). Yorug'lik intervali kamayib hammayoqqa bir xil rangdagi yorug'lik tarqaladi.



Bulutli havoda nurning sochilishi va rangi ortadi. Masalan, sariq nur, to'qsariq va hatto qizil ranglarga bo'linadi. Shuning uchun osmonni quyuq bulut koplaganda nurning rangi ko'kimtirdan kulrashtacha yoki kulrangsifat qizil ranglarga o'zgaradi.


Nazorat savollari

1. Portret tasvirga olishda eng yaxshi kursatkich qancha?
2. Boshlang'ich fotosur'atchilar qanday tusdagi fonda portretni tasvirga olgani ma'qul?
3. Ko'z ostidagi soyani kamaytirish uchun aks ettirgichni qanday joylashtirgan ma'qul?

4. Boshlang'ich fotosuratchilar qora fondan qanday portretni sur'atga olish uchun foydalanadilar?
5. Portret suratga olishda fokusni modelning qayeriga yo'naltirish kerak?
6. Nima uchun sur'atga olish obyektini to'liq yoritmaslik kerak?
7. Asosiy yo'naltiruvchi yoritish nimalardan iborat?
8. To'ldiruvchi yorug'lik nima?
9. Tabiiy sharoitlarda tasvirga olish qanday amalga oshiriladi?

2.5. Natyurmort janri

Natyurmort (frans. *nature* va *morte* – jonsiz tabiat) –tasviriy san'at janri bo'lib, u insonning atrofini o'rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi deb ataladi. Tasviriy san'atda natyurmort asosan, dastgohli rassomlikda, ya'ni rangtasvir va grafikada, qisman haykaltaroshlikda asosan, relefda ishlanadi. Natyurmortda «jonsiz buyumlar», masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalardan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari, stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to'ldirish uchun ba'zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, kushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo'ladi.



1-rasm. Natyurmort.

Fotografiya san'atida natyurmort – ma'lum mavzu asosida birlashtirilgan ko'proq jonsiz ashyolardan tuzilgan kompozitsiyadir. Fotografik natyurmort yaratish ustida ishlash kompozitsiya, yoritish usularini ishlab chiqish uchun ajoyib maktab bo'lib qoladi, fotografiyada tasvirning kompozitsiyasini, uning yorug'lik va rang yechimini belgilash mahoratini egallash jarayonida muhim va zaruriy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Natyurmortni suratga olishga tayyorlanayotganda ashyolarni tanlash, ularning miqdorini to'g'ri belgilash zarur. Dastlabki suratlar o'rganish xususiyatiga ega bo'ladi, bu suratlarda predmetlarning shakl va material fakturasini, yoritish effektlarini bera olish vazifasi hal qilinadi. O'quvchi talaba ish stolining bir qismi, asboblari, yozuv ashyolari, ovqatlanish stolining bir qismi, idishlar, meva va sabzavotlar, gullar, amaliy sanat namunalari bo'lgan predmetlardan natyurmort elementlari sifatida foydalanishlari mumkin.

Kichikroq hikoyani tashkil qiluvchi syujetli natyurmortlarni suratga olish murakkabroq vazifa hisoblanadi. Yonayotgan sham, stol lampasi, cho'ntak fonari, gugurt singari yorug'lik manbalarini o'z ichiga oluvchi natyurmortlar ayniqsa, ifodali bo'lishi mumkin.


Yuza yoki makonda joylashgan katta hajmli, ashyolarni suratga olishda katta hajm, masshtab munosabatlari, ashyolarning kadrda joylashuv holati kabilarni suratga olish uchun avvalo suratga olish nuqtasi va obyektivning aniq fokus masofasini tanlash katta ahamiyatga ega. Natyurmorni yoritish uchun ko'proq yorug'likni kadr makoni bo'ylab tekis va aniq taqsimlash imkonini beruvchi cho'g'lanma lampali yorug'lik manбайдan foydalaniladi. Natyurmortni kunduzi tabiiy yorug'likda suratga olish mumkin. Yorug'lik shaklini aniqlash va yoritish farqini o'zgartirish, shuningdek, yorug'likni modellashtirish uchun pastdan elektr yoritgichni qo'llash mumkin.

Natyurmortlarni suratga olishda suratga olinadigan fonni to'g'ri tanlash va uni to'g'ri yoritish muhim vazifa hisoblanadi. Neytral fon sifatida oq, kulrang rangga bo'yalgan yoki oqdan qoraroq rangga tuslanib boradigan qog'oz yoki kardon varag'i, mato bo'ladigan foydalanishi mumkin.

Suratga olinayotgan interer chuqur fon bo‘lib xizmat qilishi, unga atrof-muhit, yorug‘lik manbai, deraza va hatto, deraza ortidagi manzarani ham qo‘shish mumkin. Fon tasvirlanayotganda ashyolarning shaklini aniqlashga yordam berishi lozim, lekin tomoshabin e‘tiborini chalg‘itmaslik uchun o‘ta ola-bula va kontrastli bo‘lmasligi kerak.



2-rasm. Natyurmort.



3-rasm. Suratda interyer chuqur fon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bir vaziyatda ashyolardan fonga tushayotgan soyani hosil qilmaslik uchun harakat qilinsa, boshqa holatda kadrni kompozitsion tashkil qilish,

yorug'likni berishda mutanosiblikka erishish uchun tushirilayotgan soyadan massa, xromlangan shaffof, yaltiroq ashyolar pastki yorug'lik (agar ashyo oyna ustida tursa) yoki qarshi yorug'likdan (agar ashyo "yorug'lik qutisiga" joylashtirilsa) foydalanib sun'iy yorug'lik manbalarida suratga olinadi. Fonni tus jihatdan yumshatish uchun suratga olinayotgan ashyo orqasiga to'r, kapron (qora, kulrang, oq yoki rangli) tortilgan ramka o'rnatiladi. Ramka ravshanlikning orqa chegarasidan uzoqroqqa noravshan tasvir zonasiga joylashtiriladi. Tasvirlanayotgan ashyolarning kattalik ko'lamini ko'rsatish zarur bo'lganda kattaligi yaxshi ma'lum bo'lgan, masalan, gugurt qutisi, tanga yoki santimetrlarga bo'lingan chizg'ich kabilarni kadrga joylashtirish mumkin. Barglar, gullar, hasharotlarni mikro suratga olishda qo'shimcha linzalar, fokus masofani uzaytirgich halqalardan foydalangan holatda ko'zguli fotoapparat yordamida amalga oshiriladi. Bu sohaning o'ziga xos xususiyati va o'z usullari. Negaki juda qisqa fokus kengligi sharoitlarda ishlashga to'g'ri keladi.

Fotografiyada uzaytirilgan halqali "Zenit" fotokamerasi bilan suratga olingan "jonli notyurmort" ko'rsatilgan. Suratga olish nuqtasi shunday tanlanganki, kuz bargida yaltirayotgan suv tomchilari qora fonda ko'rinib turadi.

Natyurmortlarni shaffof oynali fotoapparat bilan suratga olgan maqul. Buning uchun obyektivlarini almashtirish mumkin bo'lgan "Zenit", "Olimlus", "Kenon", "Nikon" turidagi bir obyektivli ko'zguli apparatlar bilan ishlash qulay.

Rangli predmetlarni suratga olishda kadrni tusi bo'yicha yorug'roq yoki qorong'iroq qilish imkonini beradigan turli yorug'lik filtrlari qo'llanadi. Polyarizatsiyalangan yorug'lik filtri reflekslar, yorug'lik nurlari va kadrda aklarni o'zgartirish imkonini beradi. Obyektiv oldida o'rnatilgan yorug'lik filtrini burash yo'li bilan shu'la va reflekslarni kerakli darajada kamaytirish, suratga olinayotgan yuzalar hajmi va shaklini aniqlash uchun ularning joylashuvini o'zlashtirish mumkin bo'ladi.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan gazlamalar kirish bilan mazmundorlik oshadi. Tasvirda gazlamalarning o'ziga xos tuzilishi, ulardan tahlam va burmalarning shakli orqali ifodalanadi. Shuning uchun rasmda ayni shu gazlamaga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li tahlarning shaklini yorug' va soyalar vositasida batafsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag'al, sidirg'a matolardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit tahlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Keyinchalik malakaning ortishi bilan

natyurmortlarni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan tahlash mumkin. Natyurmortlarning asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonini ko'payish, ularning turli-tuman rang-barang shakl va o'lchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagi narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli guldondagi rang-barang gullar yoniga olma qo'yib tasvirlanishi mumkin.

Murakkab natyurmortlar ustida ishlashning o'ziga xosligi, ularning kompozitsiyasi mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda har bir narsaning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Pastanovkaga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach ularning och-to'qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo'yib chiqiladi. Soyalar bir yo'la narsalarning panasida, yopiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi. Bu esa tasvirda naturadagi kabi to'q birligiga erishishi va har bir narsaning o'ziga xos shaklini to'laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar shaklini aniqlashtirib borib, natyurmortdagi nozik farqlarni topishda yuqorida aytilgan izchillikka rioya qilish kerak, ya'ni avval yirik shakllarni, katta qismlarini matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so'ngra esa mayda va chakana tafsilotlarini tasvirlashga o'tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsalarning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklini bo'rtirib ko'rsatishi kerak. Shuning uchun shunday qilib tasvirning hammasiga ishlov berishga, uni natura bilan yopishtirib, solishtirib qarash kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklidagi noaniq yerlarini yana ishlash kerak bo'ladi. Unda ton jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, darhol bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa uni yaqinlashtirish aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol korinib qolgan bo'lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri uning o'zi kabi yaxlit taassurot qoldira olishi zarurdir. Shu darajaga erishmaguncha ishni shu tarzda davom ettirish lozim.

Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarni yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirlarni ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, y'ani har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q-ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak, shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir obyektiga zid holda birini juda yorqin,

boshqasini nursiz qilib o‘zaro bog‘likligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma‘nosiz va ta‘sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to‘q-ochligi huddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo‘llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to‘qroq gammalarda tasvir obyektlariga mos tarzda, ma‘lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo‘ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to‘q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik qiziqarlilik kasb etadi, ta‘sirchan chiqadi.

Nazorat savollari

1. Ko‘rgazmali kompozitsiya va natyurmortlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ko‘rgazmali kompozitsiya va natyurmortlar turlaridan qaysilarni bilasiz?
3. Natyurmortlarni suratga olishda faktura va hajmni qanday izohlaysiz?

2.6. Manzara, me‘morchilik inriryer suratga olish.

Manzara.

Qishloq, tog‘, dala, me‘morchilik inshootlari, sanoat obyektlari kabilar bo‘lgan manzaralar bo‘lishi mumkin. Odatda, manzarada bo‘yoq, tuslarning ajoyib rang-tasvir uyg‘unligi tabiat tomonidan yaratilgan ifodali grafik qurilma kabilar kuzatiladi. Ba‘zan ajoyib shakldagi bulutlar va daraxtlar shakli, kuzgi barglar rangi va dengiz to‘lqinlari, tabiatni o‘zgartirib va bezab turgan inson qo‘li bilan yaratilgan ajoyib ko‘rinishlarga qarab to‘ymaysan kishi. Manzara kompozitsiyasi ustida ishlayotganda fotograf tabiatga bo‘lgan o‘z munosabatini ifodalaydi uni jonlantiradi. Tomoshabinda fikr va xislar, estetik zavq uyg‘otadi. Manzarani suratga olish ma‘lum tayyorgarlikni talab qiladi. Eng avvalo, suratga olinadigan obyekt turli tomondan kuzatiladi, ifodalibroq bo‘lgan kompozitsion qurilma tanlanadi. Bir necha maqbul nuqtani aniqlagach, obyektning asosiy nuqtadan surat olish kerak, so‘ngra zarur bo‘lganda variant qilib olinsa, suratni chop etishda tanlash imkoni bo‘ladi. Suratni ko‘rgach tomoshabin muallif fikrini tushunib olishi, bosh obyektning ko‘rishi lozim bo‘ladi, negaki suratga olish aynan shu maqsadda amalga oshiriladi.

Agar manzara kompozitsiyasi ikki yoki bir necha mustaqil kadrlarga bo‘lishi mumkin bo‘lsa, bu suratni yaxshi olinmaganligidan darak beradi, negaki kompozitsiya markazi, kadrning ayrim qismlari orasidagi o‘zaro aloqa bo‘lmaydi. Tez yurib borayotgan avtomobil, asta suzayotgan bulut,

qadam tashlayotgan odam singarilarni manzaraga uyg'unlashtirib yuborish uchun ularga kadrda joy nazarda tutish zarur, bunda harakatdagi obyektning yo'nalishi va tezligini xisobga olish, suratga olish uchun qulay paytni kutish kerak bo'ladi.

Ob-havo va tabiiy yoritish sharoiti tasvirlanayotgan manzara xususiyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Manzarani har qanday fasl, xar qanday ob-havoda suratga olish mumkin. Eng muhimi har bir holatda suyujetga mos keladigan, surat mazmuni, mohiyatini to'laroq va ifodaliroq ochishga yordam beradigan yoritish sharoitini tanlashdir.



Yoritish sharoiti yo'nalishni tanlaganda xisobga olinadi. Agar suratga olish paytida quyosh fotografning orqasida bo'lsa, yoritilayotgan ashyolar yaxshi ko'rinadi. Yondan yoritilganda obyektning hajmliligi aniqroq ko'rinadi. Ko'p holatlarda yorug'likni oldindan yondan yo'nalishi tanlanadi, bunda suratga olinayotgan obyektning hajmliligi saqlanib qoladi va ko'rinadigan soya qismlar kichrayadi (ular ko'proq qo'shimcha yoritishni talab qiladi).

Kompozitsiyani ko'p planli tuzish makonni qayta yaratish imkonini beradi.

Ertalab va kechki payt quyosh pastda turganda gorizontal joylashgan yuzalarda atrofda ahyolardan uzun soyalar paydo bo'ladi, vertikal yuzalar esa maksimal yoritiladi.

Choshgohda manzara asosan yuqoridagi tushadigan nur bilan yoritiladi. Yoritish katta farq seziladi, predmetlardan tushadigan soyalar qisqa bo'ladi. Yoritishda katta kontrastlilik seziladi.

Ko'pincha manzara predmetlar shaklini yaxshi ko'rsatuvchi, havo oqimi effektini ko'paytiruvchi, predmetlar, yer, maysa, suv yuzasi, qor,

muz va boshqalar shaklini ochishga imkon beruvchi nazorat yoritish orqali amalga oshirishga intilinadi.



Suratga olish amaliyotida havo oqimini qisman yoki to'la bartaraf etish vazifasi turishi mumkin. Buning uchun pushti va qizil yorug'lik filtirlari qo'llanadi, panxromatik plyonkada suratga olinadi.

Kunduzgi qish manzarasini suratga olishda yoruqlik qor yuzasidagi har qanday notekislikni juda yaxshi ochib beradi. Fotografiya birinchi planda qor va soya shaklini aniq ochib beradigan suratga olish nuqtasini tanlashi kerak. Negaki suratga olinadigan katta maydonni yaxshi yoritilmagan qor tashkil qiladi, ekspozitsiyani shu maydonga qaratish zarur bo'ladi.


Shunday sharoitda qizil yorug'lik filtri bilan suratga olib va kadrda o'ta yorqin uchastka bo'ylab ekspozitsiya qilib, bu kadr agar quyosh yorug'ida suratga olinsada fotografiyada shartli tungi yoritish ko'rinishini hosil qilish mumkin.

Kechki, tungi yoritish ko'rinishini bir necha yo'l bilan hosil qilish mumkin. Masalan, yetarli darajada yoritilgan tungi obyektlarni suratga olishda o'ta sezgir plyonkada lahzalik (yoki sekinlashtirilgan) viderjka va yorug'lik kuchiga ega bo'lgan obyektivdan foydalaniladi. Xuddi shunday tasvirni o'rtacha sezgirlikdagi plyonkani uzoqroq ochilgan holda ushlab turib va obyektivni 5, 6 – 11gacha diafragmalab olish mumkin. Oqshom tushganda suratga olish tun ko'rinishini hosil qilish uchun maqbul bo'ladi. Suratga olish obyekti va suratga olish nuqtasi avvaldan tanlanadi, yorug'lik sharoitini bir necha daqiqa aniqlikkacha kutiladi (kadrda osmon va yerdagi obyektlar yorqinligi munosabati xisobga olinadi).


Kunduz paytida "tun" effektini yaratib suratga olish tasvirda tungi yoritishning shartli ko'rinishi yaratish imkonini beradi.

Bu sohadagi ma'lum usullardan quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: yorqinlikning katta intervali bo'lgan obyektlarning eng yuqori yorqinligini

ko'rsatish, masalan buni kadrqa quyosh kiritilgan paytda yorug'lika qarshi suratga olishda qo'llanadi. Qoramtir tusni yaratish va quyoshdan tushayotgan nurni yengib o'tish uchun pushti, qizil, kulrang, bosqichli-kulrang yorug'lik filtrlaridan foydalanish mumkin. Kunduzgi suratga olayotgan obyektzni, uning muxim syujet qismini intensiv yoritishdan foydalanib oqshom ko'rinishini yaratish mumkin. Agar suratga olinayotgan bo'lsa, unda namoyish to'la yoritish sharoitida olib boriladi, bunda fon va atrofdagi ashyolar mukammal bo'lmay qoladi va foto bosmalashda qora tusda qayta ishlanadi.



Suratga olish paytida obyektiv oldiga o'rnatiladigan turli yorug'lik filtrlari va uchlik qurilmalarini qo'llab havo to'liq bulutli bo'lgan paytda ham shartli oqshomgi ko'rinishni hosil qilishi mumkin.



Bunda suratga olinayotgan obyektka yorug'lik manbalari bo'lishi, kadrning ayrim qismlari jadal yoritilishi kerak.

Arxitektura

Arxitektura peyzajini zamonaviy fotosur'atchi uchun suratga olish turlari ichida eng kerakli janrlardan biri hisoblanadi. Har bir shaharda yashovchi kishi suratga olish uchun ko'plab qiziqarli obyektlarni o'z uyi yaqinidan topishi mumkin. Go'zal arxitektura peyzajini hatto, o'z hovlingizda ham suratga olishingiz mumkin. Muhimi sur'atga olayotgan obektingizda biron bir original narsani ko'rishingiz lozim.

Arxitektura fotosur'atchiligini italyan vedut janrida faoliyat ko'rsatgan rassom suratchilarining qo'lyozmalari davomchisi desak ham bo'ladi. Bu janrda ilk marta 1843-yildayoq arxitekturani suratga olish bilan Foks Talbot shug'ullana boshlagan. Mashhur fotosuratchi peyzajistlar qatoriga Stiglis, Aleksandr Rodchenko va Anri Karte - Bessoni kiritish mumkin.



Arxitektura suratchiligi va uning asosiy yo'nalishlari

Bugun shahar peyzaji rivojlanishining bir necha asosiy yo'nalishlari mavjud. Birinchi yo'nalish shahar tuzilishi hisoblanib, bu yo'nalishga binolar, zavodlar, mashinalar va shu kabi obyektlarning fotosuratlari kiradi. Boshqa yo'nalishida esa shahar inson hayotining ajralmas bo'lagi ekanligi ko'rsatiladi. Shahar peyzajining navbatdagi yo'nalishi uning tarihiymadaniy yodgorliklarini o'z ichiga oladi. Har bir shahar arxitektura yodgorligi hisoblangani bois, fotosurat uchun ajoyib obyekt bo'la oladi.

Shahar peyzajining yana bir muhim yo'nalishida abstrakt kompozitsiyani aniqlash mumkin. Shishia va betonning birlashmasi bugungi kunda fotosuratchilar tomonidan ishlatiladigan mashhur obyekt

xisoblanadi. Biroq shahar peyzajidagi eng qiziqarli yo‘nalish – bu shahar hayoti bo‘lsa kerak. Kadrda monumental qurilish fonida shaharlik kishining paydo bo‘lishi uni yanada qiziqarliroq qiladi. Bundan tashqari, shahar peyzaji yo‘nalishlarig istirohat bog‘larini tasvirga olishni kiritish mumkin. Chunki istirohat bog‘lari shaharning ajralmas qismi hisoblanadi. Yana, albatta, shahar peyzaji yo‘nalishiga uning asosi bo‘lgan, arxitektura fotosuratchiligi kiradi.

Arxitektura tuzilishida kadr qurish prinsiplari

Kerakli bilimlar haqida gap ketganda, shahar peyzaji ustida ish olib borayotgan fotosuratchi peyzaj, janrni uyg‘unlashtirishni bilishi lozim.

Shahar peyzajini tasvirga olishda kengburchakli obyektiv ko‘plab obyektlarni bir kadrda jamlash uchun kerak bo‘ladi. Shuning bilan birga, uzunfokusli obyektivsiz ishingiz bitmaydi.

Kadr qurishda turli hil aks etishlarga e‘tibor berib qarang. Chunki aks ettirish shahar peyzajida klssik yo‘nalish hisoblanadi. Dengizdagi kichik to‘lqinlanish ham kadrni xiralashtirib, unga boshqacha ko‘rinish berishi mumkin. Bunda faqatgina dengiz aks ettirish xususiyatiga ega yagona obyekt bo‘lib qolmay, oyna fasadli bino ham kdarda asosiy ob‘ektga aylanishi mumkin. Shuni ham inobatga olish lozimki, tasvirshga olayotganda aks ettirayotgan ob‘ektga iloji boricha yaqin kelish lozim, shuning uchun uzunfokusli obyektivsiz bu yerda ishingiz bitmaydi.

Shahar peyzajining xususiy qiyinchiligi – bu ko‘chadagi ko‘plab kishilardir. Shu bilan bir qatorda, insonlar shahar peyzaji tasvirigi jozibadorlik baxsh etishi mumkin. Yana bir xalaqit qiluvchi obyekt – bu mashinalardir. Albatta, agar mashinalar ham eski va noyob bo‘lsa, kadrda o‘zgacha ko‘rinish baxsh etadi.

Ko‘pchilik fotosuratchilar shaharni oq qora ranglarda suratga olishga harakat qiladilar. Chunki shaharning turli tuman ranglarini bir kadrda jamlash juda qiyin. Masalan, olvrang reklama, Qizil plakat, yashil yozuv va hokazo. Bundan tashqari kadrda arxitektura yodgorligini ham oq-qora rangda muhrlasangiz, bu sizga faqat foyda bo‘ladi.

Agar kompozitsiya haqida so‘z boradigan bo‘lsa, unda peyzajning: “Planlar qanchalik ko‘p bo‘lib, kompozitsiya qanchalik murakkab bo‘lsa, arxitektura inshootlarining tasviri shunchalik qiziqarli bo‘ladi” umumiy degan qoidasi amal qiladi. Shu bilan birga, suratga olish nuqtasini “tushirib”, eng yuqori nuqtani topishga harakat qiling. Asosiysi, borliqqa boshqa tomondan qarashga harakat qiling va shunda siz eng yaxshi kadrni

topib, suratga olishingiz mumkin. Tasvirlaringiz haqida fikrni saytlarga joylashtirib bilib olishingiz mumkin.

Arxitektura peyzajining rejim vaqti, havo sharoiti

Shaharni suratga olishda fotosur'atchi boshqara olmaydigan va tasvirga katta ta'sir ko'rsatadigan vaziyat – bu ob-havo sharoiti hisoblanadi. Bu yerda ham yana o'sha, “Osmonsiz peyzaj, peyzaj emas” degan standart qoida a'mal qiladi. Ob-havoning o'zgarishi fotosur'atchi uchun ajoyib vaqt hisoblanadi. Chunki bu vaqtda osmonda o'zgarish bo'lib, bu siz uchun yanada qiziqarli yoritishni hosil qiladi. Peyzajning yana bir asosiy prinsipi – bu quyoshsiz yaxshi kadr xosil bo'lmasligidir. Bundan tashqari tasvirga olishda kunduzgi kuchli yorug'likdan ko'ra, ertalab yoki shom vaqtidagi yorug'lik yaxshiroq.

Har bir shaharni tasvirga oluvchi fotosur'atchining ularga kadri yanada qiziqarli qilishda yordam beruvchi o'zining ayyorliklari mavjud. Yomg'irdan so'ng qolgan ko'lmakka, obyektning daryodagi yoki shishadagi aksiga etibor bering. Shunda qiziqarli kadr hosil qilishingiz mumkin.

Biroq shahar peyzajini tasvirga olishda hammasi unchalik oson emas. Keng burchakli ob'ektiv bilan tasvirga olganda chiziqlar buzib ko'rsatilishi sur'atga olishning jiddiy muammosidir. Natijada, bino xuddi siz tarafga engashayotgandek tuyuladi. Albatta, fotosuratga ishlov berish davomida bu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Biroq haqiqiy arxitektura peyzaji rassomi bundan o'z ijodiy rejasini amalga oshirishda foydalanishi mumkin. Shaharni tasvirga olishda ko'p fotosuratchilar foydalanadigan yana bir ayyorlik mavjud. Agar siz soat oltida ko'chaga otlansangiz va shaharni tasvirga olsangiz, sizda yana shahar bo'ylab sayohat qilishga ham vaqt qoladi.

Shahar peyzajida ko'p xalaqit beruvchi narsa osilib, tasvirni buzib turuvchi ko'plab simlar hisoblanadi. Shu bois kadri tozalash fotosuratchi uchun oddiy mashg'ulot hisoblanadi.

Shahar bo'ylab kezib, o'zlari uchun noodatiy peyzaj yaratayotgan fotosuratchilar siz uchun yana bir muammoga aylanishi mumkin. Chunki ular siz tasvirga olmoqchi bo'lgan obyektни allaqachon tasvirga olgan bo'lishlari mumkin. Shu bois suratga olish nuqtalari, texnikalar, vaqt bilan tajriba o'tkazing. Shunda siz faqat o'zingizga tegishli bshlgan ajoyib va qiziqarli kadr yarata olasiz.

Shahar peyzajida kadr formatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, amaliyotda istalganicha bo'lishi mumkin. Gorizontal yoki vertikal kadrdan yoki to'g'ri

to'rtburchak kadrlardan ham foydalanishingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda panorama ko'rinishida suratga olingan ajoyib fotosuratlarni ham uchratish mumkin.

Shahar peyzajini suratga olish bilan jiddiy shug'ullanuvchi fotosuratchilar uchun bitta kadr ko'p sonli tasvirlar seriyasining bir qismi bo'ladi xolos. Sizga yaxshi ma'lumki, fotosuratlar seriyasini birlashtirish aniq prinsiplar asosida bo'lishi lozim. Bular ichida eng oddiy fotosuratlariga bir hil ishlov berishdir. Fotosuratlarni birlashtirishning yagona qoidasi asosida, olgan tasvirlaringiz kadrning yagona formatiga aylanishi mumkin. Masalan, oq-qora rangda ishlov berishni shahar fotosuratlariga qo'llash mumkin. Siz agar, bir tasvirga olish kunida bir butun seriyani tasvirga olishga ulgurgan bo'lsangiz, bu sizning katta omadingiz bo'ladi.

Yuqori dinamik diapazonli texnologiyalar bilan tasvirga olish (high dynamic range – HDR) kontrastlikda kadrni yanada qiziqarli qilishi mumkin. Biroq har qanday texnologiya meyorida foydalanilganda yaxshi. Shuning uchun HDR bilan juda extiyotkorona foydalanish lozim.

III BOB. TASVIRGA OLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA RAQAMLI ISHLOV BERISH

3.1. Sport fotografiyasining o‘ziga hosligi

“Viderjka”ning 1/640 yoki undan yuqori ko‘rsatkichini qo‘llang.

Ko‘pchilik hollarda professional sport fotosuratchilari to‘g‘ri ma‘noda “lahzani to‘xtatish”ga harakat qiladilar. Buning uchun “viderjka”ning prioritet (yoki sizga qulayligiga ko‘ra qo‘lda boshqariladigan rejimiga o‘tish va “viderjka”ning 1/640 s va undan yuqori (1/1000 s ko‘rsatkichi har qanday harakatni to‘xtatish’ imkonini beradi). Bunday sozlamalar kerakli lahzani suratga olib, tasvirni yanada tiniq chiqishiga imkon yaratadi. Bu vaziyatda eng past ko‘rsatkich 1/500 bo‘lishi mumkin. Biroq bu shu zahoti kamchiliklar bilinadi. 1/640 ko‘rsatkichdan kam bo‘lmagan ko‘rsatkichdagi “viderjka”dan foydalanishga harakat qiling. Bazan harakat illyuziyasini yaratish uchun yuqori ko‘rsatkichdagi “viderjka”dan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Biroq ko‘pchilik hollarda lahzani ushlab qolish va suratga olishga to‘g‘ri keladi va buning uchun “zatvor” ishlab chiqishining yuqori tezligi kerak bo‘ladi.

Qanday obyektiv tanlash kerak?

Agar sport o‘yiniga boshqa uskunalar bilan bir qatorda bir talay obyektiv olib keladigan bo‘lsangiz, ularni butun boshli katta ryukzakka joylashingizga to‘g‘ri keladi. Bu sizga bel og‘rig‘idan boshqa narsa bermaydi. Buning o‘rniga ikki dona obyektiv bilan chegaralanishingiz kerak.

1. 12–14 mm almashinuvchi kenglikka ega keng burchakli obyektiv. Bu obyektiv sizga stadion, kortning umumiy panoramasini, yoki yaqin yirik planda guruh tasvirini olish uchun kerak bo‘ladi.

2. 300 va 400 mm fokus kenglikdagi teleobyektiv (200–300 mm almashinuvchi kenglikka ega). Eng yaxshisi, tebranishni kamaytirish funksiyasiga ega (Nikon obyektivlari uchun Vibration Reduction) yoki tasvirni stabilizallashtiruvchi funksiyaga ega (Canon obyektivlari uchun Image Stabilization) qurilmaga ega bo‘lgan maqul. Chunki ko‘pincha yopiq, yaxshi yoritilmagan joylarda yoki kechki vaqtlarda shtativsiz tasvirga olishga to‘g‘ri keladi.



Tasvirga olish jarayonida obyektivlarni almashtirishga imkon boʻlmasligini yodda tuting. Shu bois bir obyektiv birinchi fotoapparatga oʻrnatilgan boʻlsa, ikkinchisi boshqa fotoapparatga oʻrnatilgan boʻlishi lozim. Yana oʻzingiz bilan qoʻshimcha xotira kartalari va quvvat manbalaridan tashqari 1,4x telekonvertor olib yursangiz, maqsadga muvofiq boʻladi. U 300 mm fokus kenglikdagi teleobyektivni 450 mm kenglikdagi teleobyektivga aylantirib, suratga olish obyektini yanada yaqinlashtirishda yordam beradi. Professional fotosuratçilar 2x. li telekonvertorlardan foydalanmaslikni tafsiya qiladilar. Chunki ushbu qurilmada yaqinlashtirilgan tasvirlarning ravshanli pastroq boʻladi va bundan tashqari fotosuratçi “viderjka”ning yuqori koʻrsatkichidan foydalana olishiga imkon beruvchi ikki diafragmadan foydalana olmaydi. Barcha ushbu qurilmalarni koʻtarib yurishni istasangiz, Tenba yoki Domke fotojiletlaridan foydalanishingiz tavsiya etiladi. Yoki boʻlmasa, barcha aksessuarlarni kofr yoki ryukzakda emas, balki sumka poyasida olib yuring.

Tasvir tiniqligini boshlangʻich sozlash

Muayan musobaqani tasvirga olishda asosiy hodisa qayerda sodir boʻlishini avvaldan bilish mumkin. Masalan, beysbol musobaqasida oʻyinchi ikkinchi bazadan uchinchi bazaga yugursa, snovbordingda sportçi qaysi nuqtada toʻxtashi taxminan maʼlum boʻladi. Bunday hollarda tiniqlikni kerakli nuqtaga oldindan sozlab, kerakli vaqtda faqatgina suratga olish tugmasini bosish lozim.




Avvalo, avtomatik tiniqlik rejimini tanlab, fokusni hodisa ro‘y berishi kerak bo‘lgan nuqtaga yo‘naltiring. Endi hodisani bemalol kuzatishingiz mumkin. Sportchi belgilangan nuqtaga yaqinlashishi bilan, shunchaki kerakli holatda turib, fokus to‘g‘ri nuqtada turganini bilgach, tasvirga oling. Bu holatda avtomatik funksiya tasvirni tiniqlashtirishini kutmay suratga olish mumkin bo‘ladi.

Bir qator suratlar olish rejimi

Dinamik o‘yinning qiziqarli fragmentini saqlab qolish uchun ko‘pincha sport o‘yinlarida bir qator suratlar seriyasi (bir sekundda to‘rt va undan ortiq kadrlar) ni olishga to‘g‘ri keladi. Bunda fotoapparatning sozlamasini suratga olish tugmasini bir marotaba bosganda bir emas, balki bir nechta kadr olishi uchun o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik raqamli ko‘zguli fotoapparatlarda bu rejim bir qator suratlar olish rejimi deyiladi (burst mode). Fotoapparatlar o‘zi bir sekundda bitta kadr suratga olishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Nikon fotoapparatlarida bir qator suratlariga olish rejimini aktivlashtirsa bo‘ladi. Buning uchun suratga olish rejimini tanlash tugmasini bosib, “круговой пекрекключатель”ni toki kamera JK ekranining o‘ng tepa qismida bir dasta fotosuratlar piktogrammasi chiqmaguncha burash kerak.



Nikon



Canon

Canon fotoapparatlarida avvalo, fotoapparat JK-ekranining o'ng pastki qismidagi Drive-ISO yoki AF-Drive tugmasini (bir qator suratlar olish taymerini yoqish/sezuvchanlikni tanlash) bosib, so'ngra o'ng tarafda joylashgan “круговой пекреключатель”ni toki kamera JK ekranida bir dasta fotosuratlar piktogrammasi chiqmaguncha burang. 30D model foydalanuvchilari bir qator suratlar olish rejimini yoqish uchun “круговой пекреключатель”ni toki bir dasta fotosuratlar piktogrammasining yonida “H” belgisi chiqmagunga qadar burash lozim.

Endi, suratga olish tugmasini bosib, birdaniga bir necha kadrlarni suratga olishingiz mumkin.

Vertikal tasvirga olish

Ko'pchilik sport fotosuratchilari fotoapparatni vertikal holatda ushlab tasvirga olishni maqul ko'radilar. Shunda tanlangan obyekt bilan kadrnini to'ldirish mumkin va bunday sotosur'at formati jurnal ilustrasiyalari, reklama proseptlariga mos keladi.

Fotoapparatni aylantirib, uni qo'lda ishonchli ushlab olish kifoya. Yuqorida keltirilgan fikrlar faqatgina fotosurat obyektini bir necha emas, balki bir obyekt bo'lsagina to'g'ri bo'ladi. Bir necha sportchilarni suratga olish uchun fotoapparatni an'anaviy, gorizontal holatda ushlab turish lozim. Barcha bazani sig'dirish uchun, vaziyatdan kelib chiqib ikki xil holatda ham suratga olish kerak.




Yana iloji boricha ko‘proq suratga olish lozim. Texnik redaktor Bill Fortni aytganiday:”Baribir, redaktorga fotosuratchi tasvirga ololmagan surat kerak bo‘ladi”.

Lahzani tasvirlash


Agar siz harakatni tasvirlash lozim bo‘lgan o‘yinni suratga olayotgan bo‘lsangiz (masalan, futbol, basketbol, beysbol va h.k.), harakat tasvirini olib qoluvchi 1/1000 s. ko‘rsatkichli “viderjka”dan foydalanishingiz kerak. Buni faqat yaxshi yoritilgan sharoitda, diafragmani f/2,8 yoki f/4 ko‘rsatkichiga ochish mumkin bo‘lganda bajarish oson. Biroq agar, osmonni bulut qoplasa yoki yoritish sharoiti yomonlashsa, yoki o‘yin kunning ikkinchi yarmida kechga yaqin o‘tkazilsa, “viderjka” 1/1000 s dan ko‘payib ketishi mumkin va natijada siz uyga birtalay hira tasvirlar bilan qaytishingiz mumkin.

Aynan shuning uchun sizga ISO avtomatik sozlash funksiyasi kerak bo‘ladi. Aynan u “viderjka”ning tanlangan ko‘rsatkichi bilan, avtomatik tarzda yorug‘lik sezgirligi ko‘rsatkichini sizning aralashuvingsiz o‘zgartirib tasviga olishga imkon beradi. Ayniqsa, bu funktsiya ishining quvonarli tarafi shundaki, bu funktsiyada ISO ko‘rsatkichi birdaniga 200 dan 400 ga o‘tib ketmay, balki keragicha o‘zgarib boradi.



Ayniqsa, ISO 200 ko‘rsatkichi 270 gacha o‘zgarishi mumkin xolos. (siz istasangiz ham qo‘lda sozlay olmaydigan yorug‘lik sezgirligi ko‘rsatkichi). Nikon fotoapparatlarida ushbu funksiyani yoqish uchun Shooting menyusidan ISO Sensitivity Settings bo‘limini tanlash kerak. So‘ngra, Minimum Shutter Speed maydonida “zatvor” ishlashining minimal tezligini belgilab, ISO Sensitivity Auto Control funksiyasini ishga tushirish lozim. Shunda yoritish sharoiti o‘zgarishidan qat’iy nazar sizda eng tiniq tasvirlar hosil bo‘ladi. Canon fotoapparatlarida ISO parametri uchun A ko‘rsatkichini tanlash kerak. Buning uchun, fotoapparatning JK ekraniga qarab, boshqaruv g‘ildirakchasini aylantirish kerak¹.

ISO ko‘rsatkichi juda yuqori bo‘lganda tungi suratga olish



¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

Sport fotograflari kechasi o‘yin maydoni qanchalik qorong‘u bo‘lishidan xayratlanishdan to‘xtamayptilar. Minbardan maydon faqat sizning fotoapparingiz uchun yorug‘ bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Uning uchun bu deyarli muzeyni tasvirga olishga o‘xshaydi. Faqatgina stadionda tasvirga olishda harakatni to‘xtatish uchun kichik “viderjka”dan foydalanish kerak bo‘ladi. Vaziyat qay darajada og‘ir? Agar sizga Chikagodagi Solider Field stadionida tasvirga olishingiz kerak bo‘lsa, “viderjka”ning 1/1000 s. ko‘rsatkichini qo‘llashi uchun ISO 4000 ko‘rsatkichidan foydalanishingiz kerak bo‘ladi. Hattoki, minbarning yon tarafidan ham stadion o‘ta yorqin ko‘rinadi. Biroq buning barchasi fotoapparatning “видоискатель”iga qaraganingizda barchasi boshqacha ko‘rinadi. Ana endi Solider Field stadionida olingan tasvir shunchalik qorong‘u ko‘rinsa, oddiy maktab stadionida kechki vaqtda olingan tasvir qanday chiqishini bir tasavvur qilib ko‘ring. Mana shuning uchun ISO parametrining yuqori ko‘rsatkichida raqamli shovqinni kamaytiradigan fotoapparatlar – Canon firmasining Mark III, Nikon firmasining D700 va D3 modellari juda mashhur bo‘lib ketti. Past sifatli fotoapparatlar ISO ning yuqori ko‘rsatkichida shunday shovqinni hosil qiladiki, natijada, tasvir sifati yaroqsiz bo‘lib qoladi. Agar siz sport musobaqalarini suratga olish bilan jiddiy shug‘ullanmoqchi bo‘lsangiz, qurilmalarga ketadigan barcha xarajatlarni qoplash uchun o‘zingizga ikkinchi ishni topishingiz lozim.

O‘yinchilarni yoritish uchun kunduzgi yorug‘likdan foydalanish



Agar siz futbol o‘yinini kunduzgi vaqtda tasvirga olayotgan bo‘lsangiz, maydonga shunday turingki, quyosh sizning ortingizda bo‘lsin. Shu yo‘l bilan quyosh ularni yaxshi yoritadi va siz ularning yuz qiyofasini

tasvirga tushira olasiz. Agar siz shunday qilmasangiz, o'yinchilarning yuziga soya tushib qoladi va bu tasvirda negativ tarzda ko'rinib qoladi. Ayniqsa, bu holat agar o'yinchilar boshlariga shlem kiygan bo'lsalar yaqqol bilinib qoladi. Darvoza ortidan tasvirga tushirishga urinib ko'rishingiz mumkin.

Shunda siz kun tugashiga yaqin sizning yo'nalishingizda harakatlanayotgan barcha o'yinchilarning yuzini ko'ra olasiz. Shu usul bilan siz sportchilarning yuz ifodasini va o'yin kuchini tomoshabinlarga yetkazib bera olasiz

Quyi holatdan suratga olish

Kelgusi safar sport musobaqasiga borganingizda professional fotosuratchilar quyi holatdan suratga olayotganiga e'tibor bering.



Shu usul bilan ular yanada qiziqarli rakursni tutib, o'z fotosuratlarini qiziqarliroq qiladilar. Bu motogonka o'yini kabi, futbolga ham tegishli. Pastroqqa egilib, sizga mavjudlik effektini beruvchi perspektivani topasiz.

Nima uchun tasvirga olinayotgan sahnani maksimal darajada yaqinlashtirish lozim

Sport fotosuratchisi uchun o'yinni minbardan tasvirga olishdan yomonroq vaziyat yo'q. Buning birinchi sababi o'yin millionlab muhlislar kuzatayotgan joydan suratga olinishidir. Bunday holda kuzatuvchi tasvirda hech qanday yangilik ko'rmaydi. Shu sababli, sport tasvirida maksimal darajada yaqinlashtirish kuzatuvchiga o'yin vaqtida ko'ra olmaganlarini ko'rsatish uchun juda muhim.

Siz o‘yin jarayonidagi hisobni sharhlashingiz emas, balki ruhiy holatni, terlash, jaxl, quvonch, haqiqiy qayg‘uni ko‘rsatishingiz va tarixga muhrlashingiz lozim. Siz yaratgan fotosuratlar maydonda sport kiyimida yugurayotgan noma‘lum insonlarning tasviri bo‘lmasligi lozim. Aynan shuning uchun tomoshabinga o‘z ko‘zi bilan ko‘ra olmagan, yaqin masofadan olingan sportchilarning tasviri yoqadi. Ular o‘yinni tasvirda nostandart joydan ko‘radilar. Tomoshabinlar musobaqa vaqtida o‘yinchilarga u darajada yaqin kelib, sevimli o‘yining qiziqarli tarafini ko‘raolmaydilar. Siz esa musobaqadagi ruhiy holatni, qayg‘urishni ko‘rsatib, kuzatuvchi uchun ushbu qiziqarli tarafini ochib bera olasiz.



Aynanshuning uchun sport fotosuratchilari o‘yinchilarga yaqin kelishga intiladilar. Agar teleobyektivdan foydalanmasangiz, minbardan turib olingan tasvirlar kamdan kam hollarda yaxshi chiqishi mumkin. Biroq AQSHning ko‘pgina stadionlarida 10 sm dan uzun teleobyektivlari bilan suratga olish qonun bilan taqiqlangan.

Tasvirlaringizda tarixni muhrlang


O‘yin tugayotganida tasvirga olishni tugatish tabiiy holdek ko‘rinadi. Biroq aynan shu vaqtni tasvirga olish lozim. Chunki aynan o‘sha vaqtda olingan tasvir tomoshabinga butun boshli tarixni so‘zlab berishi mumkin. Raqibning kuchli hujumini qaytargan himoyachining qiyofasi, arbitordan oqoxlantirish olgan o‘yinchining yuz ifodasi yoki guruhi raqiblar darvozasiga gol urishiga oz qolgan trenerning havotiri – bularning barchasi tarixda qoldirishi kerak bo‘lgan lahzalardir.



Shuning uchun, agar siz o‘yin tugayotganda tasvirga olishni to‘xtatsangiz, o‘yinning eng dramatik, emotsional va hattoki tasirli lahzalarini o‘tkazib yuborishingiz mumkin. Agar siz bunday lahzalarni ushlab qola olsangiz, sizning tasvirlaringiz tarixni so‘zlab bera oladi.

To‘liq kadrli matritsa

Hozirgi kunda to‘liq kadrli matritsaga ega fotoapparatlar ustida so‘z borayotgan vaqtda, sport fotosuratchiligi sohasida sizga standart matritsalariga sodiq qolishni tavsiya etamiz.



Gap shundaki, standart matritsa suratga olinayotgan harakatga yaqinroq borishga imkon beradi. Masalan, Nikon firmasining D300 modelidagi raqamli oynali fotoapparatlari sizni obyektga 50% yaqinlashtirsa, Canon firmasining EOS 50D modellari 60% ga yaqinlashtiradi. Xo‘sh, bu qanday bo‘ladi? To‘liq kadrli matritsa bilan suratga oladigan fotoapparatlarga 200 mm fokus masofadagi obyektivlarni

oʻrnatish natijasida ushbu obyektiv uchun maksimal boʻlgan 200 mm fokus masofaga ega boʻlasiz. Biroq, oʻsha 200 mm fokus masofadagi obyektivni standart matritsali Canon 50D fotoapparatlariga oʻrnatangiz, u oʻz-oʻzidan 320 mm fokus masofali obyektivga aylanadi.


Ushbu obyektivga yana fokus masofani 1,4 marttaga yaqinlashtiruvchi telekonvertorni oʻrnatangiz, siz deyarli 450 mm ga teng maksimal fokus masofaga ega boʻlasiz. Toʻliq kadrlil matritsaga ega boʻlgan fotosuratchi peyzajistlar huddi yosh boladek quvonadilar. Chunki bunday fotoapparat bilan ularning kengburchakli obyektivlarining qamrov burchagi yanada kengayadi. Biroq gap sport musobaqalarini tasvirga olish xususida ketganda “eski maktab”ning 1,5x va 1,6x karrali fotoapparatlari yanada kerakli koʻrinadi.

Oʻyin tugagandan soʻng tasvirga olishning yana bir sababi



Agar siz oʻyinning guruhli turlari, masalan, amerika futbolini tasvirga olayotgan boʻlsangiz, toʻp ushlagan oʻyinchini hujumchilar toʻdasi orasida yoʻqotib qoʻyishingiz mumkin. Shunda, bu qaysi oʻyinchi edi, qanday raqam ostida oʻynayotgan edi, degan savol tugʻiladi. Agar siz arbitror xushtak chalganidan soʻng ham tasvirga olishni davom ettirsangiz, toʻp aslida kimda boʻlganini oson aniqlab olishingiz va yana bir marotaba tasvirga tushirishingiz mumkin. Bu oʻyin oxirida aynan oʻsha vaqt kim toʻpga egalik qilganini aniqlashda yordam beradi. Yuqorida koʻrsatilgan rasmlarda (oʻng tarafdagisida) oʻyinchilar koʻtarilayotgan vaqtda, toʻpga egalik qilayotgan oʻyinchining yelkasidagi 34 raqamini aniq koʻrish mumkin.

Keng ochilgan obyektivda tasvirga olish



Bu yerda diafragmaning minimal raqamli ko'rsatkichlaridan foydalanish nazarda tutilmoqda. Agar aniq obyektivning maksimal ochilgan diafragma ko'rsatkichi $f\ 2/8$ ni tashkil etsa, unda aynan ushbu yoki bundan keyingi ko'rsatkichdan foydalangan holda tasvirga oling. Bunday usul ikki afzallikka ega:

1. Fotosuratdagi fon xira, tasvirning o'zi esa yanada dramatik va dinamik bo'lib chiqadi. Shunda hech narsa fotosuratdagi asosiy obyektдан etiborni chalg'ita olmaydi. Sport musobaqalarini tasvirga olganda juda tiniq fon deyarli har doim jiddiy muammo hisoblanadi. To'liq ochilgan teleobyektiv diafragmasi tasvirning eng kichik tiniqlik chuqurligini ta'minlab beradi. Bu fotosuratda barcha orqadagi narsalar hiralashib, faqatgina obyekt tiniq chiqishini bildiradi.

2. Bunday diafragma ko'rsatkichini yaxshi yoritilmagan yoki sun'iy yoritilgan sharoitdagi sport musobaqalarini suratga olishda qo'l keluvchi "viderjka" ning yuqori ko'rsatkichlari bilan qo'llash mumkin.

Nazorat savollari

1. Nima uchun sport musobaqasi tugagandan so'ng ham tasvirga olishni to'xtatmaslik lozim?
2. Kunduzgi vaqtda sport musobaqalarini fotosuratchi qayerdan turib tasvirga olgani ma'qul?
3. Sport o'yinlarini tasvirga olishda "viderjka"ning minimal ko'rsatkichi nechchiga teng bo'lishi lozim?
4. Nima uchun sport musobaqalarida tasvirga olinayotgan sahnani maksimal darajada yaqinlashtirish lozim?
5. Ko'pchilik raqamli fotoapparatlarda bir qator suratlar olish rejimi yana qanday nomlanadi?

6. Stadion, kortning umumiy panoramasini, yoki yaqin yirik planda guruh tasvirini olish uchun nechchi mm li obyektiv kerak bo'ladi?

3.2. Mavzuiy fotografiya

Sizning qo'lingizga turizm haqidagi jurnal tushib qolsa, unda nashr etilgan suratlariga e'tibor bering. Eng keng tarqalgan ikkita mavzu: bolalar va qariyalar. Qariyalar haqida gapirsak, 50 yoshdan oshganlarni nazarda tutmaymiz. Biz haqiqatdan ham juda keksa insonlar haqida gapiramiz, ya'ni yuzlarida chuqur ajinlari bor ayollar va kiyimlari Ikkinchi Jahon urushidan beri yuvilmagan qo'ltiqtayoqli cho'loq chollar haqidadir. Bolalarga kelsak, suratda qanchalik kichkina bola bo'lsa, shuncha yaxshi. (emizikli go'daklardan tashqari). Oddiy ko'rimsiz fondagi bolalar surati shahar fotografiyangizga va sayohat fotohisobotingizga o'ziga xos takrorlanmas manzara kasb etadi (mana, nega bu rasmlar jurnallarga juda yoqadi). Agar ular biror qiyofada turishi kerak bolsa ular bilan biror muddat suhbatlashing va aloqa o'rnating, shunda suratda ular bunday qisib-qimtingan ko'rinishda bo'lmaydilar.

Oyni qo'shamiz va detallarni saqlab qolamiz




Orqa planda aniq oy surati bilan shahar tungi osmonini suratga olish oson ishga o'xshaydi. Shunday bo'lsada ko'p odamlar releflari ko'rinib turgan qizil diskli oy o'rniga nur taratib turgan oq aylanalni to'liq oyni suratga oladilar. Bu shuning uchun ro'y beradiki, bir vaqtning o'zida shaharni (bu uzun ekspozitsiyani talab etadi) va oy relefi aniq detallarini (qisqa ekspozitsiyani, oy nuri yorqin) suratga olish amalda mumkun emas.

Uzoq yillar davomida suratchilar bir necha ekspozitsiyani (bir kadr ichida ikkita tasvir) birga yaratish ustida ishladilar.

Hozir bir necha raqamli fotoapparatlar bor, ularda ikkita ekspozitsiyadan foydalanish mumkin, lekin ikki rasmni alohida-alohida suratga olib: biri – shahar, boshqasi – oy va keyin Photoshopda ularni birlashtirish ancha oson. Shaharning tungi osmonidan boshlash kerak. Keng burchakli obyektivdan foydalaning (fokusli uzoqligi 18 mm yoki 24 mm), fotoapparatni shtativga oʻrnatib (juda kerakli), diafragma rejimini tanlang va f/11 li diafragma uchun topshiriq bering, fotoapparat esa avtomatik tarzda koʻrinishni tanlaydi (u 20–30 sekunddan bir necha minutgacha osmonning qorongʻiligiga qarab suratga olish uchun kutib turishi mumkin). Keyin suratga olinadigan obyektivni eng uzoq focus (200 mm dan kam boʻlmagan) ga oʻzgartiring. Qoʻl rejimiga oʻting va f/11 diafragma uchun topshiriq bering, manzara uchun-1/250 s. Oyga maksimal yaqinlashishni shunday tashkil qilingki oydan va qora osmondan boshqa hech nima koʻrinmasin (bu juda muhim: hech qanday qora bulut, bino va h.k.) Endi Adobe Photoshop dasturi yordamida tungi osmon suratiga oy tasvirini qoʻshish qoldi.

Suv yuzasidagi akslarni kamaytirish



Irmoq, koʻl yoki istalgan suv obyektini suratga olishda juda muhim vazifani bajaruvchi filtr kerak boʻladi; u suv yuzasidagi osmon aksini yoʻqotadi. Bu filtr bilan siz suv tubidagi toshlarni yoki suzayotgan baliqlarni koʻrishingiz mumkin. Suratdagi suv juda toza boʻladi va natijada siz juda qiziqarli suratlar olishingiz mumkin. Koʻpchilikni bu filtr hayron

qoldiradi, undan ko‘p suratchilar suratlardagi osmonni yanada zangori qilish uchun undan foydalanishadi bu aylanali polyarizator (ajratuvchi).

Ko‘k osmonni suratga olishda bu polyarizator qanchalik muhimligini eslatib o‘tamiz. Bu yana bitta muhimligi kam bo‘lmagan vazifani bajarar ekan, suv yuzasidagi aksni yo‘qotadi. Polyarizator juda oddiy ishlaydi. Uni obyektivda burang va fotoapparatning ko‘rinish qidiruvchisiga qarab polyarizatorning aylanasini sekin asta burang. Birdaniga siz aks yo‘qolganini va suv ostida bo‘lgan narsalarni ko‘rayotganligingizni sezib qolasiz. Bu harakatlardan biri bolib uni xaqiqatdan baholash uchun albatta, amalda qo‘llab ko‘rish kerak. Menga ishonavering bu sizga juda yoqadi.

Insonlarni kadr kompozitsiyasiga kiriting



Sayyohatda tushgan suratlaringizni yanada bezash uchun odamlari kadr kompozitsiyasiga kiriting. Agar siz mamlakat o‘ziga xosligi va ruhini tasvir orqali namoyon qilmoqchi bo‘lsangiz, nafaqat ibodatxonalar, me‘moriy yodgorliklarni, balki odamlarni ham tasvirga olishga harakat qilishingiz kerak. Har qanday shahar xarakteri va ruhini shu shaharda yashovchi odamlar aks ettiradi. Aynan shuning uchun professional fotosuratchilar ko‘pincha odamlari o‘zining kompozitsiyalariga kiritishadi. Agar siz olgan suratlar o‘zizga yoqmayotgan bo‘lsa, birorta insonsiz ko‘chalar va binolar syujetni judayam sovuq bo‘lishiga sababdir? Odamlarni kadrga kiriting va hammasi yaxshi tomonga o‘zgaradi.

Odamlardan suratga tushib berishini so‘rang



Agar sizning oxirgi sayohatingizdan olingan suratlar albomingizga mahalliy yashovchilar portretini qo‘shsangiz, ular uni rang-barang qiladilar. Lekin juda ko‘p bunday suratlar teskari natijani beradi. Mahalliy yashovchining portretini yaxshi olish uchun undan avval undan malum bir qiyofada turib berishini so‘rashingiz kerak. Tili notanish bo‘lgan davlatlarda odamga ta‘zim qilib, fotoapparatni knopkasiga bosh barmog‘imizni qo‘yib va jilmayib suratga olishga ruxsat so‘ragandek boshimiznni qimirlatsak ular tushunib yetadilar. Ko‘pincha jilmayib qilayotgan kishlaridan bir necha sekundga to‘xtab ma‘lum bir qiyofada turib berishni so‘rab, bitta kadr olib darhol fotoapparatni o‘girib odamga olingan kadri suyuq kristal displeyda ko‘rsatsangiz u inson xursand bo‘lib ketadi. Bu huddi muzni yorgandek bo‘ladi chunki ko‘p odamlarga suratlar yoqadi, ayniqsa, ular suratda yaxshi chiqsalar. Shundan so‘ng, qoida bo‘icha, ular yana bir necha kadrغا tushishga turib beradilar.

Ikki qadamga surilin

Birmuncha fotorassomlar fikri bo‘yicha: “suratga olish vaqtida eng katta muammo suratchilarning harakatlanmasligidadir. Eng yaxshi kadr, eng yaxshi ko‘rinish, eng yaxshi joni olish uchun, ba‘zan tanlangan joydan ikki qadam orqaga yurish kifoyadir.



Lekin suratchilar harakatlanmaydilar: ular keladilar, anjomlarini oʻrnatadilar va suratga olishni boshlaydilar”. Bu rost. Siz ajoyib detalni, masalan, yorqin rangda boʻyalgan devor qismini koʻrishingiz bilanoq shunchaki biroz yuring. Siz tanlagan suratga olish obyektining qiziqarliroq rakursini topishga harakat qiling va uni boshqa joydan rasimga oling. Chapga va oʻngga harakatlengandan tashqari suratga olishning balandligi oʻzgarganligi tufayli ajoyib koʻrinishni suratga olish mumkin: fotoapparatni stul ustiga qoʻying, bir chetiga oʻtiring, yerga yotib oling va obyektни pastdan rasimga oling yoki narvondan koʻtariling va yuqoridan obyektни rasimga oling. Koʻz oldingizga keltiring, agar ikki qadam chapga (yoki ikki qadam yuqoriga) oʻtilsa butun sayohat davomidagi eng yaxshi kadr boʻlishi mumkin. Aytgancha bu yerda berilgan rasm “ikki qadam” prinsipiga koʻrgazmali isbotidir. U Morokkoda olingan. Hop mayli, Morokkoda emas, lekin uning Disney variantidadir (Floridadagi Disney markazi aytgancha ochiq oynadan koʻrinib turgan olov rang Disney sovgʻa doʻkoni devorining rangi. Bir qadam oʻngga oʻtsangiz Mikki Mausning qoʻgʻirchoqlari koʻrinadi.

Yorqin ranglarni izlang

Shahar suratlarida yorqin, jonli ranglar boʻlishiga harakat qiling. Ajoyib boʻyalgan devorlar, eshiklar (devor bilan eshik bir xil rangdagi suratlar), doʻkonlar, yoʻl belgilari, mashinalar va motosikllarni tez-tez topish mumkin.



Misol tariqasida, shaharda olingan och sariq Lotus sport mashinasi fonidagi qizil skuter Vespa suratidir. Har doim yorqin rangda bo‘yalgan devorlarni qidiring (ayniqsa agar devor fonida ishlayotgan odamni yoki avtobusni kutayotganni, devor oldidan ko‘cha bo‘ylab o‘tayotganni topish, yoki yorqin zangori devor yonida qo‘yilgan yorqin sariq rangdagi mashinani topishga erishilsa yaxshi natijaga erishsa bo‘ladi). Agar siz atayin shunday ranglar kombinatsiyasini qidirsangiz shahar bo‘ylab, sayr vaqtida qanchalik tez-tez uchratishingizdan hayron qolasiz. Garchi bu foydasiz eslatish bo‘lsada ranglar yaxshi yorug‘likda yanada to‘liq va yorqin ko‘rinadi. Uni tonggi shafaqda va oqshomgi ufqda topish mumkin. Soyada olingan suratlar sifati bo‘yicha uchinchi o‘rini egallaydi¹.

Yorqin dog‘larga e‘tibor



¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

Do'stlarni, tanishlarni yoki yo'lovchilarni suratga olayotib yonida yorqin dog'lar (quyosh nuri, quyoshdan yorqin yoritilgan joy), obyekt o'zi soyada bo'lishi kerakligiga e'tibor bering. Insonning tabiati shunday: yorqin fragmentlar suratga olish obyektini chalg'itib o'ziga birinchi navbatda e'tiborni tortadi (namoyish yetilayotgan suratlar ko'rinishi avval devorning yorqin fragmentida to'xtaydi, bu yerda ko'prik bo'lgan suratga olish obyektida yemas).

Shunday qilib, kelasi safar obyekt yonida yorqin dog'ni ko'rsangiz, yorqin dog' kadr ortida qolishi uchun chapga yoki o'ngga surilib shunday joydan suratga oling.

Nazorat savollari

1. Tunggi osmonni sur'atga olishda diafragmaning qanday ko'rsatgichi tanlangan ma'qul?
2. Nima sababdan yorqin ranglarni kadr ortida qoldirish kerak?
3. Qariyalarni tasvirga olishda nimaga e'tibor berish kerak?
4. Bolakaylarni tasvirlashda nimaga e'tibor berish kerak?
5. Suv yuzasidagi akslarni kamaytirish uchun qanday qo'shimcha uskunadan foydalaniladi?
6. O'zga mamlakatning O'ziga xosligini qaysi omillarda namoyish etish mumkin?


3.3. Fotoetyudlar



Men tuman yoki yengil tutun tasvirlangan fotosuratlarini yoktiraman. Ushbu tabiiy hodisa kompozitsiyaga jumboq bag'ishlaydi (qo'shadi).

Ammo bunday tasvirga olish vaziyatida fotosuratda sizga yoqqan suratni tasvirlashda fotoqurilmangizning tarkibidagi eksponometrqa yorug'lik sharoitlarni baholash o'ta qiyin. Lekin boshqa vaziyatdagilardek, fotosuratda tumanni tasvirlash uchun ekspozitsiyani to'g'ri sozlash bo'yicha bir usul mavjud. Buning uchun fotoqurilmaning menyusida Ekspozitsiya kompensatsiyasi bo'limini oching va bir ko'rsatgichga ko'paytiring (aslida, siz tumanni tasvirlashda avtomatik ravishda saylangan sozlashuviga rozi emassiz va bir ko'rsatgichga ko'paytirmoqdasiz). Nikon fotoqurilmalarda uning panelining yuqorg'i uning burchagida joylashgan alohida tugmachasiga bosish kifoya. Uni bosib turgan holda ekranda +1 kursatgichi paydo bo'lishigacha boshqarish g'ildiriqchani unnga burish lozim. Canon fotoqurilmalarda aynan shu tugmachani (aynan xuddi shunday o'rinda joylashgan) +1 kursatgichi paydo bo'lishigacha bosib katta boshqarish diskini (fotoqurilmaning ortqi panelida) unnga burish kerak. Tuman tasviridan so'ng ekspozitsiyaning kompensatsiyasini 0 kursatgichiga kaytarish zarur. Agarda shuni qilmasangiz kunning ohirigacha atrofdagi dunyoni ortiqcha ekspozitsiya bilan tasvirga olasiz.

Chaqmoqni fotosuratga olamiz



Chaqmoq fotosuratlari juda dramatik hamda tomoshabinlar uchun qiziqarli, chunki voqeilikda biz chaqmoqni faqat bir-ikki sekund ko'rishimiz mumkin. Agarda siz ushbu lahzani to'xtata olsangiz, siz o'ta qiziqarli va ta'sirchan suratga erishasiz. Ammo boshqa vaziyatlardagidek, siz to'g'ri vaqtni tanlashigiz kerak. Endi qanday etib chaqmoqni fotoqurilma obyektiviga ushlab kerakligi haqida aytib berish oldidan sizni qanday etib uni o'z ko'lingiz (to'g'riroq, tanangiz) bilan ushlablik

haqida ogohlantirmoqchiman. Yomg'ir ostida, baland daraxt ostida yoki ochiq yerda turmang. Chaqmoqni xavfsiz masofadan suratga oling. Aks holda u sizni yashin qaytarg'ich deb hisoblashi mumkin. Juda ehtiyot bo'ling. Eng avvalo, fotokurilmani shtativga urnating (bu zarurli shart) hamda tunggi tasvir rejimiga o'ting V (Bulb). Ushbu rejimda spusk tugmachasini bosib turguncha fotokurilmaning zatvori ochiq bo'lib turadi. Ammo bevosita tugmachani bosib tura olmaysiz. Buning uchun shartli ravishda spusk trosi yoki distansion (simsiz) qurilma kerak bo'ladi. Gap shundaki, fotoqurilmaning tugmachasiga bosganda yengil vibratsiyani paydo qilasiz. Bunday fotosurat uchun ozgina vibratsiya ham uning xira ko'rinishiga olib keladi. Fotoqurilmani shtativga urnating va obyektivni tanlangan ko'rinishga qarating. Diafragmaning f/8 ko'rsatgichidan boshlang. Yana bir bor B rejimi o'rnatilganidan ishonch hosil qiling. Chaqmoq urgan vaqtida distansion spusk qurilma tugmachasini bosib ushlab turing. Ikkinchi chaqmoq urishida yanada tugmachani ushlab bosib turing. Extimol birinchi urinishdan bo'lmasada siz muvaffaqiyatli suratga erishasiz.

Chaqmoqni fotosuratga olamiz (avtomat rejimida)

Agarda fotosuratlarning ushbu turini yoqtirsangiz, chaqmoqlarni suratga olishga yordam beradigan maxsus Lighting Trigger qurilmasini sotib olsangiz bo'ladi (ammo u qimmatbaho narsa). Ushbu qurilma kameraga urnatiladi va o'z tarkibida sensorga ega, u chaqmoq yaroqlaganda uni fiksatsiya qiladi va darhol (aynan zarur payitda) fotokurilmaning zatvorini ochadi.



Aslida, fotoqurilmani ustun viderjka ($1/8$ yoki $1/4$ sekundga) rejimiga urnatish mumkin, fotoqurilma esa ishning eng og‘ir qismini o‘zi mustaqil amalga oshiradi. Odamlarga daxshatli kadrlarni namoyish etayotganda, suratga olish paytida maxsus qurilmadan foydalanganingiz haqida aytishga majbur emassiz. Bu sizning arsenalingizning birgina uskunasi.

Kamalakni suratga olishning siri



Agarda fotosuratda kamalak ranglarini maksimal ravishda tuyingan etib kursatmoqchi bo‘lsangiz davra polyarizatoridan foydalaning. Uning foydalanishi birinchidan osmonni moviy rangda tasvirlashda; ikkinchidan suv ustidan akslarni olib tashlashda; uchinchidan kamalak ranglarini maksimal ravishda tuyingan etib kursatishda yordam beradi. Polyarizatorning uzugin burib kamalak ranglari eng yorvin va tirik kurinishida to‘xtang.

Bulutli kuni tasvirga olish



Ayrimlar uchun ushbu bo‘lim oddiy kurinishi mumkin, ammo ko‘pincha odamlar “Bugungi osmon bir ham yaxshi surat olishga imkon bermaydi” – degan gaplarini eshitganman. Albatta, kulrang osmon yoqimli emas, ammo kompozitsiyaning oddiy yechimlari muammolardan saqlashi mumkin. Bulutli kuni suratga olishda osmon suratga tushish kerak emasligini unutmang.

Buning urniga bulutli osmonning afzalliklaridan foydalanib boshqa obyektlarni suratga oling. Chunki yorug‘likning bunday vaziyatida keskin, o‘tkir soyalar bo‘lmaydi va ranglarning aksariyati juda tuyingan bo‘lib kurinadi. Mutlaqo osmonni kadrda tushirmaslikni uddalayolmaysiz. Lekin iloji boricha bunga harakat eting. Ushbu oddiy usuldan foydalansangiz ko‘plab a’lo fotosuratlarni tushirasiz.

Bulutli kunning nimalarini suratga olish kerak



Agarda osmonni bulutlar siqib tursa, fotosuratga olish mumkin emas degan xulosa qilmang. Shu kuni kuchalarda odamlarni, ochiq bozorlarni, rangli deraza oynalarni (yorug‘likning bunday sharoitida ular a’lo darajada ifodalanadi), arxitektura estaliklarning yirik fragmentlarin (ko‘l rang osmon qismlari kadrda tushish kerak emas) suratga olish kerak. Agarda momoqaldiroq bulutlar paydo bo‘lsa aynan osmonni suratga olish vaqti keldi. Bir tekins kul rang osmonni suratga olish qiziqarli emas. Ammo osmonda momoqaldiroq bulutlar paydo bo‘lsa surat dramatik va sehrli elementlarga to‘lib keskin o‘zgaradi.

Nazorat savollari

1. Fotografiyada tuman qay tarzda aks ettiriladi?
2. Qo‘l rejimida chaqmoqni tasvirga olish qanday amalga oshiriladi?

3. Avtomatik rejimida chaqmoqni tasvirga olish qanday amalga oshiriladi?

4. Kamalak ranglarini maksimal ko'rsatish qanday amalga oshiriladi?

5. Bulutli kunda qanday tasvirga olinadi?

6. Qo'yosh nurisiz bo'lgan ob-havo sharoitida tasvirga qanday olinadi?

3.4. Fotosuratlarga raqamli ishlov berish

Raqamli fotosuratning asosiy muammolaridan biri shuki, eksponirlashda qamrab olinmagan ma'lumotlar umidsizlik bilan yo'qotiladi. Agar siz apparatning ishchi diapazoniga kiritilmagan bo'lsangiz, surat buziladi va hech kanday matematik operatsiyalar uni tiklay olmaydi. Raqamli kameraning tonli diapazoni kengligi konstruktiv xususiyatlariga, birinchi navbatda nur sezuvchi matritsalar va analog-raqamli o'zgartiruvchilarning xususiyatlariga bog'liq. Yarim o'tkazgichli asboblarning fizik tabiati ularning imkoniyatlariga jiddiy cheklorlar qo'yadi, va plenkaga nisbatan bugun "raqamlar" diapazon tonlari ko'proq, bu fotosuratchiga xato qilishga imkon bermaydi (parametrlar noto'g'ri o'rnatilganda detallarning ekspozitsiyasi soyada raqamli suratga olishda yo'qotiladi).


Raqamli suratning hayot tarixi – bu chiqish ma'lumotlarining doimiy xatosidir. Sifatning noo'rin yo'qotishlaridan qutulish uchun, raqamli fotosuratni olish, o'zgartirish va axborotni saqlash jarayonlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Xonada sport musobaqalarini suratga olishda, barcha suratlarda ko'pchilik xonalarda sun'iy yoritishdan foydalanish sababli sarg'ish yoki ko'kish tus ustun turishiga tayyor bo'lish kerak. Tasvirlarni Photoshop dasturi yordamida rang korreksiyasi qilishda, agar oq balans sozlashni oldindan fluoressent yoritish (Fluorescent) yoki qizdirilgan lampa (Tungsten/Incandescent) rejimiga o'tkazilsa, vaqtdan yutish mumkin. Fotoapparat menyusiga Fluorescent (Fluoressent) ma'nosini tanlang va sinash uchun surat oling. Olingan tasvirni fotoapparatning JK-ekranida ko'ramiz. Agar tasvirda juda ko'p sariq va yashil tus bo'lsa, oq balansni sozlash uchun Tungsten/Incandescent (Qizdirish) ma'nosini sinab ko'rish kerak. Bunday sozlashlarda ustun turgan tuslar bartaraf etiladi va fotosuratchiga tasvirlarni retushlash uchun astoydil ishlash talab etilmaydi. RAW formatida suratga olishda oq balans ma'nosini, fayllarning RAW formatini o'zgartirishga mo'ljallangan ilovalarda keyinroq o'zgartirish

mumkin. Lekin oq balansni to'g'ri sozlash korrektili rang haroratli fotoapparatning JK-ekranida tasvirni ko'rib chiqish imkonini beradi.

ISO parametrining ahamiyati va bardoshlilikning yuqori ahamiyatlari

Idealda eng uzun fokusli obyektivning eng yuqori yorug'lik kuchiga ega bo'lganiga ega bo'lish yaxshi bo'lar edi, ammo bunday obyektiv juda qimmat turadi. Sport musobaqalarini diafragmaning $f/5,6$ maksimal qiymatli oddiy zum-obyektiv bilan tasvirga tushirish qanday amalga oshiriladi? Javob: ISO parametrining qiymatini oshirib.



Zamonaviy raqamli ko'zguqli fotoapparat (Nikon, Canon va b.) ISO 800 belgisi yordamida sifatli surat olish mumkin. ISO ning bunday belgilari $1/640s$ ushlab turish imkonini beradi, jiddiy raqamli shovqinning paydo bo'lish lahzasini yodda saqlaydi. Agar tasvirga tushirish joyida yorug'lik yetarli bo'lsa, ISO parametrining belgisini kattalashtirish kerak emas. Asosan ISO parametri uchun 200 yoki 100 belgilarini saqlash yaxshiroq (aniq fotoapparat menyusida mavjud yoki minimal belgilar).

Ammo obyektivning yorug'lik kuchi yetarli bo'lmagan hollarda (misol uchun, sport musobaqalarini yorug'lik kuchi $f/5,6$ bo'lgan obyektivdan xonada tasvirga olishda) ISO parametr belgisini kattalashtirish kerak bo'ladi. Buning uchun rasmda ko'rsatilganidek fotoapparatning menyusini ochish kerak. Ochiq havoda kunduzgi yoritishda obyektivning yorug'lik kuchi $f/5,6$ yetarli bo'ladi. Lekin bunday obyektiv bilan xonaga kirilsa, birdan ISO parametri belgisini kattalashtirish kerak bo'ladi. Shuning uchun barcha professional sport

fotosuratchilariga yorug'lik kuchiga ega obyektivlarga ega bo'lmog'i lozim.

Oq rang balansi muammosini qanday bartaraf etish kerak

Oq rang balansi muammolari sun'iy yoritish sharoitlarida olframli yoki fluoressentli lampalardan foydalaniladigan xonalarda ko'proq paydo bo'ladi. Havaskor-fotosuratchi olingan tasvirlarning faylini o'zining kompyuterida va har bir tasvirda sariq, yashil va havo ranglar ortiq bo'lganini ko'rmaguncha potensial muammo haqida gumon qilmaydi. Fotoapparatda avtomatik tarzda berilgan oq balans sozlashi foydalaniladi (Auto White Balance). Bunday sozlashlarda ochiq havoda suratga olinsa yaxshi fotosuratlar hosil bo'ladi, ammo xonada tasvirga tushirishda ular yaroqsiz. Oq rang balansini sozlash bilan bog'liq bunday muammolarni bartaraf etish uchun professionallar uchta usulni qo'llaydilar.



1. Ular rasmga tushiradigan oq rang balansini sozlash shart-sharoitlariga muvofiq sozlashni o'zgartirish uchunlar fotoapparat menyusidan foydalanadilar. (Bu eshitalishidan ko'ra osonroq amalga oshiriladi. Oq rang balansini sozlash uchun menyu bo'limiga kirish va oddiy maishiy yoritish Incandescent (Qizdirish) yoki ofisdagi yoritish uchun Fluorescent (Fluoressentli) punktlarini tanlash kifoya). Agar ochiq havoda tasvirga tushirish uchun oq rang balansining aniq sozlashini tanlansa, natijalar va rang uzatishning aniqligi avtomatik sozlashga nisbatan yana ham yaxshi bo'ladi.

2. Professionallar shuningdek, oq rang balansining individual sozlashi bilan shug'ullanadilar. Agar ozroq neytral kul rang test kartochkasini olsak, bunda fotoapparatni mustaqil ravishda sozlashning ko'p qismini bajarishga majburlash mumkin. Buning uchun kartochkani

obyektivdan 20–25 masofada joylashtirish zarur va u butun kadri egallashi uchun kadri bir oz zummerlash kerak. Soʻng oq rang balansini sozlash uchun menyu boʻlimiga oʻting va fotoapparatni qabul qilinadigan rang oʻlchovlari qiymatiga sozlang (Agar bu sizga qiyinroq tuyilsa, aniq fotoapparat yoʻriqnomasiga qarang).

3. Professionallar RAW formatida suratga oladilar. Bu holda oq rang balansi haqida umuman qaygʻurish kerak emas. Uni har doim fayllarning RAW formatini oddiy formatga oʻzgartirish jarayonida toʻgʻirlash mumkin (Camera Raw dasturi yoki shu maqsadga moʻljallangan boshqa ilovalar yordamida). Bu RAW formatining boshqa formatlar orasidagi bor yoʻgʻi bitta afzalliklaridan biridir (bu haqida batafsilroq 10 boʻlimda gapiriladi).

Ekspozitsion vilka (breketing ekspozitsiyasi)



Yoritishning murakkab sharoitlarida yoki fotosuratchi ekspozitsiyaning toʻgʻri sozlanganligiga ishonch hosil qilmaganda, professionallar fotoapparatning qurilgan funksiyalaridan foydalanishadi, u ekspozitsion vilka yoki breketing ekspozitsiyasi deb ataladi (exposure bracketing). Bir nechta ekspozitsiyaning aniq qadam bilan tasvirlarni (beshtagacha) olish imkonini beradigan bu rejimdir (baʼzi birlari qoraroq, baʼzilari yorugʻroq). Fotosuratchi tasvirlarning hech boʻlmaganda bittasi toʻgʻri ekspozitsiyali boʻlishiga umid qiladi. Ushbu funksiyadan foydalanganda birinchi tasvir avtomatik tanlangan ekspozitsiya qiymatlari bilan qilinadi, ikkinchi tasvir uchun yetarli boʻlmagan ekspozitsiya beriladi, uchinchi tasvir uchun esa – bir oz ortiqcharoq. Shunday qilib, fotoapparat tomonidan avtomatik tanlangan ekspozitsiya qiymatining bir oz koʻp va bir oz kamroq qiymati ishlatiladi. Bunday rejimning

qo‘llanilishi to‘g‘ri ekspozitsiyali suratga olish imkoniyatini oshiradi. Modomiki raqamli fotoapparatda fotoplenka yo‘q, shuning uchun shunday usulni qo‘llash mumkin, to‘g‘rimi? Ekspozitsion vilka rejimi fotoapparat panelidagi maxsus tugma orqali yoqiladi. Nikon fotoapparatlarida bu tugma vidoqidiruvdan chapda joylashgan (va “VKT” deb ataladi). Canon fotoapparatidan foydalanuvchilarga (xususan, 40D yoki 50D modellari) fotoappart menyusida bunday funksiyani qidirish kerak bo‘ladi.

Barcha kadrlar bir xil sifatli



Tasvirga tushirishning raqamli usulining an‘anaviy usul oldida yana bir afzalligi bor, u Photoshop dasturi yordamida tasvirlarni qayta ishlashda ko‘p vaqtni tejash imkonini beradi.

Gap ketayotgan afzallik bu – oq rang balansini sozlash imkoni. Ilgari fotosuratchiga yoritishning turli sharoitlarida tasvirga olish kerak bo‘lgan bo‘lsa, unga yoritishning aniq sharoitlari yoki maxsus filtrlardan foydalanish uchun fotoapparatga maxsus fotoplenkani o‘rnatish talab qilingan, u ustun bo‘lgan ranglarni hosil bo‘lishini oldini olgan¹.

Zamonaviy raqamli fotoapparatlarda oq rang balansini sozlashini o‘zgartirish kerak, ammo ko‘pchilik havaskorlar oq rang balansini sozlashini avtomatik tarzda ishlatib suratga olishadi, ular bunday usulni oddiy hisoblashadi. Shu bilan birga, keyinchalik barcha fotosuratlarini Photoshop dasturida tahrirlashda vaqt sarflamaslik uchun bitta – yagona sozlashni o‘zgartirish mumkinligi professionallar bilishadi.

¹ Kelby Scott. The Digital Photography Book.

Tasvirda shovqinni qanday kamaytirish mumkin

ISO parametrining qiymatini oshirib, siz yorug‘lik yetarli bo‘lmagan sharoitda vspishkasiz olish mumkin. Ammo bu holda siz kelishuvga borasiz: ISO parametrining qiymati yuqori bo‘lsa, tasvirda raqamli shovqin ko‘proq bo‘ladi. Fotoapparatning aniq modeliga bog‘liq bunday shovqin bilinmas bo‘lishi mumkin, shunchalik kuchliki tasvirni yo‘q qilib yuboradi va uni pechatga umuman yaramaydigan qilib qo‘yadi.




Baxtga men Photoshop dasturi bilan mos keladigan ilovani topdim, u yordamida raqamli shovqinning sonini kamaytirish va bunda tasvirning maksimum detalini saqlash mumkin. Bu ilova Noiseware Professional deb ataladi. Ushbu dastur raqamli shovqinni bartaraf etishni oson bajaradi.

Ushbu dasturning yana bir ancha ahamiyatli plyuslaridan biri, raqamli shovqinni o‘chirishdan tashqari u fotosuratda kuyov va kelinning terisini yumshatishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu ilova sizga shovqinlarni bartaraf etish va fotosuratda ularning yuzlarini o‘ziga tortuvchi qiladi. Bu ajoyib emasmi? (Raqamli shovqinni bartaraf etish ishida yana ikki ommaviy dasturiy mahsulotlar muvaffaqiyat qozonadi. Bu Noise Ninja va Dfine 2.0.)

Gistogramma nima uchun kerak?

Zamonaviy ko‘zguli raqamli fotoapparatlar tasvirning gistogrammasini aks ettiradi. U fotoapparatning suyuq kristalli displeyida to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqariladi. Bu juda ham foydali funksiya, faqatgina undan foydalana oladiganlar uchun. Men gistogrammani faqat bir maqsadda – suratda kompziitsiya uchun muhim yorug‘roq fragmentni

yoritishiga amin bo'lish uchun qo'llayman. Ikki momentga diqqatni qaratish kerak.



Gistogrammaning ustunlari jadvalning o'ng chekkasiga tegishi kerak emas. Agar bu sodir bo'lgan bo'lsa, fotosuratning eng yorqin fragmentlari yoritib berilgan.

Gistogrammada men uning ustunlari va jadvalning o'ng chekkasi o'rtasidagi oraliqni ko'rmoqchiman (rasmda ko'rsatilganidek).

Tasvirga tushirishdan so'ng men gistogrammaga qarayman va olingan fotosuratning sifatiga qarayman.


Agar men yorug' fragmentlarning qismi yoritilganini ko'rsam, ekspozitsiya kompensatsiyasi funksiyasidan foydalanaman. Men ekspozitsiya qiymatini 1/3 punktga kamaytiraman, takroriy suratga olaman va yana gistogrammani tekshiraman. Agar yorug' fragmentlar yoritilganligicha qolsa, men ekspozitsiya qiymatini – 0,7 ga kamaytiraman, va yana bir suratga olaman, yana gistogrammani tekshiraman. Tasvirning yoritilgan fragmentlari bilan muammoni hal qilmagunimcha shunday yo'l tutaman.

Agar fotosuratda quyosh bo'lgan holda gistogramma qanday yordam beradi? Jadval gistogrammaning o'ng chekkasiga albatta, tegib o'tadi. Bu qo'rqinchli emas, chunki quyosh tasvirida hech qanday muhim detallar yo'q. Shuning uchun kadrning ushbu fragmentini yoritilgan qilib qoldirish mumkin. Gistogramma ishda juda muhim, ammo unga butunlay ishonish mumkin emas. Har doim tasvirning qanday fragmenti yoritilganiga diqqatni qaratish kerak. Agar unda muhim detallar bo'lsa, bu muammo bo'ladi. Agar bo'lmasa gistogramma ko'rsatkichlariga e'tibor bermasdan,

bemalol tasvirga olishni davom ettirish mumkin. Shunday qilib, tasvirning gistogrammasi – bor-yo‘g‘i kichkina yordamchi, uning ko‘rsatkichlariga ko‘r-ko‘rona ishonish kerak emas.

Linzaning vinetlash effekti bilan kurashish

Siz bilan shunday hol bo‘lgan: siz suratga olgansiz, so‘ng uni kompyuter ekranida ko‘rib chiqayotganingizda, fotosurat burchaklari tasvirning boshqa qolgan fragmentlariga nisbatan qoraroq bo‘lganini sezasiz. Bu hodisa kengburchakli obyektivlarga hamda ba‘zi bir arzonroq oddiy obyektivlarga xos. Fotosuratda hosil bo‘lgan bunday nuqsonning sababi bo‘lib obyektiv linzaning nuqsoni hisoblanadi. Bu nuqsonlarni Photoshop, Photoshop Lightroom, Photoshop Elements kabi ilovalar bilan bartaraf etish mumkin.



Misol uchun, Camera Raw modulida Photoshop yoki Photoshop Elements dasturlarida Lens Corrections (Distorsiyaning korreksiyasi) qo‘shimcha varag‘ini ochish talab etiladi, bunda linzani vinetlashtirish samarasini o‘chirish uchun guruh parametrlari mavjud bo‘ladi. Amount (Samara) polzunokini tasvirning qora burchaklarini yorqinroq qilish uchun bu guruhlar parametrda o‘ng tomonga o‘tkazing. Midpoint (O‘rta nuqta) polzunoki yordamida, tasvirning chekkasidan yorqinlik samarasi qanchalik tarqalganini aniqlanadi.

Faqatgina tasvirning burchaklarini o‘zgartirish uchun, bu polzunokni ozgina chapga olib o‘tish kerak. Agar tasvirning burchak qorayishi tasvirning chekkalaridan uzoqroq tarqalsa, bu polzunokni o‘ngga olib o‘tish kerak.


Va bir necha soniya ichida vinetlash effekti yo'q qilinadi!

Agar siz Lightroom ilovasida ishlasangiz, analogik parametrlarni Vignettes panelining pastida aylantirib Develop modulida sozlash kerak. Agar bu juda ham qiyin tuyulsa, siz uchun vinetlash nima va u bilan qanday kurashish kerakligi haqida maxsus videorolik tasvirga tushirdim. Bu rolik www.kelbytraining.com/books/digphotogv3 manzilida mavjud.

Oq rang balansiga ijodiy yondashuv

Oq rang balansiga turlicha yondashish mumkin. Misol uchun, aniq balans uchun kurashish kerak (u yoritish sharoitiga to'liq mos kelishi kerak). Bu holda, agar siz soyada tasvirga olsangiz, oq rang balansini uchun Shade (Ten) qiymatini tanlaysiz, va real sahnalarning barcha ranglari korrekt aks ettiriladi.

Ammo oq rang balansini tanlashga ijodiy yondashish mumkin (mening yaxshi ko'rgan yondashuvlarimdan biri). Bunda oq rang balansini qiymati shunday tanlanadiki, olingan tasvir siz hojlagandek ko'rinishi kerak, texnik nuqtai nazaridan "to'g'ri" emas. Misol uchun, agar siz tasvirga olishga tongda chiqsangiz va ertalabki yorug'lik nurlarida hamma narsa bir xil qo'rinishda, tasvir esa xajmdan mahrum bo'lsa, oq rang balansini Tungsten (Qizdirish ipi) ga o'zgartirib ko'ring va tasvirda hamma narsa havo rang bo'lib qoladi. Bu oddiy holat quyosh chiqishining standart rasmini kun chiqishining jud zo'r fotosuratiga aylantirish imkonini beradi.



Quyosh botishida oq rang balansini uchun Shade qiymatidan foydalanish mumkin, barcha ranglar sezilardi darajada yaqqolroq, quyosh botish sahnasi esa o'zgardi. Illustratsiyada chekka chap tasvir Auto (Avto) qiymati bilan oq rang balansini tushirildi. Markaziy fotosurat oq rang

balansi qiymati Fluorescent (Fluorescentli) da, chapdan fotosurat esa Tungsten parametrda tasvirga tushirildi. Bu oq balansni tanlashda ijodiy yondashuv deyiladi. Bir holatda siz sahnani sovuqroq qildingiz (havo rang qo'shdingiz), boshqasida esa, iliqroq (sariq rang qo'shdingiz). Buning barchasi bu sahnaning fotosurati oq rang balansi qiymati “to'g'ri” bo'lganda odatiy ko'rinishda bo'ladi. Bunday yondashuvni keyingi safar tasvirga tushirishda qo'llab ko'ring.

Kuchli ekspozitsiyadan ongli ravishda foydalanish

Agar siz tabiatni suratga olayotgan bo'lsangiz, bu bilan siz tongda yoki quyosh botishida shug'ullanasiz. Agar shunday bo'lsa, shtativ orqali suratga olasiz. Demak, minimal qiymatli ISO dan suratga olish lozim (ko'pchilik raqamli ko'zguli Nikon fotoapparatlari uchun bu qiymat ISO 200, Canon fotoapparatlarning ko'pchiligi uchun ISO 100). Bundan oddiy sababga ko'ra, ya'ni raqamli shovqinning soni minimal bo'lgan maksimal sifatli rasmlar olish mumkin bo'lgani uchun foydalanish kerak. Modomiki siz shtativ orqali suratga olar ekansiz, ISO parametrining qiymatini oshirishning zaruriyati yo'q.



Ortiqcha ekspozitsiyadan ataylab foydalanish

Mana yana bir usul: Suratning ekspozitsiyasini ongli ravishda qilib kuring. Bu usul portret tasvirida o'rinli, binobarin tasvir juda yorqin hosil bo'ladi va modelning yuzi ertalabki quyoshning nurlari bilan yoritiladi. Shunga o'xshash suratning yoritilishi inson terisining kamchiliklarini bekitadi. Buni shunday amalga oshirish mumkin: tasvirga tushirishga tayyorlaning va fotoapparatga ekspozitsiya qiymatini avtomatik tarzda tanlang, so'ng uning yordamida ekspozitsiyaning kompensatsiyasini kattalashtiring.



Nikon fotoapparatlarida buning uchun ekspozitsiya kompensatsiyasi tugmani bosish kerak, bunda fotoappartning orqa panelida kameraning yuqori qismi + 1 belgisi paydo bo‘lmaguncha g‘ildirakchani aylantiramiz.

Canon fotoapparatida pereklyuchatel manbasini yuqori holatga o‘rnating, so‘ng zatvorning tushirish tugmasini yarmigacha bosing va fotoapparatning suyuq kristalli displeyida + 1 paydo bo‘lmaguncha g‘ildirakchani aylantiring. Namunaviy suratga oling va u displeyda qanday ko‘rinishini ko‘ring. Agar tasvir yetarli darajada yorqin bo‘lmasa, istalayotgan samaraga erishmaguncha bunda ekspozitsiyani yana bir qiymatga yorqin qiling.

Ekspozitsiya o‘lchovini rejim almashuvi




Fotosuratchilarning ko‘pchiligi tasvirga olishda ishlab chiqaruvchi tomonidan ichki sozlanmada ekspozitsiya rejimini o‘lchashda foydalanadilar. Canon fotoapparatlari uchun bu baholovchi rejim, Nikon fotoapparatlari uchun esa – matritsali. Bu holda fotoapparat butun kadr

uchun yaxshiroq ekspozitsiyani tanlash uchun tasvirning turli uchastkalarini baholaydi. Bugungi kunda fotoapparatning ushbu funksiyasi ko'p hollarda o'zining ishining uddasidan chiqadi. Ammo ekspozitsiyani o'lchashning boshqa rejimlari ham mavjud, misol uchun nuqtaviy. Sizga qiziq bo'lsa kerak, qanday qilib menga yuqorida namoyish etilgan suratning qiyin ekspozitsiyasini sozlash imkoni paydo bo'lganini. Agar ekspozitsiyaning o'lchashning standart rejimidan foydalanilsa, bunda xonadagi yorug'lik yetarli bo'lmaydi va barcha obyektlar qora bo'lib hosil bo'ladi. Bunda ekspozitsiyani o'lchash rejimini nuqtaviyga almashtiring. Bu bilan siz fotoapparatga: "Kadrling markazida nuqta o'lchamidagi fragment ideal ko'rinishda bo'lishini xohlayman" deb ayta olasiz.

Videoqidiruvning markaziy nuqtasini sizni qiziqtirayotgan fragmentga yo'naltiring va ekspozitsiyaning tanlangan qiymatlarini belgilash uchun, zatvorning tushiruvchi tugmasini yarmigacha bosing. Tugmani qo'yvormay turib, barcha kerakli ob'ektlarni qamrab olish uchun fotoapparatni kerakli sahnaga yo'naltiring va tushirish tugmasini oxirigacha bosing. Ushbu misolda men ekspozitsiyani o'lchash rejimidan foydalangan holda fotosuratni chapdan oldim. O'ngdan namoyish qilingan fotosuratni olish uchun, ekspozitsiya o'lchash rejimini nuqtaviy o'zgartirdim, fotoapparatni xona ichidagi stolga yo'naltirdim va surat oldim. Shu bilan tamom.

Oq rang balansi va rang korreksiyasi



Nima uchun fotosuratchilar tez-tez oq rang balansini sozlash haqida gapirishlarini sizga tushuntirib beraman: agar siz fotoapparatda oq rang

balansini to'g'ri sozlasangiz, natijada, hosil bo'lgan tasvirlarni Photoshop dasturida rang korreksiyalash bilan shug'ullanishga hojat qolmaydi.

Oq rang balansi to'g'ri berilganda fotosuratdagi barcha ranglar korrekt beriladi. Agar tasvirga tushirishda siz bu parametrni notg'o'ri sozlasangiz, tasvirni uni tamomlagandan so'ng qayta ishlashga to'g'ri keladi, modomiki ularda havo rang, sariq, yashil, qizil va boshqa ranglar ustun turadi. Shuning uchun, fotoapparatning oq rang balansini tasvirga tushirayotgan yoritish sharoitlariga muvofiq moslashtiring.


Tasvirga olishda gistogramma kerakmi?



Menimcha, bu kitoblarda uchraydigan juda ham qiziqarli ma'lumotdir: men fotoapparatning displeyidagi suyuq kristalli gistogrammadan foydalanmayman va men biladigan professional fotosuratchilar ham bu funksiyadan tasvirga olishda foydalanmaydilar. Raqamli fotosuratda asosiy narsa tasvirning eng yorqin fragmentlaridir, shuning uchun men va boshqa professional fotosuratchilar yoritilgan fragmentlar haqida ogohlantirish funksiyasini yoqamiz. Bunday holda sahnani ozgina qoraroq va detallarni eng yorqin fragmentlarga qaytarish uchun ekspozitsiyani kompensatsiyalash funksiyasidan foydalanish kerak bo'ladi. Gistogrammada men tasvirdagi ma'lum bir jilolar yoritilganini ko'ramiz, ammo tasvirning qaysi fragmentlarida bu sodir bo'lganini bilmayman. Men yoritilgan fragmentlar haqidagi ogohlantirish funksiyasidan foydalanganimda, fotoapparat displeyida aynan qaysi fragmentlarda detallar yo'qotilgan va ular men uchun muhimligini ko'raman. Ushbu holda barcha detallar yo'qotilgan tasvirda qora bilan osmonning yorug' fragmentlari tasvirlangan. Shunday qilib, agar siz gistogramma ko'rsatkichlaridan juda ham ta'sirlangan bo'lsangiz, endi siz yaxshi dam olishingiz mumkin.

Izoh. Ko'pgina insonlar tasvirga olishning turli xil texnik detallariga jiddiy qarashadi, misol uchun, tasvir gistogrammasiga. Men sizni tasvirga olishda gistogrammadan foydalanishdan qaytarmoqchi emasman, balki o'zim ham undan foydalanmasligim haqida ma'lumot bermoqchiman.

Ko'p marotabali ekspozitsiya funksiyasi



Agar sizga turli suratlar asosida bitta tasvirni jamlash kerak bo'lsa, buni fotoapparat (agar siz Nikon ko'zguli fotoapparatdan foydalansangiz) yoki tasvirga tushirib bo'lgandan so'ng Photoshor yordamida amalga oshirishingiz mumkin. Nikon fotoapparatidan foydalanuvchilar Shooting menyusini ochishi, Multiple Exposure bo'limini tanlashi, so'ng Number of Shots maydonida birga jamlamoqchi bo'lgan tasvirlar sonini berish kerak bo'ladi.

OK tugmasini bosing. Tasvirdagi fon aniq chiqishi uchun, kamerani shtativga o'rnating. Birinchi suratni oling va suratga olayotgan kishidan kadr o'z ichiga olgan chegaradagi joyga o'tishni so'rang va ikkinchi suratni oling. Ikki tasvira olish natijasida siz bitta tasvirni olasiz. Bu operatsiyani bajarishning afzalligi shundan iboratki, natijada siz RAW formatidagi bitta tasvirni, Photoshop dasturida qayta ishlashdan so'ng JPEG, TIFF yoki PSD formatidagi tasvirlarni olasiz. Agar siz Nikon fotoapparatidan foydalansangiz, men siz uchun maxsus www.kelbytraining.com/books/digphotogv3 saytida Photoshop dasturi yordamida ikkita tasvirni bittaga jamlash haqidagi videorolikni joylashtirdim. Sizga ikkita turli tasvirlardan boshlash va shu dasturda ikkitasini jamlash kerak bo'ladi.

Nazorat savollari

1. “Баланс белого” muammosi qanday bartaraf etiladi.?
2. Yorug‘lik murakkab bo‘lgan sharoitda qanday funksiya ishlatiladi?
3. Tasvirdagi shovqin miqdori qanday kamaytiriladi?
4. Gistogramma nima uchun kerak?
5. Linzaning vinetlash effekti bilan qanday kurashish kerak?
6. Xaddan ziyod katta ekspozitsiya qay hollarda ishlatiladi?

3.5. Fototasvirlarga kompyuter yordamida ishlov berish


Agar siz yuqorida keltirilgan maslahatlarga amal qilsangiz, aniq fotosuratlar olasiz, ularning keskinligini esa ko‘shimcha tarzda dasturiy ta‘minot bilan yaxshilasa bo‘ladi. Professionallar buning uchun Adobe Photoshop dasturidan foydalanishadi (bu an‘anaviy qorong‘u xonaning o‘ziga xos raqamli analogidir). Shu maqsadlarda yarim professional Adobe Photoshop Elements ilovasini shilatish mumkin. Aynan qaysi tasvirlar keskinligini Photoshop dasturi yordamida qo‘shimcha tarzda yaxshilash kerak? Hamma tasvirlarni! Professionallar barcha fotosuratlar keskinligini Photoshop dasturining Unsharp Mask (Konturli keskinlik) filtri yordamida kuchaytirishadi. Ingliz tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “unsharp” atamasi keskinlikni kuchsizlantirish degan ma‘no beradi. Ammo ushbu atamaning kelib chiqishi an‘anaviy qorong‘u xonalarda ishlatilgan usullar bilan bog‘liq. Shuning uchun bu so‘zga chalg‘imaylik. Ushbu filtr keskinlikni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan va undan foydalanish juda oson. Tasvirni Photoshop dasturi dialogli oynada oching va Filter (Filtr) menyusida Sharpens Unsharp Mask (Keskinlik →Konturdi keskinlik) buyruqni tanlang. Ochilgan dialogli oynada tasvir turli parametrlarni sozlash uchun uchta harakatlanuvchi nuqtalar mavjud. Murakkab texnik tafsilotlarga berilmasdan turli tasvirlar uchun qulay sozlamalar uch variantlarni keltiramiz. Mazkur sozlamalar universal va mo‘jizalar qiladi.

1. Portret fotosuratlar uchun: Amount (Effekt) – 150%; Radius (Radius) – 1 ;Threshold (Chegara) – 10.
2. Sayyohat paytda olingan va shahar peyzajlari fotosuratlar: Amount (Effekt) – 65%; Radius (Radius) – 3; Threshold (Chegara) – 2.
3. Kundalik ehtiyoj uchun: Amount (Effekt) – 85%; Radius (Radius) – 1; Threshold (Chegara) – 4.

Keskinlikni professional kuchaytirish

Ushbu bo‘limda tasvirlangan usul Photoshop yoki Adobe Photoshop Elements dasturlardan foydalanishni talab etadi.

Professional tasvir yetarli darajada keskinlikni kuchaytirish sharoitida obyektlar chekasida turli nurlanishlarni bartaraf etishga yordam berishi uchun qo‘llashadi. Bajaradigan ishlar algoritmi quyidagicha:



1. Keskinligini kuchaytirmoqchi bo‘lgan fotosuratni oching va oldingi bo‘limda ko‘rsatilgandek filtr parametrlarni sozlab Unsharp Mask (Konturli keskinlik) buyrug‘ini qo‘llang.

2. Biror bir harakatlarni amalga oshirishdan oldin Edit (Tahrirlash) menyusida Fade Unsharp Mask (Konturli keskinlikni pasaytiring) buyrug‘ini tanlang.


3. Ochilgan Fade (Kuchsizlantirish) dialogli oynada Mode (Rejim) tushadigan ro‘yxatda Normal (Normal) varianti o‘rniga Luminosity (Nurlanish) qiymatini tanlang.

Keskinlikni kuchaytirish faqatgina fotosurat detallarga nisbatan qo‘llaniladi, uning ranglari esa o‘zgarishsiz qoladi, bu esa rangli nurlanishlar va rangli tasvirlar keskinligi kuchaytirishda boshqa kamchiliklar oldini olishga imkon beradi. Kichkina sirlarni bilsa, buning hammasini uddalasa bo‘ladi.

Tasvirga olishdan so‘ng kichik defektlarni bartaraf etish

Agar sizning obyektivga (yoki o‘ta sezgir matritsaga) kichkina cho‘p tushib qolsa, uni Photoshop (yoki Lightroom, yoki Elements) dastur ishchi oynasida ochilgan barcha tasvirlarda ko‘rasiz. Bunday defektlardan tezda

qutulish uchun Photoshop (yoki Elements) dasturining Spot Healing Brush (Nuqtali tiklovchi mo'yqalam) instrumentdan foydalaning. Mazkur instrumentni instrumentlar panelida tanlab tasvirdagi kerak emas dog'da chertish yetarli – deyarli izzis yo'q bo'lib ketadi.



Photoshop CS3 dasturida ushbu instrument yordamida ko'pgina bir turdagi nuqtalarni yo'q qilish mumkin. Vaholanki, agar linza yoki matritsaga chang tushib qolsa, u holda, hamma tasvirlarda bitta nutqa bir joyda turadi, shunday emasmi? Buning uchun quyidagilarni bajarish lozim. Birinchidan, bir hil orientatsiyaga ega (misol uchun, barcha gorizontalar tasvirlar) barcha fotosuratlarini belgilang. Adobe Camera Raw modulda ularni oching.

Ikkinchidan, Camera Raw modulning instrumentlar panelida Retouch (Retush) ni tanlang va defektlil dog'ning o'ziga sichqoncha bilan cherting. Shunday qilib joriy tasvirdagi kerak emas dog'ni bartaraf etasiz. Uchinchidan, Yuqori chap burchakda joylashgan Select All (Hammasini belgilash) tugmasini bosib, shu hahotiyiq Synchronize (Sinxronizatsiya qilish) tugmasini bosing. To'rtinchidan, ochilgan dialogli oynadan Synchronize ro'yxatagi Spot Removal variantini tanlang va OK tugmasini bosing. Natijada, ushbu nuqtadagi barcha defektlar qolgan barcha tasvirlarda avtomatik tarzda yo'q bo'ladi. Done (Tayyor) tugmasini retush qilish natijasini saqlash uchun bosing. Beshinchidan, barcha vertikal tasvirlarni belgilang va ular bilan ham shu operatsiyani amalga oshiring. Bunday usulda bir necha daqiqada barcha fotosuratlardagi kerak emas

defektlardan qutulish mumkin. 300 yoki 400 fotosuratlarni shunday usulda ishlov berish kerak bo'lganda avtomatlashtirish funksiyasi anchagina vaqtini tejaydi!


Qizil ko'zlar effektini bartaraf etish



Deylik, fotosuratchi oldingi betlarda keltirilgan maslahatlarga amal qilishni esdan chiqardi. Natijada, unga muhim bo'lgan fotosuratda inson ko'zlari qizil rangda bo'lib qoldi. Hozirgi paytda bunday kamchilikni bartaraf etish juda oson. Buning uchun Adobe Photoshop dasturi dialogli oynaning chap qismida joylashgan Red Eye (Qizil ko'zlar) instrumentini tanlang va ko'zning qizil qismini belgilang. Qolgan ish avtomatik tarzda bajariladi. Ikkinchi ko'z uchun operatsiyani takrorlang. Yaxshi chiqishi aniq. Agar ko'zning qizil qismiga instrument ko'rsatkichini qiyin (inson uzoqda turgan, tasvirdagi ko'zlar juda kichik) qiyin bo'lsa, sichqoncha chap tugmasini bosib, ko'z atrofida to'g'riburchak sohasini ajrating.


Sichqoncha tugmasi qo'yib yuborgandan so'ng defektni to'g'rilash avtomatik amalga oshiriladi. Taklif qilingan variantlarni har qaysini qo'llashda qizil ko'zlar effektini bartaraf etish bir necha soniyani tashkil etadi. Photoshop dasturining ko'pgina ustunlik tomonlaridan bittasi.

Photoshopda RAW formatdagi fayllarga ishlov berish



Agar RAW formatdagi fayllarni fotoapparatdan kompyuter qattiq diskiga ko‘chirib, ularni Photoshop yordamida ochishga harakat qilsangiz, ekranda foydalanuvchilar ko‘radigan standart oyna emas, balki RAW formatdagi fayllarga ishlov berish uchun maxsus mo‘ljallangan Adobe Camera RAW dasturining dialogli oynasi ochiladi. Bu dastur Photoshop asoschilaridan biri bo‘lgan Tomas Knoll tomonidan ishlab chiqilgan. Dastur judayam qulay. Unda RAW formatdagi faylni ochib, hech qanday muammosiz oq balansi, ekspozitsiya, tasvir soyalari va o‘rta tonlari parametrlari sozlanmalarini o‘zgartirish mumkin. Ko‘pgina boshqa parametrlarni (obyekt defektlarni bartaraf etish bilan birga) Photoshop dasturi ishchi oynasida so‘nggi ishlov berishgacha o‘zgartirib fotosuratchi xohlagandek tasvir qilish mumkin. Camera Raw da ishlash qulayligi tasvir original fayli o‘zgaraydi, bu esa original asosida bir tasvirning turli sozlamalardan foydalanib ko‘pgina nushalar qilish mumkin.

Photoshop CS3 da panoramani yaratish




Photoshop CS3 versiyasida bir necha fotosuratlarni avtomatik bir panorama tasvirga avtomatik birlashtirish funksiyasi takomillashtirigan bo'lib, endi fotoapparat avtomatik funkisyalarni foydalanmasdan qo'lda tushirishgan suratlarni qiyinchiliksiz birlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, dasturda oq balansi va ekspozitsiyalar mukammal mos kelmaydigan kadrlarni ham birlashtirsa bo'ladi. Asosiysi, alohida kadrlar bir-biriga minimum 20% ga mos tushishi kerak. File→Automate (Fayl→Avtomatlatirish) menyuda guruh tanlang Photomerge (Fotosuratlarni birlashtirish) buyrug'ini tanlang. Ochilgan dialogli oynada Add Open Files (Fayllarni oching) tugmasini bosing.

Dialogli oyna chap qismija sukut bo'yicha berilgan Auto (Avto) variantini ko'rsating. Qolgan amallarni dasturning o'zi bajaradi. Ish tugagandan keyin barcha tasvirlar bir panoramali tasvirga mukammal birlashtirilgan. CS3 versiya shbu funksiya borligi uchun ham qadrlidir. (Izoh: agar Photoshop CS2 da ham shunday natijalarga erishmoqchi bo'lsangiz, xato qilasiz. Bu faqatgina Raqamli fotosurat bo'limida kelitirilgan barcha yetti tavsiyalar bajargan holda amalga oshiriladi. Aks holda muvaffaqiyatli panorama tasviri olish juda mushkul).


Kadr kompozitsiyasini Photoshop dasturida retushlash o'rniga o'zgartiring

Men juda ham Photoshop dasturini yoqtiraman va u bilan ishlash hakida 35 dan ortiq kitob yozganman. Lekin baribir tasvirga olishda tasvirni tahlillashdan to'g'ri parametrlarni tanlash yaxshiroq. Agar videoqidiruvda siz aniq ortiqcha bo'lgan qandaydir chalg'ituvchi obyektzni ko'rsangiz, siz turlicha yo'l tutishingiz mumkin.



Uni Photoshop dasturida yo‘q qilish mumkin (yo‘l belgisi, simlar va b.) Bu sizning 10 minutda ortiq vaqtingizni olmaydi. Ammo tasvirga olish vaqtida kadrning kompozitsiyasini o‘zgartirib va undan keraksiz obyektzni yo‘q qilib, fotoapparat holatini bir oz boshqa tomonga o‘zgartirishga siz 10 sekund vaqt saflaysiz. Oxirgi variant ancha oddiy va uni retushlashga vaqt sarflash o‘rniga, siz fotosuratni Photoshop dasturida takomillikka yetkazasiz. Mening maslahatlarimdan foydalaning va tasvirga olishda hamma narsani maksimal darajada to‘g‘ri qiling. Bu holatda siz ko‘prok vaqtingizni Photoshop dasturida piksellarni klonlashga emas, balki tasvirga tushirishga sarflaysiz.

Olingan HDR-tasvirlar bilan nima qilish kerak?



Tasvir – bu natijada 5 turli ekspozitsiyaga ega tenglamaning bir qismi. Shu bilan birga, to‘rttasining ekspozitsiyasi yetarli darajada bo‘lmaydi yoki juda kuchli bo‘lib ketadi. Endi bizga barcha tasvirlarni yagona bir tasvirga birlashtiradigan dastur kerak. Professionallarning ko‘pchiligi Photomatix Pro (HDRsoft.com) dasturidan foydalanishadi.

Siz ushbu dasturning sinov versiyani yuklab olishingiz mumkin (sinov muddati ushbu dasturda chegaralanmagan faqat uning yordamida ishlov berilgan tasvirlarda ishlab chiqaruvchi kompaniya suv belgisi qo‘yiladi). Faqatgina Photomatix Pro dasturida qilingan 5 fotosuratni ochib ularni mustaqil ravishda birlashtirish kerak. Bundan tashqari dastur monitor ekarinda to‘g‘ri aks ettirish uchun tonlarni korreksiyasini amalga oshiradi. Photomatix Pro ilovasi bilan ishlash va uning yordamida HDR-tasvirlarni yaratish bo‘yicha videorolikni www.kelbytraining.com/books/digphotogv3 manzili bo‘yicha murojaat qilish mumkin.

Nazorat savollari

1. Photoshop dasturida ravshanlik (rezkost) qanday oshiriladi?
2. Fotografiya defektlari (kamchiliklari) qanday bartaraf etiladi ?
3. Qizil ko‘zlar effekti qanday bartaraf etiladi?
4. RAW formatida fayllarga ishlov berish qanday amalga oshiriladi?
5. Photoshop CS3 dasturida panorama qanday yaratiladi?
6. HDR da olingan tasvirlarni nima qilish kerak?

IV. BOB AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

4.1. Fotografiya san‘ati va jahon fotoijodkorlari

Fotografiya san‘at turi bo‘lib surat vositasi orqali yaratiladigan tasviriy san‘at turi deyishimiz mumkin. Badiiy madaniyat, foto san‘atida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birgalikda, ilm-fan ham bunga misol bo‘la oladi va texnikaning ma‘lum yutuqlari zaminida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnikaviy san‘at tarixida dastlabki bo‘lgani bilan ajralib tuadi.

Bugungi kunga kelib raqamli fotografiya alohida ahamiyat kasb etadi va foto san‘atining ilg‘or turlaridan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik xavaskor ijodkorlar raqamli fotografiyani go‘yoki tugmani bosib osongina tasvir olish deb bilishadi. Ammo bu yangilik zamon texnologiyasi an‘anaviy fotografiya singari professionallikni talab etadi.

Bugungi kunda fotosan‘ati o‘zining rivojlanish tarixi, ma‘lum doiradagi fotorassomlari va asosiy rivojlanish tendensiyalariga ega. Faoliyatning ushbu turida ijod qilayotgan fotorassom va ustalar soni ahamiyatli bo‘lib, ular tomondan badiiy madaniyatiga qo‘shilayotgan hissasi juda muhimdir. Fotosuratlar keng jamoatchilik auditoriyasini tarbiyalashda yetakchi vosita sifatida xizmat qiladi. San‘atning ushbu turi yosh bo‘lishiga qaramasdan juda qiziqarlidir. Chunki san‘atning ushbu turiga oid asarlar. Fotografiyalar halqning o‘ziga hos bo‘lgan mentalitet, tafakkurni aks ettiradilar.

Dunyoning barcha davlatlarida fotografiya namunalarini namoyish etish uchun turli galereya va muzeylar ekspozitsiyalarida turli ko‘rgazmalar faoliyat olib bormoqdalar. Bu borada eng katta ko‘rgazmalardan biri bu xalqaro fotobiennale. Turli mamlakatlar fotograflari o‘rtasida o‘zaro bilim va tajriba almashish, yosh fotorassomlarga yordam ko‘rsatish ko‘rgazmalarda sosiy maqsad qilib qo‘yildi.

Misol tariqasida bir nechta fotorassomlar ijodini ko‘rib chiqamiz.

Bir qarashda, fotosuratda hamma narsa aniq, tushunarli va ko‘rinadi. Lekin ba‘zida unda allaqanday tag ma‘no borday, tasvirlangan narsalar mazmuni mavhumday tuyuladi. Chunki fotoobrazda ma‘lumotlar kodi va madaniyat bilan bog‘liq ramzlarning yaxlit tizimi mujassam bo‘lgani holda, kartinaning tashqi tomonidagi mazmuni ko‘rinib turadi.

Ispan fotorassomi Antoni Mora (Antonio Mora)ning “Ro‘yodagi chehralar” (“Dream faces”) deb nomlangan surrealistik kollajlar turkumi. Ularda ijodkor fotografiyadagi an‘anaviy qoliplarni buzib, tamoman yangicha asar yaratgani yaqqol seziladi. Kompyuter grafikasi bo‘yicha

tajribali mutaxassis va mohir tasvir ustasi Antonio Mora hayotiy voqelik aks etgan fotosuratlar va portretlarni kompyuterda qayta ishlash orqali ajoyib sanʼat asariga aylantiradi.



Ularda kishilarning chehrasi favqulodli tarzda tabiat tasviriga oʻtib ketadi. Unda syujetlar chegarasi olib tashlanadi: togʻ daralari, sharsharalar, shahar manzaralari inson hissiyotlarining davomi boʻlib tuyuladi. Ulardan hosil qilingan kollajlar kishini beihtiyor hayratga soladi: bir-biriga qoʻshilib ketgan unsurlar shu darajada mos tanlanganki, tomoshabin tasvirlangan har xil narsalar oʻrtasidagi farqni deyarli sezmaydi. Bu shubhasiz, tasavvur mevasidir. Ammo u juda aniq va ishonarlidir. Bu esa rassomning tevarak-atrofni nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatib, qunt bilan oʻrganganini bildiradi. Antonio Mora tasvirni taxtaga tushirishni maromiga yetkazadi. Bu oʻziga xos sanʼat turidir. Antonio Moraning asarlari juda jozibador va sirli. Uning gʻaroyibportretlari ham jozibador va ayni chogʻda, ularda allaqanday jumboq yashirin. Ispan fotorassomi kishida maʼyus, gʻamgin kayfiyat uygʻotadigan jumboq obrazlarini boʻrttirib koʻrsatish uchun ranglarni ataylab quyuglashtirmaydi. U bir-biriga zid tusalarni koʻproq ishlatish orqali soyalarni va unchalik aniq bilinmaydigan

narsani alohida ajratib ko'rsatadi. Bu ham uning tasavvuri juda kengligi, xayolot olamni qamrovi balandligini bildiradi.





Bugun juda ko'pchilik o'zini animalist-fotograf sanaydi. Ammo bu janr bo'yicha mahoratli ustalar barmoq bilan sanoqli. Bir necha yil avval britan fotografi Tim Fletch (Tim Flach) bu janrning ustasi sifatida e'tirof qilindi.



Fletch o'z ishlarida avvalgi bir necha o'n yillik tajribalariga asoslangan holda turli hayvonlarni tasvirga olishga alohida e'tibor qaratib, o'ziga xos uslubda ularga xos umumiy jihatlarni ko'rsatib berdi. Ijodkorning shu yo'nalishdagi asarlaridan bir qismi O'zbekiston fotobiennallesida namoyish etildi. Ushbu asarlarning har biri kompozitsion yechimi jihatidan o'ziga xosdir. Hayvonlarni fotosuratga olish, ya'ni fotoanimalistikada fotosyomka jarayoni emas, balki obyekt, ya'ni hayvonlar bilan ishlash, suratga olish jarayonini lozim darajada tashkil etish qator murakkablikni tug'diradi. Hayvonlar holati, harakatidagi o'zgarishni diqqat bilan kuzatib, sabr-toqat bilan ishlashga to'g'ri keladi. Fotografning vazifasi hayvonlarning beixtiyor e'tiborni tortadigan holatini suratga olishdir. Albatta, bunda reja asosida turkum suratga olish yaxshi samara beradi. Ammo har qanday holatda ham hayvonlarning harakatlanishi, holatidagi eng nozik jihatni topa bilish kerak.




Tim Fletchning jonzoatlarga bag'ishlangan foto ishlari xuddi ngu jihati bilan alohida ajralib turadi. Mazkur janrning ustasi boshqa fotograflardan farqli holda, hayvonlarni tabiat qo'ynida yoki hayvonot bog'ida emas, maxsus chiroqlar bilan yoritilgan studiya binosi ichida suratga oladi. U shu asosda turli zot yo'lbars, it, maymun, panda singari jonzoatlarning turkum portretlarini ishlagan. Ularda hayvonlar fotosuratchiga u istagan holatda turib berganday ko'rinadi. Fotograf shu asosda "qahramonlari" xarakterini ochib beradi. Fletch jonzoatlarni fotosuratga olar ekan, ularga ham, tabiatga ham mehr bilan qaraydi va tomoshabinlarda shunday tuyg'uni uyg'otadi. Bunday asarlarni yaratish uchun kuchuk, maymun,

yoʻlbars singari jonzotlarning holatini obdon kuzatish va eng muhimi, his etish kerak. Fletch meduza va uchar koʻrshapalaklar, tungi boyqushlarni ham qiziqish bilan kuzatib oʻrganadi.




Foto ijodkorning bu yoʻnalishdagi asarlarida uning oʻziga xos dastxati yaqqol bilinib turadi. Uning foto asarlari nafaqat vatani Buyuk Britaniyada, balki boshqa mamlakatlarda ham kagta kiziqish bilan kutib olinadi. "Sunday Times", "The New York Times", gazetalari, "National Geographis" jurnali, "Hermes" brendi, "Sony" kompaniyasi va boshqalar uning doimiy mijozlaridir. Tim Fletch – AQSHdagi Norvich sanʼat universiteti faxriy doktori.




Taniqli yapon fotorassomi Takeo Akiyama – maishiy turmush voqeligini suratga olishda mohir usta. U Fotobiennale doirasida Tokioga bagʻishlangan shaxsiy koʻrgazmasini taqdim qildi. Takeo Akiyama ushbu fotosuratlarida zamonaviy yapon jamiyatining barcha qatlamlarini qamrab

olgan. Ularda ishiga shoshib ketayotgan kishilar, Tokiodagi tramvaylar, sher niqobini taqib ko'chada raqs tushayotganlar, Asakusdagi bolalar va boshqalar aks etgan. Iste'dodli yapon fotografining turkum asarlari yapon xalqining o'ziga xos maishiy turmushini tasavvur qilish imkonini beradi.



O'zbek fotorassomi Vladimir Jirnovning "Markaziy Osiyo ko'rinishlari" turkum asarlarida Sharqning o'ziga xos madaniyati ochib beriladi. Ijodkorning ushbu fotosuratlari chuqur ramziy ma'noga ega ekanligi bilan e'tiborni tortadi.



Iste'dodli ijodkor o'zi ishlagan fotosuratlarda voqelikka rassom nigohi bilan qarab, tomoshabin e'tiboriga ko'pchilik payqamagan qiziqarli va ayni paytda g'aroyib jihatlarini havola qiladi. Usta asarlarini yaratish jarayonida qanday holatda suratga olish, tabiiy yorug'lik, kadrlarni joylashtirish kabilarga jiddiy e'tibor beradi. Shu bois uning asarlari doimo dikkatni jalb etadi, beixtiyor turli kechinmalar uyg'otadi, voqelikni tahlil qilib, mushohada yuritishga undaydi.

Ijodiy fotografiyaning keyingi o'n yilliklardagi ravnaqini kuzata turib, shunday xulosaga kelish mumkinki, endilikda fotografiya o'zini san'atning alohida bir turi ekanligini namoyish qilmoqda.

4.2. Idrok etish va kompozitsiya

Fotografiyada kompozitsiyalarni idrok etishning ahamiyati


Fotokompozitsiyalarning asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqishdan oldin, inson surat yoki fotografiyaga qarab, uning muallifi yaratganidek yarata olarmikin? Bir qarashda, fotografiya insonning qabul qilish va bilish xususiyatlariga har xil ta'sir o'tkazadigandek tuyuladi, biroq unday emas. Fotografiya orqali aniq ma'no va mazmuni uzatish uchun insonlarning geometrik figuralarni idrok qilish xususiyatlarini chuqur o'rganish zarur. Gemetrik figuralar fotografiya bilan qanday aloqasi bor deyish mumkin. Ushbu savolga javob oddiy. Ilk marta istalgan tekis tasvirga nazar tashlaganimizda, inson bosh miya organi ko'rilgan narsalarni qisqartirishga harakat qiladi. Soddaroq qilib tushunish uchun bolalar chizgan rasga nazar tashlasak, uy to'g'ri burchakli to'rtburchak, kvadratli oynalar va uch burchakli tomlarni, yo'l esa egri chiziqlarni, odamlar esa chiziqchalar va boshi aylanalari tasvirlarni ko'rishimiz mumkin.

Fotografiyada obyektlarni idrok etish ahamiyati

Fotografiyada kadrlarga obyektini joylashtirish jarayonida nafaqat kompozitsiya qoidalari, balki idrok qilish jarayoni ahamiyati, ya'ni qaysi obyektga ko'ruvchi birinchi o'rinda diqqatini qaysi obyektga va keyin esa navbatdagi obyektga e'tiborini qaratishi bilan muhim ahamiyatga ega. Agar fotografiyada yorqin, kontrastli dog'lar va bir-birini kesuvchi liniyalar mavjud bo'lmasa, ko'ruvchining e'tibor yo'nalishi oddiy kitob o'qayotgan sharoitga o'xshash bo'ladi. Odatga ko'ra, inson bexos fotografik rasmning chap tomondagi yuqori burchagidan tomosha qila boshlaydi va o'ng tomondagi pastki burchakda tomosha qilishni to'xtatadi.

Mazkur masalani ko'rib chiqilayotgan paytda sharqiy davlatlarning mahalliy urf-odatlarini va an'alariga ko'ra, teskari holatda ham kuzatilishi

mumkin. Masalan, arab yozuvi o'ng tomondan chapga qaratib yozilsa, xuddiy shunday tartibda fotografik tasvirni ham tomosha qilishi mumkin. Masalan, yevropaliklar uchun fotografiyaning yuqori qismidagi chap tomonidan o'ng tomonning past qismi yo'nalish bo'yicha chiqib kelayotgan chiziqlar pastga qarab harakatlanayotgan diagonali pastgi chap tomonidan chiqib kelayotgan chiziqlar bo'yicha murakkab ko'tarilish ma'nosini anglatadi. Fotografiyaning chap tomonidan chiqayotgan va gorizontal chiziqlar fotografiyani tomosha qilayotgan shaxsga harakat ma'nosini ko'rsatadi.



Agarda, gorizontal liniyalar bir tekislikda markazda joylashgan bo'lsa, harakatsizlik, noaniqlik, yoki o'ng tomonga pasayib borilganda edi fotografiyani tomosha qilayotgan shaxsga ketayotgan, o'tib ketgan ma'nolarni anglatardi. Gorizontal yotgan to'g'ri burchakli predmetlar tomoshabin uchun og'ir va murakkablikni bildiradi.

Obyektning joylashuvi



Fotografiyadagi obyektlarga e'tibor qilanyotgan nigohning yo'nalishi undagi axborotni idrok etishga muhim ta'sir o'tkazadi. Bunda nafaqat inson, balki istalgan hayvonlar yoki skulptura ham bo'lishi mumkin. Obyekt nigohi o'ngdan chapga qaratilgan bo'lsa, tomoshabinda personaj muloqot qilishga tayyor va ochiq ekanligini bildiradi. Agar nigoh chapdan o'nga qaratilgan bo'lsa, personajning hal bo'lganligi, chuqur mulohaza va yopiq ekanligini bildiradi.

Istalgan fotosuratdagi obyektlarning joylashuvi o'zaro bog'liq bo'lmagan holda ham idrok qilish mumkin. Bunday bo'lishining sababi, tomoshabin fotograf tomonidan olingan tasvirdagi fikr, g'oyalarni aniqlab olishi, muhimi predmetlarning yoki figuralarning geometrik joylashuvi insonning idrok etishi xususiyatlarini inobatga olgan holda kompozitsiya qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.


Chap va o'ng nazariyasi

Tasviriy san'atda kompozitsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi nazariyotchilar g'oyasiga ko'ra, tasviriy yassilikda o'ng va chap qismlari teng bo'lmaydi. Doim tasvirda voqealar rivoji (fotografiya, rangtasvir, kinematografik kadrlar) chapdan o'ngga qarab o'qiladi. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, chap va o'ng taraflarning teng emasligi, bizning his qilishimiz bilan bog'liqdir:


- O'ng tomonda joylashgan predmetlar bizning nazarimizdan chetda qolib ahamiyat berilmaydi.

- O'ngdan chapga qarab yo'naltirilgan tasvirda yo'nalish tezligi baland, qarama-qarshi yo'nalishdagi obyektning tezligi esa, aksincha, sust ko'rinadi.
- Ko'zguli tasvirda muvozanat o'zgaradi.
- So'ngginazarga tushgan o'ng taraf yakuniy ta'surotni qoldiradi.
- Tasvirning chap tarafi voqeaning boshlanishi va o'ng tarafi esa yakuni bo'lib qabul qilinadi.
- Kompozitsiyaning markazi va diqqat markazida bo'lgan barcha detallarni biz his etamiz. Biroq shunday ajratilish bo'lmagan holatda "chapdan o'ngga" qoidasi ishlaydi.


Misollar:



Mutanosib kompanovka



Noutanosib kompanovka



Nigohi bizga qaratilgan




Nigohi bizdan qarama-qarshi tomonga qaratilgan



Nigohi bizdan qarama-qarshi tomonga qaratilgan




Chap taraflama bo'shliq ko'zni qamashtiradi




Tasmaning tugashi – “labirint”ga kirish



Tasmaning tugashi – “labirint”dan chiqish



Umumiy taassurot– “ochiq ko'ngil” chehra



Umumiy taassurot– “badjahl” chehra



Malkovich kulishdan to'xtadi



Malkovich kulishni boshladi



Chana tez harakatlanmoqda



Chana sekin harakatlanmoqda

4.3. Yorug'lik

Yorug'lik darajasi asosan uchta faktordan iborat bo'ladi. Bular, birlamchi: yorug'lik, fon va effektlar. Birlamchi yorug'lik, bu oq rangdan daxlsiz ko'rinishga ega bo'lib, sahna markaziga yo'naltiriladi.



Yorug'lik quvvati asta-sekinlik bilan 0, (qorong'ulikdan) 100, (kuchli yoruqlik) gacha oshib boradi. Asosan oldingi yorug'lik ikkiga bo'linadi. 1-oldingi; 2- uzoqdagi.

Bu yorug'lik, birinchi navbatda sahnaning tomoshabiniga eng yaqin, qizil chiziqqacha bo'lgan qismini yoritadi. Ikkinchisi esa, uzoqdagi yorug'lik bo'lib, u sahna ichini qizil chiziqdan zadnikkacha bo'lgan oraliqni yoritadi hamda fon rangining o'ta yoruq bo'lishini ta'minlaydi.


Qo'shimcha yoritish uskunalaridagi rangli filtrlarni almashtirish natijasida zadnik yanada yorqin va jozibali bo'lib ko'rinadi.

Quyida asosiy ranglar orqali fon ranglarining o'zgarishiga misollar keltirilgan. Bu ranglar yorug'lik orqali fonda paydo bo'lgan rangni aniq aks ettiradi.

Shuning uchun xam ushbu ranglarning qo'shimcha nomlari havs ichida aloxida ko'rsatilgan. Har xil anglashilmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun har bir rangni o'z nomi bilan ko'rsatib o'tishni lozim topdik.

4.4. Portret janrida suratga olish

Portret fotografiyada muvaffaqiyarga erishishning hal qiluvchi shartlaridan biri, suratga tushayotgan kishini to'g'ri yoritishdir.



Yorug'lik fotografiyaning portret olishdan boshqa sohalarida bu qadar kutulmagan natijalarni bermasa kerak: suratga tushayotgan kishi yaxshi yoritilmasa, uning yuz qiyofasini tanib bo'lmalik darajada buzib qo'yish mumkin. Normal yoritish portretning aynan o'xshash bo'lishi va mazmunli chiqishiga ko'p jihatdan yordam beradi.

Fotograf mos yorug'lik tanlash yo'li bilan kishi yuzining xarakterli tamonlarini bo'rttirib, xarakterli bo'lmagan tamonlarini esa bo'linmaydigan qilishi mumkin, ya'ni suretdagi yuzini tamoshabin diqqatini jalb eta oladigan darajada chiqarishi mumkin.

Portretlar ochiq havoda yoki bino ichida olinadi. Shuni aytish kerakki, surat olish paytida fotograf yorug'likni ozaytirish yoki ko'paytirish imkoniga ega bo'lsa yaxshi natijalarga erishadi.

Dastlabki paytlarda portretlarni ochiq joyda olish tavsiya etiladi, ammo bunda quyoshning tik nurlaridan emas soya joydagi yoki havo bulut bo'lib turgan paytdagi tarqoq yorug'likdan foydalanish kerak. Keyinchalik uy sharoitda portret olishga o'tish mumkin, bunday sharoitda sinab ko'rish uchun, suratga tushadigan kishini har xil vaziyatda va har xil yoritib, shuningdek, turli nuqtalarda turib bir qancha marta suratga olish lozim.

Uyda har tamondan tushayotgan yorug'likni to'g'irlash ancha oson bo'ladi, shunga ko'ra yaxshi natijalarga erishish mumkin, lekin bu ma'lum darajada malaka talab qiladi. Ko'pchillik portretlar bino ichida olinadi. Professional fotograf portret olinadigan maxsus ate'larda ishlaydilar. Bunday arte'elarning afzalligi shundaki, ularda yorug'likni bemalol boshqarsa bo'ladi. Shu sababli suratga tushayotgan kishini ko'ngildagidek yoritishga imkon tug'uladi va yorug'lik bo'lganligidan qisqa videjalar qo'llaniladi. Biroq atelesiz ham yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun surat olinadigan uyda ikkita deraza yoki ikkita kuchli elektr lampasi bo'lishi kerak (yorug'lik manbai bitta bo'lsa, yorug'lik qaytargichlardan foydalanish lozim).

Yorug'lik nurlari kishining yuziga tushganda yorug' va soyalarni, yorug'dan soya o'tib boruvchi tonal oraliqlarni hosil qiladi. Yorug'likning xarakteriga qarab, yorug' va soya joylar juda kontras yoki mayin, plastik bo'lishi mumkin. Yuzning bo'rtib chiqqan joylari odatda, ancha yorug', botiq joylari esa birmuncha qoraroq bo'ladi. Yorug'likmanbai odamning yuziga nisbatan o'zgartirish yoki yorug'lik manbai bilan odam yuzi orasidagi masofani o'zgartirish orqali oq-qora joylar o'rin va kontrasti o'zgartiriladi. Shu munosabat bilan odam yuzining hajmiy tasiri ham, reliefi ham o'zgaradi.



Suratga olinayotgan kishi yuzining yoritilishi yorug'likning qaysi tamondan tushayotganligiga bog'liqdir. Fotograf yorug'likni oldinda (ro'paradan) har xil yo'sind, yon tamondan, orqadan (kontrajur va kontur yorug'lik) yuqoridan va pastdan tushira oladi. Bunday hollarda natija har xil bo'ladi, yuzning reliefi turlicha ko'rinadi.

Yorug'lik oldindan (ro'paradan) tushganda, yuzning reliefi uncha bilinmaydi, tasvir suratga siyqa bo'lib tushadi. Yon tamondan tushayotgan yorug'lik qora joylarni quyushtirib, yuz reliefini bo'rttirib ko'rsatadi, ammo yorug'lik yon tamondan tushganda yuzning bir tamoni soya bo'ladi va shunga ko'ra, suratda deyarli qora tavsilotlari mutlaqo bilinmaydigan bo'lib chiqadi. Yorug'lik yon tamondan tushib turgan paytda olingan portretning kontrasi ortiq bo'ladi.

Mustaqil ravishda qo'llaniladigan kontrajur yoki orqa tamondan tushiriladigan yorug'lik obyektivga tik tushmasligi kerak, chunki bu soya tasvir beradi, reliefnig deyarli yo'qolishiga sabab bo'ladi (jurnal va gazetalarga beriladigan suratlarni olishda bu xildagi yoritishdan foydalanish yaramaydi). Yuqoridan tushayotgan yorug'lik yon tamondan tushayotgan yo'rug'lik singari yuz reliefini bo'rttirib va qosh, burun, lab, iyak ostidagi joylarni va boshqalarni juda qora qilib ko'rsatadi.

Pastdan chiqayotgan yorug'lik yuz reliefini bo'rttiradi birmuncha g'alati tasavvurlar hosil qiladi, chunki bunday yorug'likdan tushadigan soyalar pastdan yuqori tamon yo'nalgan bo'lib, oddiy sharoitdagi yorug'likda, ya'ni ochiq joydagi kunduzgi yorug'likda yoki bino ichidagi elektr yorug'ida ko'rinadigan manzaraning aksiga o'xshaydi. Yuzi cho'zinchoq odamlarni suratga olishda pastdan chiqadigan yorug'likdan foydalanish mumkin; bunday yorug'lik odamning uzun burnini kaltaroq, uchli enganini dumaloqroq qilib ko'rsatadi.

Yorug‘lik qaysi tamondan tushishligidan tashqari, yorug‘lik manba bilan model orasidagi masofa ham katta ahamiyatga ega.


Deraza yoki sun‘iy yorug‘lik manbai nechog‘lik yaqin turgan bo‘lsa, soyalar shunchalik quyuq va ravshan chiqadi. Yorug‘lik manbai uzoqlashgan sayin soyalar xiralashib, tasvir kontrastini kamaytiradi.

Obyektning soya joylarini, demak uning kontrastini ham yorug‘lik xarakterini o‘zgartirish yo‘li bilan kamaytirish mumkin. Portret olish uchun yorqin quyosh nurlari ham, elektr lampalarining tik tushib turgan nurlari ham yaramaydi. Surat ochiq olinganda bostirma tagida va shunga o‘xshash boshqa joylarda yoki elektr lampalarining tik nurlari nurni tarqatib yuboradigan qanday bo‘lmasin yarim tiniq narsa bilan qo‘yilganda yuz relefi to‘g‘riroq aks ettiriladi.

Kunduzgi yorug‘lik

Yil, oy, kun, soat kabi vaqt yil fasllarining o‘tishi bilan quyosh holati ham o‘zgarib boradi. Uning yorug‘ligi sezilmagan darajada o‘zgaradi va bu ko‘proq fotosuratchilarga emas, balki astrofiziklarga qiziqarlidir.

Agar quyosh har kuni tepada, osmonda charaqlab yoz kunlarini o‘rtalarida 8 – 9 soatlab tursa unda nima bo‘ladi, bunday paytda yorug‘lik miqdorini juda yuqori darajada aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunday yorug‘likda ikki marta ko‘p ekspozitsiya talab qilinadi. Ushbu holatda ekspozitsiya diafragmasini yana ko‘paytirishni talab qiladi. “Butunlay bulut” atamasini aniqlash qiyin.



1-rasm.

Bulutlarning oqir ko‘rinishi shart emasdir, ammo bunda ham yorug‘lik disklari ko‘rinmaydi. Bunday sharoitda ekspozitsiyani ikki marta ko‘paytirish talab qilinib (diafragma 5, 6) ni, “Xira” bu oq bulut degani emas, balki kulrang bulutdan (diafragma 4) iboratdir.

Ochiq joyda tepadan tushayotgan yorug‘lik, uy ichidagi bir tamondan tushayotgan nurlar (model derazaning qaysi tamonida turganiga qarab oldindan yoki yon tamondan tushayotgan nurlar) portret olish uchun noqulay hisoblanadi. Bundan tashqari, yorug‘ligi ma’lum tamonga yo‘naltiriladigan bitta manba bilan yuzni normal yoritib bo‘lmaydi. Yuz relefini (“haykaldek nusxasini” aniq ko‘rsatish, suratda odam yuzini mazmunli qilib chiqarish uchun yorug‘likni to‘g‘irlash, uni boshqarish va suratga tushayotgan kishini bir yo‘la bir necha tamondan turlicha ravshanlik bilan yoritish, ba’zi hollarda esa biror tamondagi yorug‘likni kamaytirish kerak bo‘ladi.

Yuzni har tamondan tushayotgan turli ravshanlikdagi yorug‘lik bilan yoritishning ikki usuli bor.

Birinchi usul – sun‘iy yorug‘lik manbalarini tegishli joylashtirishdir. Model yuzining biror qismini ma’lum ravshanlikda yoritish uchun quvvati turlicha bo‘lgan elektr priborlaridan foydalaniladi, pribor bilan suratga tushayotgan kishi orasidagi masofa va pribor quvvati o‘zgartiriladi. Ochiq joyda suratga olganda ham, studio ichida suratga olganda ham ishlatiladigan ikkinchi usul yorug‘lik qaytargichlardan foydalanishdan iborat (surat studio ichida bitta yorug‘lik manбайдan foydalanib olinadigan bo‘lsa shu usuldan foydalaniladi).




Ko'zgu, oq qog'oz yoki materialdan yorug'lik qaytargich o'rinda foydalansa bo'ladi. Portretchi fotografda shunday yorug'lik qaytargichlardan eng kami ikkita bo'lishi lozim. Yorug'lik qaytargichlardan qanday foydalaniladi? Suratga tushayotgan kishining asosiy yorug'lik manbaiga nisbatan turishi aniqlanadi, apparat o'rnatilib, ravshanlikka to'g'irilanadi yoki surat olish nuqtasi va tegishli metraj aniqlanadi, so'ngra fotograf qaytargichlarni kadrqa tushmaydigan va qaytargan yorug'ligi esa yuzining soya joylariga tushadigan qilib to'g'irlyadi.

Aks etib yuzga tushadigan yorug'lik miqdori qaytargichning materialiga va uning yorug'lik manbai hamda suratga tushayotgan kishiga nisbatan turgan holatiga bog'liq bo'ladi (yorug'lik nurlari qanday burchak ostida tekislikka tushsa, undan o'sha burchak ostida aks etishini yodda tutish kerak). Qaytargich holatini tegishlicha o'zgartirish yo'li bilan aks etadigan yorug'lik keraklicha ravshanlashtiriladi, bunda yorug'lik soya joylarni yoritishi, lekin asosiy yorug'lik manbai hosil qilgan soyalarni ko'rinmaydigan qilib qo'yadigan darajada ravshan bo'lmasli kerak, aks holda yuzning reliefi bilinmaydi. Kunduzi studio ichida surat olinadigan bo'lsa, yorug'lik qaytargich o'rniga elektr lampalar yorug'idan foydalanish mumkin.

Yoritishda ishlatiladigan asosiy tushunchalar

Asosiy yorug' – obyektning umumiy formasini “chizib” berish uchun ishlatiladi. Asosiy yorug'lik bu eng kuchli va to'g'ri yorug'lik. Tabiatda asosiy yorug'lik sifatida quyoshning yorug'ligi ishlatiladi. Asosiy yoritkichni obyektning yuziga tepadan va imkoniyati boricha chap tomonidan $45\pm 15^\circ$ burchagida o'rnatiladi. Quyoshning boshqa joyda joylashishida katta planda tasvirga olish tavsiya etilmaydi.



Qo'shimcha yorug'liklar: – manbalar sahnadagi soya joylarini yoritish va tasvirning kontrastini kamaytirish uchun ishlatiladi. Qo'shimcha yoritish manblaraga to'ldiruvchi, tekslovchi, fon va aks ettirilgan yorug'liklar kiradi.

To'ldiruvchi yorug'lik – kamera tomonidan yo'naltiriladi, yorug' bir xil va yoyilgan bo'ladi. To'ldiruvchi yoritkichning yorug'ligi asosiy yorug'dan 2 – 4 baravar pastrok o'rnatiladi.

Tekislovchi yorug'lik – yoyilgan tepa tomonidan (30°-60°) asosiy yoritkichga qarama-qarshi tomonidan (0-60°) yo'naltirilgan yorug'lik. To'ldiruvchi yorug'likga qo'shimcha ishlatiladi Tekislovchi yorug'lik sifatida tabiatda bulutlar, xonalarda devollar ishlatilish mumkin.


Fon yorug'ligi – orqa planni yoritadi, sahnaning “chuqurligni” yaratadi. Tabiatda fon yorug'ligi sifatida osmon ishlatiladi. Odamlarni tasvirga olinadigan paytida fon yorug'ligi, yuzidagi soyalarning yoritilganligidan baland va yorug' tomonidan pastrok bo'lishi lozim.

Aks ettirilgan yorug'lik – soyalarni yumshatadi, obyektning hajmini va yonlarini qo'shimcha aniqlashtiradi.

Orqa yorug'lik – odamlarni tasvirga olayotganda orqa tomonidan sochlarini yoritish va odamni fondan ajratish uchun ishlatiladi.

Odatda, oldindan – yuqoridan – yon tamondan tushadigan yorug'liklardan ko'proq foydalaniladi va ayni yorug'liklar yaxshi natija beradi, lekin bunda yuzning bir tamoni ikkinchi tamoniga nisbatan kamroq yoritilishi kerak. Biroq suratga tushadigan kishi yuzining shakliga, yuzning biron xarakterli tamonini alohida bo'rttirib ko'rsatish zaruriyatiga qarab, yuqoridan tushadigan yorug'lik bilan birga yuqoridan va yon tamondan tushadigan yorug'likdan foydalanish mumkin. Masalan, odamning yuz bichimi dumaloqdan kelgan va ushoqqina bo'lsa, kunduzgi tekis takror yorug'likda suratga olinganda yassi chiqadi, shuning uchun yorug'lik manbalarini suratga tushayotgan kishining yon va old tamoniga qo'yish kerak. Chekkasi ozg'ish kishilarni suratga olishda yuqoridan tushayotgan yorug'likdan foydalanish yaramaydi, bunday yorug'lik chekkadagi soyalarni quyuqlashtirib yuboradi; old tamonda tushadigan yorug'lik soyalarni susaytiradi. Ko'z-yuzning eng ahamiyatli qismidir, ko'zlarni suratda mumkin qadar yaxshi ko'rsatish kerak. Ko'k ko'z kishi yorug'likka to'g'ri tikilib tursa, ko'zlari qora va ich-ichiga tushib ketgan bo'lsa, ko'zgu yoki yaqin atrofga qo'yilgan kichikroq lampadan shula tushirib, ko'zlarini jonlantirish kerak. Ba'zan bosh yoki prichyoska shaklini bo'rtiribroq ko'rsatishga modelni qora fondan ajratishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda orqa tamonga qo'shimcha yorug'lik manbai

qo'yiladi va boshning bir qismi yoki yuz orqa yon tamonga yoritiladi. Bunday yorug'likdan yuzdagi va teridan ba'zi tavsilotlarni yoki jimoniy kamchiliklarni suratda aks ettirmaslik kerak bo'lganda ham foydalanish mumkin: portret haddan tashqari detallashib ketmasligi uchun proeksiya usuli bilan nusxa ko'chiriyotganda yorug'likni tarqatib yuborish kerak. Portret olishda yorug'likni to'g'irlash ancha murakkab ish hisoblanadi, shu sababli yaxshi natijalarga erishish kata tajriba talab qiladi. Shuning uchun portret olishni o'rganayotgan kishi model, yorug'lik manbai va fotoapparat holatini bir-biriga nisbatan o'zgartirib, yorug'likni to'g'irlashni mashq qilishi kerak. Har xil yorug'liklar tasirini gips byustda o'rganish juda qulaydir (Kinomatografiya institutining kurs studentlari, yani bo'lg'usi operatorlar ishni huddi ana shundan boshlashlarini kezi kelganda aytib o'tmoq kerak). Ikki obyektzni raqqamli fotoapparatlarda yoritish usullarini surat olmasdan o'rganish mumkin, bunda yorug'likning modelga qay tariqa ta'sir etishi xira oyna bo'yicha kuzatiladi. Xira oynasiga qarab ravshanlikka to'g'rilaydigan apparat ishlaganda sinash uchun suratlar olish kerak. Suratga tushayotgan kishi yorug'lik manbai (deraza yoki kuchli elektr lampasiga nisbatan) holatini o'zgartirmaydi, fotoapparat esa markazi model bo'lgan yarim aylana bo'ylab besh xil pozitsiyasiga navbatmanavbat qo'yiladi. Uyni har xil usulda yoritish mumkin. Lekin bu yerda ham suratda faqat asosiy yorug'lik manbaining nuri tushib turganini aks ettirish kerakligi yodda tuting qolgan yoritgichlar ikkinchi darajali hisoblanadi, shunga ko'ra ularning ta'siri tamoshabin ko'ziga tashlanmasligi kerak.



1 – asosiy yoritkich; 2 – to'ldiruvchi yoritkich; 3 – orqa (kontr) yoritkich; 5 – obyekt; 6 – kamera; 7 – fon.

Portretchi-fotograf uch xil yorug'lik sharoitida: 1) ochiq joydagi kunduzgi yorug'likda; 2) uy ichidagi yorug'likda; 3) elektr yorug'ida ishlashiga to'g'ri keladi.

Portret olishda asosiy yoritgichlarning joylashishi (Tepadan ko'rinishi) 1 – asosiy yoritgich; 2 – to'ldiruvchi yoritgich; 3 – orqa (kontr) yoritgich; 4 – fon yoritgichlari; 5 – tasvirga olinadigan obyekt; 6 – fotoapparat; 7 – fon. Elektr yorug'likda suratga olishning o'ziga xos avfzalliklari bor: birinchidan, kunning istalgan paytida, jumladan kechqurirlari ham suratga olish mumkin; ikkinchidan, yorug'lik manbaining kuchi o'zgarmaydi va uni osongina hisobga olish (havo o'zgarishiga bog'liq bo'lgan sharoitga qarshi o'laroq) mumkin, shunga ko'ra fotograf videjkani to'g'ri tanlay oladi. Fotograf yorug'lik manbalarini syratga olayotgan kishining istalgan tamoniga qo'yib, obyektga tushadigan yorug'lik kuchini o'zgartirishi mumkin. Bunday hollarda yorug'likning etishmasligi provard natijaga qanday yomon tasir qilsa, haddan tashqari ortiqcha bo'lishi ham shunday yomon ta'sir ko'rsatadi. Yorug'likning ravshanligi: yorug'lik manbalarining soni va kuchini o'zgartirish, yorug'lik manbaini suratga olishayotgan kishidan uzoqlashtirish va yorug'likni tarqatish yo'li bilan o'zgartiriladi. Portretni ikkita yorug'lik manbai bilan yoritiladigan bo'lsa, ularning biri ikkinchisiga nisbatan nariroqda turishi yoki kuchsizroq bo'lishi kerak. Asosiy yorug'lik yaqin turgan kuchli manbadan tarqaladi; ikkinchi manba qo'shimcha chiroq hisoblanadi, u soyalarni zarur darajada kamaytirish maqsadida quyiladi. Yorug'lik manbai bitta bo'lsa, uni portretning ro'parasiga qo'yish yaramaydi (bunda tasvir siyqa va ma'nosiz bo'lib tushadi): yorug'lik manbai suratga olinayotgan kishining sal chetroqqa, uning boshidan sal yuqoriroq qilib, yorug'lik taxminan 45 gradus burchak ostida tushadigan qilib qo'yiladi, masalan, poldam ikki metr balandlikga va portretga tushayotgan kishi shuncha metr harida turadi. Elektr priborlari bilan yoritish juda qulay bo'ladi. 200 – 300 vattli ikkita pribor yorug'lik sxemalarini o'zgartirishga imkon beradi. Ikkita pribor yorug'lik manbai quydagicha joylashtirishni eng oddiy usul deb hisoblasa bo'ladi: priborning biri suratga olinayotgan kishining yon tamoniga ikki metr balandlikda osib qo'yiladi (bu lampa yuqori yon tamondan yorug' tushiradi), ikkinchi lampa esa apparatning yaqiniga (uning yoni va orqa tomoni o'rtasiga) model balandligi o'rnatiladi (bu lampa old tamondan yorug' tushuradi). Fotograf bir oz tajriba ortirgandan keyin, lampani modelga yaqinlashtirish va undan uzoqlashtirish, lampa va obyekt o'rtasida akslantirgichlar yoki yarim tiniq yorug'lik tarqatuvchilar qo'yish

yo'li bilan xilma-xil natijalarga erishadi. Elektr lampalari reflektorlarga o'rnatiladi, reflektorlar yorug'likni suratga olinayotgan kishi tamoniga qaytarishi bilan yoritish darajasini oshiradi va obyektivning tik tushayotgan nurlardan tusadi. Bunday yorug'likda sekundning ulushlaridan tortib bir necha sekundgacha videshka beriladi. Uy ichida yonib turgan oddiy lampalar yorug'ida surat olish qiyin; bunday sharoitda beriladigan uzoq videshka suratga olinayotgan kishini toliqtirib qo'yadi va yuz-qiyofasi asabiy ko'rinishida chiqishiga sabab bo'ladi. Lampani modelga yaqinlashtirish mumkin bo'lgan hollardagina surat olish mumkin. Ikkita kuchli elektr lampa yorug'idan ustalik bilan foydalanimsa, model yuzida har bir lampadan tushgan va bir-biri bilan kesishgan g'lati soyalar paydo bo'ladi. Buning oldini olish uchun ikki usul bor, birinchi usul – qo'shimcha yorug' beradigan lampa kalisa, yupqa oq gazlama yoki qog'oz bilan to'siladi – shunda model yuzi tekis yoritiladi, lekin bunda videshkani birmuncha o'zgartirishga to'g'ri keladi. Vidershka uzaytirilmaydigan ikkinchi usul shundan iboratki, bitta lampa (yuqori-yon tamondan yorug' beradigan lampa) qo'zg'atilmaydi, ikkinchi lampa (old tamondan yoritadigan lampa) ni esa fotograf ekspozitsiya vaqtida, suratga tushayotgan kishi oldida har tamonga – yuqoriga, pastga, bir tamondan ikkinchi tamonga suradi, shu tariqa qimirlatib turilgan soyalar yuzda tarqalib ketadi va xiralanadi. Elektr lampalari yorug'ida surat olishning yana bir nechta sxemalarini ko'rsatib o'tamiz. Yorug'lik manbai kamdganda modeldan bir yarim metr (juda bo'lmaganda bir metr) nari turishi kerak. Tajribali fotograflar uchun portret olishda elektr lampalari yorug'idan ko'ra yaxshiroq yorug'lik hisoblanadi. Fotograf elektr yorug'ida portret olishni o'rganib olganidan keyin, kunduzgi yorug'lik bilan elektr yorug'ini kombinatsiyalashtira oladi, bu – xilma-xil natijalarga erishish bilan birga, vidershkalarni ancha qisqartirishga imkon beradi. Ayni vaqtda qaytirgichlardan foydalanishga ehtiyoj qolmadi. Hozirgi zamonaviy professional fotograflar portret olishda zontik va elektro chaqnatgichlardan foydalanadi.


Gips modellarini yoritish

Ma'lumki, gips obyektini oldidan yoritish sezilarli darajada tasvirlanayotgan obyektini shaklini kamaytiradi. To'g'ridan yoritish vaqtida, obyektning shakllarini yo'qotmagan holda, kerakli effektga erishish uchun yorug'lik yo'naltirilayotgan obyektga 450 ga yaqin burchak ostida har tomondan kameraning yorug'lik manbayini yo'naltiring.



Natijada, juda keng yorug‘lik manbayiga ega bo‘lamiz va qaysidir jadallashgan yorug‘lik obyektning shaklini saqlab qoladi¹.

Orqa tomondan yoritish



Obyektни orqa tomondan yoritish, tasvirning chekkalarini va chuqurligini ko‘rsatish juda ham qiziqarlidir. Orqa tomondan yoritish ko‘pincha konturli yoritish deb ham ataladi. Bunda obyekt atrofini mayin yorug‘lik bilan xoshiyalash orqali xatto uni ko‘rish qiyin bo‘lganda ham, agar yorug‘lik manbayini obyektning orqa tomoniga o‘rnatish lozim bo‘lsa. Obyektning oldingi planini yoritishda konturli yorug‘likdan foydalanish, uning fondan ajralishi va chuqurligining farqini tezlashtiradi.


¹ Петерсон Брайан. Как фотографировать людей за рамками портрета.

Yon tomondan yoritish



Yon tomondan yoritish obyektning shakli va tuzilishini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu esa obyektning konturini, shaklining yaqolligi va boʻrttirilganligini koʻrsatadi. Barchaga maqul boʻlgan old va yon tomon yorugʻligi ishlatilganda obyektning geometrik kamchiliklarini yumshatgan holda uning qay bir maʼnoda toʻgʻri yoritilganligini koʻrsatadi.

Yuqoridan yoritish



Obyektga yuqoridan yoʻnaltirilgan yorugʻlik orqali, yoritish oʻz-oʻzidan kuchli bir qoʻrqinchni, xattoki, qaygʻuni xis qilish mumkin. Garchi biz bunday obyektning yuqoridan yoritilishni xar kuni koʻramiz (qoʻyosh, xonalardagi lampalar) va bunday yoritish paytida soyalarni boshqa yorugʻlik manbalari “toʻldiradi”. Bunda shu kabi effektga erishish uchun

yorug‘lik to‘ldiruvchi manbalarning, agar ular bo‘lgan taqdirda, yorug‘lik yorutuvchi manba juda kuchsiz bo‘lishi lozim edi.

Pastdan yoritish



Real hayotda biz pastdan yoritilgan yorug‘likka o‘rganmaganmiz. Bu esa obyektни o‘ziga umuman o‘xshamagan va qo‘rqinchli qilib ko‘rsatadi.

Sun‘iy yorug‘lik

Sun‘iy yorug‘lik manbasi cheksiz ravishda xilma-xildir. Sun‘iy yorug‘liklar – yoyuvchi va nur qaytargichlar, turli xil quvvatdagi hamda yorug‘lik uzatish darajasiga qarab cheksiz va turli-tumandir. Ularning lampalari kerakli darajada kichik va yoritish darajasi juda ham yorqindir. Shuning uchun ham ularning kuchi butunlay yoritish va yoritilayotgan buyum o‘rtasidagi masofaga bo‘liqdir.

Hech qanday sun‘iy yorug‘lik yoritgichlari oddiy ko‘rinishdan tortib xatto, kichik darajadagi uskunalar uzatayotgan yorug‘likni quyosh yorug‘ligining yorqinlik darajasiga tenglashtirib bo‘lmaydi. Yaqin masofadan kichik buyumlarni yoritishda ular juda ham yorqin ko‘rinishi mumkin. Ammo bu yorug‘liklar quyosh nuridek bo‘la olmaydi. Chunki quyosh birdaniga yer yuzining yarimini yoritadi!

Xonalarda sun‘iy yorug‘liklar “yorqin” bo‘lib tuyulishi mumkin. Patolok lyuminestsent lampalari bilan qoplanganda yana ham yoruq bo‘lishi mumkin. Bu esa shartli ravishda ko‘zimiz xona sharoitiga moslashgunga qadar va xonadagi mebel yoki polning yorug‘lik darajasini yorug‘lik manbasi bilan taqqoslaganimizda shunday ko‘rinishi mumkin.

Agar lyuminestsent lampalari xonadan tashqariga olib chiqilsa biz uning xattoki yonib turganini ham sezmaymiz. Hech qachon xona yorug‘ligi darajasini aniqlashga harakat qilmang. Bu mumkin emas: ko‘z

ko'p yorug'likni o'tkazishi uchun ko'z qorachig'lari kengayadi. Agar derazadan xona ichiga yoki xona ichidan tashqariga qaralgan paytda ko'z qorachig'larini bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan farqlar yorug'lik darajasida silliqlanadi. Rang (spektral tarkibi) va sun'iy yorug'likning uzlyuksizligini ko'z orqali aniqlab bo'lmaydi. Yorug'likning uzuk – yuluq va uning pirqirash xarkteri oddiy fotografiyada hech qanday rol o'ynamaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, kino va televideniya yorug'likni boshqarish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda kino va televideniya yorug'likni boshqarish operator boshqaruvisiz tasavvur qilish qiyin. Yoritishni operator boshqarish ko'pgina afzalliklarga ega hisoblanadi. Masalan, yoritish quvvatini aniq taqsimlanishiga, energiyaning tejalishiga, foydalanilayotgan resurslarni qisqarishiga, turli xildagi yoritish qurilmalari o'rtasidagi quvvatni to'g'ri taqsimlanishiga, ishchi kuchini va vaqtni tejashda juda kata samara beradi.

Shuningdek, pavilyonning turli qismlari uchun kuchlanish, tok va iste'mol qilinadigan elektrenergiyasi kompyuter xotirasida avtomatik tarzda ro'yhatdan o'tkaziladi va saqlanadi. Yoritish tarmog'ining zararlangan joylari tezkor ravishda topiladi, tok va kuchlanishni uchfaza bo'yicha o'lchaydi, elektrenergiyasi sarfini va ruxsatsiz yoqilishlar borligini nazorat qiladi, kompyuter monitorida yoritish qurilmasi holati haqidagi mnemo sxemani aks ettirib turadi.

Bu kurs ishmini yozish mobaynida shuni anglab yetdimki, yoritish bilan ishlash juda katta samarali hisoblanar ekan. Yorug'likni operator boshqarishni nafaqat kino va televideniya balki yorug'likdan keng foydalaniladi va imkoniyatlarni olib kelar ekan. Kino va televideniya yoritishni to'g'ri rejalashtirish, elektrenergiyasini tejash, yoritish qurilmalari va multimediya vositalarining katta sonidan foydalanib, katta tadbirlarni chiroyli va zamonaviy o'tkazish imkonini berar ekan.

Portretlarni tasvirga olish

Portretni suratga olishda eng muhimi – insonning ichki dunyosini ochib berish. Bu suratkash qanday yuz tuzilishiga tegishi haqidagi bir lahzali havotirlanishlari va noqulay oyoq kiyim, bosh og'riyotgani haqida yoki “tezroq uyga ketishni xohlayotganlik” haqidagi fikrlari emas, balki, aynan uning nazari, yuz imo-ishoralari, gavda holati va boshqa narsalarda aks etadigan chuqur hislari. Ya'ni siz insonning asligacha etib borasiz. Agar siz buni uddasidan chiqsangiz, unda sizga kadrirovka, ushlanish, ekspozitsiya, fokusirovka, diafragmalar bilan bog'liq ko'pgina

xatoliklaringizni kechirishar. Lekin agar siz his-hayajonni tashkillashtiruvchilaridan tashqari, qolgan barcha parametrlar bo'yicha "tekkizishni" uddalasangiz, unda sizda durdona hosil bo'ladi! Men ko'p marta bizning metromizda doimiy ravishda texnik sifat bo'yicha yetarlicha past, lekin ko'ngilga yaqin suratlarini ko'rganman. Ularda aniqlik, kuchli shovqin (yoki katta urug') bo'lmasligiga qaramay, ular ko'p piksellli professional fotoapparatlarda olingan qo'shni studiya suratlarini yengishadi. Bir suratda insonning chuqur kechinmalari, ikkinchisida esa, faqatgina texnik jilo bor.

Bunga qanday erishiladi?

Avvalam bor siz suratga olayotgan odamingiz bilan aloqani topishingiz kerak! Hattoki agar bu professional model bo'lsa ham, siz uni ochilishga majburlay olishingiz va kadrda sizga kerak bo'lgan hislarni olishingiz kerak. Agar bu professional model bo'lmasa, unda bir tomondan osonroq. Boshqa tomondan – qiyinroq: agar inson yasama obrazni yaratsa, sizga uni soxta qobiq emas, aynan insonning o'zi ko'rinihi uchun buzishga to'g'ri keladi. Siz latifalarning bolalarnikidan boshlab, axloqsizlarigacha to'plamini zaxiralashingiz kerak. Insonni o'ylantirib qo'yadigan chigal savollar berishni bilishingiz kerak: u sizga qanday javob berishni o'ylab bo'lgunicha u ochiladi, va siz uning haqiqiyisini suratga olishingiz mumkin! Lekin bu ham hali hammasi emas. Inson bilan aloqani topish, uni ozod qilish, uning yuzida haqiqiy havotir va hislarni chiqarish kamlik qiladi, ularni keyin ko'rish juda muhim. Axir buni kimdir ko'radi, kimdir esa yo'q, siz esa ko'rishga majbursiz, yo'qsa sizning portretlaringiz his-hayajon munosabatida hech narsaga arzimaydi. Ayrımlarda bunday ko'rish tabiatan mavjud, kimdir ko'ra olmaydi. Quyida men bu ko'rishni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida yozaman. Buning uchun murakkab narsalar kerak emas, faqatgina qiziqarli portret, qog'oz varag'i, qalam va o'chirg'ich kerak. Tushunaman, sizlarning barchangiz rassom emassizlar, lekin but ala qilinmaydi ham, chunki asosiysi umuman boshqa narsada. Siz qalam bilan qayta-qayta chizgan va hosil bo'layotganni originali bilan taqqoslagan holda portretni nusxalashga urinishingiz kerak. Suratdagi rasmiy o'xshashlikdan tashqari, siz hislarni tashkil etuvchilarini aks ettirishingiz kerak. Ya'ni, hissiyot jihatdan sizning suratingiz originaliga o'xshashmi yo'qmi. Surat grafik jihatdan originaldan ancha farq qilishi mumkin, lekin shu bilan birga hissiy tashkil etuvchilarini to'liq aks ettirishi mumkin. Siz o'z rasmingizda uni kuchaytirishingiz ham mumkin.



Tabiiyki, birdaniga o'xshamaydi, lekin siz hech bo'lmasa bu yo'nalishda qadam qo'ysangiz, unda sizning suratlaringiz darajasi keskin ko'tariladi, va siz hammaga ham sezilavermaydigan narsalarni ko'rishingiz mumkin.

Endi portret syomkasining texnik jihatlari haqida gaplashamiz

Syomkaning texnik jihatlari sizning g'oyalaringizni to'g'ri aks ettirish uchun juda muhim. Syomka uchun qanday obyektiv bilan suratga olishni tushunish lozim. Bilasizki, bizda uch ko'rish burchagi mavjud. Biz inson yuziga diqqat bilan qarar ekanmiz, demak bizda detallashtirilgan ko'rish qobiliyati ishlaydi – tartib burchagi 8 gradus. Mos ravishda, kartinka biz ko'rayotganlimizga o'xshash bo'lishi uchun bizda focus masofasi 300 mm bo'lgan obyektiv bo'lishi kerak (plenli ekvivalentda 35 mm). Amaliyotda perspektiva xatoliklarda 300 mm va 200 mm orasidagi farq sezilmas, shuning uchun portretlar syomkasida perspektiv xatoliklari minimal bo'ladigan focus masofali obyektivlar ishlatiladi. Erkak portretlari syomkasi uchun 85 mm, ayollarniki uchun – 105 mm hisoblanadi. Focus masofasidagi farq nima uchun? Perspektiva xatoliklari munosabatida erkak portretlariga talab unchalik ham yuqori emas. Va portret s'yomkasida perspektiva xatoliklariga bog'liq yana bir narsa – ular fotos'yomka sodir bo'layotgan masofaga judayam bog'liq. Hammasi odam ob'ektivdan uzoq yoki yaqinligida o'zgarishligida, uning burchak o'lchamlari munosabatlari uning tana a'zolari yaqin yoki uzoqligiga qarab (masalan, burun va quloq) o'zgaradi. Va bo'y barobar portretlar uchun 50 mm obyektiv to'liq yaraydi, ustiga-ustak bo'y barobar odamni biz umumiy

ko‘rish qobiliyati bilan ko‘ramiz (tartibi 50 gradus), shunday farq bilanki, bizning miyamiz perspektiv xatoliklarni to‘g‘irlyaydi (tana proporiyalarining buzilishi va uning yiqilishi), fotoapparat esa – yo‘q. Shuning uchun bo‘y barobar portret s‘yomkasida siz odam joylashgan, fotoapparatning yorug‘likka ta‘sirchan elementi tekisligiga parallel tekislikni hosil qilishga harakat qilishingiz kerak.

Portretlar syomkasida rakurs



Portretlarni suratga olish uchun suratga tushayotgan odamning ko‘zi darajasidagi rakursni tanlash kerakligini juda ko‘p eshitamiz. Bu to‘g‘ri, lekin qisman. Agar siz faqatgina portretni suratga olib, boshqa narsani xohlamasangiz aynan shunday qiling. Agar siz sur‘atdaning qandaydir psixologik rangini tushirishni xohlasangiz, unda buning uchun siz quyidagi alomatlariga mos portretni tanlashingiz kerak:

Ko‘z darajasida. Agar siz odamga huquqiy holat, daraja bo‘yicha teng bo‘lsangiz (yer ustidagi daraja emas), yoki agar siz tomoshabinga bu odam obraziga kirishni taklif qilsangiz, deyish mumikinki, uning ko‘zlari bilan qarash.



- Pastdan. Odam sizdan nafaqat bo‘yi bilan, balki qiymati bilan (shoh, Xudo, qutqaruvchi, bo‘yin egish predmeti va hokazolar)¹.



- Tepadan. Sizdan past bo‘lgan odam va sizga ancha qimmatli kishi sifatida qaraydigan, sizning boshchiligingizdagi odam va hokazo.

¹ Петерсон Брайан. Как фотографировать людей за рамками портрета.



Masalan, o'rtog'ingizni bir darajadan, pastdan tepaga qarab suratga olish kerak va hokazo. Shuningdek, shuni e'tiborga olish kerakki, odatda, erkaklar qizlardan balandroq va ayol portretini suratga olishda tepadan olish to'g'ri bo'ladi.

Syomka uchun obyektivlar



Agar syomkaga klassik nuqtai nazardan yondashilsa, unda portretli obyektivlar zarur. Biroq yanada uzoqroqqa borib syomka uchun kengburchakli obyektivlarni qo'llash mumkin. Bu yerda siz chiziqli perspektiva hisobiga hajm va bo'shliq xislarini beradigan perspektiv xatoliklarni to'liq ishlatishingiz mumkin.



Bu yerda keng burchakli obyektivlar turli xil xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish kerak:

Oddiyarlari – yuz proporsiyalarini buzadi, lekin suratdagi to'g'ri chiziqlar o'shanday to'g'ri bo'ladi;

Baliq ko'z – yuz proporsiyalarini sezilmas darajada buzmaydi, biroq markaz bo'yicha bo'lmagan to'g'ri chiziqlarni judayam buzadi. To'g'ri chiziq markazdan qancha uzoqda joylashsa shunchalik buziladi:

Portretlar bir necha ko'rinishlarga bo'linadi



- bo'y bo'yicha;



- son bo'yicha;



- son bo'yicha;



- bel bo'yicha;



- ko'krak bo'yicha;



- yuz bo'yicha (elka bo'ylab);

- katta plan (tasvirning kam ma'noli qismlari kesiladi, kadrda esa faqatgina eng muhimlari va ta'sirlilari qoladi).



- guruh portretlari, siz bir nechta odamni bir vaqtda suratga olganingizda;



Hazil suratlar alohida bo‘ladi, bunda tasvir aynan suratga tushayotgan odamning proporsiyalari buzilganligi evaziga hosil bo‘ladi.



Portret yorug‘soyali rasm evaziga hosil bo‘ladi va portret uchun kamdan-kam hollardan tashqari, yoyilgan yorug‘lik zarur. Shuningdek, kontr yorug‘ligi evaziga hosil bo‘ladigan kontrli portretlar mavjud. Bu portretlar qandaydir muayyan odamning obrazidan ko‘ra, ko‘proq yig‘ilgan obrazga ega.



Diafragma

Qoidaga ko‘ra, diafragmani oxirigacha ochishga intilishadi. Lekin bu har doim ham oqlanmagan, chunki agar bu 85:1,2 obyektiv bo‘lsa, unda ochiq difragmada xiralik chuqurligi evaziga yuz tanadan qandaydir uzoqlashgandek tuyuladi...

Diafragmani fonni yuvish va buning evaziga syomkaning asosiy obyekt – odamni ajratib ko‘rsatish uchun ochishadi. Bosh ozgina burilgan, ikki ko‘zni esa fokusda bo‘lishi kerak bo‘lganda qoidaga ko‘ra, ochiq diafragma holatni faqatgina og‘irlashtiradi. Ayrim hollarda yetarlicha aniq fon kerak, unda aksincha diafragmani yopishga intilishadi. Ya‘ni diafragma oagli ravishda munosabatda bo‘lish kerak. Kafeda olingan, shuning uchun fonni yuvishga intildim:



Bu kadr yarim yiqilgan binoda olingan va fon muhim ahamiyatga ega edi, shuning uchun uni ancha aniq qildim.

Ancha ta'sirchan obrazni hosil qilish va u yoki bu kayfiyatni yaratish uchun kadrda qo'llar kiritiladi. Yoki boshqa predmetlar.





Har qanday fotosyomkada bo‘lganidek, hamma narsaga ongli ravishda yondashish kerak, tugmani bosishdan oldin, o‘ylab oilsh, obrazni yaratish, nimani suratga olayotganligingizni, bu nima uchunligini tushunish, va shundan kelib chiqqan holda kadrni qurish va suratga olishni boshlash kerak. Portretlarni suratga olayotgan paytda fotografiyaning boshqa hech qaysi sohasida bo‘lmagan suratga olinayotgan odamning psixologik alohidaliklari juda muhim. Agar siz uni noto‘g‘ri uslubda suratga olayotgan bo‘lsangiz, agar bu durdona bo‘lsa ham, odam sizning butun mehnatingizni yaroqsiz qilishi mumkin, shuning uchun bir necha variant qilishga ruining. Agar inson o‘xshash bo‘lsa, unda u eng yaxshisini tanlaydi, aksincha bo‘lsa, u ko‘proq ko‘nikkan variantini tanlaydi.

4.5. Natyurmort janrida suratga olish


Ma'lumki, natyurmort tasviriy san'atning mustaqil, asosiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktab tasviriy san'at darslarida ham, kollej va oily ta'lim darslarida ham eng ko'p chizganimiz bu – natyurmort va uning elementlaridir. Ma'lumki, natyurmort franuuzcha so'zdan olingan bo'lib "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. Natyurmort asosan dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika) da, qisman haykaltaroshlikda (asosan relefda) ishlatiladi. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo'ladi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar, asbob - uskunalar kabilarga o'xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort chizishdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o'zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlardir. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fe'l-atvorini, qiziqishlarini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik holatlarni ko'rsatishga qaratilgan.

Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari

Ma'lumki, natyurmortda asosiy talablardan biri narsa, o'lcham, rang va tus jihatdan ajralib turish hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir. Bu surat mazmunini ochishga so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rtirib ko'rsatib turadi. Lekin u albatta, har safar surat tekisligining o'rtasida turish shart emas,

negaki unda postanovka (qo'yilma) zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal silkitib qo'yadilar, muvozanatni saqlash uchun qarama-qarshi tomonda rangi va och-to'qligi unga zid bo'lgan predmet oladilar. Taniqli natyurmortchi rassomlar Sezon, Shorden, Xrukpiylar bu usuldan foydalanganlar.

Bir xil narsalardan bir necha ko'rinisdagi natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta-kichikligi va bo'laklarning och-to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir necha teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u ma'nodor tuyuladi (3-rasm). Natyurmortni o'rnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish agar ma'qul bo'lsa chizishni boshlash, ma'qul bo'lmasa yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo



bo'lguncha davom ettirish kerak.

Natyurmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylanishidir. Postanovkaga kiradigan narsalarning kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisini bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham ko'rinib turgani ma'qul.

Shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan vaza, gullar to'plami, mo'yqalam va xokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan "kalit" bo'lib tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi. Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi

ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligi pastroqqa qo'yilgan natyurmort yopiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rinib turadi. Narsalarning asoslari ularning o'zaro joylashishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi. Masalan, vaza va gullarni shunday joylashtirishimiz kerakki ular ko'rish maydonida muvozanatli holatda ko'rinsing. Alohida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval albatta, natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash lozim bo'ladi. Aytaylik, devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatta stol satxi bilan uning orqasidagi devor orasidagi nisbat aniqlanadi. Shundan so'ng natyurmortni o'rnatasa bo'ladi. Ishni eng yirik narsadan boshlaymiz, ya'ni eng yirik predmet birinchi joylashtiriladi. Natyurmortning atrofdagi qismini hayolan chegaralab, vazani markazdan o'ng tomonga bir oz siljitib qo'yib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan idish e'tiborni o'ziga jalb qilish bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam beradi. Endi garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsada, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinmayapti, vaholanki tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'liqroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini taminlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan berkitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar esa ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi etarli bo'lmasa natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritkich qo'yiladi. Shunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlari yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Ba'zi sirtlarga yorug'lik nurlari ko'proq tushganligi sababli ravshan, ba'zilar esa qoramtir bo'lib ko'rinadi. Narsa sirtlarining ravshanlik darajasi u bilan yorug'lik manbai sirtidan qanchalik uzoqda bo'lsa, sirt shunchalik nursiz bo'ladi, aksincha manba yaqin joylashsa yoritishi kuchli bo'ladi. Yana shuni hisobga olish kerakki, yoritgichga yaqinroq joylashgan narsalarda uzoqroqdagiga nisbatan yorug' va soya ziddiyati keskinroq seziladi. Sirtlarning yoritilish darajasi yorug'lik nurlarining yo'nalishiga ham bog'liq. Yorug'lik nurlari sirtga to'g'ri burchak ostiga, yani tik yo'nalsa, bu sirt eng yorug' bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik nurlari qiyalab, sirtning yonidan o'tsa, unga yorug'lik

ham tushadi va natijada u holiroq bo‘lib ko‘rinadi. Undan tashqari sirtning yoritilish darajasi ayni shu sirtning tuzilishiga bog‘liq yaxshiroq, silliq sirti yorug‘likka ko‘proq qaytaradi, g‘adir-budir, qoramtir sirt esa ko‘proq nurlarni yutib, oz qismini qaytaradi. Shularning hammasini hisobga olgandagina natura bilan tasvir o‘rtasida haqiqiy o‘xshashlikka erishish mumkin.

Rasm ishlashning yakunlovchi bosqichida natura bilan tasvirni yana yaxshilab taqqoslab, umumlashtirib chiqish lozim. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta (planshet) ni naturaga yaqinroq yerga qo‘yib, o‘tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko‘z yuritib qarasa ham bo‘ladi. Bunda ba‘zi soyalar qorayib ketgan bo‘lsa yoki natyurmortning bir qismi ajralib ko‘rinib qolgan bo‘lsa, ularni tuzatib, reflekslar juda ravshan bo‘lib qolgan bo‘lsa bir oz xiralashtirib, natura bilan uning tasviri o‘rtasida to‘la o‘xshashlikka harakat qilinadi. Shunday qilib, tasvirni natura bilan muttasil solishtirib borish, rasm chizishda ma‘lum izchillikka amal qilish, asta-sekin umumiy tasvirdan qismlar tasviriga o‘tish tartibida olib borish va oxirida yana yaxlitlashtirib natyurmortning haqqoniy tasvirini hosil qilinadi. Endi eng muhimi, qo‘ygan natyurmortimiz o‘zimizga yoqadigan bo‘lishi lozim, shunda uni ishtiyiq bilan tasvirlaymiz. Birinchi navbatta, tanlangan narsalarning yagona maqsadga qaratilgan yaxlit bo‘lib ko‘rinadigan qilib qo‘yib ularni devor yaqiniga bir qator qilib terib qo‘yamiz, keyin fondan goh uzoqlashtirib, goh yaqinlashtirib qarab kuzatamiz.

Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to‘q joylari bilan umumlashib ko‘rinadi. Natyurmortlarga qo‘shimcha kiritiladigan narsalar shunday holatda qo‘yilishi kerakki, u har ikkala buyumning bir-biri bilan mazmunan boyiydigan bo‘lib ko‘rinadi. Endi postanovkaning yoritilish masalalarini hal qilish lozim. Yorug‘lik nurlari natyurmortga bir tomondan tushadigan qilib uning yon tomonidan yuqoriroqda yoritgichlar o‘rnatilsa, qo‘yilgan narsalarning shakli yaqqol ko‘rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko‘zga tashlanib turadi. Ma‘lumki, narsalar silliq va g‘adir –budir, yaltiroq va xira, tekis va notekis sirtli bo‘ladi. Ularning qanaqa ekanligini natyurmortda ko‘rsatishdan maqsad, qo‘yilgan har bir narsaning shakli yaqqol ko‘rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko‘zga tashlanib turadi. Maqsad har bir narsaning shakli va tuzilishini aniq ochib berishdir. Masalan, idishlar har xil materiallardan ishlangan bo‘ladi, chinni, sopol, shisha, sirlangan yoki ruxlangan metallardan va hokazo. Bularning fakturasini tasvirlab

ko'rsatish uchun alohida usullar qo'llanilmaydi, faqat ularning sirtidagi yorug', yarimsoya, soya, refleks va bliklarning o'z o'rni to'g'ri topilsa bas. Shuni hisobga olish kerakki, o'z-o'zidan ma'lumki, bo'yoq taxtachani ham ozoda tutish lozim. Har gal shuni tugatgandan keyin ortiqcha qorishmalarni maxsus asbob bilan sindirib tashlash, taxtachaning ustini moyli latta bilan yaxshilab artib qo'yish lozim. Uzoq muddat ishlay olmaydigan bo'lsangiz, (orqa), ortiqcha toza bo'yoqlarni ham olib tashlash darkor, chunki ular baribir qotib qoladi. Mayli, bo'yoqlar bilan rangtasvir ishini bajarish uchun maxsus tayyorlangan asoslar mato, taxta, karton yoki qalin qog'oz bo'lishi kerak. Bular orasida eng keng tarqalgani matodir. Uni ishga tayyorlash uchun suyuq elim va oq bo'yoq kukunidan maxsus qorishma tayyorlanadi. Gruntlashdan avval mato tagromga tortiladi. Buning uchun mato bo'lagi romchadan har tomonlama bosimdan kattaroq bo'lishi kerak. Matoni romchaga mixlab, tarang tortiladi. Tagromning katta-kichikligini va formati etyud kompozitsiyasiga bo'ysindirilib, eskizlar tanlanadi, taxtachalar bir-biri bilan yog'och qoziqchalar yordamida biriktiriladi. Qiyshayib ketmasligi uchun mixlashni romchani o'rtasidan boshlab asta-sekin tekislab boriladi, va mixlar har 1,5, 2sm masfada qoqiladi. Tortilgan mato avval katta mo'yqalam bilan ho'llanadi, so'ngra bir sidra elim eritmasi yupqa qatlam tarzida matoga suriladi. Yelimni tayyorlash uchun uni maydalab, sovuq suvda bir necha soat ivitib qo'yiladi. Uni maxsus idishga solib qaynab ketishiga yo'l qo'ymasdan, sust olovda eritiladi. Yelimlangan mato xona ichida asta-sekin quritiladi. Bir necha soatdan yelim qatshisha idishga uning tiniqligi, tufayli yaltirash, tovlanish, ayniqsa ko'p namoyon bo'ladi. Bularni tasvirlash bilan birga, naturaning yaxlit hajmdor shaklini ko'rsatish ham lozim bo'ladi.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan gazlamalar kirish bilan mazmundorlik oshadi. Tasvirda gazlamalarning o'ziga xos tuzilishi, ulardan taxlam va burmalarning shakli orqali ifodalanadi. Shuning uchun rasmda ayni shu gazlamaga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li taxlarning shaklini yorug' va soyalar vositasida batafsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag'al, sidirg'a matolardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit taxlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Keyinchalik malakaning ortishi bilan natyurmortlarni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan taxlash mumkin. Natyurmortlarning asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonini ko'payish, ularning turli-tuman rang-barang shakl va o'lchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagi narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli guldondagi rang-barang gullar yoniga olma qo'yib tasvirlanishi mumkin.

Murakkab natyurmortlar ustida ishlashning o'ziga xosligi, ularning kompozitsiyasi mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda har bir narsaning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Pastanovkaga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach ularning och-to'qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo'yib chiqiladi. Soyalar bir yo'la narsalarning panasida, yopiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi. Bu esa tasvirda naturadagi kabi to'q birligiga erishishi va har bir narsaning o'ziga xos shaklini to'laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar shaklini aniqlashtirib borib, natyurmortdagi nozik farqlarni topishda yuqorida aytilgan izchillikka rioya qilish kerak, ya'ni avval yirik shakllarni, katta qismlarini matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so'ngra esa mayda va chakana tafsilotlarini tasvirlashga o'tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsalarning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklini bo'rtirib ko'rsatishi kerak. Shuning uchun shunday qilib tasvirning hammasiga ishlov berishga, uni natura bilan yopishtirib, solishtirib qarash kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklidagi noaniq yerlarini yana ishlash kerak bo'ladi. Unda ton jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa darhol bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa uni yaqinlashtirish aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol korinib qolgan bo'lsa, uni bir-oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri uning o'zi kabi yaxlit taasurot qoldira olishi zarurdir. Shu darajaga erishmaguncha ishni shu tarzda davom ettirish lozim.

Fotografiyada natyurmort

Tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim ro'l o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol biln izohlasak o'rinlidir: masalan, musiqa san'atidagi ovozlarning ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi.



Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarning yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirlarni ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, y'ani har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q-ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi.



Agar bo'yoqlarni tasvir obyektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini narsiz qilib o'zaro bog'likligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin.

Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qoq gmmalarda tasvir obyektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.




4.6. Rakurs. Tasvir nuqtasi.

Oldingi darslarda biz, asosan suratga olayotgan predmetlarni ko'radik, videoqidiruvchi oldida faqatgina ayrim hollarda zatvor tugmasini bosib oromga berilardik. Lekin shu narsa ma'lum bo'ldiki, agar fotoapparat joylashuvini o'zgartirilsa, unda hosil qilinadigan fotosurat ham o'zgaradi.

Bizga ma'lumki, ko'z va fotoapparat orasida ko'p o'xshashliklar mavjud. Buni doim yodda tutish kerak. Axir, biz hattoki sur'atga olayotgan paytimizda, biz fotoapparatning videoqidiruvchisi orqali "qaraymiz" va bo'lajak fotografiyani "ko'ramiz". Ana shunday, rakurs tanlovida biz aynan fotografiyada nima hosil bo'lishini tanlaymiz, fotoapparat videoqidiruvchisida esa biz suratda nima hosil bo'lishini ko'ramiz. Rakursning eng oddiy misoli – bu syomkaning ikki gorizontall nuqtalarining ishlatilishi (yoki shunchaki nazarning). Bitta predmetni suratga olish emas, shunchaki oldindan va yondan ko'rib chiqishga urinib ko'ring xayolga keladigan birinchi misol – bu odam chehrasi. Fas va profil – ikkita juda farq qiladigan suratlar. Axir ko'pchilik odamlar fasda chiroyli ko'rinishadi, shu bilan birga o'zining profilidan uyalishga to'liq haqli. Bu

ochiq-oydin tasdiq nafaqat odamlarga va balki turli xil chehralarga, va barcha predmetlarga qoʻllaniladi, va ehtimol siz buni syomka jarayonida eʼtiborga olyapsiz.



Syomka rakursini bunchalik keskin oʻzgartirish shart emas. Albatta, nafaqat “Fas” va “Profil”, balki koʻpgina oʻrta holatlar ham mavjud. Toʻgʻri peshonani suratga olmaslik ham mumkin, kadрни “ozroq yondan” olinsa siz kutgandan ancha boshqacha fotografiya hosil boʻladi. Fotoapparatni (syomka nuqtasini) nafaqat gorizonta, balki vertikal tarzda koʻchirish mumkin. Va keling bu vertikal boʻyicha shartli ravishda syomka nuqtalarini joylashtirib chiqamiz. Ular uchta¹.



¹ Брюс Вэрбаум. Сущность фотографии. Умение видеть и творить.

“Normal” syomka nuqtasi

Bu, odamlar odatda suratga oladigan nuqta. Shu bilan birga, tasvir deyarli xatoliklarsiz bo‘ladi. Fotografiya “inson bo‘yi balandligida siz qanday ko‘rishingizni” ko‘rsatadi.

Qo‘llanish holatlari

Passport va portret s‘yomkasida. Klassik fotografiya hosil qilish uchun. Ehtimol, dunyodagi ko‘pchilik fotografiyalar syomkaning “normal” nuqtasidan olinadi.

Syomkaning quyi nuqtasi

Bu holatda biz, odatiy “ko‘z darajasi” dan quyiroqqa tushirgan holda fotokamerani tutamiz.

Portretlar s‘yomkasida quyi va yuqori nuqtalardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. 100 tadan 80 holatda bu “yoqimli odamdan badbasharani qanday hosil qilish” ga eng qisqa yo‘l¹.

Syomkaning quyi nuqtasi obyektlarga ancha “monumental”, buyuk ko‘rinish beradi.



Dinamik sahnalarni quyi nuqtadan suratga olishga urinish ma‘noga ega: yugurish, raqslar, balet (uni raqslar qatoriga qo‘shishga til aylanmaydi). Odam sakrayotgan syujetlarda quyi nuqtadan olish yaxshi ko‘rinadi.

¹ Том Энг, Большая книга о фотографии. Полный курс приёмов и секретов для получения великолепных снимков.



Agar siz “qolipli suratlarni” suratga olayotgan bo‘lsangiz (aql bilan: “kontrli yorug‘likda” tushirilganlar), unda quyi nuqta siz uchun almashtirib bo‘lmas. Qolipli suratlar deb, shartli ravishda hosil bo‘ladigan syomka obyektini qora qog‘ozdan qirqib olingandek bo‘ladigan, yorug‘likka qarama-qarshi (qoidaga ko‘ra, quyoshga qarshi) suratlarni nazarda tutamiz.



Shuningdek, qoidaga ko‘ra quyi nuqta ancha “tirik”, ancha dinamik kompozitsiya yaratadi, harakatni yaxshi olib beradi yoki hattoki statik kartinani tiriltiradi, uni ancha ekspressiv qiladi.



Ko‘pincha “fonni shakllantirish” uchun syomkaning quyi nuqtadan olinishiga kelish foydali bo‘ladi. Masalan, qandaydir obyektни suratga olayotganingizda – odam yoki daraxtni, shunday bo‘ladiki, gorizont chizig‘i xuddi unit eng yarimga bo‘layotgandek. Gorizontni “tushirish” uchun ancha quyi nuqtadan suratga olish lozim.



Syomkaning yuqori nuqtasi

Agar biz yuqori nuqtadan foydalanayotganimizda biz fotoapparatni odatiy syomka darajasidan yuqoriga ko‘tarsak yangilik bo‘ladi. Buning uchun bizga qandaydir balandliklarga ko‘tarilishga to‘g‘ri keladi.



Syomka ob'ektigacha bo'lgan yaqin masofadagi quyi va yuqori nuqtalar kuchli xatoliklar beradi, obyektни bizga odatiy bo'lmagan nuqtalardan ko'rsatadi. Shu bilan birga, syomka ob'ekti (yoki ob'ektlari) uzoqda joylashgan bo'lsa, sur'atda hosil qilinadigan tasvir bizning nazarimizda ancha odatiy qabul qilinadi.

Qo'llanilish holatlari

Ko'pincha shahar peyzaji syomkasida kerak bo'ladi. Yoki bitta tekislikda joylashgan obyektlarni ko'rsatishda (ochib berish) kerak bo'ladi¹.




¹ Том Энг, Большая книга о фотографии. Полный курс приёмов и секретов для получения великолепных снимков.



Yuqori nuqtadan olingan sur'atlar ancha tinch. Agar balanddan olingan bo'lsa, hattoki harakatlanayotgan odamlar va predmetlar ham deyarli statik bo'lib tuyuladi.

Xatoliklar

Ayrim hollarda eng “keskin” rakurslar kerak bo'ladi. Bunday tajribalar juda kutilmagan natijalar berishi mumkin. Masalan, fotoapparat bilan tik yuqorini suratga olish.



Yoki fotoapparatni polga qo'yish (bunda o'zingizning polga yotishingiz shart emas).



Eng muhimi. Yaxshi rakurs hosil qilish uchun syomka nuqtalari ustida tajriba o‘tkazishga qo‘rqmang. Keyin eng yaxshisini tanlash uchun bir obyektzni har xil nuqtalardan sur‘atga olish oqilona ish.

4.7. Harakatdagi obyektlarni tasvirga olish

Harakatdagi obyektlarni tasvirga olishning uzoq va qisqa “viderjka” hamda simli usullari mavjud. Bularning barchasidan hech bo‘lmaganda qanday natijaga erishishingizni bilib olishingiz uchun foydalanib ko‘rishingiz lozim. Kelgusida bu tajribalar sizga kerak bo‘ladi. “Viderjka”ning turli hil ko‘rsatkichlaridan yoki simdan qanday foydalanishni bilib olib, siz ajoyib effektli tasvirlar yaratishingiz mumkin.

Sim bilan tasvirga olish

Biz bu usul yordamida tasvirga harakat effektini beramiz va bunda obyektning o‘zi ravshan, fon esa xira ko‘rinishiga erishamiz. Buning uchun yurayotgan mashina yoki piyodada mashq qilib, kamera obyektivini harakatlanayotgan obyektga sinxron ravishda harakatlantiramiz. Obyektzni

kadrga shunday joylashtiringki, uning oldida kadr maydonining katta qismi qolsin va uni kadrning qaeriga joylashtirgan bo‘lsak, o‘sha joyda qolgan holaticha kamerani xarakatlantiramiz. Kerakli vaqtda suratga olish tugmasini ohista bosib, kamerani obyektga yo‘nalishida harakatlantirishni davom ettiramiz. Muhim sharti – tanlangan suratga olish obyektini sizga yaqinlashishi yoki uzoqlashishi emas, balki obyektivning optik o‘qiga perpendikulyar ravishda harakatlanishi lozim.



Fotoapparatni har bir o‘ziga hos holatlarda sozlab turish lozim. Masalan, tez harakatlanayotgan mashinalarni suratga olishda $1/200$, yugurayotgan odamni suratga olishda $1/50$ “viderjka”sidan foydalanilsa, har ikki holatda ham obyekt tiniq, fon esa hira ko‘rinishga ega bo‘ladi.



Diafragma va ISO vaziyatga ko‘ra sozlanadi. Avtofokusni kuzatish rejimiga qo‘yib, ko‘p seriyali tasvir rejimiga qo‘yib, tajriba qilishni qo‘llaymiz.

Uzoq “viderjka” bilan tasvirga olish

Uzoq “viderjka” bilan tasvirga olish ravshan fon va xira suratga olish obyektini yaratadi. Bu usuldan kechqurun avtomobillar ataylab xiralashib, ularning chiroqlari va atrof tiniq bo‘lib qolganda foydalaniladi. Obyekt xiraligi “viderjka”ning qanchalik uzoqligiga bog‘liq. “Viderjka” qanchalik uzoq bo‘lsa, harakatlanayotgan obyekt shunchalik xiralashadi va harakatlanayotgan obyekt qanchalik xira bo‘lsa, fon shunchalik tiniqlashadi. Diafragma va ISO tanlangan syujetning yoritilishiga bog‘liq bo‘ladi. Uzoq “viderjka”dan foydalanganda kamera qimirlab ketmasligi uchun shtativdan foydalanish kerak.

Qisqa “viderjka” da tasvirga olish

Qisqa “viderjka” harakatni to‘xtatib qo‘yadi va biz mutlaqo tiniq bo‘lgan, unda harakatlanayotgan obyekt go‘yoki qotib qolgandek tuyuluvchi tasvirni hosil qilamiz. Maksimal qisqa “viderjka”ni yoqing va bunda difragmanikengroq ochib, ISO ko‘rsatkichini ko‘taring. ISO ko‘rsatkichini ko‘tarish tasvirda shovqinni kuchaytirsang, diafragmani keng ochish esa uni kamaytiradi. Eng avvalo, diafragmani ochib, undan so‘ng ISO ni kuchaytirish tavsiya etiladi. Fokushni qo‘lda boshqariladigan rejimiga qo‘yganingiz maq‘ul. Chunki juda qisqa “viderjka” da avtomatika obyektning anglashga ulgurmasligi va kamera fonga fokuslanishi mumkin. Obyekt paydo bo‘lishi kutilayotgan nuqtani qo‘lda sozlang va u yaqinlashganda sur‘atlar seriyasini oling.

Avvaliga harakatlanayotgan obyektlarni tasvirga olishda omadsiz kadrlar juda ko‘p bo‘ladi. Biroq bu juda qiziqarli mashg‘ulot bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan siz uni to‘liq o‘rganib olasiz.

4.8. Reportaj. Reportaj bo‘yicha amaliy tavsiyalar

Reportaj – bu birinchi navbatda, siz suratga olayotgan hodisaning hikoyasi. Mos ravishda, siz birinchi navbatda siz aynan shu hikoyani kadrlarga tushirishingiz kerak. Hikoya uch tarkibiy qismlarga bo‘linadi: 1 – boshi, 2 – hodisaning o‘zi, 3 – final. Bu uch qism – bu baza. Tabiiyki, real hayotda bosqichlar uch emas undan ko‘p bo‘lishi mumkin. Asosiy bosqichlar orasida yana o‘tuvchi momentlar bo‘lishi mumkin, masalan:

1 – boshi, 2 – hodisa rivojlanishi boshlanishi, 3 – hodisaning o‘zi, 4 – hodisaning yakuni va 5 – final. Lekin syomka bosqichlarining soni o‘sganiga qaramay bundan masalaning asl ma‘nosi o‘zgarmaydi – sizga hodisaning rivojlanishini ketma-ketligini saqlash kerak uning boshidan oxirigacha.

Jamoaning 4 kadrtdan tashkil topgan reportaj syomkasining oddiy na‘munasi.





1. Reportajda asosiy qoida – suratdagi odamlarning tanilishi va bu erda odam yuziga to'g'ri chaqnatib yoki tabiiy yorug'lik bilan tushirishning ahamiyati yo'q. Muhimi, suratdagi odamlarni tanish kerak. Lekin tabiiyki, surat qanchalik yaxshi bo'lsa, reportaj shunchalik sifatli bo'ladi. Shuning uchun odam yuziga chaqnattirish – eng so'ngi ish.

Bungacha reportajda zarur bo'lgan kerakli rasmiy narsalarga ta'rif berildi. Shuningdek, reportajning kayfyatini yaratish, hodisaning psixologik bo'yalishiga imkon beradigan, ushbu reportajning tomoshabinlar qabul qilishiga ta'sir o'tkazadigan sodir bo'layotganlarga sizning shaxsiy munosabatingiz boshqa jihatlari ham mavjud.


2. Standart kadrlardan tashqari bosh qahramonlarni suratga olish vaqtida qiziqarli rakurslarni topishga, momentni ushlashga harakat qilish

kerak, agar bu daqiqa va rakurs bo'lsa, bu tomoshabin uchun ikki marta qiziqarli bo'ladi¹.




¹ Том Энг, Большая книга о фотографии. Полный курс приёмов и секретов для получения великолепных снимков.





Reportajda tomoshabinlar

Tomoshabinlarda sodir bo'layotganlarga ularning reaksiyasi va havotirlanishlarini suratga olish kerak. Bu holatga ular qanday munosabatda ekanligi va nimani his qilayotganligini tushunish uchun. Va hattoki ularning qanday o'tirishi, turishi, yugurishi, baqirishi sizning reportajinhizga qarayotgan odamga ko'p narsa haqida gapiradi.







3. Reportajning asosiy yoki harakatlanayotgan qahramonlaridan tashqari, voqea sodir bo‘layotgan kichik mayda-chuydalar kabi jihatlari ham mavjud. Masalan, kimdir yozmoqda, kimdir uxlamqda, kimdir sodir bo‘layotganlarni suratga olmoqda. Bundan tashqari ko‘p hollarda hattoki tomoshabinlar yuzi ham kerak emas. Bu marosim uchun xos bo‘lgan qandaydir mayda-chuydalarni katta planda ko‘rsatish etarli.





4. Reportajda detallardan tashqari hammasi sodir bo‘layotgan joyni umumiy planini suratga olish ham zarur. Ko‘p hollarda bino yoki maydon, yoki maydonchani suratga olish kerak. Yaxshisi esa unisi ham, boshqasi ham.





Fotosyomka parametrlari

Qoidaga ko'ra, qandaydir marosimlarning reportaji tom ostida bo'lib o'tadi, va mos ravishda, yorug'lik kam miqdorda, joydan-joyga o'zgaradigan spesifik rangli temperature bo'lishi mumkin. Tasvir sifati birinchi o'rinda emas. Asosiysi – bu kartinka bo'yashishiga yo'l qo'yilmaydigan, tasvirning taniy olinishi va aniqligi, ya'ni aniq tasvir bilan ta'minlaydigan etarlicha qisqa ushlash bo'lishi kerak. Shuning uchun suratga olish jarayonida ISO ning yuqori qiymatini ishlatishadi (1600, 3200, 6400 va hokazo). Kimda kamerasi qancha ko'tarolsa. Shuningdek, svetakuchli obyektivlar qo'llashadi (diafragmaning raqamli qiymatini 2 marta kamaytirilishi, ISO va ekspozitsiyaning o'sha qiymatida, ushlanishning 4 marta qisqartirilishiga olib keladi). Va shunga qaramay, ichki va tashqi fotochaqnashdan foydalanishadi. Shunday bo'ladiki, reportaj mutloq qorong'u sharoitda o'tkaziladi – bu yerda endi hech qanday ISO qutqarmaydi va chaqnash bilan yorug'lik berish kerak. Tabiiyki, tashqisi ko'proq yoritadi va ichkisi hech narsa berolmaydigan joyda u qutqarishi mumkin. o'z-o'zidan reportajlar syomkasida zum-obyektivlardan foydalanishadi, chunki sizni har doim ham sahna, maydon, minbarga va hokazolarga qo'yimasiklari mumkin. To'liq reportaj uchun zum-ob'ektivlar to'plami kerak. O'rta fokus masofasida oddiy universal obyektivlardan tashqari teleobyektivlar (chunki ko'pincha syomka obyektiga yaqin yo'llattirishmaydi), kengburchakli obyektivlar (umumiy ko'rinishni suratga olish kerak bo'lganda yoki reportaj juda kichik joyda sodir bo'layotganda, masalan, tor yo'lakda intervyu olishayotganda) ni ishlatishadi. U yoki bu hodisani alohida ko'rsatish uchun bir nechta kadрни

bo'yashgan qilish mumkin, reportajga badiiylilik elementini kiritish deyish mumkin.



4.9. Sport fotografiyafiyasi bo'yicha tasvirga olish usullari

Sport syomkasi – bu birinchi navbatda, sport musobaqasi olib borilayotgan joydan, uning barcha kelib chiqadigan oqibatlari bilan, reportaj.





Lekin sport musobaqalarini suratga olishning o'z jihatlari bor (shaxmat va shashkadan tashqari) sport, qoidaga ko'ra, kadrda aks ettirish kerak bo'lgan tez harakat va jarayonlar bilan bog'liq. Tez kechayotgan jarayonlar ekan, demak suratga olinayotgan sahna bo'yashmasligi uchun, etarlicha qisqa ushlanish o'rnatish kerak. Nisbatan qisqa ushlanishni qanday qilish mumkin? Diafragmani ochib (minimal son qiymat), ISO qiymatini oshirish kerak. Ekspozitsiyaning birxilligida (kadr normal bo'lib qolaverishi uchun – yorqinligi bo'yicha) bizning ushlanishimiz ancha qisqa bo'ladi. ISO qiymatining ko'tarilishi shovqinlar sonini oshiradi vatasvir aniqligini kamaytiradi. Shuning uchun ISO qiymatini tasvir sifati qabul qilinadigan darajada ko'tariladi. Shuningdek, foto'yomka uchun to'liq formatli fotoapparatlardan foydalanishadi (pikselning fizik o'lchami qancha qancha katta bo'lsa, u shuncha kam shovqin beradi). Shuning uchun hattoki kunduzi ko'chada suratga olganda ham ISO 1600 qiymatgacha etishi mumkin.

Yopiq binoda bu qiymat yanada ortishi mumkin. Sizing obyektivngiz qancha yorug'likkuchli bo'lsa, siz ushlanishni shuncha qisqa o'rnatishingiz mumkin. Misol uchun, agar suratga olishda diafragmangiz 5,6 bo'lsa, va siz uni 2,8 ga o'zgartirsangiz, unda oldingi ekspozitsiya va ISO qiymatida ham, sizda ushlanish 4marta qisqa bo'ladi. Ko'pincha bir nechta harakat davriga ega bo'lgan tez kechadigan hodisalar ro'y beradi. Harakatning ancha qiziqarli davrini tanlash uchun seriyali fotosyomkadan foydalanishadi. Va endi bu erda fotoapparatdagi seriyali fotosyomkaning tezligi juda muhim hisoblanadi. Masalan, boshlang'ich darajadagi oynachalarda bu tezlik soniyada 3 kadr tartibini tashkil etadi. Reportaj apparatlarida – soniyasiga 6-10 kadr atrofida. Tabiiyki, ancha tez suratga oladigan fotoapparat ayrim hollardagina tashabbusga ega bo'ladi.

Oynali fotoapparatlarda tugmani bosish va kadr hosil bo‘lishi orasidagi ushlanish etarlicha katta: surat hosil bo‘lishidan oldin fotoapparat fokuslanib olishi va oynani ko‘tarishga ulgurishi kerak. Suratga olishning birinchi qismi – fokuslanish – vaqt bo‘yicha yetarlicha oldindan aytib bo‘lmas, shuning uchun qoidaga ko‘ra, fotoapparat tugmasini ozgina bosgancha, voqealar sodir bo‘layotgan joyda oldindan fokuslash hosil qilinadi. Suratga olishning ikkinchi qismi esa bizda barqaror vaqt intervalida, shuning uchun ham biz qiziqarli moment boshlanishini oldindan ko‘ra bilishimiz va tugmachani, kadrda o‘tkazib yuborilgan moment emas, aynan keraklisi bo‘lishi uchun, oldindan bosishimiz lozim.





Endi esa biroz kadr tuzilishi haqida. Peyzaj yoki portret fotografiyasidan farqli o'laroq, sport syomkasida sizda kadrlarni o'ylashga vaqt yo'q va siz kadr tuzishning barcha ma'lum qoidalarini qo'llagan holda o'sha onda tuzishingiz kerak. Sportda kadr tuzishning o'sha qoidalarini qo'llay olishingiz, siz kadrlarda syujetda muhim elementlarni joy-joyiga deyarli avtomatda qo'yib chiqish uchun oldin peyzajda, keyin portretlarda mashq qiling. Sportda gorizontning yiqilishi sodir bo'layotganlarga qo'shimcha dinamika berishini e'tiborga oling.




Sodir bo'layotganlarning to'g'ri yuborilishi uchun kadrdaqi voqealarning rivojlanishi haqida bilish va syomka nuqtasini to'g'ri tanlash kerak. Sport syomkasida syomkaning 3 usulidan foydalanishadi:

1. Syomka harakatning qotirilishi bilan sodir bo'ladi. Ya'ni suratdagi tasvir aniq. Ancha qisqa ushlanishdan foydalaniladi, suratga tushirilayotgan sport turiga qarab qoidaga ko'ra, 1000 yoki undan ham qisqa¹.

¹ Кампе Хайе Ян. Правила фотографии и как их нарушать.





2. Harakatni ko'rsatgan holda suratga olamiz: suratning umumiy o'tkirligida nisbatan tez harakatlanayotgan obyektlar biroz noaniq. Bu erda ushlanish harakat tezligiga qarab 250 dan 500 gacha tebranadi.



3. Simcha (provodka) bilan suratga olish, kadrda faqatgina bizning harakatlanayotgan obektimizda o'tkir, tezlik effektini yaratgan holda fon bo'yashganda. Bizdagi ushlanish harakatlanish tezligiga bog'liq ravishda tebranadi. Misol uchun, agar mashina 100 km soatiga yurayotgan bo'lsa, unda ushlanish 100 (100 km/soat – ushlanish 1/100 s yoki 1/60 s) dan davomliroq bo'lishi kerak. Farq qancha katta bo'lsa, fon shuncha bo'yashadi.



Tabiiyki, asosiy kadrlarni 1 va 2-punktlar boshchiligida qilish talab qilinadi. 3-usul bir nechta surat uchun yaraydi, u baddiy tashkil etuvchilarni qo'shadi. Sportchilarni ham chetdan chiqarmaslik kerak. Musobaqalarda ularning hissiyotlarini suratga olish kerak, buning uchun ularning katta portretlarini yoki hattoki katta planlarini yaratish lozim.




Shuningdek, tomoshabinlar hissiyoti va sodir bo'layotganlarga ularning munosabati haqida ham chetan chiqarmaslik kerak.






Sodir bo‘layotganlarning muhitini yaratadigan, ushbu marosim uchun xos bo‘lgan qandaydir mayda-chuydalarni ham suratga olish mumkin.





Musobaqa doirasidan tashqarida sodir bo‘ladigan, lekin ro‘y berayotganlarni yetarlicha ochiq ko‘rsatadigan qiziqarli holatlar bo‘ladi.





Ko'p hollarda syomka obyektiga etarlicha yaqinlashishning iloji bo'lmaganligidan sport fotografiyasining asosiy obyektlari – bu yorug'likkuchli teleobyektivlar, garchi kamdan-kam hollarda keng burchaklilarni qo'llashga imkon bo'ladi.





Sport fotosyomkasining juda muhim jihati – bu fotosyomka vaqtidagi texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish. Qoidaga ko‘ra, fotovspishkalar foydalanish man qilinadi, chunki bu sportchini ko‘zini olishi va musobaqa natijasiga ta’sir o‘tkazishi yoki fojiali holatlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, masalan, avtopoygalarda qaytishning tashqi tomonida turish, snoubordistning qo‘nish maydonchasiga chiqish va hokazolar mumkin emas.

Qanday joylarda suratkash turishi mumkinligini bilish muhim. Ayrim hollarda bu suratkash va musobaqa ishtrokchilari xavfsizligi bilan bog‘liq, ayrim hollarda esa marosim o‘tkazish qoidalari bilan.

4.10. Raqamli fotografiyada yorug‘lik filtrlari

Svetofiltrlar tasvirning ranglarini, yorug‘ligini va kontrastini korreksiya qilish, ya‘ni kerakli darajada to‘g‘rilashda ishlatiladi. Yana ular har xil ranglarni va mahsus effektlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Raqamli kameralar paydo bo‘lishi bilan turli effektlar yaratish uchun har xil dasturlar, raqamli filtrlar yaratildi va buning natijasida optik yorug‘lik filtrlaridan foydalanishga extiyoj qolmadi. Optik filtrlar siz suratga olayotgan fotosuratga ta‘sir ko‘rsatishga imkon beradi.

Asosan ular kameraning oldi qismiga suratga olish jarayonida o‘rnatiladi yoki mahsus filtr tutgichlar yordamida ham o‘rnatilishi mumkin.¹

Polyarizations (qutblashgan) yorug‘lik filtrlari. Bu filtr tabiat qo‘ynida peyzajlarni, arxitektura inshootlarini fotosuratga olishda va avtomobil oynasi orqali, turli do‘konlarning oynalari orqali uning ichidagi insonni, turli ob‘ektlarni suratga olish uchun foydalaniladi. Quyiroqda keltirilgan fotosuratlarda fotograf do‘kon vitrinasi ortida joylashgan gips haykallarni oyna ortidan fotosuratga tushirgan. Polyarizatsion filtersiz olingan suratda fotografning oynadagi aksi ham suratga tushib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Polyarizatsion filtr bilan olingan suratda esa fotosuratning oyna orqali olinganligi umuman sezilmaydi.

Polyarizatsion filtr, polyarizatsion ekran ham deb ataladi. U asosan oyna, suv, polirovka qilingan, sirtiga yaltiroq qatlam qoplangan jihozlardagi va yorug‘lik dog‘larini, ya‘ni bliklarni, misol uchun osmonning aksini va boshqa turdagi akslanishlarni yo‘qotish uchun ishlatiladi. Ba‘zan esa, fotosuratda aks etayotgan osmonning yorug‘ligini kamaytirish uchun ham foydalaniladi. Video yoki kino filmlarni tasvirga olish paytida polyarizatsion filtdan foydalanganda panorama qilmaslikka harakat qilish kerak. Chunki filtr yo‘nalishining osmon qutbiga nisbatan o‘zgarishi tasvirning ekspozitsiyasining o‘zgarishiga olib keladi.

¹ Mitch Mitchel. Visual Effect –USA, 2004. 39 bet.

Polyarizatsion filtrni tuman paytida ham ishlatish mumkin emas, chunki, u havo ochiq paytdagi darajada kutilgan natijani bermaydi.



Polyarizatsion filtrsiz



Polyarizatsion filtr bilan

Neytral filtr

Bu filtr ingliz tilida neutral dark – ND deb atalib, u obyektning yorug‘ligini, u diafragmaning eng kichik holatida ham keragidan ortiq bo‘lganda kamaytirish uchun yoki bo‘lmasa aynan diafragmani ochish orqali tiniq tasvirlanuvchi maydon kengligini boshqarish kerak bo‘lganda ekspozitsiyani kamaytirish uchun ishlatiladi.



ND filtr bilan

ND filtrsiz

Bu filtni oqayotgan suvni uzoq viderjkada suratga olish kerak bo‘lgan paytda ham ishlatish mumkin. Quyida keltirilgan rasmda dengizning suratini shamol holatida ham huddi sokin turgandek qilib olish maqsad qilingan. Buning uchun esa ekspozitsiya vaqtini odatdagidan ancha uzaytirish kerak. Yorug‘lik kuchli bo‘lgan paytlarda ekspozitsiyani kamaytirish uchun, yuqorida aytib o‘tganimizdek, neytral filtdan foydalaniladi va istalgan natijaga erishiladi.¹

Ultrabinafsha filtrlar

Bu filtr fotosuratlardan ultrabinafsha nurlarni bartaraf qilish uchun ishlatiladi. Spektrdagi ultrabinafsha nurlari odam ko‘ziga ko‘rinmaydi, lekin ularni fotoapparat matritsasi qabul qiladi.



UB filtrsiz

UB filtr bilan

¹ Paul Wheeler. Practical Cinematography USA, 2005. 130 - bet

Bu filtr asosan tabiatda, tog'larda quyoshli ochiq havoda foydalanishga mo'ljallangan. Bu filtdan foydalanib suratga olinganda suratning kontrastlilik darajasi yuqoriroq bo'ladi hamda osmon yaxshi aks etadi.

Konvension filtrlar



Bugungi kunda chiqarilayotgan plyonkalar cho'g'lanma lampalarga – 3200 K, hamda tabiiy yorug'likka – 5600 K rang haroratiga balansirovka qilingan.



Bu filtr esa cho'g'lanma lampaning (lampa nakalivaniya) 3200 K yorug'ligiga moslashtirilgan fototasmani sovuq 5600 K yorug'likka moslashtirish uchun ishlatiladi. 85A.

Bu filtr tabiiy 5600 K yorug'likka moslashtirilgan fototasmani iliq 3200 K yorug'likka moslashtirish uchun ishlatiladi. 80A.

Gradatsiyalangan filtr

Tabiat sharoitida ko'pincha shunday sahnalar suratga olinadiki, kadrning tepa qismida aks etgan osmon yerga qaraganda yorug'roq ko'rinadi. Ekspozitsiya miqdori kadr maydonining barcha nuqtalarida bir hilda taqsimlanishi uchun gradatsiyali filtrlar ishlatiladi. Bunday filtrning tepa qismi rangli yoki neytral-kulrang bo'ladi. Bu filtr kadrning tepa qismidagi nurni yutadi hamda pastki qismi bilan tenglashtiradi. Bu filtrning eng ko'p tarqalgan turi neytral-kulrang hisoblanadi.

Bu filtrlarning ranglar o'tish joyi 3 xil turda bo'ladi: keskin, sekin-asta o'tuvchi va aniq chegarasiz. Keskin turdagi filtrlar asosan gorizont tekis bo'lgan joylarda, ya'ni dengiz va ummonlarda statik holatda suratga olinadigan joylarda foydalaniladi. Sekin-asta o'tuvchi turdagi filtrlar esa ranglar sekin-asta yorishadigan joylarda foydalaniladi. Aniq chegarasiz turdagilari esa effektini yashirish qiyin bo'lgan joylarda foydalaniladi.

Iliqlashtiruvchi filtr kunning yorug' paytida kechki payt atmosferasini yaratishga imkon beradi.

Yulduzli filtrlar

Yulduzli filtrlarning ustidagi to'rlar soniga qarab to'rt, besh, olti va undan ko'p qirrali yulduzli effekt hosil qilish mumkin. Yulduzchalar effektining o'lchamlari diafragma ko'rsatkichlariga qarab kuchayadi yoki pasayishi mumkin.

Filtr obyektivga tushayotgan nurlarni har xil yo'nalishlarda sindirish orqali turli ranglardan iborat yulduzlar shakllarini paydo qiladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, bu filtdan foydalanilganda u olinayotgan kadrning tiniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4.11. Makrofotografiya. Makrosemka uchun obyektivlar, obyektiv testi

Makrosyomka — juda qiziqarli janr. U deyarli har doim oddiy obyektarga yangicha qarashga imkon beradi. Agar siz syomka obyektini eng mayda tafsilotlarda o'rganib chiqmoqchi bo'lsangiz, butun bir dunyo ko'z oldizga keladi. Uni fotokamera yordamida "kuchaytirib" esa yangi yorqin dunyoni uning butun chiroyi va go'zaligida aks ettirishingiz mumkin.

Makroob'ektiv ularni boshqacha interpretatsiya qilishga imkon beradi, shu bilan birga siz yorug'lik o'yini va obyekt holati bilan tajriba qilishingiz mumkin. Sizga odatda, obyektning ko'z ilg'amaydigan aspektlari namoyon bo'ladi.

Makros'yomkaning ajoyib xususiyatlardan biri bu sinchkovlik bilan rejalashtirish va qimmatbaho asbob-uskunalar talab etmasligidir. Buning uchun tabiiy yorug'lik yetarli bo'ladi. Ushbu janr hammaga ochiq. O'z bog'ingiz yoki uyingizda aylaning, makrosnikalarda yaxshi aks ettirilishi mumkin bo'lgan ko'pgina obyektlarni topasiz. Asosiysi – obyekt potensialini ko'ra bilish. Agar siz o'z ko'zingizni ko'rimsiz predmetda ham zo'r fotografiya qo'ra olishni mashq qilsangiz, muvaffaqiyatga yaqinlashdingiz.

Keyingi qadam – amaliy tatbiq etish. Ushbu bosqichda dastlabki g‘oyani real tasvirga aylantirib, rasmdan estetik taassurotni yaxshilaydigan elementlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘zni doim mashq qilish, yaxshi makrorasm yaxshi chiqmagandan nimasi bilan farqlanishni tushinishni o‘rganib olish zarur.

Makrosyomka bilan qiziqadigan fotograf doimo yangi ilhom baxsh etuvchi syujetlar izlanishida bo‘lishi kerak.

Yorug‘lik mikrofotoografiyada tasvirga olinayotgan obyekt yuzasining konturli shakl va fakturasini aniqlab beruvchi muhim tasviriy vositadir. Har bir vaziyatda kadr ifodaligi bog‘liq bo‘ladigan eng qulay yoritish turini topsh kerak.

Makrosyomka tabiiy va sun‘iy yorug‘likda amalga oshirilishi mumkin. Syomkalar uchun tabiiy yorug‘likning yagona manbai quyosh hisoblanadi. Quyoshning syomka obyektida katta yoritish maydonin hosil qilish, uning yuqori aktivligiga, ya‘ni fotografik materiallarga ta‘sir, quyosh yorug‘ligining qo‘llanishi ayrim hollarda qiyinchilikka duch keladi.

Keskinlik chuqurligi – makrofotografiyada eng ifodali texnik usul bo‘lib, hatto eng oddiy obyekttni ham o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bundan tashqari, bu obyektningizga qandaydir bir aniqlik berish, konkret detalga e‘tibor jal qilish va noan‘anaviy timsol yaratish yaxshi usulidir.

Makrosyomka uchun asbob-uskunalar

Makrofotografiya fotokameralar egalarining diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qilishning ikki sababi mavjud. Syomka vaqtida makro ijodiy jarayoni ko‘p jihatdan fotograf texnik ko‘nikmalari va texnika darajasiga bog‘liq. Ushbu vaziyatda rassom bo‘lib tabiatning o‘zi xizmat qiladi. Ikkinchi sababi – bu reklama kataloglari uchun predmetlarni s‘yomka qilish haqida gap ketganda natijalar muntazam ravishda daromad kelitirishi. Makro ikki ko‘rinish ham texnik nuqtai nazardan fotosan‘atning asbob-uskunalariga jiddiy sarf-harajatlarni talab etuvchi murakkab yo‘nalishidir.

Kamerani tanlash

Keskinlikning kichik chuqurligi eng qulay rakurslar izlashga undaydi. Ko‘pincha obyekttni obyektivga nisbatan parallel ravishda joylashtirib “profilga” tasvirga olishadi. Agar faqat “profilga” tasvirga olinsa, rasmlar bir biriga juda o‘xshash bo‘lib qolishadi. Keskinlikning kerakli chuqurligini ta‘minlab berish imkoniyatini beruvchi muqobil yechimlar mavjud:

Sifatli psevdoko‘zguchaga syomka qilish. Kichkina matritsa evaziga GRIP ko‘zguchalarga qaraganda GRIP maydoni ancha kengroq. Bozordagi eng yaxshi mahsulot bu jihatdan – Fujifilm S9600 Pro.

Maksimal qiymatlargacha yopilgan diafragma bilan ko‘zguli kameraga syomka qilish.

Keskinlikning turli chuqurlikda qilingan bir necha rasmlarning grafik redaktorda ishlov berish.

Podvijkalar bilan kardanli kamerani ishlatish. Qiziqqanlar formati 6 x 7 sm va elektron boshqariladigan monorelsli Rollei X-Act2 (1.1-rasm.) kameraga hamda Horsemanva Sinar kardanli kameralarga e‘tibor qaratishlari lozim. Ushbu variantlar plyonkaga syomka qilish va raqamli zadniklarni o‘rnatish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.



1.1-rasm. Rollei X-ACT2 monorelsli kamerasi.

Almashtirib bo‘lmaydigan optikasi mavjud kameralar imkoniyatlarini svetofiltlar rezbasiga mahkamlanadigan makronasadkalar (Close-UP, Macro Close-UP) (1.2-rasm) kengaytirib berishadi. Fokusirovkaning minimal masofasini kamaytirib, makronasadka rasmlarni kattaroq masshtabda olish imkoniyatini beradi. Tarix ikkiob‘ektivli kameralar bayonetli mahkamlanishlar uchun Franke&Haideke kompaniyasi chiqargan Rolleinar nasadkalariga borib taqaladi. Hozirgi vaqtda yapon ishlab chiqaruvchilar – Hoya, Kenko, Marumi makronasadkalari katta ehtiyojga ega (1.3-rasm.).



1.2-rasm. Juftli Nikon R1C1 chaqmogʻi.



1.3-rasm. Oʻtimli Kenko halqalar toʻplami.

Makronasadkaning eng oddiy va keng tarqalgan varianti – rezbali gardishga joylashtirilgan plyusli dioptriylar bilan qavariq-botiq yakkalik linza (1.4-rasm.). Bunday oddiy konstruktsiya tasvir sifatining yomonlashishga olib keladi, shunga qaramasdan amaliyotda bunday linzalar bilan yaxshi natijalarga erishish mumkin..



1.4-rasm. Olympus MCON-40 makronasadkasi.

So'ngi paytlarda yuqoriroq xarakteristikalariga ega ikki linzali nasadkalar ommaviylashib ketdi. Mashhur vsedoko'zguchalar uchun ularning mualliflari bunday "makroobyektivlarni" taklif qilishmoqda (masalan, VCL-M3367 makroob'ektivni Sony R1 uchun). Bunday aksessuarlar narxi kameraning narxiga yaqinlashib qoladi, olingan to'plam esa maxsus ob'ektiv bilanko'zguli fotoapparatga baribir yutkazadi.

Obyektivni tanlash

Makro uchun obyektiv olingan tasvirning yuqori keskinlik va kontrastligini ta'minlab beradi. Makroobyektivning asosiy xususiyati – bu obyektning real o'lchovi va plyonkaga yoki matritsaga proeksiya qilinadigan uning tasviri o'rtasida mutanosibligini ko'rsatuvchi syomka masshtabi (obyektiv kattarishi). Uzunligi 10 mm bo'lgan obyektning syomkasida 1:1 masshtab matritsa yoki plyonkada uzunligi 10 mm, masshtab 2:1 — 20 mm, 1:2 — 5 mm bo'lgan tasvirlar olishga imkon beradi.

Makroobyektivlar ko'pchiligi 1:1 masshtabda fokusirovka minimal masofasida (FMM) syomka qilishi mumkin. FMM syomka obyektigacha keskin tasvirni olish mumkin bo'lgan eng kichik masofani ko'rsatadi. Odatda, fokusirovka minimal masofasi fokusli masofaga bog'liq: qanchalik u katta bo'lsa, shunchalik FMM ko'proq bo'ladi.

FMM fokuslangan tasvir (matritsa, plyonka) yuzasidan hisoblanadi, kompakt kameralar kabi oldingi linzadan emas. Shuning uchun oldingi linzadan obyektgacha masofa doim obyektiv ko'rsatilgan xususiyatlaridagi FMM dan kamroq bo'ladi. Misol uchun, FMM 50 sm bo'lgan Micro-Nikkor 200 mm f/4 (ris.1.5.) ob'ektiv ob'ektni oldingi linzadan 26 sm masofadan oishi mumkin.



1.5-rasm. 200 mm f:4D ED-IF AF Micro-Nikkor obyektiv.



1.6-rasm. 105 mm f:2.8G AF-S VR Micro-Nikkor obyektiv.




1.7-rasm. Canon EF 180 mm f:3.5 L Macro USM obyektiv.

Mayda hasharotlarni syomka qilish uchun eng optimal bo‘lib yarim metr masofada normal masshtab olish mumkin fokusli masofasi 150-200 mm bo‘lgan obyektiv hisoblanadi (1.6, 1.7 rasmlar). 50–100 mm obyektivlarni syomka obyektiga yaqinroq olib kelishga to‘g‘ri keladi, ammo statik syujetlarni fotografiya qilishga ushbu variant qulayroqdir (1.8-rasm).

Makros‘yomka uchun har qanday maxsus obyektiv to‘g‘ri keladi. Oddiy optikaning asosiy xususiyatlari – fokusli masofa va yorug‘lik kuchi makroda unchalik muhim emas. Obyektgacha masofani kerakli masshtabga erishilib qisqartirish yoki uzaytirish mumkin. Shu bilan birga, fokusli masofa maydonni berish xarakteriga ta‘sir qiladi: qanchalik u katta bo‘lsa, tasvir shunchalik “yassi” bo‘ladi. Bunday xususiyat predmetlarni studiyada syomka qilishda plyus hisoblanadi. Katta fokusli masofa yorug‘likning yuqori kuchi keskinlik chuqurligini kamaytirishga, fokusda esa obyektning biror-bir fragmentini qoldirishga imkon beradi. Yorug‘lik kuchi bilan birga ko‘pincha minimal diafgrama ko‘rsatiladi, chunki

ko'pgina sahnalar uchun jiddiy parametr bo'lib keskinlik chuqurligi hisoblanadi.



1.8-rasm. Obyektiv Canon EF 100 mm f:2.8 Macro USM ob'ektiv.

Tasvirning “badiiy” xususiyatlariga birinchi navbatda optik sxema ta'sir ko'rsatadi. Har qanday diafragmalardagi ba'zi obyektivlar yuqori detalizatsiyaga ega qattiq tasvirni chizib berishadi (ultra orasida eng sifatli va ommaboplaridan biri – Tamron 90 mm f/2.8). Portretlarni semka qilishi uchun odatda, kuchli yorug'li makroteleviklardan foydalanishadi. “Portret” makrooptikaning ajoyib namunalari bo'lib Olympus 50 mm f/2 va Sigma 150 mm f/2.8 hisoblanishadi (1.9, 1.10 rasmlar). Ushbu ochiq diafragmali obyektivlar ancha yengilroq ishlatiladi.




1.9-rasm. Olympus Zuiko Digital ED 50mm f:2.0 Macro obyektiv.



1.10-rasm. Tokina ATX PRO D AF 100 mm f:2.8 Macro.

Makrosemka uchun obyektivlar, obyektiv testi

Ushbu chegarani tekshirish juda oson. 2-chi lineykalarni biri ustiga ikkinchisini yassi yuzaga koʻndalang qoʻyish kerak (1.11-rasm). Kamera Prejimini qoʻyib avtofokusni oʻchirish zarur. Vidoiskatelga qarab, lineyklar kesishish joyining markazini vidoiskatel markazi bilan birlashtirish. Lineykalarga nisbatan kameraning maksimal mumkin boʻlgan parallelizatsiya saqlab, uni tepaga-pastga koʻchirish. Maqsad – vidoiskatelda lineyklar maksimal keskinligiga erishish. Keskinlikka erishilganda kameraning ishga tushirish tugmasiga bosib. Sizda mavjud obyektiv tasvirga tushirish mumkin boʻlgan minimal maydonini hisoblashiz mumkin. Test tufayli qiziqtirayotgan obyekt maydoni sizdagi obyektiv aks ettirish mumkin boʻlgan maydondan qanchalik kichikligini koʻrishingiz mumkin.



1.11-rasm. Yetarlilik chegarasini 2 lieynkalarni biri ustiga ikkinchisini yassi yuzaga koʻndalang qoʻyish orqali tekshirish.

Ushbu muammoni yechish uchun foto bozorda Macro belgisi mavjud obyektivlar mavjud. Faqatgina diqqat bilan texnik xususiyatlarda ishlab chiqaruvchi ob'ektivga Macro belgisini qo'yib nimani nazarda tutganligi ko'rish kerak. Agar obyektiv obyektini 1:1 masshtabda aks ettirish mumkin bo'lsa, u to'g'ri kelishi mumkin (1.12-rasm).



1.12-rasm. Makrosyomka uchun obyektivlar.

Katta fokusli masofa bilan makroobyektivlar. Canon EF 100mm f/2.8L Macro IS USM

Canon mahsulotlar qatorida juda yaxshi EF 100mm f/2.8L Macro IS USM obyektivi bor. U yaxshi keskinlik ko'rsatkichlariga ega bo'lib, 1:1 masshtabda 10 sm masofada tasvirga tushirish imkonini beradi. Bu degani butun obyekt yoki uning bir qismi kamrangiz raqamli matritsasida natural ko'rinishda sig'ishi mumkin. Obyektiv fokusli masofasi 100 mm bo'lib, obyektini nisbatan katta masofadan tasvirga olish imkonini beradi. Sizi oldingi linza bilan hasharotni bosib unga tushayotgan yorug'likni to'sib qolmaysiz. Istisno faqatgina "kontrovik"da syomka bo'lishi mumkin. Yuqoridagidan xulosa qilish mumkinki, katta fokusli masofa bilan obyektiv hasharotlarni makrosyomkalar uchun ideal ravishda to'g'ri keladi. Ammo shu bilan birga ob'ektivning fokus masofasi bevosita keskinlik chuqurligi bilan bog'liq. Fotografiyada ushbu o'lchov bir necha millimetrdan yuzlabmetrgacha O'zgarib turadi. Optika qonunlar bo'yicha keskinlik chuqurligi obyektiv fokus masofasiga qaytadan proporsional. Makrofotografiyada obyektiv keskinlik chuqurligimiminal va bir necha mm O'zgarib turadi. Syomka uchun ishlatilayotgan obyektiv qanchalik uzun fokusli, shunchalik keskin mm kam sonini tasvirda ko'ramiz. Fotografiyada har qanday texnik yechim bu dilemmaning yechimi. Siz biror bir parametrdada yutasiz, lekin boshqalarda yutqizasiz.

Canon MP-E 65mm f/2.8 1-5x Macro Photo ob'ektiv

Masalan Canon kompaniyasi makrofotografiya flagmani mavjud MP-E 65mm f/2.8 1-5x Macro Photo. Oshirish masshtabi 1:1 dan old oynadan 110 mm masofada o'zgarib turadi. Bu degani obyektini hayotdagidan 5 baravar yirikroq qilib fotografiya qilsa bo'ladi. Agar Canon 100/2,8 Macro obyektiv bilan ninachini tasvirga olish mumkin bo'lsa, u holda Macro MP-E65/2,8 obyektivi bilan siz ninachining ko'zlari yoki pashshaning qanotini tasvirga olish mumkin. Hammasi makrofotografiyaga qanchalik kirishib ketishingizga bog'liq. Nihoyat, yechim topilganga o'xshaydi. Makrofotografiya bilan bog'liq barcha masalalarni bajara oladigan yaxshi obyektiv. Bajaradi, ammo faqat MAKRO vazifalarni. Uni harid qilishdan oldin 100/2,8 Macro obyektivga oid, uni an'anaviy fotosyomka uchun ham ishlatish mumkin. U avtofokusga ega bo'lib, portretlari yaxshi tasvirga oladi. Macro MP-E65/2,8 obyektivi faqatgina makrofotografiya uchun ishlab chiqilgan. Olinadigan obyekt maksimal o'lchovi, uni butunligicha olmoqchi bo'lsangiz, 22,8 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Obyektivda avtofokus mavjud emas. Unda hatto keskinlikni moslashtirish odatiy halqasi yo'q.

SIGMA AF 150mm F2.8 EX DG HSM APO MACRO obyektivi

Hasharotlarni olmoqchi bo'lsangiz uzun fokusli Macro obyektivlar nazar solish kerak. 150 mm fokus masofa yetarli bo'ladi. Hozirgi vaqtda Canon mavjud obektivlardan SIGMA AF 150/2.8 EX DG APO MACRO HSM yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. U olding linzadan 380 mm masofadan 1:1 masshtabda obyektini tasvirga olishga imkon beradi. Bu tirik tabiatni semkaga tayyorgarlik ishlari bilan qo'rqitmasdan tasvirga uchun qulay uzoq masofa hisoblanadi. Canon EF 100mm f/2.8L Macro IS USM obyektivga nisbatan keskinlik chuqurligining yo'qolishi deyarli ko'zga ko'rinmaydi, chunki uning oldingi linzadan obyektigacha minimal ishchi masofasi 3,8 baravar katta. Bu SIGMA AF 150/2.8 obyektivi syomka vaqtida Canon EF 100mm f/2.8L obyektivga nisbatan 3,8 baravar uzoqlikda joylashishi, ammo huddi shu kattartirishni berishi mumkin. Keskinlikchuqurligi oldingi linzadan syomka obyektigacha masofaga teskari proporsional. Masofa qanchalik katta bo'lsa, shunchalik keskinlik chuqurligi katta. Masofa qisqarishi mos ravishda keskinlik chuqurligini kamaytiradi.

Obyekt qanchalik katta qilib tasvirga olinsa, matritsaga shunchalik yorug'lik kamroq tushadi. Yorug'lik bilan parallel ravishda keskinlik chuqurligi kamayadi. Keskinlik chuqurligini diafragma yopib kattaroq

qilish mumkin, ammo makrofotografiyada diafragma yopilishi keskinlikning katta O'zgarishi olib kelmay, lekin matritsaga yetib keluvchi yorug'lik oqimi ancha kamaytiradi. Obyektiv diafragmasining bir qiymatga yopilishi undan o'tadigan yorug'likning 4 baravar kamayshiga olib keladi. Bundan tashqari, diafragma qattiq yopilishi difraksiya hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu hodisa yorug'likning shaffof yoki shaffof bo'lmagan jismlar keskin chekalari yonidan o'tganda kuzatiladi, bizning misolimizda diafragma ishchi tuynugidan o'tganda. Yorug'lik nurlarining to'liqsimon tabiati tufayli bu nurlarning geometrik optika qonunlaridan chetga chiqish bilan kuzatiladi. Diafragma yopilishi difraksiya katta effektini keltirib chiqaradi va yakunda chiqishda tasvirning keskinligini kamaytiradi. Keskinlikning ko'rinadigan chuqurligini kattartirish yagona voistasi bu kameraning obyektga nisbatan kameraning to'g'ri joylashtirishi. Yorug'lik oqimi kamayishini ushlab turishni ko'paytirish evaziga qoplash mumkin, ammo uzoq ushlab turish syomka jarayonida ob'ektning smazka qilishga olib keladi.

Makrosyomka uchun qo'shimcha asbob-uskunalar

Kamerani maskimal past pozitsiyalarda mustahkamlashga imkon beruvchi shtativga o'rnatish lozim. Tushirish trosi ishlatish maqsadga muvofiq. Har qanday syomkalarda ushbu aksessuarlarni qo'llash ekspozitsiya jarayonida kamera joyini o'zgartirish mustasno qiladi. Faqat endi hasharotlar "ushlab turish" tugashigacha kutib turarmikan?

Shtativ va troschadan tashqari fokusirovka qiladigan relslar yordam berishi mumkin. Ular keskinlikni yaqin masofalarda moslashtirganda yordam berishi mumkin. Agar hech bo'lmaganda oldinga-orqaga va chapga-o'nga ko'chirishga imkon beradigan 2-pozitsion relsni kamerani topish iloji bo'lsa, syomka jarayoni ancha osonlashadi. Ammo ushbu relslarga shtativ boshchasiga nisbatan ularni harakatga kelitirish o'lchamlarini sozlash imkonini beruvchi chuvalchangsimon uzatish o'rnatilganda, ishiz muvaffaqiyatli chiqadi.

Burchakli vidoiskatelni harid qilish, kompozitsiya tuzganda va keskinlikni sozlaganda yerga yotishdan xolos etadi.

Viderjkaning oshib ketishi bilan kurashish usuli

1-usul. Matritsa sezgirligining ISO qiymatining katta tomonga O'zgarishi yo'li orqali oshishi. Ijobiy omillar: umuman sarf-xarajatsiz usul. Faqatgina ISO kichik qiymatini kattaroqqa almashtirish kerak va syomkani davom ettirish mumkin. Salbiy omillar: sezgirlik oshgani bilan

shovqinlar soni keskin oshib ketadi. Kichik obyektlar fiksatsiyasida konturli keskinlik pasayadi va donalar kattarib ketadi.

2-usul. Makro chaqmoqlar xaridi. Ijbiy omillar: yoritish hajmini nazorat qilish mumkin. ISO qiymatini kattartirish kerak emas. Olinadigan tasvir minimal shovqinga, maksimal keskinlikka va mayda donalarga ega. Salbiy omillar: choʻntagingiz yengilroq boʻladi, foto asbob-uskunalar bilan ryukzagingiz esa ogʻirroq. Halqa makrochaqmoq sarfxarajatlar jihatdan tejamroq, ammo u obyektни faqat bir tekis, yassi, soyasiz yorugʻlik bilan yoritadi. Juft makro chaqmoqlar. Obyektiv oldida mahkamlanadi. Ulardan tushadigan yorugʻlik halqa chaqmoqdan tushadigan yorugʻlikdan hajmliroq, ammo ular qimmatroq va ular bilan ishlashni oʻrganish kerak. Juft yoritgichlar bilan Canon MT-24EX makrochaqmoq ancha qimmat, ammo kamerangiz TTL oʻlchagichi bilan foydalanishga, tarqalayotgan energiya toʻgʻri taqsimlashga imkon beradi. Bu chaqmoq kamera bilan teskari aloqaga ega boʻlganda mumkin boʻladi.


Tasvir masshtabi. Makrosyomkaning asosiy ajratib turuvchi xususiyat olinadigan tasvir masshtabi hisoblanadi. Uzoqda joylashgan obyekt fotografiya qilinsa, uning tasviri oʻlchamlari asl oʻlchamlaridan oʻnlab hatto yuz marotaba kichik. Makrofotogarfiyaga 1:5 dan 20:1 gacha masshtabdagi tavsirlar kiradi, ammo aniq chegaralar bu yerda yoʻq. Fizikaning maktab oʻquv kursi boʻyicha linzaning asosiy formulasini eslab, katta masshtablar olish uchun obyektga yaqinlashish kerak, plenkada keskinlikni saqlash uchun uni obyektivdan uzoqroq quyish zarurligiga ishonch hosil qilamiz.

1:10 – 1:4 mayda masshtabdagi fotosyomka oson oʻzlashtiriladi. Koʻpgina zamonaviy obyektivlar qoʻshimcha moslamalarsiz ushbu masshtablarda fotografiya qilishga imkon beradi. 1:4 – 1:2 masshtablarda fotosyomka uzunlashtirilgan xalqalar yoki nasadka qilingan linzalar kabi qoʻshimcha moslamalar qoʻllanishini talab etadi. Nisbatan arzonligida ushbu moslamalar ftohavaskor uchun yetarli boʻlgan sifatni olishga imkon beradi. Masshtabning keyingi kattalashishi bir qator qiyinchiliklar bilan bogʻliq.

Vidoiskatel yoki plyonkada tasvirga olinayotgan obyektни kattalashishiga ikki usul orqali erishish mumkin. Birinchi – kamerani syomka obyektiga yaqinlashtirish. Misol uchun, kengaytiruvchi xalqalar va moʻynalar fokusirovka minimal masofasini kamaytiradi, obyektivning oldingi elementi olinayotgan obyektga ancha yaqin boʻlib qoladi.

Ikkinchi usul – obyektiv optikasini tasvirga olinayotgan obyektни kadrda kattaroq va yaqinroq koʻrsatish uchun kattalashtirish. Telefoto-

obyektivlar katta yaqinlashtirishni ta'minlaydi, shu vaqtning o'zida syomka obyektini uzoq masofada bo'lishi mumkin. Agar ekstenderni (yoki telekonverter) qo'shsak, unda obyektiv fokusirovkasini minimal masofani o'zgartimasdan tasvirni kattalashtirish mumkin. Ideal makroobyektiv ushbu barcha omillar orasida kompromiss bo'ladi – u sezilarli kattalashishni ta'minlab beradi, shu vaqtning o'zida obyektiv va syomka obyektini o'rtasida katta masofani saqlaydi (1.13-rasm).



1.13-rasm. Obyektivni syomka obyektidan joylashish sxemasi.

Fokusiroykani minimal masofasi – bu plyonka yuzasidan syomka obyektigacha bo'lgan masofa. Bu ishchi masofa – obyektiv oxiridan syomka obyektigacha bir xil narsa emas. Agar ishchi masofa kam bo'lsa, tasvirga olinayotgan obyektning normal yoritishni ta'minlash juda qiyin – obyektivning oldingi elementi syomka obyektiga shunday yaqin joylashganki, uni faqatgina yonidan yoritish mumkin. Bunday usul bilan syomka obyektining teksturasiga urg'u berish mumkin, ammo shu bilan birga ayrim muhim detallarni yo'qotish mumkin.

Ammo zamonaviy raqamli kameralar ko'pchiligi almashtirilmaydigan optikaga ega, shuning uchun biz uzunlashtirilgan xalqalar, tele- va makroobyektivlar kabi moslamalardan foydalanishimiz mumkin emas. Nasadkali linzalar va boshqa shtatli obyektiv ishlatiladigan optik sxemalarni qo'llash qoladi.

Dioptriylil nasadkalar –bu obyektivga huddi oddiy filtrga o'xshab o'rnatiladigan linzalar bloklari. Ular tasvirga olinayotgan obyektigacha minimal masofani qisqartirishga imkon beradi. Nasadkali linzalar obyektivning real yorug'lik kuchini kamaytirmaydi, ammo (ayniqsa yiriq kattalashtirishlarda) sifatni yomonlashtiradi. Nasadkali linzalar yordamida olinishi mumkin bo'lgan kattalashish chegaralangan, ayniqsa, sifatli tasvir olish xohish bo'lsa. Ushbu vaziyatda kattalashish obyektiv fokusli masofa metrlarda nasadkali linzaning optik kuchiga (dioptriylarda) teng. Misol uchun, 100 mm obyektiv uchun uni 2x masshtabni olish uchun 20

dioptriylı linza kerak bo‘ladi (bizga bunday sifatli ko‘p elementli nasadkali linzalar ma‘lum emas).

1:1 masshtabda syomka olish yana bir usuli mavjud. Obyektiv oldingi linza bilan “o‘girib” qo‘yish kerak, plenkaga odatda, yo‘latirilgan linzani obyektga yo‘naltirish kerak. Bunday yondashuv 1:1 – 1:4 masshtabda sifatli tasvirlar olishga imkon beradi. Agar uzun fokusli obyektivga nasadkali linzaning o‘rniga boshqa ob‘ektivni qo‘yilsa, u holda, syomka masshtabi obyektivlarning fokusli masofalar nisbatiga teng bo‘ladi. Bu vaziyatda sifat pasaymaydi.

Kamerağa normaldan ko‘p fokusli masofali obyektivni (uni asosiy obyektiv deb ataymiz) o‘rnatamiz. Fokusli masofasi kamroq bo‘lgan obyektivni (uni qo‘shimcha deb ataymiz) olamiz. Qo‘shimchani shunday “ag‘daramizki”, ikki obyektivlar linzalari bir biriga qarab turishi kerak, uning diafragmasini butunlay ochamiz va uni shu hoaltda mustahkamlab qo‘yamiz. Shu bilan yuqori optik kuchga ega sifatli “nasadkali linzani” oldik. Eslatib o‘tamiz qo‘shimcha obyektivning optik kuchi fokusli masofaga bo‘lingan 1000 mm ga teng. Boshqacha qilib aytganda 50 mm fokusli masofaga teng obyektivning optik fokusi +20 dioptriylarga to‘g‘ri keladi!

Tarkibiy obyektivning oldingi linzalarini bir biriga yaqin qilib joylashtirish lozim, bu optik tizim yorug‘lik kuchini asosiy obyektiv gardishida yorug‘lik yo‘qotishni kamaytirish evaziga oshishini unutmash kerak. Shu bilan birga, asosiy obyektiv uzun fokuli bo‘lishi, ag‘darilganda esa – keng burchakli bo‘lishi zarur.

Gelios 44 da “ag‘darilgan” obyektiv Nikon 5000 yaxshi ishlaydi. Masshtab kattalashishi deyarli ikki barobar. Zamonaviy raqamli kamerlar haqida gap ketganda shuni ta‘kidlash lozimki, ularning ko‘pchiligiga savdoda tele- hamda keng burchakli nasadkalar bor. Faqatgina bir muammo qoladi – kerakli rezbali o‘tish halqalarni yasash kerak va tanlangan obyektivlarni optik tizimga birlashtirish lozim.

Nasadkali linzalar haqidagi mulohazalar yakunida shuni aytib o‘ish kerakki, agar ular mazkur obyektivga moslashtirilmagan bo‘lsa, ular tasvir sifatini sezilarli darjada pasaytirib yuboradi, qanchalik ularning optik kuchi kuchli bo‘lsa, shunchalik pasaytiradi. Shuning uchun zavod linzalari nisbatan kuchsiz (+2 dioptriygacha).

Plenkaga tasvirga olinayotgan vaqtda tasvir masshtabini qanday qilib hisoblash tushunarli, negativda o‘lchovlar bor, asl o‘lchovlar ham mavjud, faqatgina proporsiya tuzish qoldi. Ammo raqamli kameralarda bu narsalar tushurasiz bo‘lib qoladi. Negativda tasvir o‘lchami yo‘q, chunki

negativning o'zi yo'q, matritsaning metrik o'lchamlarini santimetrlarda qayta hisoblash ma'no yo'q. Bundan tashqari har xil kameralarda matritsa har xil – biri, misol uchun, so'ngi Canonda bu 11 megapiksel, boshqasida zo'rg'a 2 megapiksel. Shunday qilib, deyarli bir xil optikadan foydalangan holda (misol uchun Canon powershot A60 va Canon powershot A70) bir masofada tasvirga olingan obyekt tasir masshtabi turlicha bo'ladi. Shundan bir fikr kelib chiqadi - makrosyomkada asosiy parametr bu barcha reklama prospektlarda ko'rsatiladigan obyektivdan obyektgacha masofa emas, balki kadr minimal o'lchovi va matritsa o'lchamining mutanosibli, ya'ni 1 kvadrat santimetrga necha piksel tushadi. Afsus, ushbu parametr hech joyda ko'rsatilmaydi.

Qo'lda fokus va fotoapparat sozlanmalari. Syomkani diafragma ustuvorligi rejimida olib borish tavsiya qilinadi. Agar siz diafragma qiymatini $f/5.6$ va undan kam atrofida tanlasangiz, u holda orqa fonni chiroyli qilib yuvib tashlab, gulning qiziqarli detallarini keskin qoldirsangiz mumkin bo'ladi. Ortiqcha shovqinlardan qutulish uchun ISO past qiymatlarida fotografiya qiling. Qo'lda fokusirovka qilish rejimiga o'ting. Gul markazida fokusirovka qilishingiz mumkin, ammo faqatgina u bilan chegaralanib qolmasligingiz kerak. Boshqa qiziqroq fokusirovka holatlarni izlang. Ba'zan optimal kompozitsiya va konkret detallar keskinligiga erishish uchun fotoapparatni emas, syomka ob'ektini – gulni ko'chirish qulayroq. Makros'yomkada kerakli natija olish uchun fokus hoaltini yuqori aniqlik bilan sozlash zarur bo'ladi. Qo'lda fokusirovka qilish tajriba oshgan sayin ko'nikmasi takomillashib boradi, tajribalar qilishga, fokusirovka halqasini erkin aylantirishga qo'rqmang.

Ekspozitsiya korreksiyasi. Ba'zan yirik planda o'simliklarni s'yomka qilishda ranglar ancha nursiz bo'lib qoladi. Gullarning ajoyib ranglari kadrda yorqin bo'lishi uchun to'g'ri ekspozitsiya kerak bo'ladi. Aynan ekspozitsiya aniqlashida hatolar yoki noaniqliklar fotografiyadagi ranglar xira bo'lishiga sabab bo'ladi. Ekspokorreksiya funksiyasini ekspozitsiya biroz yorug'roq bo'lish uchun ishlatning. Xususan, pushti yoki sariq ranglar syomkalarda ular ko'pincha asldagiga qaraganda to'qroq bo'ladi. Ekspozitsiyani plusga 0,5 yoki 1 EV optimal ranglar aks ettirish uchun korreksiya qilish. Oq rangli gul barglari bilan esa ekspozitsiyani plusga 1-1,5 EV oshirishga to'g'ri keladi.

Ba'zi hollarda, masalan orqa fon soyada qolgan paytda to'yingan qizil, moviy yoki boshqa ranglardagi gullarni tasvirga olingan vaqtda ekspozitsiyaning manfiy kompenasatsiya kerak bo'ladi. Har qanday vaziyatda olingan natijani baholashga va eng qulay variantlarni tanlash

uchun ekspozitsiyaga o'zgartirishlarni asta-sekin kiritishni tavsiya qilamiz. Ekspokorreksiya tasvir keskinligini oshirishga, kadrning o'qib olish va qabul qilishni yaxshilaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki fotografda ekspozitsiya bilan asosiy qiyinchiliklar sariq yoki qizil ranglardagi gullar bilan paydo bo'ladi. Ba'zan ushbu ranglar "xiralashib ketadi" yoki aksincha juda keskin bo'lib qolishadi. Shuning uchun ekspozitsiyaga tuzatishlar kiritishga juda e'tiborli bo'lishi kerak. Aytgancha, ranglarni aks ettirish bilan muammolar bo'lmasligi uchun, ba'zi o'simliklarni oq-qora variantlarda tasvirga tushirish mumkin. Ba'zan monoxromli fotoda gullar juda qiziqarli shaklda bo'lib qoladi.

Makrofotografiyada syujet va dinamika. Makrosyomkada badiiy syujet, dinamik va "takrorlanmas lahza" oddiy syomkadagidek amalga oshirilishi mumkin.

Xulosalar: Makrosyomkada ijodiy jarayon ko'p jihatdan fotograf texnik ko'nikmalari va texnika darajasiga bog'liq bo'ladi.

Makro uchun obyektiv oladigan tasvirning keskinligi va kontrastligini ta'minlashi kerak. Makroob'ektiv asosiy xususiyati – bu real obyekt o'lchamlari va plenka yoki matritsaga proeksiya qilinadigan uning tasviri o'rtasida mutanosibligiga ko'rsatuvchi syomka mashtabi (obyektiv kattalashishi).

Keskinlik ko'rinadigan chuqurlikni kattalashtirish yagona vositasi bu syomka obyektiga nisbatan kameraning to'g'ri joylashtirilishidir. Yorug'lik oqimining kamayishini ushlab turishni ko'patirish orqali kompensatsiya qilish bilan to'g'rilasa bo'ladi, ammo uzoqushlab turish syomka vaqtida obyekt "yuvilib ketishiga" olib kelishi mumkin.

Makrosyomkalarda yoritish

Obyektni bir tekis yoritish uning hajmini yo'qotishiga olib keladi, faqatgina uning tabiiy rang ohangini aks ettiradi, bu esa ko'p hollarda anglash uchun kamlik qiladi. Yorug'lik-soya tasvirni obyektida yaratish, ranglar ohanglar va o'tishlar sonining oshishi tasvirda shakd va obyekt mayda detallar xususiyatlarini aks ettirishga imkon beradi.

Aks ettirilgan yorug'likda obyektni yoritish tasvirlovchi (yo'naltirilgan) va umumiy (ba'zan uni tekislovchi) yorug'likdan iborat. Tasvirga olinayotgan predmet hajmli shaklini yaratish vazifasi bo'lgan asosiy tasvirlovchi yorug'lik obyektivning optik o'qiga nisbatan taxminan 45° burchak ostida o'rnatiladi. Yuza fakturasini aniqlash yoki uni ajratib ko'rsatish uchun tasvirlovchi yorug'lik optik o'qqa nisbatana kattaroq

burchak ostida ($60 - 80^\circ$) o'rnatilishi mumkin. Chizuvchi yorug'lik bir tomondan yoritish, boshqa tomondan chuqur soyalar hosil qiladi. Syomkaning obyektini yoritilgan va soya tushgan qismlar orasida kontrastni kamaytirish maqsadida umumiy tekstilovchi yorug'lik ishlatiladi. Uning yaratigan yorug'lik daraja bo'yicha 2 – 2,5 barobar chizuvchi yorug'likdan pastroq bo'lishi kerak. Mutanosiblik yoki boshqacha qilib aytganda, chizuvchi va umumiy yorug'lik o'rtasida balans obyekt xarakteri va ishlatilayotgan material kontrastga bog'liq holda tanlanishi zarur. Umumiy yorug'lik yo'nalishi predmet shaklining xususiyati bilan belgilanadi, ammo amalda umumiy yorug'lik kinos'yoka kamerdan joylashtiriladi.

Obyekt va fon o'rtasida maydon effektini yaratish hamda shaklni yaxshiroq aks ettirish uchun kontrli yorug'lik ishlatiladi. Kontrli yorug'lik tasvirga olinayotgan predmet orqasidan olinib, predmet chekalarida kichkina yorug'lik konturni hosil qiladi. Kontrli yorug'lik o'rnatilganda kontrli yorug'lik manbai obyektivga tushadigan to'g'ri nurlar bermasligi lozim. Makroobekt yoritishda chizuvchi, umumiy va kontrli yorug'likni bir vaqtda ishlatib, foydalanuvchi har bir tasvirga olinadigan kadrning ifodali chiqishiga erishishi kerak. Makrosyomkalarda obyektlarni yoritishdan maqsad normal ekspozitsiya qilingan negativ olish uchun kerakli yoritish, balki maksimal ifodalik bilan tasvirga olinayotgan predmet yuzasining shakli va fakturasini ko'rsatishdan iborat. Makrosyomka obyektlarini ikki asosiy guruhlarga ajratsak bo'ladi: shaffof bo'lmagan va yarim shaffof obyektlar.

Yuzasi tushayotgan yorug'lik turli hajmini qaytaradigan shaffof bo'lmagan obyektlar, qismlar. Ushbu guruhga makrosyomkada tushiriladigan predmetlarning ko'pchiligi kiradi. Qaytarish qobiliyati syomka obyekt tabiati hamda yuza tuzilmasiga bog'liq. Yuzalarni yaltiramaydigan (diffuzli), yaltiraydigan va ko'zgulilarga ajratsak bo'ladi. Yarim shaffof obyektlardan o'tib yorug'lik obyektning optik xususiyatlariga qarab tarqaladi va fotografik materialda tasvirga olinayotgan obyekt tasvirining turli optik qalinliklar hosil qiladi. Bunday obyekt ayrim qismlari kontrastligini oshirish uchun ularni bo'yoqlar bilan syomka obyektining turli qismlarini bir tekislikda emas bo'yash. Oddiy syomkadagidek makrosyomka obyektini yoritish aks ettiruvchilar yordamida tabiiy (kunduzgi) yoki sun'iy yoritish bo'lish mumkin. Yoritish turlar bo'yicha ro'paradan, yondan sirg'anuvchigacha, orqa (yorug'likka) va kombinatsiya qilingan.

Makro syomkada yoritish usullari

Yorug'lik mikrofotoografiya va makrofotografiyaning eng muhim tasviriy vositasi bo'lib, tasvirga olinayotgan obyekt yuzasining konturli shakli fakturasini aniqlaydi. Har bir konkret vaziyatda kinokadr ifodaligi bog'liq bo'lgan eng qulay va mos yorug'lik turini topish kerak.

Makrosyomka tabiiy va sun'iy yoritishda amalga oshirishi mumkin. Syomkalar uchun tabiiy yoritishning yagona manbai quyosh bo'ladi. Syomka obyektiga quyoshning katta yoritilganlikni hosil qilishga, uning yuqori faolligiga, ya'ni fotografik materiallarga ta'siriga qaramasdan quyosh yorug'ligining qo'llanishi bir qator vaziyatlarda murakkab bo'ladi. Kun, yil vaqti, geografik holat, bulutlilikka qarab yorug'likning keskin o'zgarishi, obyektning tabiiy (quyosh) yoritishni mumkin bo'lgan hollarda sun'iy yoritishga almashtirishi yaxshi natijalar beradi. Ammo shuni esda tutish kerakki, predmetni bir manba bilan yoritishda yorug'lik va soyaga keskin ajralishi xosdir. Bir necha yorug'lik manbalarni qo'llanishi yorug'lik va soya o'rtasida kontrastga pasayishiga, soyada detallarni qayta ishlashga, ya'ni obyekt hajmi va fakturasini aks ettirishda yaxshilashga olib keladi.

Makrosyomka uchun yorug'likning asosiy manbalari

Sun'iy yoritish manbalari sifatida asosan qizitish lampalari qo'llaniladi. Kino amaliyotida oddiy maishiy qizitish lampalari, yuqori yorug'lik ajratish qizitish kinoprojektorli lampalar, yaltiramaydigan kolba bilan maxsus fotolampalar hamda avtomobil lampalarga o'xshash pastvoltli lampalar. Barcha keltirib o'tilgan lampalar turli quvvatlikda ishlab chiqariladi, shu tufayli ularni tanlash konkret bir vazifaga qarab amalga oshiriladi. Pastvoltli lampalarning qo'llanishi ularning kichkina hajmlari hamda akkumluyatordan tok olishi (bu ekspeditsiya sharoitlarida juda qulay) evaziga bir qator qulayliklarga ega.

Foydalanilayotgan qizitish lampalar xizmat ko'rsatish muddatini uzaytirish uchun ularni yorug'likni o'rnatish va syomkaga tayyorlanish vaqtiga reostatlar yoki avtotransformatorlar orqali yoqish tavsiya qilinadi. Makrosyomkada yorug'lik manbalari sifatida simobli lampalar hamda ko'p marta ishlatiladigan impulslil manbalar ishlatilishi mumkin.

Makrosyomka uchun yoritish apparaturasi

Makrosyomkada qo'llanilayotgan barcha sun'iy yorug'lik manbalari yoritish asboblarga (ularning vazifasi – yorug'lik manbaning yorug'lik oqimi iloji borchia ko'proq ishlatilishni ta'minlash) o'rnatilishi lozim. Shu

bilan birga yoritish apparaturasi sozlanishiga katta e'tibor berish lozim. Makrosyomka obyektini yetarli darajada yoritishni har qanday qo'l ostidagi yorug'lik manbalari, jumladan stol lampalari, ko'chiradigan lampalar va h.k., yordamida hosil qilish mumkin, ammo eng to'liq yoritish maxsus yoritish asboblari yordamida amalga oshiriladi.

Makrosyomka uchun to'rt turdagi yoritish asboblarni tavsiya qilinadi: 1) yo'naltirilgan yoritish asboblari; 2) tarqoq yorug'lik asboblari (soyasiz yorug'lik beradigan sofitlar; 3) halqa yoritish asboblari va 4) prosvet yoritish asboblari.

Yarim shaffof ob'ektlarni tasvirga olishda obyektiv ko'rish hududini to'ldiruvchi bir tekis yoritiladigan yuzani hosil qiluvchi yoritish asboblari ishlatiladi. Bunday asboblarga kontaktli bosma uchun nusxa ko'chirish qurilmalari yoki maxsus yasalgan yoritish stollari kiradi. Yoritish stollari ventilyatsion teshiklar bor, ichidan oq yaltiramaydigan bo'yoq bilan bo'yalgan va bir nechta yaltiramaydigan lampalar joylashtirilgan oddiy qutidan iborat. Lampalar ustidan bir yoki ikki yaltiramaydigan oynachalar, zaruriyat paydo bo'lganda – yorug'lik filtrlari o'rnatiladi. Qutining yuqori qismida tekis, butun, pufakchalarsiz va svilsiz tasvirga olinayotgan obyekt qo'yiladigan oyna o'rnatiladi. Stoldagi lampalar shunday o'rnatilishi kerakki, ularning yorug'lik oqimlari butun maydonda bir tekis yorug'lik yaratish uchun predmetli oyna yuzasida bir tekis va ravon taqsimlanishi lozim. Mayda obyektlar syomkasida shunday konstruksiyasidagi katta bo'lmagan stol yasalgan bo'lishi mumkin, ammo maydonning tekisroq bo'lishiga, eng asosiysi yuqori qismda yorug'lik darajasini yuqori bo'lishiga erishish uchun predmetli oyna o'rniga yassi-qavariq katta diametrdagi kondensorli linza o'rnatiladi.


Turli yoritish asboblari ishlab chiqariladi. Makrosyomka uchun ularning ichidan har qandaysini ishlatish mumkin. Lampa aks ettirish sferik yuzasining markazida joylashtirilganda bu manbaning yorug'lik oqimini maksimal ishlatishga imkon beradi. Bir linzali kondensor yorug'likni sindirib uni tor bog'lam qilib kerakli yo'nalishda yuboradi. Yorug'lik manbasiga nisbatan kondensorning ko'chirishi bilan yorug'lik dog'ining o'lchamlari va intensivligi o'zgarishiga erishiladi. Linzali asboblari lampani sovutish uchun to'rsimon kojux va oddiy taglik – shtativ bilan jihozlanadi. Yoritish asboblardan qizib ketishga bardosh bera olmaydigan obyektlarni syomka qilishda asboblarga issiqlik infraqizil nurlarni yutib oladigan maxsus issiqlik filtrlari o'rnatiladi. Umumiy tarqoq yorug'likni hosil qilish uchun soyasiz yorug'likni beruvchi kvadrat va halqasimon sofitlar ishlatilishi mumkin. Yupqa aluminiy korobka yoki

silindr shaklida yasalgan bo‘lib, ular ichidan oq yaltiramaydigan yoki aluminiyli bo‘yoq bilan bo‘yaladi. Sofitlar ichida yoritishni sozlash imkoniyat beruvchi individual o‘chirgichlar bilan jihozlangan bir necha pastvoltli lampalar o‘rnatiladi. Bunday turdagi yoritgichlar kameraning oldida predmetli stollarda mustahkamlanadi.

Tirik tabiat makrosyomkasida yoritish

Makrosyomka umuman olganda oddiy syomkadan farqi yo‘q, ya‘ni keskinlikni to‘g‘rilash kerak, yoritilganlikni o‘lchash, diafragmani chiqarish, ushlab turish va tasvirga olish. Makrosyomka har kungi hayotimizda keng qo‘llanib kelmqoda – bu reklama-tijorat tasvirlar, tirik tabiat fotografiyalari, ilmiy faktlarni hujjatlashtirish (bu esa ko‘plab, minglab – hatto millionlab fotografiyalar) va h.k. Sababi oddiy – tasvir masshtabi qanchalik yirik bo‘lsa, shunchalik fotograf oldida ajoyib va originla syujetlar paydo bo‘ladi (3.1-rasm).

Makrosyomka – bu rassom qo‘lidagi instrument, ko‘plardan biri, ammo haqiqiy rassom uni o‘zligini timsollarda ifodalashga qodir. Yaxshi badiiy tomoshabinlarga ta‘sir etuvchi tasvirda ma‘noli syujet bo‘lishi kerak, unga nigoh tushganda (ichida yoki sirtida) “Bu MAKRO – kechirsa bo‘ladi” deb aytishga imkon qolmasligi kerak.



3.1-rasm. Makrosyomka natijasida olingan tasvir.

Harakatlanuvchi va harakatsiz obyektlarni fotografiya qilishda katta farq bor. O‘simliklarni, ya‘ni makrosyomkning asosiy harakatlanuvchi obyektini fotografiya qilganda, birinchi va asosiy vazifa – bu syomka obyektiga (sub‘ektiga) yaqinlashish (bu fotografik emas, ko‘proq biologik vazifa) ekanligini ta‘kidlab o‘tish joiz. Qolgani fototexnika vositalar bilan bajariladi - GRIP, eksponometriya, fotografik kenglik va h.k. O‘simliklarni syomka qilishda birinchi vazifa deyarli yo‘q bo‘lib ketadi (ehtimol,

shuning uchun o'simliklar fotografiyalari hasharotlar fotografiyalaridan ancha ko'proq). Tangalar va medallarni s'yomka qilishda bunday muammo umuman yo'q.

MAKROsyomkada alohida e'tibor berish kerak bo'lgan 3 asosiy narsalar bor: keskin tasvirlanayotgan maydon chuqurligi; olingan tasvir masshtabi; yoritilganlik.

Keskin tasvirlanayotgan maydon chuqurligi (GRIP)

Yuqorida aytilgandek, makrosyomkada asosiy limit elementlardan biri bu keskin tasvirlanayotgan maydon chuqurligi (GRIP) haloqatli qisqarishidir. Ushbu parametr kamera avtomatikasi tomonidan hisobga olinmaydi, murakkab hisob-kitob bilan yoki murakkab jadvallar bilan aniqlanishi kerak, ular esa doim ham qo'l ostida bo'lmaydi.

Obyektlarni ma'lum masofada obyektlarni tasvirga olganida keskinlik chuqurligi fokusirovka nuqtasidan uchdan bir qism oldinga va uchdan ikki qism orqaga taxminan cho'ziladi. Makrofotografiyada fokusirovka nuqtasiga nisbatan keskinlik chuqurligi simmetrikoq joylashadi.

Albatta, GRIP ishlatilayotgan diafragma bog'liq, ya'ni nisbiy teshikni diaframaning kichik qiymatlarigacha katta "qisish", yorug'likning tanqisligini ham hisobga olmasdan amalga oshiri kerak. Kichkina formatli kameraga 1:1 masshtabda tasvirga olinganda GRIP $f/1,5$ diafragmada 0.2 mm, $f/11$ diafragmada 1.6 mm atrofida bo'ladi. Ya'ni, keskinlik chuqurligi deyarli yo'q! Yassi bo'lmagan obyektlarni (qo'ng'izlar, o'rgimchak, momaqaymoqlar va boshqalarni) qanaqa tushirish mumkin?

Kerarli keskinlik chuqurligi bilan obyektни tasvirga olish iloji bo'lmaganja, quyidagi usullar ishlatiladi:

Absolyut harakatsiz predmet 2 - 3marta kameradan har xil uzoqlikdagi obyekt detallariga keskinlikni moslashtirib fotografiya qilinadi. Unda diafragma va ushlab turish qiymatlari doimiy bo'lishi kerak, "avtomat" rejimi to'g'ri kelmaydi.

Fotoshopda tasvirlarni bir faylning har xil qatlamlarida jyolashtiring, ularning joylashishini to'la mos tushishgacha to'g'rilaysiz, zaruriyat paydo bo'lganda o'lchamini ham.

Chetlari yumshoq bo'lgan o'chirgich bilan yuqori qatlamda keskinsiz qismlarni o'chirasiz, shu bilan pastki qatlam keskin joylarini chiqarsaiz. Keltirilgan usulda GRIPni bir necha marta oshirish mumkin.

Bundan tashqari GRIP qisqarishi bilan bevosita bog‘liq muammo paydo bo‘ladi – bu syomka obyekt, foni (ko‘p hollarda o‘tlar) va fotograf o‘zing harakatlanishi. 1:1 masshtablarda qo‘llarning bilinmas qimirlashi “televik” yuilan tasvirdagidek ko‘rinib turadi. Bu makroftografiyada shtativlarni ishlatish zarurligining (uzoq ushlab turishlardan tashqari) yana bir sababi (3.2-rasm).



3.2-rasm. Obyekt harakatlanishi va statikligi.

Ammo agar biz harakatlanuvchi ob‘ektni fotografiya qilmoqchi bo‘lsak, shtativ bilan ishlash umuman iloji bo‘lmaydi (3.3-rasm), chunki u vaqtgacha hamma kapalagu chigirtkalar qochib ketishga ulguradi.



3.3-rasm. Shtativ.

Ammo shtativda yana bir kamchilik bor, fotoapparatni oʻrnaganimizdan soʻng, bir necha harakatlanish erkinlikning darajalari (“boshchasi” qarab) mavjud, faqatgina bizga keraklisi yoʻq. Koʻp hollarda obyektiv oʻqi boʻylab – obyektidan uzqlashtiribva yaqinlashtirib - kamerani harakatga keltira olmaymiz. U holda bizga faqatgina kamera harakatlanuvchi yoʻnaltiruvchilar yordam berishi mumkin, ammo ushbu shtativ ogʻirligi va uning oʻrnatish vaqti ancha oshib ketadi.

Fokusirovkali relslar – fokusirovka vaqtida kamerani fokusli masofani moslashtirish oʻrniga harakatlanish imkonini beradi (3.4-rasm). Belgilangan masshtab yoki nasadka sifatida agʻdarilgan obʻektivni ishlatishda bu fokusirovkaning yagona usulidir.

Muammoni hal qilish uchunharakatlanuvchi hasharotlar syomka qilishdan oldin baʼzi bilimdonlar tasvirga olishdan oldin obyektzni sovutgichda svutib, keyin uni ona muhitiga qaytarib, hasharot lanj boʻlganda fotografiya qilishni tavsiya qilishadi. Tabiatda ushbu usulni bahordagi birinchi hasharotlarni tasvirga olish uchun qishdan qolgan qor uyumlarini ishaltish mumkin. Baliqlarni tasvirga olish uchun, ularni bir-ikki daqiqaga muzday suvga joylashtirib, keyin kamera bilan shtativ ostida oʻrnatilgan sovuq suv kyuvetga koʻchirish kerak. Ikralardagi embrionlarni tasvirga olish uchun hatto Petri idishlariga maxsus sovutish tagliklarimavjud.

Hatto harakatsiz shtativda ham ishga tushirish knopkasiga bosilganda kamera biroz boʻlsayam qimirlaydi va oʻzgartirib boʻlmaydigan oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun troscha, masofadan boshqarish pulti, ular yoʻq boʻlganda – taymerdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Gullar makrosyomkasi

Gullar makrosyomka uchun ajoyib obyekt hisoblanadi. Ular harakatsiz, nihoyatda goʻzal va xilma-xil boʻlib, toʻgʻri simmetriyaga, ranglar ohanglari va teksturalar juda katta spektriga ega. Gullar syomkasini boshlaganizda shabnam tomchilari bilan qoplangan gʻunchalar, gul barglari, dastalar takrorlanmas dunyosi ochiladi. Gul gʻunchalar ochilgan yoki qirov bilan qoplangna atirgul barglar aks ettirilgan fotografiyalar insonni oʻziga maftun qiladi va zavqlantiradi. Faqatgina chiroyli ekzotik gullarni emas, balki oddiy yovvoyi oʻtlarni ham fotografiya qilib qiziq tasvirlar olishi mumkin. Koʻpgina fotograflar makrosʻyomka bilan ishlashni gullarni fotografiya qilishdan boshlashi bejiz emas (3.5-rasm). Gul oʻsimliklar makrsyomka qilishning asosiy oʻziga xosliklari nimadan

iborat va yorqin, go‘zal tasvirlarni olish uchun nimalar haqida bilish kerak?



3.5-rasm. SO800, 300 mm, F5.8, 1/500c (Momaqaymoq).

Makrofoto tasvirga olish uslublari

Obyektlarni makrosyomka qilish uchun kadrda ko‘p emas qiziq shakl va rangdagi bir yoki ikki gul topish kifoya. Shuning uchun fotografiya qilish uchun joy sifatida botanik bog‘, oddiy shahar parki yoki qishloqdagi soy bo‘yi to‘g‘ri kelishi mumkin. Aslida gullarni har qanday joyda tasvirga olish mumkin, shu qatorda o‘z uyingizdagi idishlarda o‘sadigan gullarni ham. Har qanday gullar makros‘yomka uchun qiziqarli obyekt bo‘lishi mumkin, istisno sifatida biror bir katta hajmdagi gullar, misol uchun hammaga ma‘lum kungaboqar guli ko‘rsatishimiz mumkin.

Gullarni makrosyomka qilish uchun, agar siz haqiqatdan ham sifatli va maksimal detallashtirgan kadrlarni olishni xohlasangiz, fokusli masofasi taxminan 105 mm bo‘lgan maxsus makro obyektivdan foydalanish maqsadga muvofiq. Obyektiv va kamera maksimal yaqin masofadan fokusirovkani ta‘minlashi zarur, makroning mohiyati ham shunda. Shu sababli pulni ayamasdan yaxshi makroobyektivni sotib olib, ko‘zguli fotoapparat bilan tasvirga olish yaxshiroq. Bu sizga to‘laqonli makro dunyoning ajoyib va takrorlanmas dunyosiga nigoh tashlashga imkon beradi. Tasvirni “yuvib tashlash” effektidan qutulish uchun barqaror shtativdan foydalanish zarur.


Tinch ob-havoda tasvirga olish

Gullarni dalada fotografiya qilish hotirjam, shamolsiz hammaga tushunarli sabablarga ko'ra tavsiya qilinadi. Chunki makrosyomka obyektga juda yaqin masofada amalga oshiriladi, agar u biroz bo'lsada qimirlab tursa bu fotografiyada ko'rinib turadi. Syomka uchun yaxshi, shamolsiz ob-havoni tanlash va o'ziz bilan ishonchli va qulay shartivni olish kerak.

Makrosyomkada kompozitsiya

Muhim bosqich – kadr kompozitsiyasini tuzish. Kompozitsiyaga halaqit berish mumkin bo'lgan mayda barglarni olib tashlash lozim. Kadr qanday ko'rinishda ko'rish uchun kamerada Live View rejimini sozlash kerak. U yoki bu o'simlikka turli burchaklar ostida qarab, gulni kadr markazida yoki uni biroz burchak ostida tasvirga olish haqida qaror qabul qilinadi. Fon sifatida ko'p hollarda oddiy gazon, yer yoki o'simlikning barglari bo'lishi mumkin. Fonga katta e'tibor bermasa ham bo'ladi – tasvirdan so'ng ishlov berilganda undan ortiqcha detallarniyo'qoti, rangli gammani va masshtabini moslashtirish yo'li bilan qutulish mumkin. Uy sharoitida syomkada orqa fon sifatida o'simlik orqasidan qog'oz listi yoki matodan foydalanish mumkin. Gulni faqatgina butunlay emas, alohida qismlarni iyrik planda tasvirga tushirish mumkin.

Albatta, tomoshabinga gulning ajoyib ko'rinishini namoyish qiling, o'simlik dunyosiga tegishli bo'lgan, hamma ajablantiradigan rang turlari mavjud. (3.6-rasm). Makrodunyoning o'ziga tortadigan go'zalligi shundan iborat. Go'zal, ta'sirchan surat yaratish uchun professional suratkashlar gulning o'ndan ortiq rakursini sinab ko'rishadi.



3.6- rasm. ISO100, 30 mm, F2.8, 1/140c (Gul).

Shudring tomchili gullar. Gulda suv tomchisi qatnashgan surat, juda ta'sirchan ko'rinadi. Ular tamoshabinni e'tiborini o'zlariga tortadi, yuza fakturasini va alohida detallarni ko'zga tashlanadigan qilib ko'rsatadi. Bunday suratlarni olish uchun, ko'chada yomg'ir yog'ishini yoki shudring paydo bo'lishini kutish shart emas.



3.7-rasm. ISO100, 35 mm, F2.8, 1/90c (Yomg'irdan so'ng).

Chiroyli gulni parkda izlab topish yoki uyida gul tuvagidagi o'simlikni sug'orish jarayonida uni suratga tushirish mumkin. (3.7-rasm).



3.8-rasm. ISO125, 28 mm, F5, 1/60c (Shudring tomchisi).

Mayda tomchilarni yaratish uchun maydalovchi (raspilitel) olish mumkin (3.8-rasm). Gul o'simligining professional suratkashlari, Siz raspilenie uchun ishlatmoqchi bo'lgan suvga shakar qo'shishingizni tavsiya qilishadi. Gulli o'simliklarning professional suratkashlari

ishlatmoqchi bo'lgan suvingizga shakar qo'shishni maslahat beradilar. Shakar tomchilarga barglarda yaxshiroq turish va uzoqroq vaqt davomida qurib qolmaslik imkonini beradi. O'z navbatida suratlashning kompozitsiya qurishi uchun yetarli vaqt paydo bo'ladi. Tushayotgan yirik tomchili yomg'ir effektini hosil qilish uchun maydalovchi (raspilitel) o'rniqa oddiy leykadan foydalanish mumkin. Makro obyektiv sizga suv tomchilarili o'simlikning detallashtirilgan kadrlarini olish imkonini beradi, yorqinlikning sayozligi esa fonning nurab ketishini amalga oshiradi.

Gullar turli tumanligi va ajoyib chiroyi bilan ajralib turadi. Ular hayotda ham, fototasvirlarda ham chiroyli ko'rinadi. Makro tasvirga olish bilan tanishishni gullarni suratga olishdan boshlagan ma'qul.

Siz gulningdetallarini ajratib, nurabketgan fon qilishni, fokusirovka ruchkasidan to'g'ri foydalanishni va kadr kompozitsiyasini to'g'ri qurishni o'rganasiz. Gullarni makrotasvirga olish bilan eksperimentlar o'tkazish amalda turli ko'nikmalarni chaxlab, barcha suratlashlar uchun juda foydali hisoblanadi.

Yoritish. Optimal sharoit-yorqin bo'lmagan kunduzgi nur, masalan, bulutli ob-havoda. Yorqin quyoshli kunda suratga olish tavsiya etilmaydi, chunki fototasvirdagi kontrast juda kuchli namoyon bo'ladi. Istisno sifatida issiqxonalaridagi gullarni tasvirga olish mumkin. Chunki oyna va polietilen plyonkalar kunduzgi nurni to'sib, bulut vazifasini bajaradi. Xonada suratga olish vaqtida oynadan tushayotgan tabiiy nurdan foydalangan ma'qul, vaholanki sun'iy yoritish moslamalari o'simliklarga fototasvirda notabiiy ko'rinish beradi.

Qutblangan nurda tasvirga olish.

Amaliyotda ko'pincha detallarga yaxshi ishlov berish kerak bo'lgan obyektlarni tasvirga olishga duch kelinadi. Ammo bunday yaxshi natijalarga erishishga yorug'lik shu'lasi, tushirilayotgan nurdan kelayotgan yorug'lik, metall buyumlarning yaltirashi (ayniqsa, poliurovka qilingan bo'lsa) vitrina oynalarining va kartinalarning tovlanishi va h.k. Ko'pincha naturada tasvirga olganda suv havzalari tovlanib, qor yaltirab ko'rinadi. Yoki tutun bo'lsa, tasvir aniq va yaqqol chiqishi qiyinlashadi. Yuqori sifatli suratlarni olishda bunday halaqit beruvchi hodisalarni bartaraf etishda tasvirga olish vaqtida qutublantirilgan nur filtrlaridan foydalaniladi.

Nurni qutblantirish nimadan iborat va kinoni tasvirga olishda o'ndan qanday foydalaniladi? Ma'lumki, oddiy qutblanmagan nur bog'lamida tebranish barcha yo'nalishda o'tadi. Agarda bunday nur to'plami anizotrop

va shaffof kristalga uning o'qiga parallel bo'lmay tushsa, unda u bir emas ikkita yo'nalish bo'yicha tarqaladi va kristalldan ikki bog'lam nur chiqadi. Bunday xususiyat ikkilangan nur bo'linishi deb ataladi. Bu ikki bog'lam qutblangan bo'ladi, chunki har biridagi tebranish faqat ma'lum bir tekislikda bo'ladi.

Nurning qutblanishi faqat to'sishda emas, balki izotrop jism yuzasida aks etishida ham paydo bo'ladi. Aks etgan nur tushish tekisligida qisman qutblangan bo'ladi, ma'lum burchak ostida tushsa, aks etgan nur butunlay qutblangan bo'ladi. Bunday tushish burchagi to'liq qutblanish burchagi deb ataladi. Agarda aks etish to'plami bilan to'sish nuri orasidagi burchak 90 gradusni tashkil qilsa, to'liq qutblanish hosil bo'ladi. Shunday qilib, yoritilgan predmetlarni tasvirga olishda ob'ektivga qisman qutblangan nurlar tushadi.

Obyektiv oldida qutblantirish nurli filtrini o'rnatib, biz obyektivga qutblanish tekisligi nurli filtr qutblanish tekisligiga mos keluvchi aks etgan nurning bir qismini o'tkazishimiz mumkin. Nurli filtrni o'z o'qi atrofida aylantirsak, biz nurli filtr qutb tekisligini o'zgartirishimiz, qutblangan nurlar miqdorini qo'paytirib yoki kamaytirishimiz mumkin.

Qutblangan yorug'likda tasvirga olish uchun yorug'lik filtrlari

Ma'lumki, oddiy qutblanmagan nur bog'lamida tebranish barcha yo'nalishda o'tadi. Agarda bunday nur to'plami anizotrop va shaffof kristalga uning o'qiga parallel bo'lmay tushsa, unda u bir emas ikkita yo'nalish bo'yicha tarqaladi va kristalldan ikki bog'lam nur chiqadi. Bunday xususiyat ikkilangan nur bo'linishi deb ataladi. Bu ikki bog'lam qutblangan bo'ladi, chunki har biridagi tebranish faqat ma'lum bir tekislikda bo'ladi.

Bunday anizotrop va shaffof kristallar qutblantirish nurli filtrlarnidir. Ular tanlab nurni yutib yuborish xususiyatiga ega bo'lgani uchun yorug'lik filtrlari deb nomlanadi. Agarda qutblangan yorug'lik filtrlar o'tkazayotgan turli uzunlikdagi to'lqinlar egri chizig'i chizilsa, egri chiziqlarda ko'ringan nurlar diapazon oxirida bir oz bu xususiyatlar ko'rinadi. Kristal uchun tayyorlangan qutbli nurli filtrlar oz tasvir maydoniga ega bo'lgani uchun butun tasvirga olish jarayoni uchun noqulay hisoblanadi.

Bunday kamchiliklardan selluloid yoki jelatin plyonkali, tarkibida ko'p miqdorda mikrokrystallarga ega polyaroidlar qutblangan yorug'lik filtrlari holi. Yorug'lik filtrlari tayyorlanish jarayonida mikrokrystallar bir xil yo'nalishga ega bo'lgani uchun bitta kristaldek harakat qilishadi.

Polyaroidlar turli o'lchamda ishlab chiqarilishi mumkin, bu keng yorug'lik to'plamlarini o'tkazish imkonini beradi.

Amalda fotoapparatlar uchun qutbli nurli filtrlarni ishlatish mumkin. (opravasini o'zgartirish bilan). Havaskorlik apparatlarida to'ppa-to'g'ri boradigantasma tizimi bo'lmagani uchun yorug'lik filtrini yo'naltirish murakkab bo'ladi. Shuning uchun, qutblangan yorug'lik filtri orqali tasvirga olish obyektini ko'rib chiqqanda, uni sekin-asta markazi atrofida aylantiriladi va yaxshi ko'rinishga erishiladi (unda yaltirashlar yo'qoladi, soya va detallar aniq ajratib olinadi). Bunday ko'rinishda uni kinoapparat obyektiviga o'rnatishga harakat qilinadi. Bu operatsiya ko'z bilan chamalab kerakli burilish burchagini aniqlashdan iborat.

Qutblangan yorug'lik filtridan iloji bo'lmay qolgan holatlarda foydalaniladi. U ekspozitsiyani kattalashtirishni (4 – 6 barobar) talab qiladi.

Qutblangan yorug'lik filtri orqali tasvirga tushirishga halaqit beruvchi tovlanishlarni butunlay yo'q qilish uchun kinoapparatni tovlanayotgan yuzaga to'liq qutblanish burchagi ostida o'rnatish lozim.

Keng tarqalgan tovlanuvchi materiallar: oyna, yemal, kraska, polirovkalangan yog'och, muz, suv uchun to'liq qutblanish burchagi 52-58 gradus atrofida bo'ladi.

Yorug'lik yetishmasligi va uning sabablari

Tasvirga olish obyektiga yaqinlashgan sari yorug'lik pasayadi. Buni optika nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin, masalan yorug'lik tushishi plyonkadan obyektivgacha bo'lgan masofa kvadratiga proporsional. Bunday kelib chiqadiki, uzunlashtiruvchi halqalardan foydalanish yorug'lik yo'qotishga olib keladi. Nasadkalardan foydalanganda sharoit ancha yaxshilanadi, ammo tasvir sifati pasayadi, bundan tashqari har bir havo-oina bo'lim chegarasida yorug'likning bir qismi yo'qotiladi, bir qismi oynaga singib ketadi.

Tashqi eksponentlardan foydalanib makrotasvir olish, ko'p noaniqliklar bilan hisob-kitoblar olib borish, menimcha, mumkin emas. TTL tizimidan foydalanish ancha yengil – u faqat plenkaga yetib borgan yorug'likni hisobga oladi.

Eng optimal variant, albatta, raqamli kamera, unda biz nafaqat obyektiv ortidagi yorug'likni o'lchay olamiz, balki o'z ishimiz natijasini ham darhol tekshira olamiz. Bu, ayniqsa, makro tasvirga tushirishda ahamiyatli, bunda fotosurat yoritilganligi va kompozitsiyasi monitorda aniq ko'rinadi. (mayda detallarda aniqlik yomonroq)

Makrotasvirga tushirishda yoritilganlik – ijodiy masala. Tajribadan o‘tkazilgan juda ko‘p usullar bo‘lishiga qaramay (fotomikrografiya dan olingan, masalan, qorong‘i maydonda tasvirga olish) suratlashlar doimo izlanishda bo‘lishadi. Obyektivlarning o‘ziga xos xususiyatlari tanlangan yoritish natijalarini kritik rolini aniqlab beradi.

Makrosyomkada qollaniladigan vspishka

Oddiy tasvirga olishda yorug‘lik yetarlicha bo‘lmasligi masalasining keng tarqalgan yechimi lampa – vspishkalardan foydalanishdir. Biroq makrotasvir olishda vspishkaning imkoniyatlari cheklangan. Bir tomondan fotoapparatdan obyektgacha bo‘lgan qisqa masofa yangi yoritishga olib keladi. Eksponometr dan foydalanish amalda hech qanday natija bermaydi. (hatto TTL ham). Faqat fleshmetr ishlatish mumkin (ancha qimmat va noyob narsa). Boshqa tomondan, yoritilgan va qorong‘i uchastkalar orasidagi kontrast tezda oshadi.

Makrotasvir olishda vspishkadan foydalanmasdan ham, ko‘p hollarda nurdagi O‘zgarishi fotosurat plyonkasi kengligidan oshib ketadi. Bundan tashqari yaqin masofada vspishkani qo‘llashning yana bir muammosi bor – obyektiv vspishka “obzor”ini yopib qo‘yadi. Natijada olinayotgan obyekt yoritilish o‘rniga vspishka soyasiga o‘tib qoladi.

Tasvirga olish obyektini obyektiv bilan to‘rsib qo‘yish muammosini hal qilish uchun olib yuriluvchi vspishkalar qo‘llaniladi. Ular harakatsiz obyektlarni tasvirga olishda yaxshi ishlaydi, ammo siz vspishkani o‘rnatib ko‘ring (kameradan alohida), fotoapparatni shtativga, fleshmetr bilan yoritilishni o‘lchang va boshqa tayyorlov ishlarini chigirtka, kapalak va boshqa harakatdagi obyekt (yoki subyekt) tasvirga olib ko‘ring. Agarda nisbatan harakatsiz obyektlar – o‘simliklar, tirik bo‘lmagan obyektlarni tasvirga olinayotgan bo‘lsa, unda olib yuriluvchi vspishka yoki vspishka kadetlarini qo‘llab, a‘lo natijaga erishish mumkin, umuman yoritishni tashkil qilish oddiy studiyadagi ishdan uncha fark kilmaydi.

Hatto qurilgan vspishkaga minimal quvvat o‘rnatilsa ham, uni qo‘llash suratda ortiqcha kontrastga olib keladi. Shuning uchun makrotasvirga olishda umuman qurilgan vspishkani qo‘llamaslikni yoki nurni ko‘proq tarqatuvchi kustar uskunalarni qo‘llashni maslahat beriladi.

Ko‘pchilik fotoapparatlar uchun obyektivga o‘rnatib, tarqaluvchi soyasiz yorug‘lik beruvchi maxsus makroyoritgichlar ishlab chiqariladi.

Makroyoritgichlarni qo‘llashning yagona kamchiligi bu uning narxi. Ba‘zida soyasiz rasm makrotasvirda ajoyib, jonsiz ko‘rinadi. Bu shundan

dalolat beradiki, har bir aniq vaziyatda detallar va avtorning badiy fikrini hisobga olib yoritish masalasini hal qilish kerak.

Halqasimon vspishkalar tasvirga olish minimal masofada bo'lganda juda kuchli va qattiq yorug'lik beradi. Uni yumshatish uchun yoritgichga oq filtr qog'oz yopishtirish maslahat beriladi. Tasvirga olish obyektini jonlantirish uchun yoritgichning yarmini mahkam yopishtirish foydali, bu yengil soyalarni hosil qiladi va katta hajm beradi.

Masalaning yana bir yechimi akslantiruvchilardan foydalanishdir. Oddiy tasvirga olishdan farqli o'laroq, oddiy qo'l ostidagi vositalarni qo'llash mumkin. Bir qism oq penopoliuretan, oq gazlama, topografik xarita, tosh oyna va boshqalar.

Qog'oz varag'i (yoki bir rangli och predmet) yana bir rol o'ynaydi – avtofokusni qo'llaganda fokusirovka bilan muammolar chiqadi. Zamonaviy kameralarning hammasi ham (ayniqsa raqamli) avtofokusni o'chirish funksiyasiga ega emas. Bu kameralar, o'zini suratlashdan aqlliroq hisoblab, hohlagan joyida aniqlikka moslashadi. Keng tarqalgan vaziyat, gulga kamerani yo'naltirsa, kamera aniqlikni orqa plani bo'yicha moslashtiradi. Bu vaziyatda orqa planga qo'yilgan varroq barcha masalani hal qiladi va "aqlli" kamera obyektiv oldida gulni suratga olishga moslashadi. Bundan so'ng, aniqlik sozlagich (nastroyka) sini o'chirmay, akslashtiruvchi – varroqni olib tashlab suratga olinadi. Bunda ekspozitsiyani qo'lda o'rnatish kerak.

Yuqoridagi muommo bunday hal etiladi:

1. Kamera sozlagichida (nastroykasida) ekspozitsiya o'lchashning markazlashgan rejimi tanlanadi.

2. Kadr markazini (aynan u bilan kamera avtoo'lchash o'tkazadi) nuqtaga yo'naltiring, u suratda maksimal aniq va yorqinligi o'rtacha bo'lishi kerak.

3. Fokusni qayd qiling (ko'pchilik kameralarda spusk knopkasini yarim cho'ktirib va uni bu vaziyatda ushlab turib).

4. Fokus yo'naltirilgan obyektivdan nuqtagacha bo'lgan masofani O'zgartirmay, kamerani yurguzib, video izlagichlar ekranda kerakli surat kompozitsiyasini tanlang.

5. Bir necha marta takrorlang va keyinchalik buni avtomatik tarzda qilasiz. Bunday vaziyatda kadr bo'yicha fokusirovka nuqtasini ko'chirish qulay.

Makrotasvir olishda asosiy limitlashtiruvchi elementlardan biri aniq tasvirlanuvchi kenglik chuqurligining katastrofik siqilishi. (GRIP)

Fokusirovka relslari fokusirovkada kamerani, fokus maydonini moslashtirish o‘rniga, harakatlantirish imkonini beradi.

Qutblantirilgan yorug‘lik filtrlaridan faqat kerak bo‘lgan paytda foydalanish kerak. Chunki u ekpozitsiyani qutblantirilmagan yorug‘lik filtrisiz shu kadрни olishga nisbatan juda kattalashtirishni talab qiladi.

Yetarli yorug‘lik bo‘lmagan hollarda oddiy tasvirga tushirishda lampa-vspishkalardan foydalaniladi.

4.11. Adobe Photoshop amaliy dasturida ishlash

Adobe Photoshop “bitmapped ima GES” nuqtali grafika yaratish va tahrir qilish uchun qo‘llaniladi. Bu dasturdan fotorasmlar, illustratsiyalar, slydlar va web – sahifalar uchun tasvirlarda keng foydalaniladi. Adobe Photoshop juda keng imkoniyatlarga ega. Bu dasturdan fotograflar rasmlar ustida ishlashda keng foydalanishadi. Ranglar uyg‘unligini kuchaytirishda keng qo‘llanishadi. Bu dasturda instrumentlar paneli juda yaxshi va mukammal o‘ylab topilgan va kiritilgan. Bu ayniqsa dizaynerlarga juda qo‘l keladi va ular bu dasturdan foydalanishmoqda. Adobe Photoshop dasturi o‘zida butun ranglar spektrini jamlab olganligi bois fotorasmlarni ranglarini uyg‘unlashtirishda juda as qotadi. Xullas, bu dastur rassomlar va dizaynerlar keng qo‘llaniladigan dasturdir.

Kompyuter uchun talablar quyidagicha:

- Protessor Pentiumdan kam bo‘lmasligi kerak.
- Tezkor xotira 64 Mb kam emas, agar bir vaqtning o‘zida Adobe Photoshop va Image Raid dasturlari yuklansa.
- Minimal xotira 96 Mb kam bo‘lmasligi zarur.
- Diskdagi bo‘sh joy 125 Mb kam bo‘lmasligi kerak, chunki programmani o‘rnatish va operatsiyalar bajarish uchun.
- Videodapter 256 rangdan kam bo‘lmasligi kerak.
- Operatsion sistemasi Microsoft Windows 98|ME, Windows 2000 yoki Windows NT4.0 bulishi kerak.

Macintosh kompyuterlari uchun talablar quyidagicha:

- Protessor Powar PC.
- Tezkor xotira 64 Mb aytdan kam emas, agar bir vaqtning o‘zida Adobe Photoshop va Image Raid dasturlari yuklansa.
- Minimal xotira 96 Mb aytdan kam bo‘lmasligi zarur.
- Diskdagi bo‘sh joy 125 Mb aytdan kam bo‘lmasligi kerak, chunki programmani o‘rnatish va operatsiyalar bajarish uchun.
- Sistema Software 8.5, 8.6, yoki 9.0 versiyalari.

Dasturni oʻrnatish uchun CD – ROM disk yurituvchisi, oʻrgatuvchi fayllarni koʻrish uchun tovush xaritasi zarur. Albatta, professional ishlar uchun boshqa talablar xam qoʻyiladi. Ishlash uchun rangli skaner va printer kerak, agar Internet ga uzatish kerak boʻlsa printer shart emas. Adobe mutaxassislari OZU ni 3-4 marta katta boʻlishini talab qilib qoʻyishgan.

Instrumentlar:

➤ Oltita qoʻshimcha instrument qoʻshilgan; Toʻrtburchak, burchaklari aylana qilingan toʻrtburchak, ellips, koʻpburchak, chiziq va ixtiyoriy figura.

➤ Notes va Audio Annotation instrumentlari qoʻshilgan.

➤ Fragment va fragmentlarni belgilash boʻlimlari xam qoʻshilgan.

➤ Subkontur va toʻgʻridan toʻgʻri belgilashlar xam qoʻshilgan.

➤ Instrument Crop mukammallashtirilgan

Web-grafika.

➤ Eksport qilish uchun Save for Web (Web uchun saqlash) fragmenti optimallashtirishni qoʻllash uchun qoʻshilgan.

➤ Web (Web Photo Galerey) fotogalereya imkoniyatlar kengaytirilgan.

➤ Ekstraksiya dialog oynasi zamonaviylashtirilgan.

➤ Eksport qilishda PDF va TIFF formatlarida tasvir sloylari saklanadi.

➤ 16 bitli kanalda ishlaydigan buyruqlar majmui kengaytirilgan.

Dastur ishga tushgach quyidagi menyu boʻlimlari bilan ishlanadi:

➤ File(Fayl)-fayl ustida amallar, ochish, saqlash, yopish, koʻchirish, import va eksport qilish.

➤ Edit (tahrirlash)-qirqib olish va boshqalar.

➤ Image (tasvir) -tasvirlani rangini oʻzgartirish qirqib olingan fragmentlar ustida amallar.

➤ Lair (sloy-qavat)-belgilangan qavat ustida amallar.

➤ Filter (filtr).


➤ Wiew (koʻrish)

➤ Window (oyna)

➤ Help (yordam)


Adobe Photoshop dasturi oynasining umumiy koʻinishi

Adobe Photoshop dasturining oynasi umumiy koʻinishi quyidagicha:



Bu dastur ishga tushirilgach dasturning yuqori qismida boshqa dasturlar kabi menyu paneli bo‘lib, dasturda quyidagilar: Файл, Редактирование, Изображение, Слой, Выделение, Фильтр, Вид, Окно и Помощь bandlari joylashgan.

Fayl menyusi bo‘limlari quyidagicha:



Fayl – bu menyu bandida Новый – yangi kartinka tuzish, Открыт - Kartinalar qatorini chaqirish va tanlangan kartinani ochish, posledniy - Открыт последний – oxirgi faylni ochish, Закрывать – kartinani yoki faylni yopirish, Сохранить – хотирada saqlash.

Jildlar oynasi hujjatlar va ilovalarni izlash tanlash va yuklash uchun ishlatiladi. Jildlar oynasi Windows ning boshqa obyektleri, znachoklari va oynani boshqarish elementlarini o‘z ichiga oladi.

Ilovalar oynasi asosan hujjatlari bilan ishlashda qo‘llaniladi. Bu oynalar ilovalarga hujjat sifatida yuklatilgan axborotni va ilovalarni boshqarish elementlarini o‘z ichiga oladi.

Muloqot oynasi faqat boshqarish elementlarini o‘z ichiga olishi bilan boshqa oynalardan farq qiladi. Ular yordamida operatsion tizim va uning ilovalarini boshqarish mumkin.

Ma‘lumotlar tizimi oynasi operatsion tizim va ilovalar ishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Endi jildlar oynasining asosiy qismlarini aniqlashtirib olamiz. Buni «Korzina» (savat) oynasi misolida ko‘rib chiqamiz. Birinchi qator (aksariyat hollarda bu ko‘k rangdagi qator) oyna nomidir. Agarda shu qatordagi ilovaning rasmchasiga bosilsa, oyna joylanishini va o‘lchovlarini belgilovchi buyruqlar paydo bo‘ladi.

Birinchisi – «свернуть» (yigib olish). U ilova oynasining masalalar panelidagi to‘rtburchak tugmacha shaklida (darchadek) yigib oladi. Sichqoncha tugmachasini «darcha» ustida bir marta bosish oynaning oldingi o‘lchovi va joylashishini tiklaydi. (Bu turtburchak tugmachalar barcha minimallashtirilgan oynalar ko‘rinishi uchun uning o‘lchovini avtomatik ravishda o‘zgartiradi).

Ikkinchisi – «развернуть» (yoyish). U Ilova oynasini butun ekranga (yoki hujjat oynasini butun ilova oynasiga) yoyib tashlaydi. Shunga ahamiyat berish kerakki, masalalar paneli oyna maksimallashtirilgan holda ko‘rib turadi. Sichqoncha «Развернуть» (yoyish) piktogrammasi ustida bosilganidan keyin uning o‘rnida boshqa ikki kvadratlik piktogramma paydo buladi. Hosil bo‘lgan piktogrammaning ustida sichqoncha bosilsa, oyna oldingi holatiga qaytadi.

Uchinchisi – «закрыть» (yopish). U joriy ilovani yopadi va bajarilayotgan ishning saqlab qolinmagan natijalarini saqlaydi. (Bu operatsiya klaviaturada Alt-f4 tugmachalar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Joriy Ilovani yopish uchun ilovaning sistema menyusi tugmachasini ikki marta bosish ham mumkin.

Oynadagi keyingi qator – Menyular qatori. Unda bir nechtdan buyruqlarni o‘z ichiga olgan menyular joylashgan. Bular «Файл» (fayl), «Правка» (to‘g‘irilash), «Вид» (ko‘rinish), «Переход» (o‘tish), «Избранное» (tanlangan), «Справка» (ma‘lumot) menyularidir.

Oynaning chetlarida vertikal va gorizontal aylantirish tasmalarini ko'rish mumkin. Oynaning quyi qismida holat qatori joylashgan. Menyular qatori ostida piktogrammalar qatori mavjud. Bu qatorda ko'p ishlatiladigan buyruqlar belgilari joylashgan. Undan keyin odatda adres qatori joylashadi.

«Вид» (ko'rinish) menyusiga kirib, oynadan namoyon bo'lgan ob'ektlarning belgilarini o'zgartirish mumkin. «Крупные значки» (Yirik belgilar) buyrug'i ob'ektlarni katta piktogrammalar shaklida ko'rsatadi. «Мелкие значки» (mayda belgilar) buyrug'i ob'ektlarni mayda shaklda, «Список» (ro'yxat) – ob'ektlarni ro'yxat shaklida, «Таблица» (Jadval) – ob'ektlarni unga tegishli ma'lumotlari (Hajmi, sanasi, yaratilish vakti) bilan birgalikda ko'rsatadi.

Ish stolida joylashgan yorliklar o'lchamini o'zgartirmokchi bo'lsangiz, yana ish stolining bo'sh joyida sichqonchani o'ng to'gmasini bosasiz. Hosil bo'lgan ro'yxatdan «Свойства» (xossalar) buyrugini tanlang. Namoyon bo'lgan oynada «Параметры» (parametrlar), so'ng «Настройка» (sozlash) kismiga kiring. «Рабочий стол» (ish stoli) kismida ko'rsatkich «Меньше» (kichik) tomonga surilsa, ekrandagi yorliklar o'lchovi kattalashadi, aksincha «Больше» (katta) tomonga surilsa kichkinalashadi.

Joriy oynaning «Fon» qismiga o'tilsa, ish stolining rasmini, yani fonni o'zgartirish mumkin. Oynadagi ekran namunasining tagida ikkita ustun mavjud: birida nakshlar ro'yxati, boshkasida – rasmlar ro'yxati aks ettirilgan bo'ladi. Kerakli rasmni tanlab olib, uni ekran namunasida ko'rganingizdan so'ng, «Применить» (qo'llash) tugmachasini sichqoncha bilan bossangiz rasm o'zgaradi. Joriy oynaning «Заставка» (peshlavha) qismida Peshlavha o'zgartiriladi. Ushbu jarayon yukoridagi fonni o'zgartirgan kabi amalga oshiriladi.

O'zingiz mustaqil ishlab, har ikki qismining o'xshash tarzda ishlashiga amin bo'lasiz.

Alohida oyna ko'rinishidagi asboblar paneli

Panelni yuqori yoki pastagi holatidan alohida bir oyna holiga keltirish uchun «Sichqoncha» bilan panelni chap chegarasida joylashgan vertikal chizikchani bosangiz. Bu MS- OFFICE 97 dasturlariga tegishlidir.

Boshqa dasturlar uchun oynaga ko'chirishning boshqa yo'llari inobatga olingan bo'lishi kerak. Hatto, ofis dasturlarining oldingi variantlarida ham bittagina usul bor edi: panelni ekranning boshka bir kismiga siljitishi uchun «Sichqonchani» uning fonidan – asbob tugmalari

orasidan ilib olib xarakatlantiriladi. «Sichqoncha» tugmasini bosib turgan holda panelni dastur oynasiga olib o‘ting.

Panel oynaga aylanib qoladi. Undan sung asboblar paneli oynasi bilan ishlash kulay bo‘lishi uchun uning o‘lchamini o‘zgartirish mumkin. Buning uchun «Sichqonchani» oyna chegarasiga shunday olib keling-ki, kursor ikki taraflama ko‘rsatkich vaziyatini olsin. Shu onda «sichqoncha» tugmasini bosib turgan xolda oyna chegarasini kerakli vaziyatga keltiring.

Asboblar panelini dastur oynasining ustgi yoki ostgi chegarasi bo‘ylab joylashtirish uchun panel oynasining sarlavxasini «sichqoncha» bilan ilib oling va uni kerakli joyga siljiting. «Sichqoncha» tugmasini ko‘yib yubormay, asboblar paneli joylashtiriladigan holatni tekshirib ko‘ring (dastur siljishi bilan yangi vaziyatni aks ettiradi).

Agar siz panelni boshka mavjud asboblar panelidan yukori yoki kuyida joylashtirmokchi bo‘lsangiz, «sichqonchani» kerakli tarafga suring.

Agar asboblar paneli dastur oynasi kenligidan kiska bo‘lsa, panelni gorizontal bo‘yicha surish mumkin. Uning chap chegaradagi ikkitali uchizikchani bosing va uni o‘ng yoki chapga xarakatlantiring.

Holat satiri. U dastur holatini aks ettiradi. Amalga oshirilishi bo‘lgan operatsiyalar haqida oldindan ba‘zi ma‘lumotlarni chikarib beradi. Usha ondagi axborotni (masalan, kursorni hujjatdagi holatini), shuningdek maxsus tugmalarni (bosilgan-bosilmagan) holatini ko‘rsatib beradi.

Hujjat bo‘ylab siljish tugmalari tahrir qilinayotgan hujjat bir necha sahifadan iborat bo‘lganda ishlatiladi. Chekkadagi (vertikal chiziqchasi bor) tugmalar bosilganda, sizni birinchi yoki oxirgi sahifaga olib o‘tadi.

Tasvirni o‘tkazishning vertikal va gorizontal liftlari

Tasvir o‘lchami oynada ifodalanadigan ma‘lumot unga ekranda ajratilgan maydonga sigmagan holda avtomatik ravishda paydo bo‘ladi. Bu holat mos oynaning pastki va (yoki) ung chegarasida «lifflar» chikarilishida ifodalanadi. Ko‘p xollarda maydonning o‘lchami yoki ma‘lumot kurinishini uzgartirish evaziga liftlardan biri yoki ikkalasini yukotish mumkin.

Lifflar hujjatning kerakli kismini ekranda aks ettirish imkonini beradi. Oyna bo‘ylab bir tekisda asta o‘tkazishi uchun lift chegarasidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ularni bir marta bosilganida ekrandagi ma‘lumotlar bir satir kerakli tarafga siljiydi.

Agar ko‘rsatkichlardan biri bosilgan holda ushlab turilsa ekrandagi tasvir davomli o‘tkazilib boriladi. Lift tugmasini bosib, uni kerakli

yunalishda harakatlantirish mumkin. U holda hujjatning xohlagan uzoq nuqtasini ochib kurish mumkin.

Agar «sichqoncha» lift chegarasi ichida, tugmadan tashkarida bosilsa, ekrandagi ma'lumotlar shu xajimdagi tasvir bilan almashadi.

Ba'zan liftning ulchamini uzgartirsa xam buladi. Lift chegarasi ilib olinadi (bunda kursor ikki taraflama ko'rsatkich vaziyatini oladi) va u boshka joyga keltiriladi.

Окно	Помощь
Каскадом	
Мозаика	
Упорядочить Значки	
Закрывать Все	Shift+Ctrl+W
Скрыть Инструменты	
Скрыть Настройки	
Показать Навигатор	
Скрыть Информация	
Скрыть Цвет	
Показать Образцы	
Показать Стили	
Показать История	
Показать Действия	
Скрыть Слои	
Показать Каналы	
Показать Пути	
Показать Символ	
Показать Параграф	
Выбрать Строку Состояния	
Восстановить Позиции Палитры	
✓ 1 Без имени-1 @ 66,7% (Серый)	

Lift tugmasining o'lchamiga qarab hujjatning hajmini bilish mumkin. Tugmaning uzunligi hujjatda axborotning aks etish nisbatiga mutanosibdir. Hujjatning o'lchami qancha katta bo'lsa, uning shuncha kichik nisbiy hajmi ekranga chiqariladi va tugma ulchami ham shuncha kichik bo'ladi.

Windows da har bir dastur yoki hujjat o'z oynasiga ega. Oyna – bu foydalanuvchi ishlayotgan biror dasturga tegishli bo'lgan ekranning tasviriy ajratilgan bir qismidir. Oynaning kattaligi ham ixtiyoriy, ham belgilangan o'lchamlarda bo'lishi mumkin.

Oyna butun ekranni yoki uning bir qismini egallaydi. Ba'zan birgina ekranda bir necha dasturlar oynasi ochilganini ko'ramiz. Oynalar bir-birini beriktirib turishi mumkin, ammo qaysi bir oynaga murojat qilinsa, o'sha oldingi planga siljib oladi.


Oynaning yuqori qismi sarlavha qismi deyiladi. Sarlavha qismining chap burchagida oyna menyusining belgisi joylashgan. Har bir dastur o'zining maxsus belgisiga ega. Bu belgida «sichqoncha» bir marta bosilsa, oyna menyusi ochiladi. Oyna menyusi oyna ko'rinishini o'zgarturuvchi buyruqlarni o'z ichiga oladi.

Oyna menyusini oynaning sarlavha qismida «sichqonchaning» o'ng tugmasini bir marta bosish bilan ham ochish mumkin. Sarlavha satri ustida «sichqoncha» ikki marta bosilsa, dastur oynasi butun ekranga yoyiladi.


Oynalarning chegarasi. «Sichqoncha» bilan oyna chegarasini ili olgan holda uning o'lchamini gorizontal va vertikal bo'yicha o'zgartirish mumkin. Ammo oyna chegaralari juda ingichka bo'lgani uchun oyna o'lchamini uning pastki o'ng burchagini ilib olib o'zgartirish qulayroqdir.

Asboblar paneli. Ekranda ko'rinib turgan asboblar paneli odatda, menyuning (Vid– Paneli-instrumentov) – ko'rinish – asboblar paneli buyrug'i yordamida boshqariladi. Asboblar paneli oynaning yuqori, pastki


chegarasi bo‘ylab yoki alohida dastur oynasi ko‘rinishida aks ettirilgan bo‘ladi. Редактирование bo‘limi quyidagicha:



“Vid” menyu bo‘limlari quyidagicha:




Izobrajenie bo‘limi




Sloy menyusi

“Фильтр” menyusi quyidagicha:






Videlenie





Photoshop dasturi ishga tushganda oynaning chap qismida instrumentlar paneli joylashgan bo‘ladi. U quyidagi ko‘rinishga ega:





4.13. Obyektivning giperfokal masofasi hisob-kitoblari.

Fotografiya amaliyotida obyektivning giperfokal masofasi

Giperfokal masofa va obyektivning fokus masofasi uchun uni to'g'ri hisoblay olishni qo'llay bilish – bu o'ta murakkab instrument yoki vosita bo'lib, peyzajli manzara, arxitektura va istalgan syujetlarni tasvirga olish jarayonida maksimal tiniqlik (rezkost)ning chuqurligini ta'minlashidir. Afsuski, ko'pchilik giperfokal masofaning nima ekanligini yaxshi bilmaydi va u haqidagi bilimlarni amaliyotda qo'llamaydi. Mana shu kamchilikni amalda qo'llashni urinib ko'ramiz.

Tiniqlik chuqurligi va tasvirga olish jarayonida uning hisob-kitoblari va foydalanish to'g'risidagi asosiy masalalarni batafsil ko'rib chiqildi. Fotoapparat kadrda bosh obyektga tiniqlik hosil bo'lishi uchun aynan fokusi bo'yicha sozlashladi. Tiniqlik zonasiga qolgan predmetlar tushishi yoki tushmasligi mumkin. Bularning barchasi fotografning syujeti va maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

Giperfokal masofa nima?




Agar kadrda barcha detallar bir maromda muhim ahamiyatga ega tiniqlik ta'minlangan bo'lishi zarur bo'lsa, masalan, peyzajli fotografiyada, bu holda qanday chora ko'rilishi kerak? Agar, fotoapparat ob'ektivining cheksizlik o'lchoviga sozlashtirilsa, unda biz ushbu masalani yechgan bo'lardik. Predmetlar cheksizlik masofasidan tiniqlik chegarasi oldigacha bo'lgan diapazoni doirasida bo'lsa, L_{oldi} etarli tiniqlikka ega bo'ladi, lekin ayrim predmetlar tiniqlik zonasiga tushmasligi ham mumkin.

Diafragmani kamaytirish yoki qisqa fokusli obyektivni moslashtirish yordamida ham xuddi shunday tiniqlik chuqurligini oshirtirishga erishish mumkin va olingan kadrda barcha hududida bir xil

tiniqlikni taʼminlash mumkin. Lekin shunda ham yuqori natijaga doimo erishib boʻlmasligi mumkin.

Shu yerda giperfokal masofa tushunchasi oʻta muhim ahamiyat kasb etadi. Obyektivni cheksizlik oʻlchoviga sozlamasdan turib, tiniqlik chuqurligining old chegarasidagi tegishli cheksizli (cheksizlikning old yaqinlik nuqtasi yoki giperfokal nuqtasi boʻyicha) fokusni sozlashtirilsa, fotoapparatning yoʻnaltirilgan obʼektni tasvirga olishdagi qoʻshimcha tiniqlikni taʼminlay olishimiz mumkin.

Yaʼni, har qanday sharoitda ham giperfokal masofada qoʻshimcha tiniqlik zonasi hosil boʻlishi quyidagi rasmda koʻrish mumkin:



Sozlash yuzasigacha boʻlgan masofa va unda tiniqlik chegarasi ort qismi cheksizlikka qarab intilib borishi giperfokal masofa deb ataladi. Bu yerda shuni yaxshilab tushunib olish zarurki, tiniqlik chuqurligi holatidagi giperfokal masofa tiniqlik mezonini va aylana tarqoqligi (bu haqida batafsil fotografiyada tiniqlik toʻgʻrisidagi materiallar bilan tanishish lozim) bilan bogʻliqdir. Sozlash yuzasida joylashgan predmetlarga ideal tiniqlikka ega boʻla oladi. Fotoapparat uchun aylana tarqoqligining diametrini aniq hisoblab chiqarish mumkin. Koʻpgina adabiyotlarda tez-tez uchraydigan 0,02 mm yoki zerkal fotoapparatlarda krop faktor 1,5 mm boʻlgan qiymatni asos sifatida foydalanamiz.

Giperfokal masofani hisoblab chiqarish

Amaliyotda giperfokal masofani foydalanish uchun, uni hisoblab chiqarishni oʻrganib olish lozim. Shu kabi holatlarda, giperfokal masofani

hisoblash uchun oddiy aniq formula yordamida, yoki maxsus ishlab chiqilgan jadvallardagi qiymatlar orqali, shuningdek mobil ilovalarda tayyor ishlab chiqilgan ayrim dasturiy vositalar yordamida aniqlab olishimiz mumkin. Diametri 0,02 mm bo'lgan aylana tarqoqligini va unga ishlab chiqilgan jadval asosida formula yordamida hisoblab chiqarish uchun misollarni ko'ramiz:

Giperfokal masofasi L_{gip} ni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$L_{rnn} = \frac{f^2}{KZ} \quad [1]$$

Tiniqlik chuqurligining old L_{oldi} va orti L_{orqa} aniqlash uchun quyidagi mutanosiblikdan iborat:

$$L_{oldi} = 1/2 \times L_{gip}; L_{orqa} = \infty \quad (2)$$

Bunda, f – obyektivning fokus masofasi; K – diafragma qiymati; Z – aylana tarqoqligi diametri.

Birinci formula orqali fotoapparat obyektivining fokus masofasi ortishi bilan giperfokal masofa uzoqlashish xususiyatiga ega ekanligini ko'rish mumkin, yoki aksincha, fokus masofasining kamaytirilishi hisobiga giperfokal masofaning yaqinlashib borishini tushunish lozim.

Ayrim, narxi arzon bo'lgan fotoapparatlardagi qisqafokusli obyektivlar doimo giperfokal masofagazoslanadi va ularda sodda fokusga sozlash tizimi ham mavjud emas. Mazkur fotoapparatlar yordamida bir qancha metrdan keyin uzoqlikda turgan har qanday tasvirlar bir xil tiniqlikka ega bo'ladi.

Mazkur birinci formula yordamida peyzajli manzarani tasvirga olish jarayonida keng burchakli qisqa fokusli obyektivlardan va 8–11 o'lchovida diafragmadan foydalanish lozim. Ushbu obyektivlarda giperfokal masofani sozlash yordamida fotoapparatning tiniqlik zonasi uzunligini cheksizlikgacha bo'lgan maksimal imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

Ikkinchi formula orqali giperfokal masofani sozlashning amaliy qo'llanilishini ifodalashda sodda qoida kelib chiqadi: fotografiyaning oldi va orqa qism planlari bir xil tiniqlikka ega bo'lishi uchun fotoapparatdan predmetga qadar bo'lgan masofani ikki karra ortirish hisobiga predmet fokusini sozlash lozim.

Quyida aylana tarqoqligi 0,02 mm yoki zerkal fotoapparatlarda krop faktor 1,5 mm bo'lgan obyektivlardan giperfokal masofaning hisoblab chiqarilgan jadvalini amaliyotda fotoapparatdan tasvirga olishda foydalanish mumkin:

Фокусное расстояние в объектива (f), мм	Диафрагма (K)												
	1	1,2	1,4	2	2,8	3,5	4	5,6	8	11	16	22	32
12	7,2	6,0	5,1	3,6	2,6	2,1	1,8	1,3	0,9	0,7	0,5	0,3	0,2
15	11,3	9,4	8,0	5,6	4,0	3,2	2,8	2,0	1,4	1,0	0,7	0,5	0,4
18	16,2	13,5	11,6	8,1	5,8	4,6	4,1	2,9	2,0	1,5	1,0	0,7	0,5
20	20,0	16,7	14,3	10,0	7,1	5,7	5,0	3,6	2,5	1,8	1,3	0,9	0,6
24	28,8	24,0	20,6	14,4	10,3	8,2	7,2	5,1	3,6	2,6	1,8	1,3	0,9
28	39,2	32,7	28,0	19,6	14,0	11,2	9,8	7,0	4,9	3,6	2,5	1,8	1,2
35	61,3	51,0	43,8	30,6	21,9	17,5	15,3	10,9	7,7	5,6	3,8	2,8	1,9
43	92,5	77,0	66,0	46,2	33,0	26,4	23,1	16,5	11,6	8,4	5,8	4,2	2,9
50	125,0	104,2	89,3	62,5	44,6	35,7	31,5	22,3	15,6	11,4	7,8	5,7	3,9
70	245,0	204,2	175,0	122,5	87,5	70,0	61,3	43,8	30,6	22,3	15,3	11,1	7,7
80	320,0	266,7	228,6	160,0	114,3	91,4	80,0	57,1	40,0	29,1	20,0	14,5	10,0
85	361,3	301,0	258,0	180,6	129,0	103,2	90,5	64,5	45,2	32,8	22,6	16,4	11,3
100	500,0	416,7	357,1	250,0	178,6	142,9	125,0	89,3	62,5	45,5	31,3	22,7	15,6
105	551,3	459,4	393,8	275,6	196,9	157,5	137,8	98,4	68,9	50,1	34,5	25,1	17,2
135	911,3	759,4	650,9	455,6	325,4	260,4	227,8	162,7	113,9	82,8	57,0	41,4	28,5
200	2000,0	1666,7	1428,6	1000,0	714,3	571,4	500,0	357,1	250,0	181,8	125,0	90,9	62,5
300	4500,0	3750,0	3214,3	2250,0	1607,1	1285,7	1125,0	803,6	562,5	409,1	281,3	204,5	140,6
400	8000,0	6666,7	5714,3	4000,0	2857,1	2285,7	2000,0	1428,6	1000,0	727,3	500,0	363,6	250,0

Qizil chiziqchalar yordamida $f = 50$ mm obyektivlari uchun tanlangan ($f/16$) diafragmaning ikki marta ortirilgan masofa uchun predmetning yaqin masofasi 7,8 m.ni tashkil qiladi. Birinchi formulaga tegishli qiymatlarni kiritib, konkret fotoapparat va obyektiv uchun xuddi shu kabi jadvalni yaratib olish mumkin. Ushbu jadval yordamida peyzaj va manazaralarni suratga olish uchun foydalanish mumkin.

Ushbu materialda giperfokal masofan, uni hisoblab chiqish usullari va amaliyotda foydalanish tartibi ko'riladi.

4.14. Fotografik obyektivlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini sinovdan o'tkazish xususiyatlari

Fotografik optik vositalarining parametrlarini o'lchash yoki xususiyatlarini baholash sifatida o'tkaza olish qolibiliyati o'lchov birligi mavjud. "O'tkaza olish qobiliyati" yoki "o'tkazuvchanlik qobiliyati" tushunchasi rus tilida "разрешающая способность" va ingliz tilida "resolution" atamali bilan qo'llanilib, fotografik obyektivning kichik o'lchovdagi ob'ekt tasvirini tiniq shakllantira olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi.

Fototasvirga mo'ljallanganistalgan obyektivlar to'plamini sinash uchun millimetrl polosalardan iborat bo'lgan ketma-ket oq-qora chiziqlar orqali o'lchanadi. Umumiy holatda polosalarning chastotalarini oshirish hisobiga polosalarning ajarata olinishi xususiyati osha borib, tasvirning kontrast ikamayadi. Kontrast yo'q olayotgan tasvirdagi polosalarning chastotalarini baholash orqali obyektivning o'tkazuvchanlik qobiliyatini tavsiflash mumkin.

Chizikli polosalarning sonini oshirish va chastota-kontrast xarakteristikasi orqali chastotalarning eng yuqoriqiy mato'lchovini sinash fotograflar uchun ham o'tamurakkab mehnat talab etiladiganish bo'lib,


muntazam ravishda fotograflarning o'zi uchun ham ehtiyoj bo'lmaydi. Turli obyektivlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini solishtirish uchun tasvirlarni sifatli sinov o'tkazish bilan kifoyalanadi.


Sifatli baholash uchun radial aylanalik o'rinishdagi obyekt orqali sinash qulay hisoblanadi.

Sinash uchun olingan tasvirlar radial aylananing razmeri bir xil va solishtirish uchun olinadigan barcha tasvirlar ham bir xil o'lchovda olinishi kerak.


Radial aylanalarning bir qancha misollarda qo'llanganligi haqidagi rasmlarni quyida keltiri bo'tamiz:

1. Can on EF 24-70/1:2,8 L rus umidagi ob'ektivi. Fokus masofasi 70 mm, diafragmaning o'lchovi 1:2,8dan 1:22ga qadar o'zgartirildi.






1:22




f=24 mm.

Diafragma 1:8 qiymatga keltirilganda eng yuqori sifatli o'tkazuvchanlikka muvofiq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Diafragmaning teshik qiymatini kengaytirilgan sari obyektivning sferik aberatsiyyasi hisobiga kichik detallar aralashib ketayotganini ko'rishimiz mumkin. Teshikning mutanosib ravishda qo'shimcha kichraytirila borish sari, o'tkazuvchanlik qobiliyatining keskin pasayib borilishi ko'rinadi. Bu holatlarning asosiy sababi, obyektivning fizik xususiyatidan kelib chiqib, aytiladigan bo'lsak, tasvirning chalpoqlanishi yorug'likning difraksiyalanishi oqibatida sodir bo'layotganini dalolat beradi.

2. Canon EF 24-70/1:2,8 L rus umdagi ob'ektivi. Diafragma 1:5,6 qiymat bo'yicha fokusga moslashtirilgan, fokus masofasi O'zgartiriladi.



f=50mm.




f=70


mm.

O'rta diapazondagi (50 mm) fokus masofasining o'tkazuvchanlik qobiliyati uzun va qisqa masofalargan isbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin

4. Endi uch xildagi turli obyektivlarda bir xil fokus masofasi (70 mm) va bir xil diafragma teshigi (1:5,6) qiymatida solishtirsak.



Sigma 28-135 / 1:3.8-5.6



Canon EF 24-70 / 1:2.8 L


Optik tizimning ajratib beruvchi qobilyati deb tizimning buyumlar fazosida (makonida) joylashganikki nuqta yoki chiziqni aloxida tayorlash qobilyatiga aytiladi. Ajratish qobilyatining o'lchovi bo'lib optik tizim tomonidan aloxida quriladigan ikki nuqta (chiziq) orasidagi eng kichik chizikli burchak masofaga xizmat qiladi. Haqiqiy optik tizimlarda odatda qoldiq operatsiyalar mavjud bo'lib, ular yoruglik energiyasini difraksion manzarada qayta taksimlanishni yuzaga keltiradi, obyektivning ichki nuqsonlari esa optik tasvir ustiga tushuvchi zararli yoyilgan yoruglikning paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa tasvirning ajratilish qobilyatini va aniqligini pasaytiradi (kamaytiradi). Agar optik tizimning ajratuvchi qobilyati faqat gardishning chetlarida yoruglik difraksiyasi bilangina cheklangan bo'lsa, u xolda bunday optik tizimni mukammal deb xisoblash qabul qilingan.

Qo'yilgan vazifalarni xal qilish uchun olingan suratlar (tasvirlar)ning haqiqiy ajratish qobilyatini bilish muximdir. Su'ratlarning ajratilish qobilyati (aniqligi) obyektivning ajratish qobilyati va yoruglikka sezgir matritsaning ajratish qobilyatining ... iborat.

Obyektning ajratish qobilyati bu obyektivning ikkita yaqin joylashgan nuqtalarini alohida tasvirlarining yaratish qobilyatidir. U ikki nuqta orasidagi eng kichik masofaga ko'ra baholanib, bunda ularning ko'rinadigan tasvirlari xali qo'shilib ketmagan bo'lishi kerak.

Matritsalarining (ajratish qobilyati) fotosensorning asosiy elementining ularning turiga fotosezgir elemenlarining sirt birligidagi yuziga va zichligiga bog'lik bo'ladi. U matritsalarining yoruglikning sezuvchanligiga va fotodatchikning uni tayyorlashning aniq texnologiyasi va minimal shovqin darajasi ta'minlashga bog'lik xoldagi qobilyatiga bog'liq.

